

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT  
UNIVERSITETI

A.X.SHOALIMOV  
SH.A.TOJIBOYEVA

## **MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oily o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan oily o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari ushun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

Shoalimov A.X., Tojiboeva Sh.A., «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». O'quv qo'llanma. 2011. 305 bet.

Ushbu o'quv qo'llanmada iqtisodiy tahlilning nazariy asoslari, predmeti, vazifalari, mazmuni, metodi, maxsus usullari, iqtisodiy matematik usullari, axborot manba'lari, tashkillashtirish, turlari, kompleks tizimi, unda korxonalarining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish usulari keltirilgan. Shuningdek, xo'jalik sub'ektlarining amaliy ma'lumotlari asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llarini ko'rsatib berish usullarining tahlili ko'rsatilgan.

O'quv qo'llanma oily o'quv yurtlarida «Buxgalteriya hisobi va audit», «Moliya», «Iqtisodiyot», «Bank ishi» va boshqa yo'nalishlar bo'yicha ta'lim olayotganlarga, shuningdek o'rta maxsus o'quv yurti talaba va o'qituvchilariga mo'ljallangan.

### **Taqrizchilar:**

#### **A.K.Ibragimov**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya  
akademiyasi

“Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit” kafedrasи  
mudiri, iqtisod fanlari doktori , fprofessor;

#### **O.T.Eshboyev**

TDIU «Buxgalteriya hisobi va audit» fakulteti  
dekani, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

Шоалимов А.Х., Таджибаева Ш.А. «Финансовый и управлеченческий анализ». Учебное пособие. 2011. 305 с.

В учебном пособии освещаются теоретические основы, предмет, задачи, содержание, метод, источники информации, организация, виды и комплексная система экономического анализа, методики анализа основных показателей, характеризующих производственную и финансовую деятельность предприятий. Также в нем показаны методы анализа на основе практических данных хозяйствующих субъектов путем повышения эффективности производства и обеспечения финансовой устойчивости.

Учебное пособие предназначено для студентов высших учебных заведений по направлениям «Бухгалтерский учет и аудит», «Финансы», «Экономика», «Банковское дело» а также для студентов и преподавателей средних специальных учебных заведений.

### **Рецензенты:**

#### **А.К.Ибрагимов**

Заведующий кафедры «Бухгалтерский учет, анализ и аудит» Банковско-финансовой академии Республики Узбекистан, доктор экономических наук, профессор;

#### **У.Т.Эшбоев**

Декан факультета «Бухгалтерский учет и аудит» Ташкентского государственного экономического университета, кандидат экономических наук, доцент.

Shoalimov A.X., Tojiboeva Sh.A., «Financial and the administrative analysis». Text book. 2010. **305 p.**

In this text book covers the theoretical principles, subject, tasks, content, method, special tools, economic-mathematical methods, the sources of information, organization, types and complex system of the economic analysis. There are special methodical ways of the economic information of accounting and joint stock societies accounts, firms, the companies stated in the manual in detail.

The text book is intended for students of higher educational for such specialties as «Accounting and auditing», «Finance», «Economics», «Banking» as well as for students and teachers of secondary special institutions.

### **Opponents:**

#### **A.K.Ibragimov**

Prof. Head, Department of «Accounting, analysis and auditing», Banking-finance academy of Republic Uzbekistan, PhD;

#### **U.T.Eshboyev**

Dr.Dean, Faculty of «Accounting and auditing», TSUE, PhD.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish bosqichidagi eng dolzarb masalalardan biri - rejali iqtisodiyot sharoitida shakllangan iqtisodiy tahlil usullarini mazmun jihatdan yangilash hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotimizdagi barcha jarayonlarni chuqur tahlil qilishni taqozo qiladi. Bular jumlasiga boshqaruv va moliyaviy tahlili ham kiradi. Jahon tajribasiga ko'ra xo'jalik faoliyatining iqtisodiy tahlili ikki turga bo'lingan. Birinchisi boshqaruv tahlili, ikkinchisi esa, moliyaviy tahlildir.

Boshqaruv va moliyaviy tahlili korxonalarning xo'jalik faoliyatini nazorat va rahbarlik qilishda, tijorat hisobini mustahkamlashda, korxonalar o'z-o'zini to'la mablag' bilan ta'minlash asosida eng zamonaviy xo'jalik mexanizmini vujudga keltirishda, iqtisodiy tejamni o'tkazishda, texnika taraqqiyotini yanada jadallashtirishda, ilg'or xorijiy tajribalarni tarqatishda, ish faoliyatida mavjud bo'lgan kamchiliklarga barham berishda va ichki xo'jalik rezervlarini aniqlashda o'ta muhim dastak sifatida qo'llaniladi. Shu sababli korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilish usullarini chuqur va har tomonlama yaxshi bilish nafaqat iqtisodiy oliy o'quv yurtlari talabalari, xo'jalik xodimlari uchungina emas, balki barcha ijtimoiy tashkilotlarning xodimlari uchun ham zarurdir.

Mazkur ishda boshqaruv va moliyaviy tahlilining nazariy assoslari atroflicha yoritilgan. Xususan, bozorli iqtisodiyotda boshqaruv va moliyaviy tahlilining tutgan roli, o'rni va vazifalari, predmeti, uslubiyati, usullari, uni tashkil qilish va o'tkazish tartibi va boshqa jihatlari bugungi talabga mos ravishda bayon etilgan.

O'quv qo'llanmada sanoat mahsulotini ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha biznes-rejaning bajarilishini tahlil qilish mavzusiga oid masalalarni ko'rib chiqishga ko'p o'rin berilgan. Bulardan tashqari mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi ishlab chiqarish resurslarini tahlil qilish usullari hamda korxona moliyaviy natijalari va rentabellik ko'rsatkichlarini tahlili, korxonalarini moliyaviy holatini tahlil qilish uslublari atroflicha ëoitilgan.

Uni tayyorlashda hukumatimizning sanoat korxonalari ishiga doir qarorlari, ko'rsatmalari, yo'riqnomalari, nizomlaridan hamda ushbu fan sohasida xorijiy muallifflarning yangi darsliklaridan keng foydalanilgan. O'quv qo'llanma asosan "Buxgalteriya hisobi va audit" ixtisosligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan. Undan "Soliq va

soliqqa tortish”, «Bank ishi» va boshqa ixtisoslik bo'yicha saboq olayotgan talabalar ham keng ravishda foydalanishlari mumkin.

Bundan tashqari kadrlarning iqtisodiy tayyorgarligini tubdan yaxshilash va ularni qayta tayyorlash kabi muhim va dolzarb masalani hal qilishda ushbu ish yaqindan yordam beradi.

**Fan bo'yicha o'quv adabiyotlarning qiyosiy tahlili.** «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» o'quv qo'llanmasini tayyorlash jarayonida ushbu fan bo'yicha chop etilgan adabiyotlarni o'rganib chiqdik.

Mazkur fan bo'yicha asosiy adabiyot sifatida respublikamizning iqtisodchi olimlari A.V.Vahabov va A.T.Ibrohimovlar tomonidan 2005 yili chop etilgan «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» darsligini e'tirof etish mumkin. Mazkur dasrlik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan bo'lib, 17 ta bobdan iboratdir. U qayta ishlangan ikkinchi nashrdir. Lekin, 2002 yilda chop etilgan «Moliyaviy tahlil» darsligi 8 ta bobdan iborat bo'lib, ushbu darslikda fanning faqat moliyaviy tahlil qismi yoritilgan. 2005 yilda chop etilgan «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» darsligida xo'jalik yurituvchi sub'yektarlarning moliyaviy faoliyatini tahlil qilishning metodik asoslari, korxonalarni boshqarishda boshqaruv tahlili ma'lumotlariga ko'proq tayangan holda faoliyat yuritish maqsadga muvofiq bo'lishligi hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash yo'llarini ko'rsatib berishning uslubiyati ko'rsatib berilgan.

«Iqtisodiy va moliyaviy tahlil» darsligi ham O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. Mazkur darslikning muallifi E.E.Ergeshev hisoblanadi. Mazkur darslik 2005 yili «Konsauditinform» nashriyoti tomonidan 1000 nusxada chop etilgan bo'lib, to'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr hisoblanadi.

Mamlakatimizning etuk iqtisodchi olimlari M.Q.Pardaev va B.I.Isroilovlarning «Iqtisodiy tahlil» o'quv qo'llanmalari 2004 yilda chop etilgan bo'lib, 18 bobdan iboratdir. Ushbu o'quv qo'llanmada korxonada iqtisodiy tahlilni tashkillashtirish, unda qo'llaniladigan usullar, korxona iqtisodiy va moliyaviy salohiyati, mehnat salohiyati, asosiy va aylanma mablag'lar, nomoddiy aktivlar, pul mablag'lari oqimi, ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar hajmi, iqtisodiy va moliyaviy mustahkamlik, moliyaviy barqarorlik, tovar-moddiy zahiralar kabi muhim iqtisodiy

kategoriyalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish usullari ohib berilgan.

Mualliflar tomonidan mazkur o'quv qo'llanma Oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» fani dasturiga asoslanib yaratilgan. Mavzularni mustaqil tarzda o`rganish uchun har bir mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati beriladi.

Mazkur o'quv qo'llanmadan oliv o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishi talabalari va magistrleri, aspirantlar, o'qituvchilar hamda buxgalter-auditorlar, iqtisodchilar ham foydalanishlari mumkin.

# **I BOB. MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILINING PREDMETI, VAZIFALARI VA TAMOYILLARI**

- 1.1. Iqtisodiy tahlil – dialektikaning muhim xususiyati
- 1.2. Moliyaviy va boshqaruv tahlili- boshqaruv tizimining maxsus funksiyasi
- 1.3. Moliyaviy va boshqaruv tahlilning predmeti va vazifalari
- 1.4. Moliyaviy va boshqaruv tahlilning mazmuni
- 1.5. Moliyaviy va boshqaruv tahlilning asosiy tamoyillari (prinsiplari)
- 1.6. Iqtisodiy tahlilning rezervlarni aniqlashdagi ahamiyati

## **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar**

Bilish nazariyasi, ob'ektiv dunyo, voqelikning in'ikosi, jonli mushohada; abstrakt tafakkur; tajriba; iqtisodiy jarayon va hodisalar; analiz; sintez; deduksiya, induksiya; biznes-rejani realligi; joriy va istiqbol rejalar; ob'ektiv baho, bog'liq va bog'liq bo'lмагan omillar; ichki xo'jalik rezervlari, xalq xo'jaligi rezervi, tarmoq rezervi, regional rezerv, komplekt rezerv.

### **1.1. Iqtisodiy tahlil – dialektikaning muhim xususiyati**

Mamlakatimizda makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa iqtisodiyot tarmoqlarini iqtisodiy va moliyaviy faoliyatini har tomonlama chuqr tahlil qilish asosida ichki xo'jalik imkoniyatlaridan unumliroq foydalanishni, ilg'or tajribalarni joriy etish hamda sifat ko'rsatkichlarni muttasil yaxshilab borishni taqozo etadi.

Iqtisodiy tahlil materialistik dialektikani o'rganishning muhim vositasi hisoblanadi.


Ma'lumki, bilish nazariyasiga ko'ra ob'yektiv (mavjud) dunyonи bilish mumkin. Bu degani – bilish jarayoni dialektik xususiyatga ega bo'lib, u voqelikning in'ikosidir. Bilish nazariyasining mantiqiyligi dialektik tarzda quyidagi formulada aks etadi, ya'ni: jonli mushohada, abstrakt tafakkur, amaliyat. Bunda jonli mushohada bilishning birinchi bosqichsi bo'lib, u o'rganiladigan hodisalarning tashqi xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Abstrakt tafakkur bosqichida esa, hodisalarning ichki mohiyati aniqlanib, ularning rivojlanish qonuniyatları o'rganiladi. Lekin haqiqatni bilishning mezoni – amaliyotdir. Shu kabi iqtisodiy hodisa va jarayonlarni bilish ham uch bosqichli bilish nazariyasiga asoslanadi.

Bunda jonli mushohada bosqichida xo'jalik yuritishni bevosita iqtisodiy axborotlar tizimi orqali idrok qilinadi. Bu o'rinda iqtisodiy axborotlar tizimiga shunday talablar qo'yiladiki, bular bilish nazariyasining ikkinchi bosqichi – abstrakt tafakkurga ko'p jihatdan bog'liq. Aynan u dominant (asosiy) rolni o'ynaydi.

Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda na mikroskop, na kimyoviy reaktivlardan foydalanish aslo mumkin emas, uni ham,buni ham tafakkur kuchi bajaradi.

Iqtisodiy hodisalarini o'rganish jarayonida dialektik bilish usuli - analiz va sintez, deduksiya va induksiya usullaridan foydalaniladi (1.1-rasm).

### **Iqtisodiy xodisalarini o'rganishda qo'llaniladigan dialektik bilish usullari**



#### **1.1-rasm. Dilektik bilish usullari**

## **1.2. Moliyaviy va boshqaruv tahlili- boshqaruv tizimining maxsus funksiyasi**

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyotini yana ham jadallashtirish, ishlab chiqarish salohiyatidan (imkoniyatlaridan) oqilona foydalanish, resurslarning hamma turlarini har tomonlama tejash va ishlab chiqarishni boshqarishni bozor iqtisodiyoti qonunlariga mos ravishda olib borish mamlakatimiz iqtisodiy strategiyasining eng muhim tarkibiy qismidir.

Bu muhim vazifalarni bajarish uchun korxonalarning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini chuqur tahlil qilish darkor.

Iqtisodiy tahlil korxonalarni boshqarish tizimida oraliq bosqichni egallaydi. Bu jarayonni ushbu formula orqali ifoda etish mumkin:

I → A → Q → T → I<sub>1</sub> → A<sub>1</sub> → Q<sub>1</sub> → T<sub>1</sub>, ....

Bu yerda:

I - informatsiya (axborot) bo'lib, uni buxgalteriya hisobi va hisobot, operativ (tezkor) hisob va hisobot, statistik hisob va hisobot, biznes-reja hamda hisobdan tashqari ma'lumotlar;

A - tahliliy bosqich;

Q - tahlil natijalari asosida qarorlar qabul qilish;

T - qarorlarni ishlab chiqish kanallarida tadbiq etish;

I<sub>1</sub> - bajarilmagan qarorlar;

A<sub>1</sub> - qayta tahlil qilish.

Binobarin, ishlab chiqarishni boshqarish jarayonida uch bosqichni ko'rsatish mumkin:

1.Axborotlarni to'plash, qayta ishslash va tayyorlash.

2.Ob'yektning holatini iqtisodiy tahlil qilish va tahlil natijalari asosida takliflar kiritish.

3.Boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Qabul qilingan qarorlarning samarasi va sifati tahlilni o'z vaqtida hamda tezkor tarzda o'tkazilganligiga ko'p jihatdan bog'liq. Bu yerda asosiy vazifa aynan shu uch bosqichni bir-biri bilan uzviy ravishda bog'lash hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilning ikki xil yo'nalishini ko'rsatish mumkin:

1.Korxonalar, assosiasiyalar va konsernlarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilish.

2.Xalq xo'jaligini tahlil qilish. Bunda iqtisodiy tumanlar, viloyatlar va butun respublika xalq xo'jaligini tahlil qilish tushuniladi.

Shuni aytish kerakki, xalq xo'jaligini tahlil qilish iqtisodiy fanlar majmuasida mustaqil o'rin olmagan bo'lib, iqtisodiy nazariya va tarmoqlar makroiqtisodiy kurslarida o'rganiladi. Holbuki, korxonalar ni iqtisodiy tahlil qilish fani iqtisodiy fanlar qatorida o'ziga xos mustaqil o'rin olgan. Bozor iqtisodiyotini qurish ko'p jihatdan ishlab chiqarishni boshqarishni muttasil takomillashtirish, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, ichki xo'jalik rejasini tuzish va uni takomillashtirishni, korxonalar va xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida bir butun iqtisodiy siyosat olib borishni taqozo qiladi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori materiallarida aynan, shu muhim masalalar ni izchillik bilan amalga oshirish ko'p bor ta'kidlanadi.

Binobarin, bu qarorlarni bajarish o'z navbatida xo'jalikni boshqaruvchi idoralarni yana ham ishlab chiqarishga yaqinlashtirishni, iqtisodiy bo'linmalar o'rtasidagi huquq va majburiyatlar ni yana ham aniq chegaralashni, boshqaruv apparati ishining tezkorligini va ixchamligini oshirishni taqozo qiladi. Demak, hisob va iqtisodiy tahlil xo'jalikni boshqarishda asosiy vosita bo'lishi kerak. Binobarin, mahsulot ishlab chiqarish jarayoni va natijalari o'z aksini kundalik hisob va hisobotda o'z aksini topadi. Bu o'rinda korxonalar ning ish faoliyati to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari xo'jalikni boshqarishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi, istiqbolstat idoralarda xalq xo'jaligi istiqbol rejalarini tuzish uchun va korxonalar ning xo'jalik va moliyaviy faoliyatini tahlil qilish uchun har tomonlama asoslangan va aniq ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Demak, iqtisodiy tahlil korxonalar faoliyatini nazorat qilishda, xo'jalik hisobini mustahkamlashda, iqtisodiy tejamni o'tkazishda, texnika taraqqiyotini jadallashtirishda, ilg'or tajribalarni tarqatishda, ish faoliyatida mavjud bo'lgan kamchiliklarga barham berishda va ichki xo'jalik rezervlarini aniqlashda muhim vosita sifatida qo'llaniladi.

### **1.3. Moliyaviy va boshqaruv tahlilning predmeti va vazifalari**

Fanning predmeti, deganda shu fanda nima o'rgatilishi tushuniladi. har qanday mustaqil fan o'zining predmetiga ega. Iqtisodiy tahlil fanining predmetiga keng ma'noda qaraydigan bo'lsak, u iqtisodiy fan sifatida tahlil qilinayotgan ob'ekt (korxona, birlashma, kompaniya, aktsiyadorlik jamiyati, kontsern, korporatsiya kabilar) xo'jalik faoliyatining barcha sohalarini (iqtisodiy, ijtimoiy, texnik, texnologii va h.k.) o'z ichiga oladi. Lekin har bir iqtisodiy fan o'ziga xos xususiyatga, o'zi o'rganadigan predmetga ega. Bu faqat shu fanga xos bo'lib, imkonli boricha boshqa

fanlarda takrorlanmasligi lozim. Bu talab shu fanning mustaqil fan sifatida faoliyat ko`rsatishi uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

Xo`jalik faoliyati tahlili (kelgusi matnlarda faqat iqtisodiy tahlil yoki tahlil ham deb yuritiladi) fanning predmeti tom ma'noda tahlil qilinayotgan ob'ektning xo`jalik faoliyatidir. Ammo buxgalteriya hisobi, statistika, moliya va kredit, audit, marketing, menejment kabi fanlarning ham predmeti keng ma'noda xo`jalik faoliyatidir. Bu fanlar ham xo`jalik faoliyatida sodir bo`layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning u yoki bu jihatini o`rgatadi. Demak, har bir fanning, shu jumladan xo`jalik faoliyati tahlili fanining o`ziga xos va mos jihatini, unga tegishli predmetni aniqlab olishi lozim.

Tahlil fani xo`jalik faoliyatida sodir bo`layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o`z ichiga oladi. Ammo bu jarayonlarning sodir bo`lish paytini emas, balki uning natijasini o`rganadi. Ob`yektida sodir bo`ladigan iqtisodny jarayonlar uning biznes rejasida ko`zda tutilgai ma'lumotga asoslansa, jarayonning sodir bo`lishini qonuniy jihatdan xujjatlashtirish bilan buxgalteriya hisobi, statistika kabi fanlar shug`ullanadi. Shu jarayonlarning natijasi ma'lum davrlarda (oy, chorak, yil) jamlanib boriladi va turli hisobotlarda o`z aksini topadi. Tahlil esa aynan ana shu tuzilgan hisobotlarga, jamlangan xujjatlarga asoslanadi.

Shunday qilib, iqtisodiy tahlil fanining predmeti, xo`jalik faoliyatida ob`yektiv (tashqi) va sub`yektiv (ichki) omillar ta'sirida sodir bo`lgan, bo`layotgan va bo`ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ma'lumotlar manbaida ifodalangan ko`rsatkichlar tizimi (sistemasi) orhali uning holatiga baho berish va yaxshilash yo'llarini ishlab chiqishni o`rganishdan iboratdir.

Tahlilnnng predmetida ob`yektiv (tashqi) va sub`yektiv (ichki) omillar alohida o`rin tutadi, chunki iqtisodiy jarayonlar o`z-o`zidan sodir bo`lmaydn. Ular ma'lum ichki va tashqi omillar ta'siri ostida ro`y beradi. Shu omillar ta'sirini boshqa fanlar o`rgatmaydi. Bu faqat tahlil fanida o`rganiladi va uning predmetining asosini tashkil qiladi. Shuningdek, xo`jalik faoliyati natijasiga to`g`ri baho bermasdan, unga ta'sir qilgan ijobiy va salbiy omillarni o`rganmasdan turib ko`zda tutilgan maqsadga erishib bo`lmaydi. Shu tufayli tahlil fani predmetining markazida ob`yektiv va sub`yektiv omillarni o`rganish lo-zimligi qayd qilinishi beziz emas.

Tahlilning predmetini o`rganishda faqat sodir bo`layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan cheklanib qolish mutlaqo etarli bo`lmas edi. Tahlildan maqsad mavjud natijaga odilona baho berish bilan bir-galikda

yo`l qo`yilgan kamchiliklarni kelgusida bartaraf qilish va shu orqali tahlil qilinayotgan ob`yektning iqtisodiy va moliyaviy ahvolini yaxshilashdan iboratdir. Bu esa sodir bo`lgan va bo`layotgan jarayonlarga to`g`ri baho berib, bo`ladigan jarayon andozasini ham chizib berishni taqozo qiladi.

Shu tufayli tahlilning predmeti o`tgan, bo`layotgan va bo`ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o`z ichiga hamrab oladi. Barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar natijasi ko`rsatkichlarda ifodalanadi. Ko`rsatkichlar esa asosan ma'lumotlar manbaida (rejalarda, me'yorlarda, hisobotlarda va h.k.) o`z aksini topadi. Ob`yektda iqtisodiy jarayonlar yakka-yakka bo`lib emas, balki bir-biriga dialektik bog`liq ravishda birdaniga sodir bo`ladi. Uning har bir jihatni alohida ko`rsatkichlarda ifodalanadi. Shu tufayli xo`jalik faoliyatini o`rganishda bitta ko`rsatkich emas, balki ko`rsatkichlar tizimidan (sistemasidan) foydadaniladi. Bu esa o`z navbatida tahlil predmetini o`rganishda ma'lumotlar manbaida ifodalangan ko`rsatkichlar sistemasiga asoslanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Juda ko`p iqtisodiy fanlar mavjud. Lekin ularning ichida tahlil fani xo`jalik faoliyatining natijasiga odilona baho bera oladn. Undagi ijobiy va salbiy o`zgarishlarga omillar ta'sirini aniqlaydi. Shularga asosan xo`jalik faoliyatini yaxshilash yo'llarini ishlab chi?adi. Bu xususiyatlar faqat tahlilga xos bo`lganligi uchun ham uning predmetida natijaga to`g`ri baho berish va yaxshilash yo'llarnni ishlab chiqish tegishli o`ringa ega.

Shunday qilib, tahlil fani mustaqil fan bo`lib, o`ziga xos xususiyatlarga, o`zining betakror predmetiga ega. Tahlilda o`rganiladigan iqtisodiy jarayonlar va ularning muhim jihatlari aynan shu tarzda boshqa fanlarda o`rganilmaydi va takrorlanmaydi. Shu tufayli har bir mustaqil fan singari tahlil fanining ham o`ziga xos predmeti shakllandi, tarkib topdi, nazariy jihatdan boyib, yildan-yilga anqliklar kiritilib takomillashib bormoqda.

Har qanday fanning ob`yekti bo`lishi lozim. Ammo shu fannnng nazariyasiga bag`ishlangan eng so`ngi adabiyotlarda1 ham bu masala etaricha yoritilmagan. Shu tufayli fanning predmeti bilan ob`yektini ko`p hollarda bir xil tushunchalar deb haraladi. Bu esa o`z navbatida nazariy jihatdan asossiz, chalkash xulosalarga olib keladi.

Har qanday fanning ob`yekti uning predmeti qaerlarda amalga oshishini ko`rsatadi. Tahlil fanining predmeti hozirgi bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda ko`p mulkchilikka asoslangan barcha yuridik va jismoniy shaxslarnnng xo`jalik faoliyatida mujassam. Shu tufayli iqtisodiy tahlil fanining ob`yektiga davlat, jamoat tashkilotlari, korporatsiyalar,

trestlar, birjalar, korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar va boshqa xo`jalik yurituvchi sub`yektlar kiradi.

Bu ob`yektlar iqtisodiy asosi jihatidan davlat, jamoa, kooperativ, aktsiyadorlik, xususiy, xorijiy va aralash kabi mulk shaklida faoliyat ko`rsatadigan ob`yektlarga bo`linadi. O`zbekiston Respublikasi o`ziga xos va mos iqtisodiy taraqiyot yo`lini tanladi. Bu mustaqil yo`l bilan hamma sohada, xususan milliy hisoblar tizimida ham jahon andozalariga bosqichma-bosqich o`tish ko`zda tutilgan. Bu esa o`z navbatida, mulk shaklidan qat'iy nazar, tahlilning bir xil metodologik usulini yoritishni taqozo qiladi.

Ob`yektning (makonning) va davrning (zamonning) qanday bo`lishidan qat'i nazar ushbu fan predmetining mohiyati o`zgarmasligi, ob`yekt esa tahlilning qaysi makonda o`tkazilishiga harab o`zgarib turishi mumkin. Shu jihatdan uning predmeti ob`yektidan mazmun va mohiyati jihatidan tubdan farq qiladi.

Iqtisodiy tahlilning eng muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

1)biznes-rejaning qanchalik realligi (mavjudligi) va ilmiy jihatdan asoslanganligiga baho berish;

2)xalq xo`jaligini rivojlantirishning joriy va istiqbol rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko`rsatkichlar bazasini aniqlash;

3)biznes-rejasining bajarilishiga ob`yekтив baho berish hamda uni bajarishda korxonalarga bog`liq va bog`liq bo`lmagan omillar va sabablarni bir-biridan ajratib aniqlash;

4)ichki xo`jalik rezervlarini aniqlash (bu o`rinda tahlilning samarasi, birinchidan, aniqlangan rezervlarni butun nazariy jihatdan asoslangan rezervlarga nisbati va ikkinchidan, amalga oshirilgan rezervlarning aniqlangan rezervlarga nisbati bilan belgilanadi);

5)korxonalarning xo`jalik faoliyatida kutiladigan natijalarni oldindan aniqlash;

6)tahlil materiallariga asosan ishlab chiqarishda aniqlangan kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish.

#### **1.4. Moliyaviy va boshqaruv tahlilining mazmuni**

Iqtisodiy tahlil o`z mazmuni jihatidan turlichadir. Tahlilning ikki xil yo`nalishi mavjud: moliya - iqtisodiy va texnik - iqtisodiy. Moliya iqtisodiy tahlilda biznes-rejaning bajarilishiga ta'sir ko`rsatuvchi (texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil etish) kabi omillar o`rganilmaydi. Texnik-iqtisodiy tahlilda esa texnika va texnologiya hamda ishlab chiqarishni tashkil etishga oid hamma masalalar har tomonlama va chuqr

o`rganilib, uning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ko`rsatgan ta'siri ham aniqlanadi.

Shuning uchun texnik - iqtisodiy tahlil korxonalardagi mavjud barcha rezervlarni to`la va har tomonlama aniqlashga imkon beradi.


Tahlil korxona va uning bo`linmalari faoliyatining hamma tomonlarini o`z ichiga olgan umumiyligi hamda ishning qandaydir biror tomoni yoki korxonaning bir necha bo`g`inlarini o`z ichiga olgan tanlanma (tematik) bo`ladi. Shuningdek, yirik masalalarga bag`ishlangan, korxonaning kundalik ishini o`rganishga va ichki imkoniyatlarini topishga qaratilgan tezkor tahlil bo`ladi.

Tekshiriladigan ob`yektlar va boshqaruv bo`g`inlariga qarab tahlil quyidagilarga bo`linadi: ishchi o`rin, sex ichida, sex, korxona va tarmoqlar bo`yicha hamda tarmoqlararo. Tahlilda rezervlarni aniqlash ko`lami quyidagilardan iborat: ichki korxona va korxonalararo, tarmoq va tarmoqlararo rezervlar.

Qabul qilinadigan qarorlarning xarakteriga qarab, tahlil quyidagilarga bo`linadi: dastlabki, tezkor, yakuniy va istiqbolli. Bulardan, nazariy va amaliy jihatdan eng takomillashtirilgani - yakuniy tahlil hisoblanadi (korxonalarning yillik hisobotiga asosan).

Tahlil o`tkazish muddatlari (har kuni, bir oyda va bir yilda) yoki zarur bo`lishiga qarab ahyon-ahyonda olib borilishi mumkin.

Iqtisodiy tahlil o`tkazishning 3 bosqichi mavjud:



## 1.2-rasm. Iqtisodiy tahlil o'tkazish bosqichlari

### 1.5. Moliyaviy va boshqaruv tahlilining asosiy tamoyillari (prinsiplari)

Korxonalarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilish uchun asos qilib olingan quyidagi tamoyillar mavjud:

1.Ob'yektning holatini dastlabki iqtisodiy nazariya jihatidan tahlil qilishning zarurligi, o'r ganiladigan hodisalarning mohiyati va bir-biriga o'zaro bog`liqligi.

2.Tahlilning kompleks xarakterga ega ekanligi hamda o`zaro bir-biriga uzviy ravishda bog`liq tahliliy ko`rsatkichlar tizimining qo`llanishi.

3.Iqtisodiy ma'lumotlarni tahliliy jihatdan qayta ishslash jarayonida o'r ganiladigan hodisalarni guruhlashtirish va ularga ta'sir ko`rsatuvchi omillarni miqdor va sifat belgilariga qarab turkumlash.

4.Korxonalar faoliyatini tahlil qilishda taqqoslash usulining ichki xo'jalik rezervlarini aniqlashdagi ahamiyati.

5.Tahlil natijalari asosida ilg`or tajribalarni keng yoyish va ommani korxonalarni boshqarishga yana ham keng jalb etish.


6.Korxonalarini boshqarishda hisob va hisobotning hal qiluvchi roli, ularning iqtisodiy tahlilda asosiy axborot manbai ekanligi.

Yuqorida qayd etilgan tamoyillar iqtisodiy tahlilning shakllanishiga va uning rivojlanish jarayoniga asos bo`ldi.

### **1.6. Iqtisodiy tahlilning rezervlarni aniqlashdagi ahamiyati**

Korxonalarining xo`jalik faoliyatini tahlil qilishdan ko`zlangan asosiy maqsad rezervlarni aniqlashdir. Rezervlarni aniqlashni osonlashtirish uchun ularni ilmiy asosda turkumlash kerak (1.3-rasm).

Aytaylik, mashinasozlik sanoatida mahsulot tannarxini arzonlashtirish borasida bo`lgan katta rezervlardan biri - rangli metallarni plastmassalar bilan almashtirish hisoblanib, bu o`z navbatida kimyo sanoatini yanada rivojlantirishni taqozo kiladi. Shu sababli bunday rezervlar xalq xo`jaligi rezervlari qatoriga kiradi. Ixtisoslashtirish darajasini oshirish esa tarmoq rezervlari qatoriga kirib, u asosan vazirliliklarga bog`liqdir. Regional rezervlarga, aytaylik, bir ma'muriy rayonda joylashgan turli boshqarmalarga qarashli sanoat korxonalarini kooperativlashtirish misol bo`la oladi. Ichki xo`jalik rezervlarini aniqlash va ularni xo`jalik aylanmasiga yo`naltirishda korxonalar katta imkoniyatlarga ega. Bu esa asosan uch guruh ishlab chiqarish resurslari, (mehnat resurslari, mehnat vositalari va mehnat predmetlari) omillaridan oqilona va samarali foydalanishga bog`liq.



**1.3-rasm. Rezervlarni turlari**

## **Qisqa xulosalar**

Ushbu bobni o`rganish natijasida talabalar iqtisodiy tahlilning korxonalarini boshqarish tizimidagi tutgan o`rnini, ishlab chiqarish jarayonidagi bosq`ichlarni tahlil qilish uchun asos qilib olgan tamoyillarni hamda iqtisodiy tahlilning ichki ho`jalik imkoniyatlarni axtarib topishdagi ahamiyatini; iqtisodiy tahlil predmetini, iqtisodiy tahlilni eng muhim vazifalarni uning o`z mazmuni jihatidan yo`nalishlarini hamda uni o`tkazishning bosqichlarini bilishlari kerak.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar**

- 1.Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda dialektik bilish nazariyasidan qanday foydalilanildi?
2. Boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlil qanday funksiyani bajaradi?
3. Iqtisodiy tahlilning qanday yo`nalishlari mavjud?
4. Iqtisodiy tahlilning qanday tamoyillari bor?
5. Iqtisodiy tahlilni rezervlarni aniqlashdagi ahamiyati nimadan iborat?
6. Iqtisodiy tahlilini predmeti.
- 7 Iqtisodiy tahliining vazifalari.
8. Iqtisodiy tahlilning mazmuni.

## **Asosiy adabiyotlar**

- 1.Shoalimov A.X. Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. –Т.: TDIU, 2010.
- 2.Савицкая Г.В. Теория экономического анализа. Учебник. –М.: ИНФРА, 2010.
- 3.Гинзбург А.И. Экономический анализ. Учебник. –Спб.: Питер. 2009 .
- 4.Баканов М.И., Мельник М.И. Теория экономического анализа. Учебник. –М.: Финансы и статистика. 2006 .
- 5.Пардаев М.Қ. Иқтисодий таҳлил назарияси. Дарслик - Самарқанд.: Зарафшон. 2001 .
- 6.www.uz- (Национальная информационная агентство).
- 7.www.cer.uz- (Центр экономического исследования).

## **II BOB.MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILINING USLUBI VA MAXSUS USULLARI**

2.1. Moliyaviy va boshqaruv tahlilining uslubi.

2.2. Moliyaviy va boshqaruv tahlili uslubining o'ziga xos xususiyatlari.

2.3. Moliyaviy va boshqaruv tahlilining maxsus usullari.

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar**


Ichki va tashqi omillar; miqdor va sifat omillar; deduktiv va induktiv usul; xo'jalik yuritish jarayoni, xo'jalik yurituvchi sub'yeqtlar; moddiy, mehnat va moliyaviy resurslar; taqqoslash; turkumlash; mutlaq va nisbiy miqdorlar, zanjirli almashtirish; indekslar; balans usullari.

#### **2.1. Moliyaviy va boshqaruv tahlilining uslubi**

Iqtisodiy tahlilining uslubiy asoslari dialektika va iqtisodiy nazariya faniga tayanadi.

Tahlilning uslubi deganda esa, biznes-rejaning bajarilishiga va mahsulot hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sistemali va kompleks tarzda o'rghanish, o'lchash va umumlashtirish usuli bo'lib, ular hisob, hisobot va hisobdan tashqari ma'lumotlarni maxsus usullar orqali qayta ishlaniib, amalga oshirilishi tushuniladi.

Ma'lumki, tahlil qilinayotgan ob'ektning faoliyatiga ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, tahlilda omillar deganda, u yoki bu iqtisodiy ko'rsatkichga ijobiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatuvchi faol harakat qiluvchi kuchlar nazarda tutiladi. "Sabab" termini nisbatan keng ko'lamdagi kompleks omillar tizimiga nisbatan qo'llanilib, mana bu kompleksni tashkil etuvchilar esa omillar, deb ataladi. Ular o'z navbatida iqtisodiy mazmuni bo'yicha miqdor va sifat omillarga bo'linadi (2.1.-rasm).



## 2.1-rasm. Tahlilda qo'llaniladigan omillarni iqtisodiy mazmuni bo'yicha tarkibi

Xo'jalik yuritish samaradorligini oshirish imkonini aniqlashda ijobiy ta'sir etuvchi omillar xarakatini kuchaytirish va ularning salbiy ta'sirini tugatish rezervlar deb ataladi.

Korxonaning xo'jalik faoliyatini tekshirish jarayonida deduktiv va induktiv usul analiz va sintez bilan birga olib boriladi.

Deduktiv usul asosan moliya – iqtisodiy tahlilda qo'llaniladi. Bunda avvalo xo'jalik faoliyatini belgilovchi umumiyligi ko'rsatkichlar o'rganilib, so'ngra ular bo'laklarga bo'linadi. Ko'rsatkichlarni bo'laklarga bo'lish aslini olganda tahlil demakdir.

Induktiv usul ko'pincha texnik-iqtisodiy tahlilda qo'llaniladi, ya'ni avval ayrim olingan ish uchastkalarida ko'rsatkichlar har tomonlama tekshirilib, so'ngra ana shu konkret ko'rsatkichlardan korxonaning xo'jalik faoliyatini belgilovchi umumlashgan iqtisodiy ko'rsatkichlar darajasiga chiqiladi.

Shunday qilib, iqtisodiy tahlilning usuli mazkur predmetni o'rganish jarayoniga umumiy jihatdan yondoshishdir. Shu sababli tahlil metodini unga bo'y sunuvchi maxsus usullari bilan arashlashtirib bo'lmaydi. Zero, aniq shart-sharoit natijasida u yoki bu usullarning o'zgarishi ehtimoldan holi emas.

## **2.2. Moliyaviy va boshqaruv tahlili uslubining o'ziga xos xususiyatlari**

Iqtisodiy tahlil uslubining eng muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) Xo`jalik faoliyatiga ta'sir qiluvchi texnika, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil qilish va barcha omillarni tekshirishni muntazam va kompleks tarzda o`tkazishga yondoshish, tahlil usulining eng muhim xususiyatlaridan biri bo`lib hisoblanadi. Bu o`rinda muntazam tahlilni kompleks tahlil bilan almashtirish aslo mumkin emas. Ob`yektni ierarxik usul (bo`ysunish tartibi) orqali boshqarish, masalan, sex korxonaning, korxona birlashmaning, birlashma tarmoqning bir qismi va hokazo sifatida o`rganish sistemali tahlilga misol bo`ladi.

Darvoqe aytgandek, iqtisodiy tahlil va xo`jalik faoliyatini tahlil qilish bir gap emas. Xo`jalik faoliyatini tahlil qilish iqtisodiy tahlilning bir bo`lagi hisoblanadi. Iqtisodiy tahlil boshqarishning uchala darajasi bilan bog`liq (xalq xo`jaligi, tarmoq, korxona) xo`jalik faoliyatini tahlil qilish esa faqat uchinchi darajadagi boshqarish bilan bog`liq.

Xo`jalikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o`lchash orqali biznes-rejaning bajarilishi, xo`jalik boshqarishning samaradorligi hamda korxona faoliyatidagi asosiy va hal qiluvchi masalalar aniqlanadi.

Tahlil natijalarini umumlashtirish orqali korxonaning xo`jalik yuritish borasidagi faoliyatiga baho beriladi hamda barcha rezervlarning yig`ma hisobi aniqlaniladi.

2) Tahlil usulining o`ziga xos xarakterli xususiyatlaridan biri - iqtisodiy ko`rsatkichlarning hartomonlama bir-birlari bilan sababiy bog`lanishida ekanlidir. Bu borada tahlilning vazifasi ana shu sabablarni aniqlashdir. Shuni ta'kidlash kerakki, hatto ayrim olingan iqtisodiy ko`rsatkichga bir qancha sabablar ta'sir ko`rsatadi. Binobarin, bu sabablar harakatini aniqlash juda ham murakkabdir. Shu sababli asosiy va hal qiluvchi sabab va omillar ta'sirini aniqlash kerak. Shunday qilib, tahlilning dastlabki sharti xo`jalik faoliyatiga ta'sir etuvchi sabablarni iqtisodiy belgilariga qarab to`g`ri turkumlash zarur. Masalan, tovar mahsuloti

hajmining o'sish sur'atiga ta'sir etuvchi omillar uch guruhga umumlashtiriladi:

1)Mehnat omillari. Bunga korxonaning ishchi kuchi bilan ta'minlanishi, ish vaqtidan foydalanish va mehnat unumdarligi kiradi.

2)Mehnat vositalari omiliga esa korxonaning asosiy fondlar bilan qay darajada ta'minlanganligi, ularning hajmi, strukturasi (tuzilishi), o'sish sur'atlari, texnik holati va ulardan foydalanishning samaradorlik darajasi singari masalalar kiradi.

3)Mehnat predmetlari omillari. Bularga korxonaning xom ashyo va asosiy materiallar bilan ta'minlanganligi, ulardan foydalanish, samaradorlik darajasi kabi masalalar kiradi. Yuqorida sanab o'tilgan omillar o'ziga xos mustaqil ma'noga ega bo'lishi bilan birga o'zaro bir-biri bilan uzviy ravishda bog`langandir. Binobarin, bu omillarning ta'sirini mexanik tarzda bir-biriga aslo qo'shib ham bo`lmaydi. Chunonchi, mehnat unumdarligining o'sishi ishchilar malakasi va ish vaqtidan samarali foydalanishiga bog`liq (mehnat omillari). So`ngra, mehnat unumdarligi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasiga (mehnat qurollari omillari), hamda xom ashyo va materiallardan tejamkorlik va oqilona foydalanish (mehnat predmetlari omillari)ga bog`liq. O'z navbatida har bir guruh omillari tarkibiy qismlarga bo`linadi. Chunonchi, mehnat omillari-miqdor va sifat ko`rsatkichlaridan iborat. Bu erda miqdor ko`rsatkichiga ishchilarning o'rtacha ro`yxatdagi soni kirsa, sifat ko`rsatkichiga mehnat unumdarligi darajasining o'sishi misol bo`ladi. So`ngra bir ishchiga to`g`ri keladigan yillik ish unumdarligi:

- bir ishchi tomonidan bir yilda ishlangan o'rtacha kishi kunlariga;
- o'rtacha ish kunining uzunligiga;
- bir ishchiga to`g`ri keladigan o'rtacha soatlik ish unumiga bog`liq.

Ko`rinib turibdiki, bir ko`rsatkich ikkinchi bir ko`rsatkich bilan uzviy ravishda bog`lanishda bo`lib, o'ziga xos bir butun zanjirsimon shakl hosil qilar ekan.

### **2.3. Moliyaviy va boshqaruv tahlilining maxsus usullari**

Tahlilning usuli unga bo`ysinuvchi maxsus usullar orqali ifodalananiladi.

Korxonalar faoliyatini tahlil qilishda turli maxsus usullar qo`llaniladi. Shulardan eng asosiyлари quyidagilardir:

a) taqqoslash usuli - korxona faoliyatini tahlil qilishning eng asosiy usulidir, zero «barcha narsa taqqoslashda aniqlanadi». Taqqoslash usullarini sanab o'tamiz:

- haqiqatdagi ko`rsatkichlarni biznes-reja darajasidagi ko`rsatkichlar bilan taqqoslash natijasida biznes-rejaning bajarilish darajasi va sifati aniqlanadi;
- joriy yilda amaldagi ko`rsatkichlarni o`tgan davr hisoboti bilan taqqoslash natijasida ishlab chiqarishning o`sish sur'ati aniqlanadi;
- ishlab chiqarishda eng mukammal namunaga ega bo`lgan korxonaning iqtisodiy modeli bilan taqqoslash. Bu o`rinda taqqoslash kompleks tarzda olib borilmaydi, balki ushbu korxonaning ayrim ko`rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Masalan, dastgohlardan foydalanish koeffitsienti yoki aytaylik, moddiy resurslardan foydalanish darajasi bo`yicha. Hozirgi vaqtda sanoat korxonalarida taqqoslama tahlil usulining bir ko`rinishi bo`lgan korxonalararo taqqoslama tahlil usuli katta ahamiyatga ega bo`lmoqda. Bu usul ilg`or ishlab chiqarish tajribalarini yoyish maqsadida aloqador bo`lgan turli korxonalar ishining texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlarni taqqoslab ko`rishga asoslanadi;
- korxona ishining yakuni, ilg`or texnik - iqtisodiy me'yorlar, o`tgan davr hisoboti ayrim davrlarda qilingan ishlarning eng yaxshi natijalari ushbu korxonaning ilg`or uchastkalaridagi ish natijalari, korxona hamda ushbu tarmoqdagi ilg`or ishchilarning ish natijalari bilan taqqoslash;
- ushbu korxonaning ko`rsatkichlari tarmoq bo`yicha aniqlangan o`rtacha ko`rsatkichlar bilan taqqoslanadi. Bunda korxonaning tarmoq miqyosida tutgan o`rni belgilanadi:
  - b) guruhlashtirish. U har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tekshirishning ajralmas qismi bo`lib hisoblanadi. Guruhlashtirish, ayniqsa, amaliy jihatdan ishlab chiqarishda keng qo`llaniladi. Masalan, yuqorida ta'kidlanganidek tovar mahsuloti ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi omillarni guruhlashtirish (mehnat, mehnat vositalari va mehnat predmetlari omillari) misol bo`ladi. Guruhlashtirish yana ushbu belgilarga ham qarab qo`llaniladi. Masalan, tashqi va ichki omillar, ijtimoiy va individual, tahlil qilinayotgan ob`yektga bog`liq hamda bog`liq bo`limgan omillar va hokazo;
  - v) yetakchi halqani ajratib qo`yish usuli. Korxona faoliyati tahlil qilinayotgan vaqtda nihoyatda ko`p dalil va hodisalar uchraydiki, ularni to`la tahlil qilish imkonи yo`qligi uchun bu usuldan foydalaniladi. Masalan, yuqorida aytib o`tilganidek, mehnat unumдорligi darajasiga ko`p omillar ta'sir ko`rsatadi, biroq

ishlab chiqarish sharoitida faqat ikki yoki undan ko`p etakchi omillar bilan cheklanish mumkin. Bularni hal qiluvchi ahamiyatga molik bo`lgan texnika taraqqiyoti, ishlab chikarishni ixtisoslashtirish darajalari bilan aniqlash kifoyadir. Bu usul u yoki bu hodisalarning sababini aniqlashdan tashqari texnikani hamda ishlab chiqarishni tashkil etishni yanada takomillashtirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi;

g) mutlaq va nisbiy miqdorlar. Mutlaq miqdorlar orqali iqtisodiy ko`rsatkichlarning umumiy hajmi aniqlanadi. Nisbiy ko`rsatkichlar esa biznes-rejaning bajarish darajasini va ishlab chiqarishni rivojlantirish sur'atini belgilaydi. Mutlaq miqdor xo`jalik yuritishning samaradorligini har vaqt ham belgilamaydi. Masalan, ishlab chiqarish borasida barcha shart-sharoit nuqtai-nazaridan teng bo`lgan 1-korxona, aytaylik, o`tgan yilga nisbatan haqiqatda 200 ming so`mga ko`p foyda oldi, 2-korxona 150 ming so`m. Bu raqamlardan 1-korxona yaxshi ishlaydi, degan xulosa chiqarish mumkin emas. Shuning uchun nisbiy ko`rsatkichlarga murojaat etish darkor. Bu erda nisbiy ko`rsatkich rentabellik darajasi hisoblanadi. Rentabellik darajasi foyda summasining asosiy ishlab chiqarish fondlari va (aylanma) fondlarining qiymatiga taqsimlanib, natijani 100 ga ko`paytirish bilan aniqlanadi. Demak, 1- korxona bo`yicha rentabellik darajasi - 30,5% tashkil etishi, 2- korxona bo`yicha - 34,5% ni. Shunday qilib, 2 - korxona 1 - korxonaga nisbatan samarali ishlagan, chunki u asosiy ishlab chiqarish fondlaridan yaxshi foydalangan, aylanma mablag`larini tejab sarflash natijasida ularning aylanishini tezlashtirgan va hokazolar;

d) dinamika metodi. Muhim hodisalar, jarayonlarning har birini rivojlanishida, deb qarash kerakligini ko`rsatadi. Demak, bu tahlil qilish jarayonida korxona faoliyati rivojlanayotganda, deb qaraladi va bu bilan uning ishidagi ayrim o`zgarishlari ochiladi;

e) indekslar. Ular yordamida ma'lumotlarni qator yillar bo`yicha taqqoslash mumkin. Bu o`rinda bazali va zanjirsimon indekslardan foydalilanadi. Masalan, bazali indeksga mahsulot ishlab chiqarish sur'atining o`sishi misol bo`la oladi. Bunda har yili ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi solishtirib bo`ladigan bahoda o`tgan yillarda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan taqqoslanadi. Bazisli indeks bo`yicha hisob qilinganda taqqoslash uchun baza (asos) 100 ga teng, deb olinib, keyingi ko`rsatkichlar ana shu bazisli miqdorga foiz yoki koeffitsient hisobida olinadi.

j) bartaraf etish (eliminirovanie) usuli. Xo`jalik faoliyatiga yuqorida aytib o`tilgandek juda ko`p omillar ta'sir qiladi: asosiy, qo`shicha, tashqi va hokazo. Bu usul yordamida ushbu omillarni bir-biridan ajratib, alohida

tahlil qilishga imkon beradi. Ushbu usul turli usullar bilan amalga oshiriladi, jumladan, zanjirli bog`lanish usuli bilan ham.

z) zanjirli bog`lanish usuli. Bu usulning mohiyati quyidagidan iborat: ya'ni hisob formulasiga tarkibiga kirgan o`rtacha ro`yhatdagi soni(kishi) Bir ishchi tomonidan bir yilda ishlangan kishi kuni (kun). Ish kunini o`rtacha uzunligi (soat). Bir ishchiga to`gri keluvchi soatli unumi (so`m, tiym) Pirovard natija – tovar maxsulotining qiymati (ming so`m) [ 1us\*2us\*3us\*4us] Oldingi hisobga nisbatan farq (ming so`m)

Bu usulning mohiyati quyidagidan iborat: ya'ni hisob formulasiga tarkibiga kirgan o`rtacha ro`yhatdagi soni(kishi) Bir ishchi tomonidan bir yilda ishlangan kishi kuni (kun). Ish kunini o`rtacha uzunligi (soat). Bir ishchiga to`gri keluvchi soatli unumi (so`m, tiym) Pirovard natija – tovar maxsulotining qiymati (ming so`m) [ 1us\*2us\*3us\*4us] Oldingi hisobga nisbatan farq (ming so`m)

Zanjirli bog`lanish usulini qo`llash tovar mahsulotiga ta'sir etuvchi mehnat omillarini tahlil qilish orqali ko`rib chiqishimiz mumkin. Tahlil uchun quyidagi 2.1- jadvalni tuzamiz.

## 2.1 - jadval

### Zanjirli bog`lanish usuli

Tartib soni		Hisob formulasiga kiruvchi omillar						Farqning sabablari
A	B	1	2	3	4	5	6	
1	-	h.o`t.y 1113	h.o`t.y 238	h.o`t.y 7,78	h.o`t.y 3,21	h.o`t.y 6615	-	-
2	1	h.o`t.y 1085	h.o`t.y 238	h.o`t.y 7,78	h.o`t.y 3,21	hisob 6449	- 166	Ish kuchi bilan ta`minlanma gan-ligi
3	2	h.h.y. 1085	h.h.y. 226	h.o`t.y 7,78	h.o`t.y 3,21	hisob 6124	- 325	Bir ishchi tomonidan ishlangan ish kunining qisqarishi.
4	3	h.h.y. 1085	h.h.y. 226	h.h.y. 7,73	h.o`t.y 3,21	hisob 6084	- 40	O`rtacha ish kuni uzunligining qisqarishi
5	4	h.h.y 1085	h.h.y 226	h.h.y 7,73	h.h.y 3,65	h.h.y 6905	+821	Soatlik ish unumining o`sishi.

h.o`t.y. - haqiqatda o`tgan yili.  
h.h.y. - haqiqatda hisobot yili.

Jadvaldan ko`rinishicha, ekstensiv omil - korxonaning ish kuchi bilan to`la ta'minlanmaganligi (1085-1113=28 kishi), bir ishchi tomonidan bir yilda ishlangan o`rtacha kishi kunining o`tgan yilga nisbatan 12 kunga kamayishi (226-238) va ish kunining o`rtacha uzunligi 0,05 soatga (7,73-7,78) kamayishi natijasida tovar mahsuloti ishlab chiqarish 531 ming so`mga kamaydi (166; 325; 40.). Bu kamayishning o`rni jadal omilning o`sishi evaziga qoplanildi. Bir ishchiga to`g`ri keladigan o`rtacha soatlik ish unumining 44 tiyinga (3,65-3,21) oshishi natijasida 821 ming so`mlik tovar mahsuloti ishlab chiqarildi. Darvoqe, ushbu jadvaldan ko`rinishicha, ishga jalb qilingan rezervlar hajmi 531 ming so`mni tashkil qiladi.

I) Tahlilda ko`p qo`llaniladigan usul - ko`rsatkichlarning o`sish sur`ati bo`yicha farqni aniqlash usulidir.

Tahlil qilish uchun quyidagi 2.2 - jadvalni havola qilamiz.

## 2.2 - jadval

Ko`rsatkichlar	Ko`rsatkichlarni ng o`sish sur`ati (%)	O`sish sur`atidagi farq (+,-)	Mahsulot hajmiga ta`siri (ming so`m) (2 ustun x 6615*:100)
A	1	2	3
1.Ishchilarning o`rtacha ro`yhatdagi soni.	97,5	100-97,5= - 2,5	- 165
2.Bir yilda hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi-kunlar.	92,4	97,5-92,4= - 5,1	- 138
3.Bir yilda hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi-soatlar.	91,8	92,4-91,8= - 0,6	- 40
4.Tovar mahsuloti.	104,4	104,4-91,8= +12.6	+ 833
Jami:	-	+ 4,4	+ 290

\*6615 ming so`m - haqiqatda o`tgan yildagi mahsulot hajmi.

Jadvaldan ko`rinishicha, mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi omillarining bu usulda hisoblaganimizda olingan natijalar zanjiri bog`lanish usuli bo`yicha aniqlangan natjalarga teng.

K)mutloq farq usuli tahlilning an'anaviy usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu usulni qo'llanilish mohiyati quyidagicha: miqdor

omilida bo'lgan farqni sifat omilini o'tgan yildagi darajasiga ko'paytiriladi. Sifat omilida bo'lgan farqni esa miqdor omilini haqiqatdagi darajasiga ko'paytiriladi.

K) balans usuli - Bu usul xom ashyo (material) ning kelishi va undan foydalanish yo`nalishi o`rtasidagi nisbatni aniqlashga, shuningdek, ish vaqtin, uskunalarining ishlashi va boshqalardan foydalanishni o`rganish uchun xizmat qiladi.

Yuqorida qayd qilingan usullar bilan bir qatorda tahlil qilish jarayonida bir qator statistika qoidalaridan foydalaniladi. Bularga masalan, o`rtacha miqdorni aniqlash, o`rtacha miqdordan og`ishlarni belgilash, o`rtacha kvadratik og`malarni hisoblash, korrelyatsiya usuli, shuningdek, iqtisodiy matematik usullar bo`lib, bular tegishli statistika darslarida atroflicha bayon etiladi.

### **Qisqa xulosalar**

Ushbu bobni o`rganish natijasida talabalar iqtisodiy tahlilning uslubiyatini, usulini va uning o`ziga xos hususiyatlarini, korxonalar faoliyatini ifodolovchi pirovard natija va uning o`zgarishiga ta'sir qiluvchchi omillarni hisoblashda iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullarni qo`llashnini bilishlari kerak.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

- 1.Iqtisodiy tahlil fanining usuli to`g`risida umumiy tushuncha.
- 2.Iqtisodiy tahlil usulining o`ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?.
- 3.Tahliliy tekshirishning sistemali xususiyati.
- 4.Tahlilning kompleks (yig`ma) xususiyati va uning muayyan ko`rinishi.
- 5.Xo`jalik faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar tushunchasi.
- 7.Tahlilda qo`llaniladigan omillarni qanday turkumlanadi?
- 8.Iqtisodiy ko`rsatkichlar tushunchasi. Xo`jalik faoliyatini tahlil qilishda qo`llaniladigan ko`rsatkichlar va omillarning bir-biriga bog`liqligi.
- 9.Tahlilda qo`llaniladigan ko`rsatkichlar tizimi va ularni turkumlash.
- 10.Tahlil bosqichlari va uning metodik usullarining bir-biriga o`zaro bog`liqligi.
- 11.Taqqoslash usuli - korxonalarining xo`jalik faoliyatini tahlil qilishda eng asosiy usuldir.

12.Guruhlashtirish usuli - har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tekshirishning ajralmas qismi ekanligi.

13.Pirovard (natijaviy) ko`rsatkichning hisob formulasiga kiruvchi omillarga bog`liqligi. Umumlashgan ko`rsatkichga ta'sir qiluvchi miqdor (ekstensiv) va sifat (intensiv) omillar hamda ularning bir-biriga o`zaro bog`liqligi.

14.Balansli bog`lanish usulini qo`llash shartlari va unga ta'rif.

15.Etakchi bo`g`inni ajratib qo`yish usuli.

16.Mutlaq va nisbiy miqdorlar.

17.Dinamika usuli va uni tahlilda qo`llash tartibi.

18.Indekslar, koeffitsientlar, foizlarni qo`llash tartibi.

19.Bartaraf etish (eliminirovanie) usuli.

20.Zanjirli almashtirish usuli. Uning mohiyati va qo`llash tartibi.

21.Ko`rsatkichlarning bajarilish foizi va o`sish sur'ati (nisbiy) darajasidagi farq usuli - zanjirli almashtirish usulining bir turi ekanligi.

22.Ko`rsatkichlarning darajasidagi mutlaq farq usuli - zanjirli almashtirish usulinining soddalashtirilgan varianti ekanligi.

### **Asosiy adabiyotlar**

1.Shoalimov A.X. Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. –T.: TDIU, 2010.

3.Шеремет А.Д. Теория экономического анализа. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2009.

4.Басовский Л.Е. Экономический анализ. Учебное пособие. –М.: Риор. 2009..

4. Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. –T.: Mehnat, 2004.

5.www.uz- (Национальная Информационная агентство)

6.www.cer.uz- (Центр экономического исследования)

### **III BOB. MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILINING IQTISODIY – MATEMATIK USULLARI**

- 3.1. Iqtisodiy - matematik usullarni tahlilda qo`llashning zaruruyati.
- 3.2. Iqtisodiy ko`rsatkichlarning o`zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda integral usulini qo`llash.
- 3.3. Korrelyatsiya va regressiya usullarining mohiyati va ularni iqtisodiy tahlilda qo`llanilishi.
- 3.4. Omillar tizimini determinallashgan modellarda aks ettirish.

#### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar**

Iqtisodiy ko`rsatkichlar; matematik hisoblash usullari; integral usuli; korrelyasiyali va regressiyali usul; determinallashgan modellar.

#### **3.1. Iqtisodiy - matematik usullarni tahlilda qo`llashning zaruruyati**

Ko`xna va qadimgi Gretsianing Platon darvozasiga shu so`zlar yozilgan: «Kimda kim matematikani bilmasa, uning akademiya darvozasiga kirishining hojati yo`q». Matematika - bu fanlar malikasidir.

Matematika zehn va aqlni mashq qilish vositasidir.

Iqtisodiy - matematik usullarni iqtisodiy tahlilda qo`llash quyidagilardan kelib chiqqan:

1.Korxonalar soni kun sayin oshib borayapti.

2.Ishlab chiqariladigan mahsulotlar nomenklaturasi 10 mln. xil, ularning xilma-xilligi esa 1 mlrd. xilni tashkil etadi.

3.Iqtisodiyot juda ham murakkab ierarxik (bo`ysunish) tizimiga ega.

4.Xalq xo`jaligining barcha tarmoqlari juda yuqori parametrlarda ishlamoqdalar, ya'ni ishlab chiqariladigan mahsulot xilma-xilligi va tarkibining o`zgarishi tez sur'atlar bilan bormoqda.


Iqtisodiy - matematik usullarni tahlilda qo`llashning afzalliklari quyidagilardan iborat:

a) tahlil etish muddati tezlashadi;

b)iqtisodiy ko`rsatkichlarning o`zgarishiga ta'sir etuvchi omillar ulushi (salmog`i) aniq hisoblanadi;

v) tahminiy yoki noaniq hisoblashlar o`rmini aniq raqam va dalillar egallaydi.

Iqtisodiy tahlilda iqtisodiy-matematik usullarni qo`llash quyidagi bosqichlarni o`z ichiga oladi (3.1-rasm).



### **3.1-rasm. Tahlilda iqtisodiy-matematik usullarni tahlilda qo'llash bosqichlari**

#### **3.2. Iqtisodiy ko`rsatkichlarning o`zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda integral usulini qo'llash**

Iqtisodiy ko`rsatkichlarning o`zgarishiga ta'sir etuvchi omillar va dalillar aniq o'lchangan va hisoblangan bo`lishi shart. Bunga integral usulini qo'llash orqali erishish mumkin.

Masalan, tovar mahsuloti xajmining o`sishi va kamayishiga asosiy fondlar qiymati va undan samarali foydalanish ta'sirini quyidagi misolda integral usuli orqali aniqlaymiz (3.1-jadval).

3.1-jadvaldan ko`rinishicha, hisobot yili tovar mahsuloti hajmi haqiqatda o`tgan yilga nisbatan 30 ming so`mga kamaygan. Bunga quyidagi omillar ta'sir ko`rsatdi:

1. Asosiy fondlar yillik o`rtacha qiymatining o`zgarishi (ekstensiv omil). U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N_F = L_o \cdot \Delta F + \Delta L \cdot \Delta F / 2$$

$$N_F = 1 \cdot 1860 \cdot 1414 + (-0.2921) \cdot 1414 / 2 = + 1470 \text{ ming so`m}.$$

2. Fond samarasining o`zgarishi. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

### 3.1-jadval

#### Asosiy fondlardan samarali foydalanishni tahlili

Ko`rsatkichlar	Shartli belgilar	Haqiqatda o`tgan yili (0)	Haqiqatda joriy yili (1)	O`zgarishi (+ -) Δ
1.Tovar mahsuloti (ming so`m hisobida)	N	5254	5224	- 30
2.Asosiy fondlarning yillik o`rtacha qiymati (ming so`m hisobda)	F	K4430	5844	+ 1414
3.Fo`nd samarasi (1q:2q), (so`m hisobda)	L	1.1860	0.8939	- 0.2921

$$N_L = F_0 \cdot \Delta L + \Delta L \cdot \Delta F : 2$$

$$N_L = 4430 \cdot (-0.2921) + (-0.2921) \cdot 1414 : 2 = -1500 \text{ ming so`m}$$

3. Ikkala omilning yig`indisi:

$$N_F + N_L = (+1470) + (-1500) = -30 \text{ ming so`m.}$$

Demak, tovar mahsulot ishlab chiqarishning 30 ming so`mga kamayishi asosiy fondlardan foydalanishni yomonlashganligi sababli sodir bo`lgan, buning ta'sirida tovar mahsulot ishlab chiqarish 1500 ming so`mga kamaygan, lekin asosiy fondlar qiymatining o`sishi natijasida mahsulot hajmi 1470 ming so`mga ko`paygan.

#### 3.3. Korrelyatsiya va regressiya usullarining mohiyati va ularni iqtisodiy tahlilda qo`llanilishi

Korrelyatsiya va regressiya usullari ikki va undan ortiq ko`rsatkichlar-ning o`zgarishini bir-biri bilan bog`langanligini hisoblashda qo`llaniladi. Bunda korrelyatsiya koeffitsienti 0 ga teng bo`lsa, u holda o`rganiladigan ko`rsatkichlarda hech qanday bog`liqlik yo`qligini ko`rsatadi. Agar korrelyatsiya koeffitsienti 1 ga teng bo`lsa, u holda o`rganiladigan ko`rsatkichlarda bog`liqlik to`liq bo`ladi, ya`ni funksional bo`ladi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari assosida korrelyatsion-regression usuldan foydalanib, ishchilarni fond bilan qurollanish va bir ishchiga to`g`ri keluvchi ish unumi o`rtasidagi bog`lanishni ko`rishimiz mumkin.

### 3.2 – jadval

Tartib soni	Fond bilan qurollanish (ming so`m) X	Bir ishchiga to`g`ri keluvchi ish unumi (ming so`m) Y	O`rtacha X qatardan farqi $\Delta X q \bar{X} - X$	O`rtacha Y qatordan farqi $\Delta Y \bar{q} \bar{Y} - Y$	Farqkarning ko`payt masi $\Delta X \cdot \Delta Y$	X qatorning kvadrat farqi $\Delta X^2$	Y qatorning kvadrat farqi $\Delta Y^2$
A	1	2	3	4	5	6	7
1	0.10	2,5	0,45	1,35	0,6075	0,2025	1,8225
2	0.20	2,8	0,35	1,05	0,3655	0,1225	1,1025
3	0.30	2,9	0,25	0,95	0,2375	0,0625	0,9025
4	0.40	3,7	0,15	0,15	0,0225	0,0225	0,0225
5	0.50	3,9	0,05	- 0,05	- 0,0025	0,0025	0,0025
6	0.60	4,3	- 0,05	- 0,45	0,0225	0,0025	0,2025
7	0.70	3,8	- 0,15	0,05	- 0,0075	0,0225	0,0025
8	0.80	4,5	- 0,25	0,65	0,1625	0,0625	0,4225
9	0.90	4,9	- 0,35	- 1,05	0,3675	0,1225	1,1025
10	1.00	5,2	- 0,45	- 1,35	0,6075	0,2025	1,8225
Summa	5.50	38,5	0.00	0,00	2,3850	0,8250	7,4050
O`rtacha miqdori	0.55	3,85	-	-	-	-	-

Ishchilarining fond bilan qurollanish va bir ishchiga to`g`ri keladigan ish unumi (mehnat unumdorligi darajasi) o`rtasidagi korrelyatsiya koeffitsientini quyidagi formula orqali ifoda etamiz.

$$R_{xy} = \frac{\sum \Delta X \cdot \Delta Y}{\sqrt{\sum \Delta X^2 \cdot \Delta Y^2}} = \frac{2,3850}{0,8250 \cdot 7,4050} = 0,97$$

Demak, fond bilan qurollanish va mehnat unumdorligi o`rtasidagi bog`liqlik to`la (funktsional), degan xulosa qilamiz.

#### 3.4. Omillar tizimini determinallashgan modellarda aks ettirish

Omillar tizimini modellashtirishda iqtisodiy ko`rsatkichlarning o`zgarishiga ta'sir qiluvchi barcha omillarni model tizimiga kiritish kerak. Masalan, avanslashtirilgan fondlarning rentabellik darajasi baho

miqdoriga, baho o`zgarishiga, asosiy fondlar va aylanma mablag`larning o`zgarishiga, sof foydaning o`zgarishiga, mahsulot xilma-xilligi va tarkibining o`zgarishiga hamda boshqa ko`p omillarga bog`liq.

Avanslashtirilgan fondlarning rentabellik darajasi sof foydani asosiy fondlar va aylanma mablag`larning yillik o`rtacha qiymatiga nisbati tariqasida aniqlanib, uni quyidagi formula orqali ifoda etishimiz mumkin.

$$R = \frac{\hat{O}^N}{F + E} = \frac{X_1}{X_2 + X_3}$$

Buni quyidagi misolda ko`ramiz.

$$1. \Delta R(X_4) = \frac{\Delta X_4}{\Delta X_5 + \Delta X_6} = \frac{0.012}{(+0.1075) + (-0.0032)} = 0.1141$$

$$2. \Delta R(X_5) = \frac{(0.0005 - 0.1141)}{0.1075 - 0.0032} = -0.1124$$

$$3. \Delta R(X_6) = \frac{(0.0005 - 0.1141)}{0.1075 - 0.0032} * (-0.0032) = 0.0033$$

$$4. \Delta R = \Delta R(X_4) - \Delta R(X_5) + \Delta R(X_6) = 0.1141 - 0.1124 + 0.0033 = +0.0005$$

### 3.3 - jadval

Ko`rsatkichlar	O`lchov birligi	Shartli belgi	Baza yili (0)	Hisobot yili (1)	O`zgarishi (+, -)
A	B	V	1	2	3
1. Sof foyda	Ming so`m	$\Phi^c = X_1$	714	902	+ 188
2. Asosiy fondlarning yillik o`rtacha qiymati	Ming so`m	$F = X_2$	4430	5844	+ 1414
3. Aylanma mablag`larning yillik o`rtacha qiymati	Ming so`m	$E = X_3$	2120	2396	+ 276
4. Sof tushum	Ming so`m	$N_p$	6432	7340	+ 908
5. Bir so`milk sotilgan mahsulot hisobiga olingan cof foyda	so`m	$\frac{X_1}{N_p} = X_4$	0,1110	0,1229	+ 0,0119
6. Fond sig`imi	so`m	$\frac{X_2}{N_p} = X_5$	0,6887	0,7962	+ 0,1075

A	B	V	1	2	3
8.Aylanma mablag`lar sig`imi	so`m	$\frac{X_3}{N_p} = X_6$	0,3296	0,3264	- 0,0032
8.Aylanma mablag`larning aylanish koeffitsienti	marta	$\frac{N_p}{X_3} = X_7$	3,034	3.063	+ 0,029
9.Umumiy fondlar tarkibda aylanish mablag`larning ulushi	Koef.	$\frac{X_3}{X_2 + X_3} = X_8$	0,3237	0,2908	- 0,0329
10.Rentabellik koeffitsienti	Koef.	$R = \frac{X_1}{X_2 + X_3}$	0,1090	0,1095	+ 0,0005

Yagona eng qulay usulni qo`llash uchun nazariy o`yin usulidan foydalanmoq kerak. Bu usulning mohiyatini quyidagi misolda ko`rishimiz mumkin.

Xo`jalik oktyabr va noyabr oylarida 1ts. sut ishlab chiqarish 20 ming so`m, 1ts. go`sht tayyorlash uchun esa 200 ming so`m xarajat qilgan. Davlatga sotish bahosi esa sut uchun 30 ming so`m, go`sht uchun 250 ming so`mdan iborat.

O`tgan yillar shuni ko`rsatdiki, yuqoridagi oylarda havo issiq keldi. Xo`jalik aholiga 500ts. sut va 400ts. go`sht sota oladi. Agar oktyabr va noyabr oylarida havosov uchun 600ts. go`sht va 100ts. sut sotadi.

Vazifa.

Tabiat injiqliklarini hisobga olgan holda xo`jalikka keladigan tushumni bir maromda bo`lishini ta'minlashdan iboratdir.

1. Xo`jalik - R1 - o`yinchi

Tabiat - R2 - o`yinchi

Issiq havoda xo`jalik daromadi quyidagicha 400s.(250000-200000) + 500s.(30000-20000) s 25 mln. so`m.

Xo`jalik uchun A strategiya, tabiat uchun s strategiya. Xo`jalik A strategiya bo`yicha ish yuritadi. Ob-havosov bo`lib qoldi.

II. 400s.(250000-200000)+100s.(30000-20000)-400s.(30000-20000)=17 mln. so`m.

III. Sovuq ob-havoda xo`jalik daromadi 600s.(250000-200000)+100s.(30000-20000) = 31 mln. so`m.

Tabiat uchun V strategiya quyidagi to`lov matritsasini tuzamiz.

O`yinchil ar R	R <sub>2</sub>			
	Strategiya	S	D	Min
	A	25000	17000	17000
	B	17000	31000	17000
	Max	25000	31000	X

Xo`jalik V strategiyasida noma'lum (x) A strategiyasini qo`llasa( $1-x$ )  
 $31000x+17000(1-x)=17000x+25000(1-x)=22000x+3000$

$$x = \frac{4}{11} \quad 1 - \frac{4}{11} = \frac{7}{11}$$

$$31000 \cdot \frac{4}{11} + 17000 \cdot \frac{7}{11} = 22091 \text{ ming so'm}$$

$$17000 \cdot x \cdot \frac{4}{11} + 25000 \cdot x \cdot \frac{7}{11} = 22091 \text{ ming so'm}$$

Endigi vazifa xo`jalik yil davomida qanday nisbatda sut va go`sht ishlab chiqarishi lozimki, xo`jalik daromadi bir maromda bo`lishligini ta'minlash uchun (400s. go`sht + 500s. sut)  $\frac{4}{11}$  + (600s. go`sh + 100s. sut)  $\times \frac{7}{11} + \frac{1}{11}$  (1600s. go`sh + 2000s. sut + 4200s. go`sht + 700s. sut) =  $\frac{1}{11}$  (5800s. go`sht + 2700s. sut) = 527s go`sht, 245s. sut.

Demak, xo`jalik uchun optimal strategiya yil davomida 527ts. go`sht va 245ts. sut ishlab chiqarishdan iborat. Bunda ob-havoning qay darajada kelishidan qat'iy nazar, daromadi 22091 ming so'm bo`lib turishi ta'minlanadi.

### Qisqa xulosalar

Ushbu mavzuni o`rganish natijasida talabalar iqtisodiy matematik usullarni qo`llashni mohiyatini, hususan natija ko`rsatkichining o`zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda integral, korrelyatsiya va regressiya usullarini, omillar tizimini determinallashgan modellarda ifoda etishni hamda nazariy o`yin usulini iqtisodiy tahlilda qo`llashni bilishlari zarur.

### Nazorat va muhokama uchun savollar

1.Tahlilda qo`llaniladigan iqtisodiy-matematik usullarga umumiy ta'rif.

2.Iqtisodiy-matematik modellashtirish xo`jalik faoliyatini o`rganish usullaridan biri ekanligi.

3.Pirovard ko`rsatkichlarning o`zgarishiga ta'sir qiluvchi miqdoriy omillarni tahlil qilish metodi (usuli).

4.Korxonaning moliyaviy-xo`jalik faoliyatini kompleks tarzda baholash usuli.

5.Grafik usullar: taqqoslash diagrammalari, korrelyatsion maydon grafigi, statistik kartogrammalar, vaqtli qator diagrammalar, jadvalli setka (to`r) turlari.

6.Korrelyatsion - regression tahlil usuli.

8.Chiziqli dasturlash usuli.

8.Dinamik dasturlash usuli.

9.Matematik o`yinlar nazariyasi usuli.

10.Ommaviy xizmat ko`rsatish nazariyasi usuli.

### **Asosiy adabiyotlar**

1.Shoalimov A.X., Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. –Т.: TDIU. 2010.

2.Савицкая Г.В. Теория экономического анализа. Учебник. –М.: ИНФРА, 2010.

3.Басовский Л.Е. Экономический анализ. Учебник. –М.: Риор, 2009.

4.Казакова Р.П. Теория экономического анализа. Учебник. –М.: ИНФРА, 2008.

5.Вахобов А. ва бошқалар. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Дарслик. -Т.:Шарқ, 2005.

6.[www.cer.uz](http://www.cer.uz)- (Центр экономического исследования).

7.[www.pravo.eastink.uz](http://www.pravo.eastink.uz) (Сборник экономических законодательств).

## **IV BOB.IQTISODIYOT SUB'YEKTLARIDA TAHLIL ISHLARINI TASHKIL QILISH VA MANBALAR BILAN TA'MINLASH**

- 4.1.Iqtisodiy tahlilini tashkil etish.
- 4.2.Iqtisodiy tahlilini ma'lumotlar bilan ta'minlashi.
- 4.3.Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ma'lumot manbalarining to'g'rilingini tekshirish usullari.
- 4.3.Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ma'lumot manbalarining to'g'rilingini tekshirish usullari.
- 4.5.Korxonalarning faoliyatini tahlil qilishda qatnashadigan sub'yektlar.


### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar**

Boshqaruv tizimi; axborot manbalari; oraliq bosqich; analitik bosqich; tahlil natijalari; qarorlar qabul qilish; boshqaruv qarorlarini ishlab chiqarishga tadbiq etish; tahlil natijalarini rasmiylashtirish; analitik jadvallar; tahlil dasturi; izohnoma; tahlil sub'yektlari.

#### **4.1. Iqtisodiy tahlilini tashkil etish**

Tahliliy ishlarni muvaffaqiyatli, samarali o'tkazilishi, uni har tomonlama o'ylab, sinchiklab tashkil qilinishiga bog'liqdir. Uning o'tkazilishi ilmiy xarakterga asoslangan reja asosida amalga oshirilishi lozim.

Iqtisodiyot sub'yektlarida iqtisodiy tahlilni tashkil etish shakllarini quyidagi 4.1-rasmda ko'rishimiz mumkin.



**4.1-rasm. Iqtisodiyot sub'yektlarida iqtisodiy tahlilni tashkil etish shakllari**

Analitik jarayonni muvaffaqiyatli o'tkazishning garovi uni har tomonlama puxta tashkil qilishdir. Analitik jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) tahlil dasturini tuzish;
- 2) tahlil uchun ma'lumotlar tanlash va ularni tekshirish;
- 3) ko'rsatkichlarni tanlash va hisoblash;
- 4) ko'rsatkichlarni analitik jihatdan qayta ishlash va taqqoslash;

5) tahlil natijalarini umumlashtirish va korxona hamda tashkilotlar faoliyatida sodir bo'lgan kamchiliklarni bartaraf qilish uchun chora va tadbirlar ishlab chiqih hamda aniqlangan ichki xo'jalik rezervlaridan foydalanish. Dastursiz bajariladigan tahlil, yoxud o'rganiladigan masalalar ko'lamenti aniq belgilamaslik o'z navbatida tahlil natijalariga putur etkazadi. Shuning uchun analitik ishlarni tashkil qilish borasidagi eng ma'suliyatlari vazifa-iqtisodiy tahlil dasturini tuzish hisoblaniladi.

Tahlil dasturining hajmi va mazmuni undan ko'zlangan maqsadga bog'liq. Masalan, tahlil kompleks tarzda o'tkazilishi mumkin. Bunda korxona va tashkilotlarning faoliyatini hamma tomonlari chuqur o'rganiladi. Yoki ishning qandaydir bir tomonini o'z ichiga olgan tematik (tanlanma) tahlil bo'ladi. Kompleks tahlil o'tkazilganda oylik, kvartallik va yillik hisobot materiallari asosida analitik bayonot yozishda qo'llaniladigan jadvallar maketi yuqori tashkilot tomonidan tasdiqlanishi kerak. Masalan, butun moliya-kredit sistemasi bo'yicha tahlil moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan umumiylari yagona dastur, metod hamda umumiylari analitik jadvallar maketi asosida olib borilsa edi avvalgidek, bu maqsadga muvofiq bo'lur edi. Agar tanlanma tahlil o'tkazilsa, u holda dasturda uning mavzusi, hajmi, qanday manbalarga va ma'lumotlarga asoslanishi, tahlilni bajaruvchi shaxs, ishning bajarilish muddati ko'rsatilishi kerak.

Tahlil uchun materiallarni tayyorlashda joriy hisobda berilmaydigan ma'lumotlarni aniqlash katta ahamiyatga molik. Masalan, ishchilarining bekor turib qolish sabablarini aniqlash uchun bevosita kuzatuv olib borish kerak. Bunda ish kunini fotografiya qilish orqali yoki ushbu uchastkada band bo'lgan ishchilar va boshqa xodimlarning fikr va mulohazalarini bilish orqali yuqorida aytilgan kamchiliklarning sabablari aniqlanadi.

U yoki bu axborotlar manbasidan foydalanish tahlil dasturini tuzishda hisobga olinishi kerak. Ma'lumotlarning to'g'rilingini va aniqligini tekshirishdan so'ng ularni qayta ishlashga o'tiladi.

## **4.2. Iqtisodiy tahlilini ma'lumotlar bilan ta'minlashi**

Korxonalar faoliyatini tahlil qilshda ko'plab ma'lumot manbalaridan foydalilaniladi. Iqtisodiy tahlilning asosiy axborot manbalari quyidagilar:

1. Biznes-reja ma'lumotlari.
2. Buxgalteriya hisobi va hisoboti.
3. Statistik hisob va hisobot.
4. Operativ (tezkor) hisob va hisobot.
5. Hisobdan tashqari ma'lumotlar.

Ushbu sanab o'tilgan ma'lumotlar ichida eng asosiysi buxgalteriya hisobi va hisoboti hisoblanadi, chunki taxminan 70 foiz ma'lumotlarni iqtisodiy tahlil buxgalteriya hisobidan oladi. Tahlil qilish jarayonida yillik hisobotga yozilgan izohnoma ham har tomonlama ko'rib chiqiladi. Tahlil qilish jarayonida hisobdan tashqari ma'lumotlardan ham foydalanish katta samara beradi. Bularga: tekshirish va taftish dalolatnomalari, moliya va soliq idoralari, bankning bajargan tahlil natijalari, laboratoriya va tabobat-nazorti materiallari, korxona mehnat jamoasining umumiyligi majlis materiallari, korxona mehnat lamoasining umumiyligi majlis materiallari kiradi.

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan axborotlar oshkoraliqi nuqtai nazaridan yopiq va ochiq ma'lumotlarga bo'lnadi. Buxgalteriya va statistik hisobotlarda iqodalangan ma'lumotlar tashqariga, boshqa sub'yektlarga taqdim qilinadi va ular ochiq ma'lumotlarga kiradi. Bozor muneosabatlari sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi sub'yekt o'zining me'yoriy ko'rsatkichlari, tariflari, limitlari va ularni baholash yo'llarini ishlab chiqadi. Bu ko'rsatkichlar xo'jalik sub'yektining tijorat, texnologik va ishlab chiqarish siri hisoblanadi.

## **4.3. Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ma'lumot manbalarining to'g'riliagini tekshirish usullari**

Iqtisodiy tahlil qilishning samarasi avvalambor, hisobot ma'lumotlarining sifatiga bog`liq. Shuning uchun hisob va hisobot materiallarini tekshirish kerak. Amalda ma'lumotlarni tekshirishning bir necha usullari mavjud:

1. Hisobotlarni tuzish qoidalariga amal qilish. Ushbu tekshirish o`z ichiga quyidagilarni oladi: hisobot shakllarining to`g`ri to`ldirilishi va ularning O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O`zbekiston Davlat Statistika qo`mitasi tomonidan tasdiqlangan shakllarga mos kelishi, ayrim miqdoriy ko'rsatkichlarni aniqlashda arifmetika amallarini to`g`ri qo'llanilganligi kabilar. Hisobot shakllari va hujjatlarda hech qanday

tuzatish yoki raqamlarni o`chirib qayta yozish aslo mumkin emas. Hisobot shakllari direktor va bosh buxgalter tomonidan imzolangan bo`lishi kerak.

2.Turli hisobot shakllarida beriladigan iqtisodiy ko`rsatkichlar so`mmasining bir - biriga mos kelishi. Ushbu tekshirishning mohiyati quyidagidan iborat: Bir qancha iqtisodiy ko`rsatkichlar turli hisobot shakllarida beriladi va binobarin, hisobot tuzishda ana shu iqtisodiy ko`rsatkichlar summasi bir-biriga to`g`ri kelishi shart. Masalan, ustav kapitalining miqdori 1-shakl (balans) va 5-shakl (xususiy kapital to`g`risidagi hisobot) yoki asosiy fondlarning summasi 1-shakl (balans) va 3-shakl (Asosiy vositalarning harakati to`g`risida hisobot) beriladi va h.k.

Tekshirishning ushbu usulini aniqroq tushunish uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz:

Turli hisobot shakllarida berilgan iqtisodiy ko`rsatkichlar summasining bir-biriga mos kelishi.

#### 4.1 - jadval

Tartib soni	Ko`rsatkichlar	1 – shakl			2 – shakl			Mos kelishi to`g`risi- dagi belgi
		Shakl soni	Qator va ustun soni	Summa (ming so`m hisobda)	Shakl soni	Qator va ustun soni	Summa (ming so`m hisobda)	
1	Ustav kapitali yil boshiga yil oxiriga	1	410/3	8 937	5	010/3	8 937	mos
		1	410/4	8 937	5	110/3	8 937	mos
2	Asosiy vositalar yil boshiga yil oxiriga	1	010/3	13 397	3	170/3	13 397	mos
		1	010/4	13 513	3	170/6	13 513	mos
3	Rezerv kapitali yil boshiga yil oxiriga	1	430/3	6 763	5	010/5	6 763	mos
		1	430/4	7 983	5	110/5	7 983	mos

#### 4.4.Tahliliy hisoblar va tahlil natijalarini rasmiylashtirish

Hisobot ma'lumotlarini tahliliy jihatdan qayta ishlash usullaridan biri tahliliy jadvallarni tuzish hisoblanadi. Jadvalga tahlil qilinadigan ko`rsatkichlarning baza va amaldagi darajasi kiritiladi, mutlaq farq aniqlanadi, ko`rsatkichlarning o'sish sur'ati aniqlanadi hamda tegishli xulosa yoziladi. Tahliliy jadvallarning ustunligi va afzalligi shundan

iboratki, u ham bo`lsa, ko`rsatkichlarning o`zaro bog`lanishi juda ham aniq va ko`rgazmali tarzda namoyon bo`ladi.

Tahlilning so`nggi bosqichi uning natijalarini rasmiylashtirish hisoblanadi. Tahlil natijalariga asoslangan holda ma'lumotnoma yoki izohnoma yoziladi. Izohnomada korxona va tashkilotlarning xo`jalik faoliyatida qo`lga kiritilgan yutuqlari va yo`l qo`ygan kamchiliklarini bartaraf qilish yo`llari ko`rsatiladi. Bu o`rinda ayniqsa, aniqlangan ichki xo`jalik rezervlarni ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jalb etish yo`llari ko`rsatiladi. Izohnoma juda ham qisqa va mazmunli bayon etilishi lozim.

#### **4.5.Korxonalarning faoliyatini tahlil qilishda qatnashadigan sub'yektlar**

Korxona va tashkilotlarning xo`jalik va moliyaviy faoliyati avvalambor ushbu korxonaning xodimlari tomonidan tahlil qilinadi. Korxonalarning xo`jalik va moliyaviy holati tahlil qilish asosan reja-iqtisod, buxgalteriya va moliya bo`limlarining vazifasidir. Hozirgi vaqtda katta va yirik korxonalarning tarkibida iqtisodiy laboratoriylar ham iqtisodiy tahlil qilish bilan mukammal tarzda shug`ullanmoqdalar (4.2-rasm).

##### **Iqtisodiy tahlilning sub'yektlari**

Iqtisodiy tahlil natijasidan bevosita manfaatdorlar					Iqtisodiy tahlil natijasidan bevosita bilvosita manfaatdorlar				
Mulk egalari	Qarz beruvchilar	Xamkorlar (buyurtmachilar va sotuvchilar)	Soliq idoralari	Korxona ma'miriyati	Auditorlik tashkilotlari	Birjalar va sug'urta kompaniyalari	Maslahatchilar	Assosiasiyalar	Matbuot muassasalari

#### **4.2-rasm. Tahlil jarayonida qatnashuvchi iqtisodiyot sub'yektlari**

Korxona va tashkilotlarning faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish bevosita yuqori tashkilotlarning vazifasi ham bo'lib, ular korxonalarining hisobotini tasdiqlaydilar hamda ularning ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy faoliyatini ob'yektiv (xolisona) baholab, tegishli qarorlar qabul qiladilar. Iqtisodiy tahlil qilish bilan moliya va soliq idoralari va bank xodimlari ham shug'ullanadilar. Ular avvalambor so'm bilan nazorat qilish, korxona va tashkilotlarning davlat byudjeti bilan bo'lgan o'zaro munosabatlariga taalluqli masalalar bilan qiziqadilar. Statistika idoralari ham iqtisodiy tahlil bilan shug'ullanadilar. Ular qabul qilingan hisobot va statistik ma'lumotlarni statistika usullari bilan qayta ishlab vazirliklar va boshqarmalarni yig'ma axborot materiallari bilan ta'minlaydilar.

### **Qisqa xulosalar**

Ushbu bobni o'rghanish natijasida talabalar iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni axborot manbalarini, qo'llaniladigan ma'lumotlar manbalarining to'g'rilingini tekshirish usullarini, tahlil natijalari qanday rasmiylashtirishni; tahliliy jarayon bosqichlarini, xususan iqtisodiy tahlil dasturini tuzish, tahlil uchun ma'lumotlarni toplash va ularni tekshirishni, hisob kitob qilishni ko'rsatkichlarni tahliliy jihatdan qayta ishlash va taqqoslashni bilashlari kerak.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

- 1.Tahliliy ishlarni tashkil etishni boshqaruv apparatining tarkibi va boshqaruv tizimining texnikaviy jihatdan jihozlanganligiga bog`liqligi.
- 2.Kompleks tahlil dasturi qanday tuziladi?
- 3.Tanlanma tahlil dasturi qanday tuziladi?
- 4.Moliya-kredit tizimi bo'yicha tuzilgan iqtisodiy tahlil dasturining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
- 5.Iqtisodiy manbalar tizimi tahlilning ma'lumotlar bazasi sifatida.
- 6.Iqtisodiy tahlilning asosiy manbalari.
- 7.Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ma'lumotlar manbalarining to'g'rilingini tekshirish usullari.
- 8.Tahliliy jadvallarga ma'lumotlar tayyorlash.
- 9.Iqtisodiy ma'lumotlarni kompyuterda ishlov berishni tashkil etish asoslari.
- 10.Hisobotlarni tuzishda qanday qoidalarga amal qilinadi ?
- 11.Moliyaviy hisobot shakllarida beriladigan iqtisodiy ko'rsatkichlar summasining bir-biriga mos kelishi nima ?

- 12.Hisobot ma'lumotlarni tahliliy jihatdan qayta ishlash nima ?
- 13.Iqtisodiy tahlilning so`ngi bosqicha qanday rasmiylashtiriladi ?
- 14.Iqtisodiy tahlil qilish bilan mukammal tarzda kim shug`ullanadi?
- 15.Iqtisodiy tahlilda qatnashadigan sub`yektlar.

### **Asosiy adabiyotlar**

- 1.Shoalimov A.X. Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. –Т.: TDIU, 2010.
- 2.Савицкая Г.В. Теория экономического анализа. Учебник. –М.: ИНФРА, 2010.
- 3.Гинзбург А.И. Экономический анализ. Учебник. -СПБ.: Питер, 2009.
- 4.Баканаов М.И., Мельник М.В. Теория экономического анализа. -М.: Финансы и статистика. 2006.
- 5.Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. -Т.: Mehnat, 2004.
- 6.[www.nao.gov.uk](http://www.nao.gov.uk)- (UK National Audit Offise).
- 7.[www.iiia.org.uk](http://www.iiia.org.uk)- (The Institute of Internal Auditors-United Kingdom).

## **V BOB.IQTISODIY TAHLILNING TURLARI VA ULARNI ISHLAB CHIQARISHNI BOSHQARISHDA TUTGAN O'RNI**

5.1.Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish turlarini turkumlash va ularnu boshqaruv funksiyalari

5.2.Xo`jalik faoliyatining joriy (retrospektiv) tahlili.

5.3.Tezkor tahlili.

5.4.Istiqlol tahlili

5.5.Moliya-iqtisodiy tahlil.

5.6.Texnik-iqtisodiy tahlil

5.7.Taqqoslama (korxonalararo) tahlil.

5.8.Funksional - qiymat tahlili.

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar**

Kompleks va sistemali tahlil; pirovard natija; omillar; sabablar; joriy (retrospektiv) hisobot; retrospektiv tahlilni ob'ekti va sub'yekti; tezkor hisobot; ish kunini tasvirga tushirish, hisobot materiallarini qayta ishslash; ichki – zavod tahlili; zavodlararo tahlil; taqqoslash shartlari; iqtisodiy model; biznes-reja ma'lumotlari; hisob ma'lumotlari, hisobdan tashqari ma'lumotlar; rasmiy hisobot; oylik, chorak va yillik hisobotlar; funksional-qiyamat tahlili.

### **5.1.Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish turlarini turkumlash va ularnu boshqaruv funksiyalari**

Tahlil turlarini turkumlash - ularni umumlashtirish va bir tizimga keltirishga, eng muhim tomonlarini aniqlashga hamda ushbu fanning istiqbolda yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyat ochib beradi.

Tahlilning barcha turlari o`z belgilariga qarab ma'lum guruhlarga umumlashtiriladi. Bunday guruhlashgan belgilarga quyidagilarni kiritish mumkin: tahlilning vazifalari, uni o`tkazish muddati, qabul qilinadigan qarorlarning xarakteri, korxonalar faoliyatini o`rganishning asosiy tomonlari, rezervlarni aniqlash usullari, o`rganiladigan ob'yekt, tahlil qiluvchi sub'yekt, o`rganiladigan hodisalarning ko`lami, axborotlarni qayta ishslash usullari kabilar. Barcha turdag'i tahlilning turlari ularning bajargan vazifalariga qarab quyidagi guruhlarga umumlashtiriladi: biznes-rejaning tig`izligi va asoslanganligini baholash va uning bajarilishini nazorat qilish, erishiladigan tijalarni bashorat qilish, ya'ni: oldindan aytib berish, erishilgan natijalarga ob'yektiv baho berish va shu maqsadda korxona faoliyatiga bog`liq va bog`liq bo`lmagan sabablarni aniq

## Iqtisodiy tahlil

Shakllari	Mazmuni
1.Kompleks tahlil	Xo'jalik yurituvchi sub'yekt faoliyatini makon va zamon nuqtai nazaridan barcha tuzulmalari bilan birga batafsil tahlil qilishdir.
2.Solishtirish tahlili	Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatini yaxlit holda alohida tuzulmalari yoki mavzularini baho va vaqt jihatidan solishtiriladigan holatga keltirilib amalga oshiriladigan tahlildir.
3.Omilli tahlil	Xo'jalik faoliyati natijasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisbolash usullarini majmuasini o'zida aks ettirgan tahlildir.
4.Funksional-qiymat tahlili	Hoar bir bajariladigan funksiyani (asosiy, yordamchi va nokerak) qiymat jihatidan baholab, mahsulotning sifatini oshirgan holda nokerak funksiyalarini bartaraf qilish evaziga ichki imkoniyatlarni topish va ishga solishga qaratilgan tahlildir.
5.Marjinal tahlili	Barcha xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchi xarajatlarga bo'lib ishlab chiqariladigan mahsulotlarning (bajariladigan ish, ko'rsatiladigan hizmat) biznesda ko'zda tutilgan foydaga erishish uchun zarur bo'lган miqdorini aniqlash va samaradorligini oshirishga qaratilgan tahlildir.
6.Stoxastik tahlil	Xo'jalik faoliyatida natija va omillar o'rtasidagi bog'liqlik, funksional bog'liq bo'lмаган sharoitda, ularning bog'liqligini o'rganishga qaratilgan tahlildir.
7.Loyiha tahlili	Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar istiqbolini, biznes-rejasini, investisiya loyihamalarini asoslash uchun hali sodir bo'lмаган, ya'ni, bo'lishi kutilayotgan iqtisodiy jarayonlarni o'rgatadigan tahlildir.
8.Moliyaviy tahlil	Xo'jalik yurituvchi sub'yekt moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o'rganishga bag'ishlangan tahlildir.
9.Boshqaruv tahlili	Korxona rahbariyati, egasi va mutaxassislari tomonidan ichki imkoniyatlarni ishga solish va samaradorlikni oshirish maqsadida qilinadigan tahlildir.
10.Xo'jalik faoliyati tahlili	Korxonalar xo'jalik faoliyatini o'rganishga qaratilgan iqtisodiyotning mikroiqtisod darajasini o'rganishga qaratilgan tahlildir.
11.Auditorlik tahlili	Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliya -xo'jalik faoliyatini audit qilganda to'g'ri xulosa chiqarish uchun auditorlar tomonidan o'tkaziladigan tahlil.

belgilash, bog`liq bo`lmanan sabablarni aniq belgilash, ichki xo`jalik hisobi yakunini o`tkazish, rezervlarni aniqlash va ularni ishlab chiqarishga jalb etish, kelgusida rejalashtirish uchun asos (baza)ni aniqlash, optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tahliliy variantlarni tayyorlash.

## 5.2.Xo`jalik faoliyatining joriy (retrospektiv) tahlili

Korxonalarining amaliy faoliyatida asosan joriy tahlil o`tkazish usuli to`la ishlab chiqilgan. Joriy tahlil korxonalarining xo`jalik faoliyatini tahlil qilishda rasmiy jihatdan qabul qilingan hisobotga tayangan holda ularning oylik, kvartallik, yillik va qator yillar tahlil qilinadi. Joriy tahlilning asosiy vazifasi xo`jalik faoliyatida erishilgan pirovard natijalarga ob`yektiv baho berish, foydalanilmagan ichki xo`jalik rezervlarini kompleks tarzda aniqlash va ularni kelgusida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jalb etish hisoblanadi (5.1-rasm).



## 5.1.-rasm. Joriy tahlilning asosiy vazifalari

Joriy tahlilning keng ko`lamda qo`llanishiga quyidagilar sabab bo`ldi: birinchidan, tahlilning barcha vazifalari biznes-rejaning tig`izligi va asoslanganligi, uning bajarilishini nazorat qilish, xo`jalik faoliyatida erishiladigan natijalarni oldindan aytib berish, mehnat, moddiy va moliya resurslaridan samarali foydalanish va hokazolar joriy tahlil zimmasiga tushadi; ikkinchidan, joriy tahlilning keng ko`lamda qo`llanilishiga barcha korxonalarining tasdiqlangan yagona hisobot shakllariga asosan yuqori tashkilot, statistika, moliya va soliq organlari, davlat bankiga hisobot topshirish vazifasining zarurligi; uchinchidan, joriy tahlilning bajariladigan tahliliy ishlarda tutgan salmog`i 90 foizni tashkil qiladi, chunki dastlabki va tezkor tahlilni o`tkazish usuli hali to`la ishlab chiqilmagan;

to`rtinchidan, joriy tahlilda korxonaning xo`jalik faoliyati chuqur, har tomonlama o`tkaziladi, chunki tahliliy xodimning ixtiriyorida barcha axborotlar manbai muhayyo; beshinchidan, xo`jalik faoliyatini tahlil qilish tarixan joriy tahlildan boshlangan; oltinchidan, iqtisodiy oliv o`quv yurtlarida mutaxassislarni tayyorlash ham joriy tahlil asosida olib boriladi.


Joriy tahlil uchun asosiy axborotlar - oylik, kvartallik va yillik hisobotlar.

Joriy tahlilning sub`yekti - korxonaning iqtisodiy bo`limlari, yuqori tashkilot, moliya, soliq va statistika organlari, davlat banki hisoblanadi. Joriy tahlilning ob`yekti-korxonalar, ularning filiallari, boshqarmalar va vazirliliklardir.

Joriy tahlilning dastlabki va tezkor tahlildan ustunligi shundaki, uni o`tkazishda axborotlar tizimi sistemali va kompleks xarakterga ega bo`lib, rasmiy jihatdan qabul qilingan buxgalteriya va statistika hisobotlariga asoslanadi. Joriy tahlilning kamchiligi shundan iboratki, tahlil xo`jalik faoliyatida kamchilik va xato ro`y berib bo`lgandan so`ng boshlanadi, ya`ni taomilda bir gap bor, u ham bo`lsa «poezd ketib bo`ldi». Shuning uchun korxona rahbarini shu kundagi va istiqboldagi hal bo`lmagan masalalar ko`proq qiziqtiradi.

### **5.3.Tezkor tahlili**

Tezkor tahlil korxonaning xo`jalik faoliyatini boshqarishda shu kundagi ishlab chiqarish jarayonini tezkor tarzda boshqarishda qo`llaniladi. Bu qisqa muddatli tahlil bo`lib, ishlab chiqarish jarayonida ro`y bergen chetga chiqishlarni tezkorlik bilan aniqlab, uni bartaraf qilish chora - tadbirlarini ko`radi. Tezkor tahlilning asosiy vazifasi topshiriqlarni muntazam nazorat qilish, mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish jarayonini kunda aniqlash, shu kundagi ishlab chiqarish rezervlarini o`z vaqtida aniqlash va ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jalb qilish hisoblanadi (5.2-rasm).



## 5.2-rasm. Tezkor tahlilning asosiy vazifalari

Tezkor tahlil boshqaruv tizimida boshqaruv xodimlarining taxminan 50 foiz ish vaqtini egallaydi. Amalda esa uning umumiyligi bajariladigan tahliliy ishlarda tutgan salmog`i 10 foizni tashkil etadi. Tezkor tahlil joriy tahlildan farqli o`laroq u asosan boshlang`ich ma'lumotlarga asoslanadi.

Tezkor tahlil o`z ichiga quyidagilarni oladi:

- korxonaning asosiy miqdor va sifat ko`rsatkichlari bo`yicha hamda uning bo`limmalari smenada, sutkada, besh kunlikda va dekadalarda chetga chiqishini aniqlash;
- me'yordan chiqishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash;
- kamchiliklarga yo`l qo`ygan javobgar shaxslarni aniqlash;
- salbiy omillarni bartaraf qilish uchun tadbirlar ishlab chiqish;
- ko`rsatilgan vaqtida erishilgan natijalarni yakunlash va «Tor» joy va ilg`or bo`g`inlarni aniqlash.


Tezkor tahlil odatda quyidagi ko`rsatkichlar bo`yicha olib boriladi: mahsulotni ishlab chiqarish, jo`natish va sotish, ishchi kuchidan foydalanish, asbob-uskuna va moddiy resurslardan foydalanish, tannarx, foya va rentabellik, to`lov qobiliyati. Demak, joriy tahlilda o`rganiladigan ko`rsatkichlar soni tezkor tahlilda o`rganiladigan ko`rsatkichlardan ancha ko`pdir. Tezkor tahlilning natijasi joriy tahlilga nisbatan unchalik aniq bo`lmaydi. Chunki oyning xohlagan kunida ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy tannarxini va mahsulot tannarxining pasayishi natijasida olingan foya miqdorini aniq hisoblab chiqish mumkin emas, chunki oldindan mahsulotning qancha qismi shu oyda sotiladi, qancha qismi esa kelgusi oyda sotilishini aniq hisoblab bo`lmaydi. Lekin tezkor tahlilning bu kamchiligi uning ahamiyatini kamaytirmaydi, zero, tezkor

tahlil orqali olingan natijalarning mutlaq aniqligidan ko`ra uni o`z vaqtida olish ahamiyatliroqdir.

Istiqbol tahlili, deganda xo`jalik yurituvchi sub`yektning kelgusi faoliyatini oldindan o`rganish, bo`ladigan jarayonlarni oldindan belgilash maqsadida amalga oshiriladigan tahlil tushuniladi. Masalan, xo`jalik yurituvchi sub`yekt biznes-rejani tuzish uchun o`z faoliyatini nima bilan yakunlashi to`g`risida aniq tushuncha va ko`rsatkichlarga ega bo`lishi kerak. Bu esa istiqbol tahlili orqali amalga oshiriladi. Hozirgi paytda uni loyiha tahlili, ham deb atamoqdalar.

#### **5.4.Istiqbol tahlili**

Istiqbol tahlili, deganda xo`jalik yurituvchi sub`yektning kelgusi faoliyatini oldindan o`rganish, bo`ladigan jarayonlarni oldindan belgilash maqsadida amalga oshiriladigan tahlil tushuniladi. Masalan, xo`jalik yurituvchi sub`yekt biznes-rejani tuzish uchun o`z faoliyatini nima bilan yakunlashi to`g`risida aniq tushuncha va ko`rsatkichlarga ega bo`lishi kerak. Bu esa istiqbol tahlili orqali amalga oshiriladi. Hozirgi paytda uni loyiha tahlili, ham deb atamoqdalar. Istiqbolli tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat (5.3-rasm).



#### **5.3-rasm.Iqtibolli tahlilning asosiy vazifalari**

#### **5.5.Moliya-iqtisodiy tahlil**

Ushbu tahlilning mohiyati umumiy qiymat ko`rsatkichlar tizimini o`rganish va korxonalarining moliyaviy faoliyati natijalarini tahlil qilish bilan ifodalanadi. Umumlashgan qiymat ko`rsatkichlariga quyidagilar

kiradi: sotish bo`yicha rejaning shartnoma majburiyatini ado etgan holda bajarilishi, tovar mahsuloti, bir ishlovchiga to`g`ri keladigan yillik ish unumi, mahsulot tannarxi, foyda va shu kabilar. Tahlil qilish jarayonida ana shu qiymat ko`rsatkichlar batafsillashtiriladi. Masalan, mahsulot hajmi-taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan, ularni ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish bo`yicha, mahsulotning sifati kabilar.

Mahsulot tannarxi ko`rsatkichi umuman va ularning unsurlari va kalkulyatsiya moddalari bo`yicha belgilangan biznes-rejaning bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillar batafsil tahlil qilinadi. Umumlashgan mehnat unumdoorligi ko`rsatkichi (bir ishlovchiga to`g`ri keladigan yillik ish unumi) bir ishchiga to`g`ri keladigan yillik, kunlik va soatlik ish unumini o`z ichiga oladi.

Moliya-iqtisodiy tahlilga xos muhim xususiyatlardan biri - bu asosiy axborot olish manbalari. Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan yagona hisobot shakllaridan qo`llanilish hisoblanadi. Shunday qilib, moliya-iqtisodiy tahlilning predmeti korxonalar xo`jalik faoliyatining turli tomonlari, xo`jalik yuritish jarayoni, iqtisodiy ko`rsatkichlarning bir-biri bilan sababiy bog`lanishi hisoblanadi.

Moliya-iqtisodiy tahlilning sub'yekti - bu korxona, vazirlik, boshqarma, moliya-kredit idoralari va statistika organlarining iqtisodiy bo`linmalari hisoblanadi.

Shu bilan birga korxona tahlilning ob'yekti ham hisoblanib, ularning faoliyati yuqori tashkilot, moliya-kredit va statistika organlari tomonidan o`rganiladi. Masalan, moliya organlari korxonalarining xo`jalik faoliyatini tahlil qilishda asosiy e'tiborni biznes-rejaning bajarilishi, aylanma mablag`larining holati, foyda bo`yicha biznes-rejaning bajarilishi, davlat byudjetiga tushadigan to`lov majburiyatlarining bajarilishiga qaratadilar. Kredit tizimi esa korxonalar o`z aylanma mablag`lari holatini, olingan kreditning tovar-moddiy boyliklar bilan ta'minlanganligini, to`lov intizomining bajarilishi kabi masalalarga qaratadi.

O`rganiladigan masalalarga qarab moliya-iqtisodiy tahlil to`la yoki tanlanma xarakterga ega bo`lishi mumkin. Moliya-iqtisodiy tahlilning o`tkazish muddatlari kunlik, xafkalik, dekadalik, oylik, kvartallik, yillik bo`ladi. Moliya-iqtisodiy tahlilning turlari: dastlabki, tezkor va joriy tahlildan iborat.

## **5.6.Texnik-iqtisodiy tahlil.**

Ushbu tahlil kompleks iqtisodiy tahlil va muhandislik tahlilning birikishi asosida hosil bo`lgan.

Texnika-iqtisodiy tahlil 3 yo`nalishda olib boriladi:

- ishlab chiqarishning texnik darajasini tahlil qilish;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat va boshqaruvni tahlil qilish;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning texnik darajasini tahlil qilish.

Korxonaning texnik darajasini tahlil qilish jarayonida korxonaning ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish darajasini, ilg`or texnologiya jarayonlarini joriy qilish, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashdirish, qo`l mehnatini to`la mexanizatsiyalash, zamonaviylashtirish kabi masalalar kiradi.

Ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat va boshqaruv masalalarini tahlil qilish jarayonida qo`llanilayotgan boshqaruv shakllarining progres-sivligi (ilg`orligi), boshqaruv tizimining samaradorligi, boshqaruv shakllarining ilg`orligi, boshqaruv tizimining samaradorligi, boshqaruv apparatini qisqartirish kabi echimlar hal etiladi.

Mahsulotning texnik darajasini tahlil qilish jarayonida iste'molchilar talablarini hisobga olgan holda yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish, ularning texnik va iqtisodiy ko`rsatkichlari respublikamizda va chet ellarda ishlab chiqarilgan eng yaxshi (yuqori) namunalari bilan taqqoslash.

Mahsulotning texnik darjasini ularni attestatsiya qilish orqali aniqlanadi. Texnika-iqtisodiy tahlil iqtisodchilar, texniklar, muhandislar, mutaxassislardan tuzilgan kompleks brigada orqali amalga oshiriladi.

## **5.7.Taqqoslama (korxonalararo) tahlil.**

Taqqoslash - bu iqtisodiy tahlilning eng ko`p qo`llaniladigan usulidir. Taqqoslama tahlilning 2 asosiy turi mavjud: ichki korxona tahlili, ya`ni tahlilning ob`yekti sifatida shu korxonaga taalluqli xo`jalik jarayoni o`rganiladi; korxonalararo, qachonki bir qator korxonalarning xo`jalik faoliyati tahlil qilinib, tarmoqdagi ilg`or tajriba o`rganiladi.

Taqqoslama korxonalararo tahlilning mohiyati alohida olingan korxonalarning xo`jalik faoliyatini ularning ko`rsatkichlarini har tomonlama o`rganib, erishilgan natijalar darajasini xolis farqlash va iqtisodiy ko`rsatkichlarga ta`sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash hamda ilg`or tajribalarni ishlab chiqarishga tadbiq qilish natijasida ichki xo`jalik rezervlarini aniqlashdan iboratdir.

Taqqoslama tahlil korxonaning barcha iqtisodiy ko`rsatkichlarini o`z ichiga olishi mumkin yoki boshqacha so`z bilan aytganda kompleks

xarakterga ega bo`ladi. Taqqoslama tahlilning mazmuni qo`yilgan maqsad va tekshiriladigan ob`yektga qarab quyidagicha turkumlanadi:

- ob`yekt bo`yicha (korxona, sexlar, ishlab chiqarish uchastkasi, ish joyi);
- mavzuning (tema) mazmuni bo`yicha - mehnat predmetlari, mehnat vositalari, mehnat va moliya resurslarini tahlil qilish va hokazo;
- tahlilni o`tkazish doirasi - kompleks tahlil va maxsus (tematik) tahlil.

Taqqoslama tahlilning eng muhim uslubiy masalalardan biri o`rganiladigan ob`yektni bir-biri bilan solishtirish shartlariga rioya qilishdir:

- taqqoslanadigan ko`rsatkichlarning sifat jihatdan bir xilligi va ularni hisoblash usulining birligi (masalan, mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlarning bir xilligi);
- mahsulotni yagona o`lchash, o`zgarmas baho bilan o`lchash, jo`g`rofiy sharoitlarning o`xshashligi;
- taqqoslanadigan davrda ish kunlarining bir xilligi va hokazo.

### **5.8.Funksional - qiymat tahlili**

Mahsulot tannarxini kamaytirish borasida keraksiz va ortiqcha xarajatlarni minimal darajaga keltirish mahsulot ishlab chiqarishni loyihalashtirish va uni ishlab chiqarish chog`ida har tomonlama hisobga olish kerak. Bu masalani ijobiy hal qilishda FQT asqatadi.

FQT - ob`yektni (mahsulot) texnologik va mehnat jarayonlari tizimli tarzda tadqiq qilib, mehnat va moddiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan chora - tadbirlarni ishlab chiqadi.

FQT ning asosida funktsiya tushunchasi yotadi. Demak, FQT buyumning funktsiyalarini tizimli tadqiq qilishni taqozo qilib, u mahsulotni yaratish g`oyasidan to uni foydalanishdan chiqarish va chiqitga chiqarishgacha bo`lgan jarayonni o`z ichiga oladi.

FQT ning asosiy maqsadi-ilmiy-tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlari chog`ida yangi xil mahsulotlarni loyihalashtirish va ularni o`zlashtirishda ortiqcha xarajatlarning yuzaga kelishiga yo`l qo`ymaslik; ishlab chiqarish bosqichida loyiha bo`yicha ko`zda tutilgan xarajatlar darajasidan chetga chiqmaslikni; buyumni qo`llash bosqichida oqlanmagan ekspluatatsion xarajat va yo`qotishlarni bartaraf qilish va nihoyat, buyumlarni utilizatsiya (chiqitga) chiqarish bosqichida chiqitga chiqarilgan buyumlarni qayta ishlab, ulardan foydalanish jarayonini o`z ichiga oladi.

Sanoat mahsulotini ishlab chiqarish bilan bog`liq xarajatlarni to`rt guruhga bo`lish mumkin:

- 1.Buyumning konstruktiv tuzilishi.
- 2.Texnologik jarayon.
- 3.Ishlab chiqarishni tashkil qilish tizimi.
- 4.Tabiiy-jo`g`rofiy omillar.

Binobarin, ishlab chiqarish xarajatlarini muttasil qisqartirish to`rt yo`nalish bo`yicha olib borilishi kerak.

Birinchi bor FQT g`oyasi Yu.M.Sobolev (muhandis-iqtisodchi) tomonidan ishlab chiqilgan edi. Bu Ulug` Vatan Urushi yillariga to`g`ri keladi. Lekin bu g`oya o`zining nihoyasiga etkazilmadi. Keyinchalik, 60 yillarning o`rtalarida AQShda ta'minotchi, muhandis L.Maylson, Yu.M. Sobolevning g`oyasini davom ettirib, FQT uslubini ishlab chiqdi va uni Djeneral elektrik korxonasida tadbiq etib, yaxshi natijalarga erishdi.

FQT ning eng muhim tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ob`yektga kompleks tarzda yondashish;
- ob`yekt holatini o`rganilganda jamoa ijodiy tafakkurini har tomonlama faollashtirish (fikrlar hujumi);
- FQT barcha bosqichlarida texnikaviy va tashkiliy echimlarni baholashda funktsional kerakli va ortiqcha xarajatlarni aniqlash.

Ma'lumki, sanoat mahsulotining turi (assortimenta) mln.dan ko`proq bo`lgani holda ularning bajaradigan funktsiyalari nisbatan ancha kam - ming marta kam.

Masalan, avtomobil -harakatlanish vositasi funktsiyasini bajaradi. Har bir mahsulot 3 xil funktsiyani bajaradi:

- asosiy funktsiya;
- qo`srimcha funktsiya;
- disfunktsiya (keraksiz) funktsiya.

Masalan, stulning asosiy funktsiyasi - o`tirish uchun, qo`srimcha funktsiyasi suyanchig`i, keraksiz funktsiyasini aniqlash kerak.

Hisob-kitoblarga ko`ra, mahsulot tannarxida qo`srimcha funktsiyaning salmog`i o`rtacha 60 foizni tashkil etadi. Ma'lumki, sanoatda va xalq xo`jaligining boshqa tarmoqlarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish uslubi ishlab chiqilgan va amaliyotda qo`llaniladi. Lekin, mahsulotlarning bajaradigan funktsiyalarini kalkulyatsiya qilish muammosi haligacha echilgan emas.

FQT o`tkazish quyidagi bosqichlarga bo`linadi:

- tahlil qilish ob`yektini tanlash (mahsulot konstruktsiyasi, ishlab chiqarishni tashkil qilish, texnologik jarayon, boshqaruv va hisob tizimi kabilar);

- tahlilning maqsadi va vazifalarini asoslash (rentabellik darajasini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, jahon bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirish, xom-ashyo, materiallar va elektr quvvatini tejash, ishlab chiqarishdagi «tor» joylarni bartaraf qilish, import va tahchil mahsulotlarni ishlatishdan voz kechish);
- tahlil ob'yekti to`g`risida ma'lumotlarni yig`ish va asosiylarini qo`shimcha hamda keraksiz funktsiyalarni aniqlash;
- ijodiy yondashish va nostandard tafakkur qilish;
- funktsional-qiyomat tahlilini qo'llash natijasida olinadigan iqtisodiy samarani aniqlash;
- qabul qilingan qarorlarni ishlab chiqarishga joriy qilish.

### **Qisqa xulosalar**

Ushbu bobni o`rganish natijasida talabalar iqtisodiy tahlilning turlarini turkumlash, ularni umumlashtirish va bir tizimga keltirish hamda ushbu fanning istiqbolda yanada takomillashtirish yo'llarini hususan retrospektiv (joriy), tezkor, istiqbol, moliya- iqtisodiy, tehnik-iqtisodiy, taqqoslama va funksional qiyamat tahlilini o`tkazish usullarini bilishlari kerak.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

- 1.Iqtisodiy tahlil turlarini turkumlash.
- 2.Joriy (retrospektiv), tezkor va istiqbolli tahlilni tashkil etish usulining o`ziga xos xususiyatlari.
- 3.Joriy tahlilni tashkil etish va uning uslubi.
- 4.Tezkor tahlilni tashkil etish va uning uslubi.
- 5.Istiqbolli tahlilni tashkil etish va uning uslubi.
- 6.Korxona faoliyatining tahlili, tarmoqlar tahlilini tashkil etish va uning uslubi.
7. Xo`jaliklararo taqqoslama tahlilni tashkil etishning o`ziga xos xususiyatlari.
8. Moliya-iqtisodiy tahlilni o`tkazishning ahamiyati
9. Texnik –iqtisodiy tahlilni tashkil qilishning ahamiyati.
- 10.Funktsional qiyamat tahlilini tashkil etish va uning uslubi.
11. Funktsional qiyamat tahlilinini qo'llash bosqichlari nechta?
12. Funktsional qiyamat tahlilidan ko'rilgan samaradorlik qanday aniqlanadi?

## **Asosiy adabiyotlar**

1. Shoalimov A.X., Tojiboeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. –T.: TDIU. 2010.
2. Шеремет А.Д. Теория экономического анализа. Учебник. –М.: Инфра-М. 2009.
3. Казакова Р.П. Теория экономического анализа. Учебник. –М.: ИНФРА, 2008.
4. Ергешев Е.Е. Иқтисодий ва молиявий таҳлил. Дарслик. –Т.: Консаудитинформ, 2005.
5. Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil.O'quv qo'llanma. -T.: Mehnat, 2004.
6. [www.cer.uz](http://www.cer.uz)- (Центр экономического исследования).
7. [www.pravo.eastink.uz](http://www.pravo.eastink.uz)- (Сборник экономических законодательств).
8. [www.msu.ru](http://www.msu.ru) – (МГУ).

## **VI BOB. IQTISODIYOT SUBEKTLARINING MARKETING FAOLIYATINI TAHLILI**

- 6.1.Iqtisodiyot sub'yecklari mahsuloti hamda xizmatiga bo'lgan talab va taklifni o'rganishning ahamiyati va tahlilning vazifalari.
- 6.2.Talab va taklifni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.
- 6.3.Korxona mahsuloti va xizmatiga bo'lgan talab darajasini aniqlovchi omillar tahlili.
- 6.4.Raqobat darajasi ko'rsatkichlari va ularni aniqlovchi omillar tahlili.

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar**

Talabni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi; talabning egiluvchanligi; talabning o'zgarish sabablari; talab va taklif muvofiqligi; taklifning o'zgarish sabablari; o'xshash tovarlar va ularning talab hamda taklifning o'zgarishiga ta'siri; tovarlarni raqobat darajasi; tovar raqobatbardoshligini aniqlash bosqichlari.

#### **6.1.Iqtisodiyot sub'yecklari mahsuloti hamda xizmatiga bo'lgan talab va taklifni o'rganishning ahamiyati va tahlilning vazifalari**

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoiti xo'jalik yuritishda tub islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Chunki, xo'jalik faoliyatini yurituvchi korxonalar bozor qonuniyatları, talab va taklif asosida mahsulotlar ishlab chiqarishni, o'z tasarrufidagi barcha resurslar – moliyaviy, mehnat va moddiy resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to'g'ri boshqarishni ta'minlashi zarur bo'ladi.

Korxonaning marketing faoliyati tushunchasi yangi iqtisodiy kategoriyalar qatoriga kiradi. Shu boisdan, ularni idrok qilish, nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish, metodologik muammolarni hal qilishga ko'pincha ulgurish qiyin bo'lmoqda.

Hozirgi sharoitda xo'jalik sub'yecklari bozorni o'rgangan holda «qanday mahsulot, kim uchun va qancha miqdorda ishlab chiqarish zarur» tamoyligi amal qilgan holda ish yuritishlari lozim. Buning uchun ular bozorni o'rganishlari, marketing sohasida yuqori malakali mutaxassislarga ega bo'lishlari kerak.

Korxona bozor mexanizmi va konyukturasini bat afsil tahlil qilgan holda o'z imkoniyatlarini yo'lga qo'yishning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy shartlarini tuzib chiqadi. Bu esa faoliyat yuritishning

yo'nalishlarini belgilaydi. Hamda uning rejasini tuzib chiqishni xarakterlaydi. Tahlilda asosiy e'tibor marketing tadqiqotlariga qaratiladi.

Bozor talabini tahlil etishda bozorning alohida olingan tovarlar bilan to'yinganlik darajasi. Uning yaqin va uzoq oraliqda o'zgaruvchanlik ehtimoli, tovarlar narxining o'zgaruvchanligi, eng yuqori foydaliligi, muvozanatlashgan ko'rsatkichlar va ularning o'zsharishlariga baho beriladi.

Bozor sharoitida iste'mol tabiiy holda amalga oshmay, ayrboshlash va uning pul-tovar muomalasi tufayli ro'yobga chiqadi. Buning uchun oldisotdi, xaridor-sotuvchi pog'onalaridan o'tib, bir qator shakllarni boshdan kechirmog'i zarur, ya'ni, ehtiyoj-talabiste'mol. Dnmak, bozorni talab va taklif qonuniyatlar asosida tartibga solinadi.

**Talab** – bu eng avvalo biron-bir ne'matlar yoki xizmatlarga bo'lган ehtiyojlarni bozorda namoyon bo'lishi va uni pul bilan ta'minlashidir.

**Taklif** – bu muayyan paytda bozorda bo'lган yoki unga etkazib berilishi mumkin bo'lган tovarlar massasi sifatida belgilanadi.

Talab, avvalo, resurslarga va iste'mol tovarlari, tovarlashgan xizmatlarga bo'lган talab siyatida yuzaga keladiki, birinchisi ishlab chiqarish iste'molini, ikkinchisi esa shaxsiy iste'molni qondirishga qaratilgandir.

Shunday ekan har bir korxona bozordagi talab va taklifni o'rgangan holda unga to'g'ri baho berishlari kerak. Buning uchun bozorlarda tekshiruv ishlarini yoki ayrim tanlangan mahsulotlar orasida anketa javoblarini tarqatish orqali iste'molchi talabini o'rganish lozimdir.

Bozorni o'rganishda moliyaviy va boshqaruv tahlili fani quyidagi vazifalarni bajaradi:

- qanday mahsulot ishlab chiqarish lozimligini belgilaydi;
- qancha miqdorda ishlab chiqarish kerakligini ko'rsatadi;
- korxonaning kelajakda yaratish kerak bo'lган mahsuloti to'g'risida ma'lumot beradi;
- foyda olish va uning hajmini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi va hokazolar.

Hozirgi kunda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan turli mlk shaklidagi korxonalar to'liq va erkin holda ish yuritmoqdalar. B esa. ularning mahsulot ishlab chiqarish va sotish yo'nalishlarini o'zлari belgilab olishlariga imkon yaratadi. Demak, erkin bozor iqtisodiyotida korxonalarining katta daromad olishlari o'z xarakatlariga bog'liq bo'lб qolmoqda. Ayniqsa, xaridorgir mahmsulotlar ishlab chiqarib, belgilangan

muddatlarda sotib, pul tushumlari barcha xarajatlarni qoplab, foyda ko'rish asosiy maqsad bo'lib qolmog'i kerak.

## **6.2.Talab va taklifni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi**

Iqtisodiy tahlilning maqsadi va asosiy vazifalaridan biri – tahlil qilinayotgan ob'ekt yoki iqtisodiy kategoriyani to'g'ri va xolsona baholash uchun uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishdan hamda uni nazariy va metodologik jihatdan asoslashdan iboratdir.

Kishilik jamiyati rivojlanar ekan, fan va texnika taraqiyoti ildam qadamlar bilan yangilanayotgan sharoitda insoniyatning tovar va moddiy qiyamatliklarga bo'lган ehtiyoji –talabi ortb boradi.

Talab o'zgarishi mavjud bo'lib, bu:

- baholar o'zgarishi va holati;
- xaridorlar miqdori va ularning didi, istagi;
- iste'molchilarining pul daromadi;
- o'rnini almashtirish mumkin bo'lган yoki o'rnini bosadigan tovarlar hajmi;
- inflyasiya ehtimoli kabilarga bog'lqdir.

Bularni ayni vaqtda talabni belgilovchi omillar deyish mumkin. Bularning ichida eng muhimlari tovarlar va xizmatlar bahosi hamda iste'molchilarining pul daromadlari hisoblanadi.

Bozordagi taklif etilgan tovarlar miqdorining bir necha omillari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- 1.Taklif etiladigan tovarlar bahosi.
- 2.Ishlab chiqarish texnologiyasi.
- 3.Tovar ishlab chiqaruvchilarning miqdori.
- 4.Ishlab chiqarish omillari bahosi.
- 5.Soliq va subsidiyalar.
- 6.Baholarning oshish ehtimoli va hokazolar.

Taklif, bozor tovar bilan to'la ta'minlangandan keyin o'zgarmasdan bir me'yorda bo'lishi ham mumkin, bunda baho oshib borishi bilan bozorga ichqariladigan tovar ko'paylishining zarurati bo'lmay qoladi. SHunda ishlab chiqarish hajmi ham o'zgarmay, taklif ham bahoga bog'liq bo'lman holda barqarorlashishi mumkin.

Talab va taklifni ifodalashda asosiy ko'rsatkichlardan bo'lib, yana quyidagilar hisoblanadi:

- Jami talab ko'rsatkichi. Har bir iste'molchining o'z, shaxsiy talabi bozordir. Jami bozor talabi yoki umumiy bozor talabi

barcha iste'molchilar talabi yig'indisidan kelib chiqadi. Shunday ekan, jami talab ko'rsatkichi narxlarning muayyan darajasida barcha iste'molchilar sotib oladigan tovarlar miqdorining ifodasi sifatida keladi.

- Jami taklif ko'rsatkichi. Bu ko'rsatkichning shakllanishi ham xuddi talabniki singari, jami taklif yig'indisidan kelib chiqadi. Bu esa jami sotilishi lozim bo'lgan tayyor mahsulot ifodasi sifatida keladi.

### **6.3.Korxona mahsuloti va xizmatiga bo'lган talab darajasini aniqlovchi omillar tahlili**

Korxona mahsuloti va xizmatiga bo'lган talabni tahlil etishning asosiy maqsadi – korxona mahsulotiga bo'lган talab darajasini aniqlash hamda buyurtmalar portfeli tashkil etish hisoblanadi. Buyurtmalar portfeli korxonaning quvvati va undan kelajakdagi foydalanish darajalariga bog'liq bo'ladi. Agara korxona mahsulotiga bo'lган talab qaysidir sabablarga ko'ra pasayadigan bo'lsa, bunga mos ravishda buyurtmalar portfeli ham qisqaradi. Natijada mahsulot ishlab chiqarish sur'ati pasayib, mahsulot tannarxining oshishi hamda korxonaning zarar ko'rish ehtimoli kuchaya boradi. Bu jarayon uzoq davom etadigan bo'lsa, korxonani bankrotlikkacha olib kelishi mumkin.

Bozor muvozanatining muhim elementi bo'lган talab va taklifni, uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish asosida korxonaning ishlab chiqarish sur'ati va uning tuzilishga baho beriladi. Talab – iste'molchilar tomonidan sotib olinishi mumkin bo'lган tovarlar miqdoridir. Uni to'lovga qobil ehtiyoj deyish ham mumkin. Talab iqtisodiy kategoriya bo'lib, uning darajasiga ko'plab omillar ta'sir etadi, ya'ni taklif etilayotgan tovar bahosi, uning sifati, xaridorlarning daromadlari, xarid qobiliyati, o'rindosh tovarlarning bahosi, iste'molchilarning daromadlari va tovar bahosining o'zgarishi, bozorning tovarlar bilan to'yinganligi hamda jamg'armalar bo'yicha foiz stavkalarining o'zgarishi kabi omillardir.

Omillarning talab hajmi o'zgarishiga ta'sirini quyidagi bog'lanishlarda talab funksiyasida ifodalash va aniqlash mumkin, ya'ni:  
 $Q_d = f / R, Ra, Rv, I, T, S/$ .

Bu erda:

$R, Ra, Rv$  = turdosh tovarlar bahosi;

$I$  = aholining pul daromadlari;

$T$  = aholining didi va nimani afzal ko'rishi;

$S = \text{mulkiy jamg'arma}$ .

Agar tovarlar bahosdan boshqa jami omillar o'zgarmas deb olinsa, talab funksiyasi faqat baho funksiyasiga teng bo'ladi. Ya'ni,  
 $Q_d = f / R$  ga teng bo'ladi.

Tovar mahsuloti ishlab chiqarilishidan oldin uning iste'mol xususiyatlari tahlil qilinadi, hamda raqiblarning mahsulotlari nimaga sotilayotganligi sabablari o'rganiladi.

Hozirda talab va taklifni o'rgangan holda mahsulot ishlab chiqarish korxonalarning samaradorligini oshishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Mahsulot, ish va xizmatlarga bo'lgan bozor talabining maksimal darajada qondirilishi bozor mexanizmining zarur shartlaridan biri hisoblanadi. Korxona faoliyati eng avvalo, bozor regulyatorlari asosida tartiblanadi. Bunda iqtisodiy manfaatlar mushtarakligi e'tiborga olinadi.

Erkin bozor munosabatlari sharoitida bozordagi talab orqali xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning ishlab chiqarish faoliyatiga hamda ishlab chiqarish hajmlariga ta'sir ko'rsatiladi. Bu esa ma'lum darajada iqtisodiyot tarmoqlarida talab va taklif muvozanatlashuviga zamin yaratib berishi mumkin.

Tahlil ishlari albatta axborot manbaiga tayanishi lozim. CHunki ular korxonalarning bozordagi:

- aniq ustivorlikka erishishiga;
- moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashga;
- tashqi muhitni nazorat qilishga;
- strategiyani boshqarishda;
- samaradorligini yaxshilashga va hokazolarni amalga oshirishga sabab bo'ladi.

Har bir ishni amalga oshirilishi, uning ma'lum bir axborot manbalariga tayanishini taqozo etadi. Xuddi shu fikrdan kelib chiqqan holda bu mavzuning tahlilida ham manbalarga tayanamiz. Ma'lumotlar avvalo ikkilamchi yig'ish va baholashdan boshlanadi. Ular ichki va tashqi axborotlarga bo'linadi.

Ichki ma'lumotlar quyidagilardan tashkil topgan:

- korxona rejalarini va ularning bajarilishi;
- sotish to'g'risidagi ma'lumotlar;
- foyda va zararlar;
- xaridorlar bilan hisob-kitoblar;
- tovar zahiralari;
- iste'molchilarining arizasi;

- natijalarni solishtirish uchun me'yorlar va boshqalar.
- Tashqi ma'lumotlar quyidagilardan tarkib topgan:
- davlat va nodavlat tashkilotlarning axborotlari;
  - statistik ma'lumotlar va boshqalar.

Ichki ma'lumotlar asosida quyidagicha tahlil ishlarini amalga oshirishimiz mumkin (6.1-jadval).

6.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, tahlil qilinayotgan korxona 3 xil «A»; «B»; «V» turdagи mahsulotlar ishlab chiqarar ekan. Bu mahsulotlar ichida «A» va «V» mahsulotlar xaridorgir bo'lib, ular rejaga nisbatan «A» 12 foizga, «V» esa 25.8 foizga ko'p sotilgan. Bu bozorda ushbu mahsulot turlariga talabning ko'pligidan dalolat beradi.

## 6.1-jadval

### Korxonada mahsulot sotish rejasini bajarilishini tahlili

Mahsulot turlari	O'lchov birligi	Biznes-reja bo'yicha	Haqiqatda	Farqi (+.-)	Bajarilishi, (%)
A	1	2	3	4	5
A	Dona	500	560	+60	112
B	kg.	20	8	-12	40
V	Dona	89	112	+23	125,8

Mahsulot tarkibidan «B» mahsulotiga talab kam bo'lган. Natijada bu mahsulotning 12 kilogrami sotilmay qolgan. Bunga mahsulot sifati, bahosi yoki o'rinosar tovarlarning bozorda vujudga kelishi ta'sir qilgan.

## 6.4.Raqobat darajasi ko'rsatkichlari va ularni aniqlovchi omillar tahlili

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovarlarning raqobatbardoshligini aniqlanayotganda, uning boshqa raqobatchi tovarlardan yuksak taraflarining mavjudligi, umume'tirof etilgan talablarga javob berish hamda ketgan xarajatlar miqdori bilan baholanadi. Mahsulotning raqobatbardoshligini baholashda xaridorlar ehtiyoji va bozor talabiga asoslanadi. Chunki tovar xaridor talabiga javob berishi uchun quyidagi parametrlarga mos kelishi kerak:

- texnik parametrlarga (tovar belgisi, uni qo'llash va tavsiya etish markazlari);
- ergonomik parametrlarga (tovarning inson organizmiga mos kelishi); estetik parametrlarga (tovarning tashqi ko'rinishi);

- me'yoriy parametrlarga (tovarning amaldagi me'yorlarga va standartlarga mos kelishi);
- iqtisodiy parametrlarga (tovarning baho darajasi, unga ko'rsatiladigan servis xizmati, vositalar o'lchami, xaridorlarning ayni vaqtdagi ehtiyojlarini qondira olish).

Har bir iste'molchi o'z ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tovarlarni sotib oladilar. Bu esa o'z navbatid raqobatni keltirib chiqaradi.

Xaridorlarning xatti-harakatlaridan shuni ko'rish mumkinki, tovarlarni taqqoslashda, uning ishlatish samaradorligi (s), sotib olish xarajatlarga (x) nisbatan yuqori bo'lsa, o'sha mahsulotni ko'proq tanlashadi. Uholda tovarlarning raqobatbardoshligi (r) quyidagi,

$$R = S / X;$$

Tovarlarning raqobatbardoshligini baholash quyidagi bosqichlarda bo'ladi:

1.O'rribbosar tovaralarni topish va uni tahlil qilish.

2.O'xshash mahsulotlarning sotishtirilishi orqali asosiy ko'rsatkichlarini belgilash.

3.O'z mahsulotimizdagi integral (umumiyl) raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini aniqlash.

**Raqobat** – lotincha so'zdan olingan bulib, maqsadga erishish uchun kurash, korxonalar o'rtasidagi sof kurashni bildiradi. Uning asosiy quroli bo'lib, talabni shakllantirish va sotishni rag'batlantirish hisoblanadi.

Jahon bozori tajribasidan raqobatning quyidagi shart-sharoitlari mavjud:

- kuchlar teng va strategiyalar o'xshash bo'lsa, bozorda muvozanat uzoq saqlanmaydi, ular orasida kelishmovchilik susaymaydi;
- sizning raqibingiz hamma narsadan xabardor deb bling;
- raqibingizning g'ashini keltiruvchi harakat qilmang;
- sizning haraktingiz imkoningiz darajasida ekanigi raqibingizni ishontiring.

Bozorda korxonaning tutgan ulushiga qarab raqobat ko'rsaktichlari aniqlanadi:

A)ilg'or – 40 foiz;

B)ilg'orga da'vogar – 30 foiz;

V)davomchilari – 20 foiz;

G)bozorda uncha davomi kelmagan – 110 foiz.

Ushbu ko'rsatkichlarga asoslangan holda ham uning raqobat darajasini aniqlashimiz va baho berishimiz mumkin.

Hozirgi zamonaviy sharoitda boshqarishda iqtisodiy uslubning birinchi o'ringa qo'yilishi xo'jalik hisobidagi korxona va sex, uchastkalarining asosiy tamoyili bo'lib, bunda moliyaviy va boshqaruv tahlili muhim ahamiyatga egadir. Faqat moliyaviy va boshqaruv tahlili tufayli jamoa faoliyatining iqtisodiy natijalari ob'ektiv baholanib, korxonaning har bir bo'limi, har bir ishchining umumiyligi natijadagi ulushi aniqlanadi. Moliyaviy va boshqaruv tahlilisiz xo'jalik mexanizmini to'g'rilash va uni takomillashtirishni amalga oshirib bo'lmaydi. Moliyaviy va boshqaruv tahlili ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlab qolmay, balki moddiy resurslardan oqilona tejamkorlik bilan frydalanishni rag'batlanadiradi, shu bilan birga ishlovchilarni tejamkorlik ruhida tarbiyalaydi.

Raqobatchilarining imkoniyatlarini muntazam o'rganib turish sotish uchun mo'ljallangan mahsulotlarni o'z vaqtida xaridorlarga etkazish va firma schetiga pul kelib tushish rejasini muvaffaqiyatli bajarishning garovidir. Faqat raqobatchilarining bozorga o'xhash tovarlar etkazib berish imkoniyatini bilibgina qolmay, shuningdek, ularga nisbatan siffatli va arzonroq tovarlar taklif qilish choralarini ko'rish yuqori foyda olishning yana bitta omilidir. Raqobatchilarining imkoniyatlarini o'rganishda qator davrlar mobaynida ixtisoslik tovarlarning sotilish holatini kuzatmoq va ma'lumotlarni tahlil etish lozimdir. Bunday tahlil quyidagi tartibda bajariladi (6.2-jadval).

## 6.2-jadval

### Korxona raqobatchilarining imkoniyati va firma ixtisoslik tovarlarini bozordagi sotilish darajasining tahlili

Tovarlarning turlari	O'lchov birligi	O'rtacha uch yildagi bozordagi talab miqdori	Raqobatchtlar taklif tovarlar miqdori	Bozordagi qilgan talabdan farq	Firma taklif qilishi lozim bo'lgan tovarlar
1	2	3	4	5	6
«A» mahsulot na	Do	2600	2200	400	56
«B» mahsulot	kg.	1400	1380	20	14
«V» mahsulot	kg.	240	159	81	86

Javdal ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, «A» mahsulotiga bo'lgan talabga nisbatan 160 dona ko'p tovar iste'molchilarga taklif qilinmoqda. SHuningdek, «V» muhsulot bo'yicha 5 kg ortiqcha tovarlar bo'lishiga

e'tibor qaratilishi lozim. Lekin «B» mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatlari borligini tadqiqotlar ko'rsatib turibdi. Firma ixtiyorida bozordagi talabni e'tiborga olib turib, ayrim turdag'i tovarlarni ko'proq taklif qilishga ixtisoslashish imkoniyatlari ham bor. Demak, firmaning bozordagi strategiyasi va taktikasi turli variantlarda bo'lismi ham mumkin ekan.

### **Qisqa xulosalar**

Ushbu bobni o'rganish natijasida talabalar korxonaning marketing faoliyatini tahlil qilishning ahamiyati va asosiy vazifalarini, talab va taklifni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini hamda ularni o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni hamda raqobat darajasini aniqlovchi omillarni tahlil qilish usullarini bilishlari kerak.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

- 1.Xo'jalik sub'yektlarining bozordagi faoliyatini tahlil qilishning ahamiyati nimalardan iborat?
- 2.Korxona mahsulotiga bo'lgan talab va taklifni o'rganishda tahlilning asosiy vazifalari bo'lib qaysilar hisoblanadi?
- 3.Bozordagi talab va taklifga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatib bering.
- 4.Korxona mahsuloti va xizmatiga bo'lgan bozor talabi va taklifini tahlil etish usullarini ko'rsatib bering.
- 5.Bozordagi raqobat darjasini qanday tahlil etiladi?
- 6.Narx-navo siyosatining bozordagi talab va taklifga ta'siri qanday tahlil qilinadi?

### **Asosiy adabiyotlar**

- 1.Олишневская Н. Экономический анализ. Учебное пособие. –М.: Аст.Полиграфиздат, 2010.
- 2.Войтовский Н.В. Комплексный экономический анализ предприятия. Учебное пособие. –Спб.: Питер, 2009.
- 3.Алексеева А.И. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности. Учебное пособие. –М.: Кнорус, 2007.
- 4.Вахабов А.В., Иброҳимов А.Т. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Дарслик. –Т.: Шарқ, 2005.
- 5.www.cer.uz- (Центр экономического исследования).
- 6.www.msu.ru – (МГУ).

## **VII BOB. IQTISODIYOT SUBEKTALARINING MAHSULOT (ISH, XIZMATLAR) ISHLAB CHIQARISH HAJMINI TAHLILI**

7.1.Mahsulotni ishlab hajmini tahlil qilishning mazmuni, vazifalari va manbalari.

7.2.Mahsulot ishlab chiqarish hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi

7.3.Mahsulotni bir maromda (ritmda) ishlab chiqarishni tahlil qilish

7.4.Bruk natijasidagi yo'qotishlarni tahlili

7.5.Assortment bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish biznes-rejasining bajarilishini tahlil qilish

7.6.Ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillarni turkumlash

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar**

Biznes-rejaning asosligi va tig'izligi; talab va taklif; raqobat; tovar mahsuloti; yalpi mahsulot; sotilgan mahsulot; sof mahsulot; normativ sof mahsulot; assortment; to'liq assortment; nomenklatura; mahsulot assortimenti bo'yicha biznes-rejani bajarilishi; mahsulotni bir maromda ishlab chiqarish; bir maromda ish yuritish koeffisienti; bruk mahsulot; mehnat omillari; mehnat vositalari omillari; mehnat buyumlari omillari; intensiv omillar; ekstensiv omillar.

### **7.1.Mahsulotni ishlab hajmini tahlil qilishning mazmuni, vazifalari va manbalari**

Ma'lumki, 2010 yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 8,5 foizni tashkil qildi. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida sanoatning hissasi 24 foizni tashkil etdi.

Hozirgi sharoitda jamiyat ehtiyojini yanada to'laroq qondirish uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish asosan sanoat korxonalarining zimmasiga tushadi.

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishni og'ishmay o'sishi milliy daromad hajmini oshiradi, ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarining yuksalishi uchun qo'shimcha manbalarini yaratadi va mehnatkashlarning moddiy farovonlik darajasini yana ham oshiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida eng dolzarb masalalar: fan-texnika taraqqiyotini yanada jadallashtirish, ishlab chiqarishni texnika jihatdan zamонавиу zaylda qayta qurollantirish va qaytadan uskunalash (rekonstruksiyalash), barpo etilgan ishlab chiqarish potensialidan (imkoniyatidan) jadal (intensiv) foydalanish,

boshqaruv tizimini, xo'jalik mexanizmini takomillashtirish asosida bozor iqtisodiyotiga o'tish sur'atlarini va uning samaradorligini oshirish hamda shu asosda xalqning farovonligini yuksaltirish. Binobarin, sanoat tarmog'I oldidagi bosh vazifa yana ham ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat. Bu degani, har bir mehnat, moddiy va moliyaviy xarajat birligiga ishlab chiqarish hajmi va milliy daromadni keskin tarzda oshirishni taqozo qiladi. Ana shundagina mehnat unumdarligini jadal oshirishga erishish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti korxona faoliyatining eng zamonaviy xo'jalik mexanizmini vujudga keltirish vazifasini o'rtaga qo'ydi. Bunday mexanizm korxonani rivojlantirish uchun ta'sirchan ichki omillarni ta'minashi kerak. Iste'molchi uchun ishlashga, resurslarni butun choralar bilan tejashga, fan va texnika yutuqlarini keng qo'llashga undashi zarur. Bu mexanizm korxona manfaatini jamiyat manfaati bilan uyg'un va chambarchas bog'lab olib borishi lozim.

Mahsulotni ishlab chiqarishda tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha biznes-rejani asoslanganligini va tig'izligini aniqlash;
- korxonalarning mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha o'sish sur'ati, tarkibi, nomenklatura, assortimentiga baho berish;
- mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;
- o'tgan yilga nisbatan mahsulot hajmining o'sishi va uning sabablarini aniqlash;
- mahsulotni ishlab chiqarish bo'yicha rezervlarni aniqlash kabilar.

Ishlab chiqarish dasturini bajarilishini tahlil qilishda bir qancha axborot manbalaridan foydalaniladi:

- Biznes-reja ma'lumotlari;
- P-sonli "Korxona (birlashma)ning mahsulot bo'yicha yillik hisoboti";
- 5-S sonli "Korxonalar (tashkilotlar) mahsulot ishlab chiqarish, ishlar va xizmatlar xarajatlari to'g'risida hisobot";

## **7. 2. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi**

Hajm ko'rsatkichlari orasida mahsulotni realizasiya qilish ko'rsatkichi o'ziga xoc ahamiyatga ega bo'lib, u ishlab chiqarish samaradorligi aniqlovchi sifat ko'rsatkichlaridan biridir.

Darhaqiqat sotish dalili ishlab chiqarilgan mahsulotning ijtimoiy ist’emol talab va ehtiyojlariga javob berishi demakdir. Bunday sharoitda korxonalar mahsulot assortimentini kengaytirishdan va uning sifatini yaxshilashdan u yoki bu tovarlarga bo’lgan taklif va talablarni o’rganishdan manfaatdorlar, zero ishlab chiqarish sotish dalili bilan tugallanadi.

Lekin, korxonalarning ish yuritish tajribasi sotish ko’rsatkichilarida jiddiy kamchiliklar mavjudligini ko’rsatdi. Bunda, korxonalar sotish rejasini orttirib bajarganlari holda, ularning ayrim iste’molchilar bilan tuzilgan shartnoma majburiyatiga asosan mol etkazib bermaslik hollari ko’paydi. Bu esa, o’z navbatida xalq xo’jaligiga juda katta zarar etkazadi. Shu sababli korxonalarning xo’jalik faoliyatiga baho beruvchi muhim ko’rsatkich (aho beruvchi mezon) sotish rejasining shartnoma majburiyatini hisobga olgan holda bajarilishi bo’lib qoldi. Agar korxona ushbu ko’rsatkich bo’yicha rejani 100 foiziga bajarsa, u holda moddiy rag’batlantirish fondining hajmi 15 foizga oshar edi.

Darvoqe, mazkur ko’rsatkich bo’yicha rejaning bajarilish darajasi 100 foizdan oshmaydi – eng maqbuli 100 foizdir. Binobarin, ushbu ko’rsatkich bo’yicha rejaning har bir bajarilmagan foiziga esa moddiy rag’batlantirish fondining hajmi 3 foizga kamayar edi. Mahsulotni realizasiya qilish avvalambor tovar mahsulotini ishlab chiqarishga bog’liq.

Boshqaruv tahlili uchun sanoat korxonalari ishlab chiqargan mahsulot hajmini o’rganishda quyidagi umumlashgan ko’rsatkichlar o’rganiladi:

- yalpi mahsulot;
- tovar mahsuloti;
- sotilgan mahsulot.

Yalpi mahsulot deganda korxonani ma’lum bir davrda ishlab chiqargan mahsuloti, ko’rsatgan xizmat va bajarilgan ishlarning amaldagi va solishtirma bahoda o’lchangan hajmiga aytildi. Uning tarkibiga tovar mahsuloti, bajarilgan ishlar, ko’rsatgan xizmatlar, tugallanmagan ishlab chiqarish va yarim fabrikatlar va xom ashyo qiymatlari kiradi.

Tovar mahsuloti deganda, barcha ishlab chiqarish bosqichlarini o’tagan, to’la butlangan, texnika nazorati bo’limidan o’tgan va omborga topshirilgan mahsulot tushuniladi.

Sotilgan mahsulot deganda, tovarlar iste’molchilarga yuborilganda yoki uning puli mol yuboruvchilarning bankdagi hisob-kitob schetiga o’tkazilishi tushuniladi.

Sanoat mahsuloti har xil baholarda hisoblanadi. Tovar va realizasiya qilingan mahsulot bir xil bahoda ya’ni rejada qabul qilingan ulgurji bahoda hisoblanadi. Bu esa, ishlab chiqarilgan va realizasiya qilingan mahsulotni taqqoslash uchun imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari tovar mahsuloti hisobotda amaldagi ulgurji baho bilan ham hisoblanadi. O’z navbatida bu ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini tannarx, foyda kabi ko’rsatkichlar bilan bog’lash uchun imkon beradi, chunki tannarx va foyda ko’rsatkichlarini o’lchashda asos qilib amalda harakat qiluvchi ulgurji baho olinadi.

Tovar mahsuloti solishtirma va amaldagi ulgurji bahoda hisoblansa, shartnomaviy (erkin) narxlarda sotiladi.

Tovar va realizasiya ko’rsatkichlari bir-biri bilan uzviy ravishda bog’liq. Masalan, hisobot davrida realizasiya qilinmagan mahsulot (tayyor mahsulot, jo’natilgan tovarlar)ning yil boshiga bo’lgan qoldig’i qo’shuv ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti minus realizasiya hajmi teng bo’ladi realizasiya qilinmagan mahsulotlarning yil oxiriga bo’lgan qoldig’i va hokazo.

Sof mahsulot tovar mahsulot bilan uni ishlab chiqarishga qilingan moddiy sarflar ( shu jumladan asosiy ishlab chiqarish fondlarining amortizasiysi) so’mmasi o’rtasidagi farq sifatida aniqlaniladi. Bu ko’rsatkichdan foydalanish mehnat jamoalarini buyumlashgan mehnatni kam sarflab mahsulot ishlab chiqarishni ko’paytirishdan manfaatdor qiladi. Moddiy ishlab chiqarishda barcha tarmoqlarining sof mahsulot so’mmasi mamlakatda hosil qilingan milliy daromadni tashkil etadi. Sof mahsulot ko’rsatkichidan foydalanish chiqimsiz xo’jalik mexanizmini shakllantirishning yo’nalishlaridan biridir.

Me’yoriy sof mahsulot ishlab chiqarishdagi ishchilarning asosiy va qo’shimcha ish haqini, sosial sug’urta uchun ajratmalar va normativ foydani jamlash orqali aniqlanadi.

Sof mahsulotda bo’lganidek, me’yoriy sof mahsulotning iqtisodiy mazmunini yangidan hosil qilingan qiymat tashkil qiladi.

Me’yoriy sof mahsulot sof mahsulot singari chiqimsiz xo’jalik mexanizmining muhim yo’llaridan biri bo’lib hisoblanadi. Lekin me’yoriy sof mahsulot bir qancha kamchiliklardan holi emas. Uni qo’llash doirasi juda ham cheklangan. U asosan mehnat unumdorligini o’sish sur’atlarini aniqlash va ish haqi normativlarini belgilashda foydalanilgan. Bundan tashqari, u tannarx, foyda, rentabellik, korxonaning daromadi singari xo’jalik hisobiga doir ko’rsatkichlari bilan bog’lanmagan va nihoyat, me’yoriy sof mahsulot ko’rsatkichi mahsulot tarkibidagi strukturaviy

o'zgarish ta'siriga beriluvchi bo'ladi: ikkinchi darajali, ammo nisbatan ko'p mehnat talab qiladigan mahsulotlarni ko'paytirish hisobiga me'yoriy sof mahsulotni tovar mahsulotiga nisbatan jadalroq o'stirishni ta'minlash mumkin.

Sharli sof mahsulot – bu sof mahsulot bilan asosiy fondlarning amortizasiyasi yig'indisidirdir.

### **7.3. Mahsulotni bir maromda (ritmda) ishlab chiqarishni tahlil qilish**

Sanoat korxonalarida mahsulotni bir maromda (me'yorda) ishlab chiqarishni tashkil qilish katta ahamiyatga ega. Zero, tovar va sotilgan mahsulot bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi, mahsulot tannarxining pasayishi va rentabellik darajasining oshishi ko'p jihatdan mahsulotni bir maromda ishlab chiqarishga bog'liq. Ozgina bo'lsa ham bu shartga rioya qilmaslik, o'z navbatida, iste'molchi-korxonalarining va qurilish tashkilotlarining ish tartibini paysalga soladi.

Mahsulotni bir tekisda ishlab chiqarish deganda, mahsulotni tuzilgan jadval asosida, mahsulotning oldindan aniqlangan assortimenti va sifatiga muvofiq etkazib berish va sotishni o'z vaqtida ta'minlashi tushuniladi.

Korxonani bir tekis ishlashi deganda esa ish vaqtidan to'la foydalanish uchun Sharoit yaratib berish, ishlab chiqarissning butun davr davomida asbob-uskuna va barcha vositalardan bevosita foydalaniShi tushuniladi. Ishlab chiqarishni bir maromda tashkil etish ko'pgina korxonalarda asosan oyning boshida bo'ladigan bekor turishlarni kamaytiriShga, xaybarakallachilik vaqtida hosil bo'ladigan brakni kamaytirishga, ish vaqtidan tashqari bo'ladigan behuda to'plamlarni yo'qotishga, ko'pincha oyning boshida bo'ladigan osoyishtalik va oyning oxirida bo'ladigan o'rinsiz shoshilinchlik natijasida yuzaga keladigan hamda ishlab chiqarishning normadan chetga chiqishi natijasida hosil bo'ladigan qo'shimcha xarajatlarni kamayishiga olib keldi. Bundan tashqari mahsulotni o'z vaqtida etkazib bermaganlik uchun to'lanadigan jarima va o'simlar kamayadi. Korxonalarda ishlab chiqarishni bir maromda olib borish shakllari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, bir xil mahsulotni ommaviy oqim usulida iShlab chiqaradigan korxonalarda bir maromda iShlaShni ko'rsatadigan ko'rsatkich sifatida har o'n kunlikda oylik rejaga nisbatan ishlab chiqariladigan mahsulotning salmog'i olinadi. Agar korxonada har o'n kunda oylik topshiriqning uchdan bir qismi bajarilsa, bunday korxona oyning oxirida xaybarakallachilikka yo'l qo'ymaydi.

Agar ishlab chiqariSh davri (sikl) uzoqqa cho'ziladigan individual va mayda seriyali yoki iShlab chiqariSh mavsumiy xarakterga ega bo'lsa, u holda korxonaning bir maromda ishlashini dekadalar (o'n kunlik) bo'yicha baholaSh mumkin emas.

Bir maromda ish yuritishning umumlashgan ko'rsatkichi bo'lib bir me'yorda ishlash koeffisienti hisoblanadi, u jadval bo'yicha mahsulot iShlab chiqarish rejasi bajarilgan kunlarni umumiyl iSh kuniga bo'liSh bilan aniqlaniladi, odatda oy hisobida. Masalan, tahlil qilinayotgan oyda 26 ish kuni bo'lsa, undan 22 kun mobaynida korxona belgilangan jadval asosida mahsulot ishlab chiqargan. Demak, bir me'yorda ishlash koeffisienti 0,84 (22 :26) tashkil etdi. Ushbu raqam korxonaning bir me'yorda mahsulot ishlab chiqarmaganligidan dalolat beradi.

Bir me'yorda ish yuritishning eng optimal ko'rsatkichi birga teng bo'ladi undan ortiq bo'lishi mumkin emas. Demak, u yoki bu muddat mobaynida biznes-rejaning orttirib bajarilishi korxonaning bir me'yorda iShlaShini taqozo etmaydi, balki umuman tovar mahsuloti ishlab chiqarish biznes-rejasining bajarilishini ko'rsatadi. Tahlil uchun kerakli ma'lumotlar reja bo'limidan olinadi, zero ma'lumotlar yillik hisobotda berilmaydi. Tahlil uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz (7.1-jadval).

### 7.1-jadval

**Bir maromda mahsulot ishlab chiqarishni tahlil qilish**  
(foiz hisobida)

Oylar	Ko'rsatkichlar	O'n kunliklar			Jami
		I	II	III	
D	1. Biznes-reja bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulot	33	33	34	100
E					
K	2. Haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot	22,8	30,1	47,1	100
A					
B	3. Biznes-reja hisobiga	22,8	30,1	34,0	86,9
R	4. Bir maromda mahsulot ishlab chiqarish koeffisienti	0,891	0,912	1,0	0,869

Jadvaldagagi ma'lumotlardan ko'rinishicha, korxona mahsulotni bir me'yorda ishlab chiqarmagan. Birinchi o'n kunlikda bir me'yorda ishlash koeffisienti 0.691 (22,8 : 33), ikkinchi o'n kunlikda 0,912 (30.1 : 33), faqat uchinchi o'n kunlikda 1 ga teng bo'ldi. Shuning uchun korxonaning bu boradagi faoliyatini qoniqarsiz darajada deb e'tirof etamiz.

## 7.4.Brak natijasidagi yo'qotishlarni tahlili

Mahsulot sifatini belgilovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri ishlab chiqarishda yo'l qo'yilgan yaroqsiz mahsulotning darajasi hisoblanib, u brakka chiqarilgan mahsulot so'mmasini tovar mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga nisbatan orqali aniqlanadi.

Brak mahsulot deganda, tasdiqlangan andoza va texnika shartlarga mos kelmaydigan mahsulot tuShuniladi. Brak-ishlab chiqarishdagi ofatdir. Brak mahsuloti ishlab chiqarilishi korxonada ishlab chiqarishi etarli darajada tashkil qilinmaganligidan dalolat berib u o'z navbatida tayyor mahsulot hajmini kamaytiradi, mahsulot tannarxini oshiradi va h.k.

Brak mahsulotini tahlil qiliSh ikki asosiy yo'naliShda olib boriladi, ya'ni tuzatib bo'ladigan brak va tuzatib bo'lmaydigan brak. Tuzatib bo'ladigan brak mahsulotlari bo'yicha yo'qotishlar ularni tuzatiShga sarf etilgan xarajatlar bilan belgilanadi. Tuzatib bo'lmaydigan brak deganda, butunlay va uzil-kesil yaroqsiz qilingan mahsulotning qiymati tushuniladi.

Odatda, brak rejalaShtirilmaydi, lekin qayerda texnikaviy vositalar texnologik jarayonlarni nazorat qila olmasa, shu yerda brak rejelashtiriladi. Masalan, quyma buyumlar va oynasozlik sanoatida rejelashtiriladi. Brak mahsuloti ishlab chiqarishdan yuzaga kelgan yo'qotishlarni tahlil qilishda joriy yildagi ma'lumotlar o'tgan yil ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

**7.2-jadval**

Ko'rsatkichlar	O'tgan yilda	Joriy yilda	Farqi (+,-)
1. Butunlay brak qilingan mahsulotlarning tannarxi	400	240	-160
2. Brakni tuzatishga sarf etilgan harajatlar	200	180	-20
Jami	600	420	-180
3. Tovar mahsulotining ishlab chiqarish tannarxi	735810	791140	+55330
4. Brak mahsulotining darajasi (foiz hisobida)	0,082	0,051	-0,031

Joriy yilda brakka chiqarilgan mahsulotning mutlaq so'mmasi o'tgan yilga nisbatan 180 ming so'mga kamaydi. Buning natijasida brak mahsulotning tovar mahsulotining iShlab chiqariSh tannarxidagi salmog'i 0,031 foizga kamaydi.

Demak, bundan korxona mahsulot sifatini oshirish borasida ma'lum chora va tadbirlar ko'ryapti, degan xulosaga kelish mumkin.

## **7.5. Assortiment bo'yicha mahsulot**

### **ishlab chiqarish biznes-rejasining bajarilishini tahlil qilish**

Tovar, realizasiya va sof mahsulot bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi korxona faoliyatidagi miqdoriy ko'rsatkichlardir. Sifat ko'rsatkichlaridan biri tuzilgan shartnoma majburiyatiga asosan iste'molchilarni zarur assortiment bo'yicha tovarlar bilan ta'minlash hisoblanadi.

Xalq xo'jaligida yuzaga kelishi mumkin bo'lган nomutanosibsizlikni oldini olish uchun korxonalar mahsulot ishlab chiqarish rejasini nafaqat qiymat (pul) ifodasida, balki belgilangan assortiment bo'yicha bajarilishi zarur. Chunki mahsulotlar turlicha iste'mol xususiyatiga egadirlar, shu sababli ayrim mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha yuzaga kelgan tanqislikni boshqa bir mahsulotlarni ko'p ishlab chiqarish bilan to'ldirib bo'lmaydi.

Assortiment o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi: to'liq assortiment - barcha mahsulotlarning to'la ro'yxati. Turkumlashgan assortiment deganda, mahsulotlarning turdosh turkumlarga birlashganligi tushuniladi. Turkum tarkibiga kirgan mahsulotlar esa turkum ichidagi assortimentni tashkil etadi.

Assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajarilmasligi iste'molchilarning texnikaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi: ish vaqt va dastgohlardan to'liq foydalanmaslikka, korxonalarini bir maromda ishlamaslikka, qurilish ob'ektlarini o'z muddatida foydalanishga topshirmaslikka olib keladi. Shuningdek, assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajarmaslik mahsulot etkazib beruvchi korxonalarda ham ortiqcha xarajatlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Ortiqcha xarajatning kelib chiqishiga shartnoma shartiga rioya qilmaslik natijasida iste'molchilarga to'lanadigan jarima va o'simlar sabab bo'ladi. Assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajarilmasligiga ob'yektiv va sub'yektiv omillar ta'sir ko'rsatadi. Odatda, korxonalar zarur va iste'molchilarning talab hamda ehtiyojlariga mos keladigan kam rentabellik mahñulotlarni iShlab chiqarishni kamaytiriSh hisobiga ko'proq "foyda" beradigan mahsulotlarni ishlab chiqariShdan moddiy jihatdan manfaatdorlar. Ko'pincha, assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajarilmasligiga mahsulotni ishlab chiqarisSh uchun zarur xomashyo, materiallar, qo'shimcha materiallar va hokazolarning etishmasligi sabab bo'ladi.

Tahlil ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchi yo'nalishda assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi natura ko'rsatkichlariga (tonna, metr, dona kabilar) asosan baho beriladi. Ikkinci yo'nalish-assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi qiymat (pul) ifodasida olib borilib, assortiment bo'yicha biznes-rejaning o'rtacha bajarilish foizi aniqlanadi.

Korxonaning ishlab chiqarish faoliyatining xarakteri va ularning shart-sharoitlariga qarab assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajariliShi quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi.

1. Mahsulot assortimenti bo'yicha biznes-rejaning o'rtacha bajarilish foizi reja bo'yicha va rejadan ortiqcha bajarilgan mahsulotlarning sonini korxonada ishlab chiqariladigan barcha mahsulotlar soniga nisbati tariqasida aniqlanadi. Aytaylik, korxona hammasi bo'lib 100 xil mahsulot iShlab chiqaradi, shundan 89 xil mahsulot bo'yicha reja bajarilgan. U holda mahsulot assortimenti bo'yicha biznes-rejaning o'rtacha bajariliShi 89 foizga teng bo'lad ( $89 \times 100 : 100$ ).

Shuni aytish kerakki, bunday sodda usulni har erda ham qo'llash mumkin emas. Agar ishlab chiqarilgan alohida olingan mahsulot turlarining salmog'i (ulushi) umumiy iShlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbatan bir-biridan keskin tarzda farq qilsa, u holda assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajariliShi to'g'risida noto'g'ri ma'lumot olamiz.

2. Mahsulot assortimenti bo'yicha biznes-rejaning o'rtacha bajariliShi foizi sifatida mahsulot turlari iShlab chiqariSh bo'yicha rejaning eng kam bajarilishi olinadi. Aytaylik, A-102 %, B-93%, V-81% bajarilgan. Demak, assortiment bo'yicha biznes-reja 81 foizga bajarilgan. Lekin, bu usul ham birinchi usulga xos kamchiliklardan holi emas.

3. Korxona faoliyatiga to'g'ri baho berishda mahsulotning assortimenti bo'yicha biznes-rejaning bajarilishini aniqlashda eng kam son miqdorini hisobga olish usuli qo'llaniladi. Ushbu usulning mazmuni va mohiyati quyidagidan iborat. Assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajarilish darajasini aniqlash uchun avvalo reja chegarasi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot so'mmasini aniqlash kerak. Buning uchun rejadan ortiqcha yoki biznes-rejada ko'rsatilmagan mahsulotlarni ishlab chiqariSh assortiment bo'yicha biznes rejaning bajariliShini aniqlashda hisobga kirmaydi. Shunday qilib, assortiment bo'yicha biznes-rejaning o'rtacha bajarilish foizini aniqlash uchun reja assortimenti hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot so'mmasini jamlab uni 100 ga ko'paytirib, so'ng biznes-reja bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bo'lish kerak.

Assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajariShda tahlilning vazifasi har bir mahsulot turi bo'yicha rejaning bajarmaslik sabablarini aniqlashdan

iborat. Assortiment bo'yicha biznes-rejaning eng yuqori bajarilishi 100 foizga teng bo'ladi, undan ortiq bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun tahlil qilish jarayonida hamma mahsulot turlari bo'yicha rejaning bajarilishi aniqlanadi. Korxonaning assortiment bo'yicha biznes-rejani bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni quyidagi berilgan 7.3-jadvaldan ko'rshimiz mumkin.

### 7.3-jadval

#### **Mahsulot assortimenti bo'yicha biznes-rejaning bajarilishini tahlil qilish**

Mahsulot turlari	Ishlab chiqarish			Tovar mahsulotning amaldagi ulgurji bahosi (ming so'm)		
	hajmining natura	bo'yisha ifodasi	rejani bajarili-shi (% his.)		Haqiqatda	
	reja bo'yicha	haqi-qatda	(% his.)		jami	beril. assort. hisob.
1.Ichki trikotaj mahsulotlari	17870	17870	100,0	229550	229550	229550
Jumladan:						
a) erkaklar trikotaji	513	606	118,13	12880	15220	12880
b) ayol trikotaji	4101	5883	143,45	60880	87340	60880
v) bolalar trikotaji	12600	10830	85,95	138070	118670	118670
g) sport trikotaji	656	551	84,0	9900	8320	8320
9304	9333	10031		745650	747960	745650
2. Ustki trikotaj						
Jumladan:	488	443	90,78	57680	52360	52360
a) erkaklar trikotaji	1871	1367	73,06	210040	153460	15346
b) ayol trikotaji	5970	6315	105,78	316930	335250	31693
v) bolalar trikotaji	975	1206	123,89	166990	206890	166990
g) sport trikotaji	40	40	100,0	230	230	230
3. Paypoq mahsulotlari	1085	1167	107,56	10910	11740	10910
4. Miyona astar	-	-	-	5000	11430	5000
5. Boshqa mahsulotlar	-	-	-	991340	1000910	991340
6. Jami						

7.3-jadvaldan ko'rinishicha, tahlil qilinayotgan korxona assortiment bo'yicha biznes-rejani 100 foizga bajargan.

$$\frac{(991340 \times 100)}{991340} = 100\%$$

Tovar mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha biznes-reja 101 foizga bajarilgan. Lekin, bolalar uchun ichki trikotaj mahsuloti ishlab chiqarish

bo'yicha assortiment rejasi faqat 85,9 foizga bajarildi yoki rejaga nisbatan 1770 ming dona kam. Sport trikotaji mahsulotlari iShlab chiqarish bo'yicha assortiment rejasi 84 foizga bajarildi. Ayollar uchun ustki trikotaj mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha esa assortiment rejasi faqat 73,1 foizga bajarildi.

Assortiment bo'yicha biznes-rejaning bajarilmasligiga turli omillar sabab bo'ladi. Bularga yuqorida aytiganidek u yoki bu mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur xomashyo, materiallar va qo'shimcha materialarning etishmasligi. Odatta, korxonalar kam mehnat talab qiladigan, lekin ko'proq "foyda" beradigna rentabellik mahsulotlarni ishlab chiqarishga intiladilar. Bizning misolimizda bolalar uchun trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishdan ko'ra kattalar uchun trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish korxona uchun "foydaliroqdir".

## **7.6. Ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillarni turkumlash**

Tovar mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi ko'pgina omillarga bog'liqdir. Ko'pincha ular qarama-qarShi yo'nalishda harakat qilib ma'lum miqdor va sifat o'zgarishlarga olib keladi. Shuning uchun tovar mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha biznes-rejaning bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish jarayonini osonlashtirish maqsadida ular ma'ulm iqtisodiy belgilariga asosan uch guruhga umumlashtiriladi:

1. Mehnat omillari. Bu omillar tarkibiga korxonalarining ishchi kuchi bilan ta'minlashi, ish vaqtidan foydalanish va mehnat unumдорлиги kabi masalalar kiradi.

2. Mehnat vositasi omillari. Bularga korxonalarining asosiy fondlar bilan qay darajada ta'minlanganligi, asosiy fondlarning hajmi, tuzilishi, o'siSh sur'atlari, texnik holati va ulardan foydalaniSh samaradorligi singari masalalar kiradi.

3. Mehnat buyumlari omillari. Bularga korxonaning xomashyo va materiallar bilan qay darajada ta'minlanganligi, ya'ni moddiy-texnika ta'minotining holati va moddiy resurslardan foydalanish samarasi (materiallardan olinadigan samara, materiallar sig'imi) kabi masalalar kiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar o'ziga xos mustaqil ma'noga ega bo'lishi bilan birga o'zaro bir-biri bilan uzviy raviShda bog'langanlar. Binobarin, bu omillarning ta'sirini mexanik tarzda bir-biriga aslo qo'shib

ham bo'lmaydi. Masalan, mehnat unumdorligini o'sishi ishchilarning ish vaqtidan samarali foydalanishga bog'liq (mehnat omillari). So'ngra, mehiyat unumdorligi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasiga (mehnat vositalari omili), hamda moddiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishga (mehnat buyumlari omili) bog'liq.

Avval har bir omillar guruhi alohida-alohida o'rganiladi. So'ngra uchala omillar guruhini tahlil qiliSh asosida mahsulot ishlab chiqarishni oshirish borasidagi yig'ma rezervlar to'g'risida umumiyl xulosa beriladi.

Har bir omillar guruhi o'z navbatida miqdor va sifat ko'rsatkichlarga bo'linadi. Miqdor ko'rsatkichi – resurslarning mavjudligini ko'rsatsa, sifat ko'rsatkichi esa –resurslardan samarali foydalanishni va ularni baholashni ko'rsatadi. Avval miqdor, so'ngra sifat ko'rsatkichlarining ta'siri o'rganiladi. U yoki bu iqtisodiy ko'rsatkichga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

Miqdor omillarda bo'lgan farqni (o'zgarishni) sifat ko'rsatkichini reja(baza) darajasiga ko'paytiriladi, sifat omillarida bo'lgan farqni esa miqdor ko'rsatkichining haqiqiy darajasiga ko'paytiriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga mehnat, mehnat vositasi va mehnat buyumlari omillaridan tashqari tadbirkorlik omili ham ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida qayd etilgan ishlab chiqarish omillari tadbirkorlak omili bilan birga ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

Bulardan tashqari ishlab chiqarish hajmiga boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Boshqa omillar deganda bozor konyukturasi, talab va taklif, raqobatchilar imkoniyati, iste'molchilar va buyurtmachilarning xarid qobiliyati va shu kabi boshqa sabablar tushuniladi.

## **Qisqa xulisalar**

Ushbu bobni o'rganish natijasida talabalar mahsulotni ishlab chiqarishni tahlil qilishning vazifalari, uni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash, assortiment bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarilishi va tovar mahsuloti hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat omillari, mehnat vositalari omillari va mehnat buyumlari omillarini turkumlashni bilishlari kerak.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Mahsulot ishlab chiqarishni tahlil qilishning ahamiyati va vazifalari nimadan iborat?
2. Mahsulot ishlab chiqarishni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.

3. Tovar mahsuloti ishlab chikarish bo'yicha biznes-rejani bajarilishini tahlili.

4. Mol etkazib berish bo'yicha shartnoma majburiyatini bajarilishini tahlili.

5. Xo'jalik shartnomalari asosida mahsulot assortimenti bo'yicha biznes-rejani bajarilishini tahlili.

6. Mahsulotni bir maromda ishlab chiqarish koeffisienti qanday aniqlanadi?

7. Mahsulot ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Ермолович Л.Л. Анализ хозяйственной деятельности в промышленности. Учебное пособие. –Минск.: Современная школа, 2010.

2. Гинзбург А.И. Экономический анализ. Учебник. –Спб.: Питер, 2009 .

3. Чиркова М.Б., Коновалова Е.М. Анализ хозяйственной деятельности. Учебное пособие.–М.: Эксмо, 2008.

4. Пардаев М.Қ., Шоалимов А.Х. Ўқув қўлланма. Бошқарув таҳлили. –Т.: Иқтисодиёт ва хуқуқ дунёси, 2005 .

5. Вахобов А.В., Ибрагимов А.Т. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Дарслик. - Т.: Шарқ, 2005.

6. www.iask.org.uk- (International Accounting Standards Committee).

7. www.gov.uz- (Новости правительства Узбекистана).

## **VIII BOB. MAHSULOT (ISH, XIZMATLAR)NI SOTISH HAJMI VA ULARNING O'ZGARISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI**

8.1. Mahsulot sotish hajmlarini tahlil qilishning mazmuni, vazifalari va manbalari

8.2. Tuzilgan shartnoma majburiyati asosida mahsulotni etkazib berish bo'yicha sotish rejasining bajarilishini tahlil qilish

8.3. Mahsulotni sotish bo'yicha biznes-rejaning bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish

8.4. Ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini tahlil qilish

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar**

Shartnoma bahosi; amaldagi ulgurji baho; mol etkazib berish bo'yicha shartnoma majburiyati; mahsulotni sotish bo'yicha biznes-reja; tovar balansi; sotilmagan mahsulotni yil boshiga va yil oxiriga bo'lган qoldig'i; tovar mahsulotini solishtirma ulgurji bahosi; narxlar indeksi; mahsulot sifati; davlat standarti; tarmoq standarti; texnikaviy shartlar; mahsulot sorti; o'rtacha tortilgan sort; o'rtacha sortlilik koeffisienti; o'rtacha sortni o'rtacha tortilgan bahosi.

### **8.1. Mahsulot sotish hajmlarini tahlil qilishning mazmuni, vazifalari va manbalari**

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'yejtlarning ishlab chiqarish hajmini keng ko'lamda kengaytirish va ularni rivojlanishi dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati o'ta yuqori va xaridorgir bo'lishi ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yaxshilanishiga hamda moliyaviy barqarorlikka erishishlariga olib keladi.

Korxona ishi, xususan, sotishdan kelgan tushum, xarajatlar hajmi, mahsulot tannarxi, asosiy faoliyatning moliyaviy natijalari, debitorlik va kreditorlik qarziga miqdor hamda sifat jihatdan ta'sir ko'rsatadigan asosiy omil – ishlab chiqariladigan va sotiladigan mahsulot hajmidir. Bu korxona ish faolligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi sharoitda har bir korxona mahsulot turlari va ularni sotish hajmlarini mustaqil ravishda belgilaydi. Korxona rahbarlari bunday qaror qabul qilayotganda bozorni marketing jihatdan puxta tadqiq qilishi, mahsulot

miqdori, sifati va tannarxi jihatdan o'z imkoniyatlarini o'rganib chiqishi, biznes-reja tuzishi zarur.

Korxonallarni qo'llab-quvvatlash natijasida ularni barqaror faoliyat yuritishlariga erishildi. Mamlakatimizda 2010 yilda tashqi savdo balansining ijjoboy saldosи 1,8 barobar oshdi va 4 milliard 200 million dollarni tashkil qildi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimiz iqtisodiyotini barqarorligini mustahkamlash imkonini berdi.

Xo'jalik sub'yektlarida mahsulot sotish hajmini tahlil qilishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- mahsulotni sotish bo'yicha biznes-rejani asoslanganligini va tig'izligini aniqlash;
- tuzilgan shartnoma majburiyati asosida mahsulotni etkazib berish bo'yicha sotish rejasining bajarilishiga baho berish;
- mahsulot (ish, xizmat)larning sifat ko'rsatkichlarini o'rganish va ularni sotish hajmiga ta'sirini aniqlash;
- mahsulot sotish hajmiga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash va baho berish;
- mahsulot sotishni oshirish bo'yicha rezervlarni aniqlash va uning tarkibi hamda sifatini yaxshilash kabilar.

Moliyaviy, statistik va operativ hisobotlar mahsulot sotish ko'rsatkichlarini o'rganishning asosiy manbai hisoblanadi:

- biznes-reja ma'lumotlari;
- sotish jarayonlari bo'yicha dastlabki buxgalteriya hisobi ma'lumotlari;
- mahsulotning sifati va sorti bo'yicha statistik ma'lumotlar;
- «Buxgalteriya balansi» ma'lumotlari;
- «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» ma'lumotlari;

## **8.2. Tuzilgan shartnoma majburiyati asosida mahsulotni etkazib berish bo'yicha sotish rejasining bajarilishini tahlil qilish**

Mahsulot etkazib berish shartnomasi – korxonalar o'rtaida tuziladigan bitimdir. Bunda mahsulot etkazib beradigan korxona xaridor-korxonaga o'zaro kelishilgan assortimentdagi, miqdor va sifatdagi mahsulotni muddatda topshirish majburiyatini, xaridor esa uni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Shartnomada uni bajarishning barcha shart-sharoitlari: idishga – (taraga) qo'yilgan talablar, narxlar, hisob-kitoblar tartibi, mahsulotlarni o'rab-joylash va tashish usullari va boshqalar ko'rsatiladi.

Shartnomadagi majburiyatlarga amal qilinmasa, mahsulot etkazib beruvchi korxona moddiy jihatdan javobgar bo'lib, iste'molchi ko'radigan zararni qoplaydi. Shartnoma bandlari buzilgani uchun jarimalar to'lash, etkazilgan zararni qoplash korxonani buyurtmachiga mahsulot etkazib berish majburiyatidan xalos etmaydi. Mahsulot etkazib berish intizomi korxonalarining o'zigagina bog'liq bo'lib qolmasdan, balki moddiy-texnika ta'minot idoradari, transport, butun boshqarish bo'g'lnlari ishiga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Shartnoma intizomiga rioya qilish iqtisodiyotning balanslashuvi, xalq xo'jaligini normal faoliyat ko'rsatishi, korxonalarining bir maromda ishlashi, uning samaradorligini oshirishning zarur shartidir va nihoyat xo'jalik mexanizmini takomillashitirshning eng muhim omilidir.

Jami sotish hajmida shartnoma majburiyatlariga ryoja etmaslikdan iborat salbiy tendensiya, respublikamiz xalq xo'jaligining aksariyat tarmoqlari uchun xarakterlidir. Respublikamizdagi korxonalarining har to'rtasidan biri shartnoma majburiyatlariga amal qilmayapti. Mahsulot etkazib beruvchilardan ba'zilarining shartnoma majburiyatini buzishi o'z navbatida boshqalarning shu majburiyatlarni bajarmasligiga olib keladiki, bu oqibatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni paysalga soladi.

Sotish hajmida shartnoma majburiyatlariga ryoja qilish rejasining bajarilishini tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 1-P sonli "Korxonaning (birlashmaning) mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yillik hisoboti" shaklidan hamda biznes-rejadan olinadi.

### **8.1-jadval**

#### **Tuzilgan shartnoma majburiyati bo'yicha iste'molchilarga mol etkazib berish rejasining bajarilishini tahlil qilish**

(ming so'm hisobida)

Davr	Biznes reja bo'yicha sotish hajmi	Etkazib berilmagan mahsulotning o'sib borishi	Sotish rejasini shartnoma majburiyatini hisobga olgan holda bajarilishi	
			So'mmasi (ming so'm)	Foiz hisobida
1 chorak	210650	-2400	208200	
2 chorak	210700	-2300	208400	
I-yarim yillik	421350	-4700	416600	
III chorak	210600	-2600	208000	
IV chorak	310650	-3700	306950	
Jami	942600	-11000	931600	98,8

8.1-jadvaldan ko'inishicha, sotish hajmi bo'yicha biznez-reja 104,2 foizga (982460x 100: 942600) bajarilgani holda, tuzilgan shartnoma majburiyati bo'yicha reja esa 98,8 foizga bajarildi.

Shartnoma majburiyati bo'yicha rejaning bajarilishini aniqlash uchun biznes-reja hajmidagi sotish so'mmasidan etkazib berilmagan mahsulotlarning so'mmasi chiqarilib, so'ng sotish hajmining biznes-reja darajasiga bo'linadi. Tahlil qilinayotgan korxona iste'molchilarga mahsulotlarning ayrim turi bo'yicha 11000 ming so'mga kam mahsulot etkazib berdi. Demak, bu holda shartnoma majburiyati rejasi 98,8 foizga bajarildi ( $942600 - 11000 = 931600$  :  $942600 = 98,8$ ).

$$\frac{942600 - 11000}{942600} = \frac{931600}{942600} = 98,8 \text{ foiz}$$

### **8.3. Mahsulotni sotish bo'yicha biznes-rejaning bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish**

Sotilgan mahsulotdan kelgan tushum, uning o'zgarishi korxonaning amaliy faolligini tavsiflaydi. Sotish hajmi ishlab chiqarishga asoslangan korxonalar ishining barcha miqdor va sifat ko'rsatkichlari: foyda summasi, rentabellik darajasi, asosiy hamda aylanma mablag'laridan foydalanish samaradorligi, umuman, moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatadi.

### **8.2-jadval**

#### **Tovar va sotilgan mahsulot bo'yicha biznes-rejaning bajarilishi va o'sish sur'ati**

(ming so'm)

Nº	Ko'rsatkichlar	O'tgan yildagi haqiqiy so'mmasi	Joriy yildagi biznes-reja so'mmasi	Joriy yildagi haqiqiy so'mma	Biznes-rejaga nisbatan mutlaq farq (+,-)	Biznes-rejaning bajarilishi % hisobida
1.	Sotish hajmining biznes-rejada berilgan amaldagi ulgurji bahosi.	896550	942600	982460	+39860	104,2
2.	Tovar mahsulotining biznes-rejada berilgan amaldagi ulgurji bahosi	896550	942600	997970	+55370	105,9
3.	Tovar mahsulotining o'zgarmas barqaror) korxona ulgurji bahosi	898370	945000	1000910	+55910	106,0
4.	Sof mahsulot	216200	238000	240350	+2350	101,0

Korxonalarining hajm ko'rsatkichlariga sotilgan, tovar mahsuloti va sof mahsulot kiradi. Bu ko'rsaktchilarni tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 1-P va 1-T sonli shakllaridan olinadi.

8.1-jadvaldan ko'rinishicha, korxona joriy yilda hajm ko'rsatkichlari bo'yicha biznes-rejani orttirib bajardi. Bunda ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha rejaning bajarilishi har xil bo'ldi. Agar sof mahsulot bo'yicha reja faqat 1 foizga ortiq bajarilgan bo'lsa, u holda tovar mahsuloti bo'yicha esa 6 foizga ortiq bajarildi. Demak, korxona joriy yilda ko'proq material talab mahsulot ishlab chiqargan.

Yuqorida berilgan 8.2-jadvaldan ko'rinishicha, sotish hajmi bo'yicha reja 39860 ming so'mga yoki 4,2 foizga ortiq bajarildi. Sotish hajmining mutlaq o'sishiga ikki omil ta'sir ko'rsatdi:

1.Tovar mahsuloti rejaga nisbatan + 55370 ming so'mga (997970 – 942600 ko'p ishlab chiqarilgan.

2.Sotish hajmi bo'yicha o'sish sur'atining o'zgarishi. Bu omilning ta'siri balans usuli bilan aniqlanadi, ya'ni  $(39890 - 55370) = -15510$  ming so'm. Demak, sotish hajmining sur'ati pasaygan.

Shunday qilib, ikki omilning ta'siri  $(+55370) - (-15510) = +39860$  ming so'm, ya'ni sotish hajmida bo'lган farqga (39860 ming so'm) teng.

Sotish hajmining o'sish sur'atiga bir qancha ko'rsatkichlar ta'sir ko'rsatadi. Bularga mahsulotning sifati, uni bir maromda ishlab chiqarish hamda mahsulotni o'z vaqtida iste'molchilarga jo'natish va uning haqini to'lash, sotilmagan mahsulotlarning yil boshiga va yil oxiriga bo'lган qoldig'i kabi omillar kiradi. Ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotning bir-biriga bog'liqligini tekshirish uchun tovar balansini tuzish kerak. Uni quyidagi formula orqali ifoda qilish mumkin:

$$T_1 + M = R + T_2$$

Bunda:

$T_1$  – sotilmagan mahsulotlarning yil bo'shiga bo'lган qoldig'i;

$M$ - joriy yilda ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining hajmi;

$R$  – joriy yilda sotilgan mahsulotning hajmi;

$T_2$  – sotilmagan mahsulotlarning yil oxiriga bo'lган qoldig'i.

Tovar balansining elementlari bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq. Agar rejaga nisbatan yil boshiga bo'lган qoldiq ko'p bo'lsa, u holda shu farqga sotish hajmi oshadi. Aksincha, sotilmagan mahsulotlarning yil oxiriga bo'lган qoldig'i kamaysa, u holda sotish hajmi oshadi.

Sotish hajmining o'zgarishiga tovar mahsulotini ishlab chiqarish va sotilmagan mahsulotlarning o'zgarishi ta'sir qilar ekan. Endi yuqorida berilgan tenglikdan sotish jarayonini quyidagicha ifoda etish mumkin:

$$R = T_1 + M - T_2$$

Ushbu bog'lanishni tahlil qilish uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz.

### 8.3-jadval (ming so'm hisobida)

Ko'rsatkichlar	Biznes-reja bo'yicha	Hàqiqatda	Farqi (+,-)	Sotish hajmiga ta'siri (+,-)
1. Sotilmagan mahsulotlarning yil boShiga bo'lган qoldig'i	62470	62520	+50	+50
2. Tovar mahsuloti	942600	997970	+55370	+55370
3. Sotilmagan mahsulotlarning yil oxiriga bo'lган qoldig'i	62470	78030	+15560	-15560
4. Sotilgan mahsulot hajmi (1 qator+ 2 qator - 3 qator)	942600	982460	+39860	+39860

Shuni ta'kidlash kerakki, tovar mahsuloti haqiqiy ulgurji narxlarini og'ishi hukumatning qarori asosida yoki mahsulot sifatining yaxshilanganligi tufayli sodir bo'lган narx o'zgarishining natijasi bo'lishi mumkin. Aksariyat hollarda tovar mahsuloti hajmini ko'payishi narxlarning keskin tarzda ko'tarilishi hisobiga sodir bo'lib, amalda esa ishlab chiqarishning tabiiy hajmini kamayishi ehtimoldan xoli emas. Ushbu omillarning ta'sirini aniqlash uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz.

### 8.4-jadval Mahsulotning fizik hajmi o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni hisob-kitobi (ming so'm hisobida)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yil	Mutlaq farq (+,-)			
			jami	shu jumladan omillar hisobiga	narxlari	fizik hajmi
1.Tovar mahsulotining amaldagi ulgurji bahosi	896550	997970	+101420	+374240	-272820	
2 Tovar mahsulotining solishtirma ulgurji bahosi	896550	623730	-272820			
3.Narxlari indeksi	1,0	1,6	+0,6			

8.4-jadvaldan ko'rinishicha, tovar mahsuloti hajmi hisobot yili o'tgan yilga nisbatan 101420 ming so'mga oshgan. Lekin bu ko'payish narxlarning 374240 ming so'mga oshishi (997970-623730) evaziga sodir bo'ldi, ishlab chiqarishning tabiiy hajmi, ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulotning naturadagi miqdori hisobiga esa 272820 ming so'mga (623730-896550) kamaydi. Agar mahsulot narxi o'zgarmay, o'tgan yil darajasida qolganda, mahsulot iShlab chiqarish hajmi faqat 623730 ming so'mni taShkil etar, ya'ni ishlab chiqariSh hajmi 272820 ming so'mga kamaygan bo'lar edi.

#### **8.4. Ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini tahlil qilish**

Respublikamiz iqtisodiy salohiyatini tobora mustahkamlash va boshqa muhim vazifalarni samarali bajarilishi ko'p jihatdan xo'jalik sub'yektlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga bog'liqdir.

Iqtisodiyotni hozirgi rivojlanish bosqichida, ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida, ishlab chiqarishni jadallashtirish va aholining moddiy farovonligini yana ham oshirishda mahsulot sifatini yaxshilash katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda..

Mahsulot sifati deganda, uning barcha mo'ljallangan maqsadda foydalanishga yaroqli xususiyatlarining majmuasi tuShuniladi.

Yuqori sifatli mahsulot nafaqat iste'molchilarining ehtiyojlarini to'la-to'kis qondiribgina qolmay, balki bunday mahsulot ko'p xizmat qiladi, kam-ko'stsiz, nuqson siz bo'ladi, ko'riniShi chiroyli va kiShida estetik zavq tug'diradi. Sanoat mahsulotining sifati korxona faoliyatiga baho beruvchi eng muhim sifat ko'rsatkichlaridan biridir. Vazirlar mahkamasining bir qator qaror va ko'rsatmalarida mahsulot sifatini oShiriSh, yuqori unumli maShina va dastgohlarni joriy etiSh muhimligi qayd qilib o'tilgan. Bugungi kunda yuksak sifat bo'lmasa fan-texnika taraqqiyotini jadallaShiriShning iloji yo'q.

Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqariladigan mahsulotning sifatini ifodalaShda turli ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Sifat ko'rsatkichlari mahsulotning qanday turi uchun mo'ljallanganiga bog'liq. Masalan, mashinasozlik korxonalarida mahsulot sifatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich – ishlab chiqarilgan mahsulotning davlat standartlari (GOST) tarmoq standartlari (OST) va texnikaviy Shartlarga (TU) mos keliShi hisoblanadi.

Qurilish materiallari sanoatida – ohak va ganchning sifati ularning bog'lovchilik (yopishqoqlik) qobiliyatiga, ko'mir sanoatida yoqilg'inining sifati esa ularning issiqlik beriSh qobiliyatiga qarab aniqlanadi. Qora va

rangli metallargiya, kimyo va texnologik jarayonlar apparatlar yordamida olib boriladigan korxonalarda mahsulotning sifati asosiy texnologik jarayonlarga rioya qilishga qarab aniqlanadi. Engil va to'qimachilik sanoatida mahsulot sifatini aniqlashda sortlar qo'llaniladi va h.k.

Mahsulot sifatini tahlil qilishda foydalaniladigan asosiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda sifatsiz mahsulot uchun iste'molchilarga to'lanadigan jarimalar, mahsulotni kafolatli ta'mir qiluvchi ustaxonalarga sarflanadigan xarajatlar kabi ko'rsatkichlar ham qo'llaniladi.

Shunday qilib, mahsulotning sifatini tahlil qilish usullari tahlil qilinayotgan korxonaning qaysi tarmoqga mansub ekanligiga bog'liq ekan.

Yuqorida aytilganidek, engil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlarining sifatiga sortlar orqali (poyafzal, idish-tovoqlar, un va h.k.) baho beriladi. Binobarin, mahsulot sifati qancha yaxshi bo'lsa uning sorti va narxi shuncha yuqori bo'ladi va aksincha. Xalq iste'mollari ishlab chiqaradigan korxonalar har yil choragi 1-P (sort bo'yicha) sonli "Sanoat mahsulotlarining sortlari" bo'yicha hisobot beradilar.

Mahsulot sifatiga sortlarga qarab baho berishda umumlashgan tushuncha o'rtacha sort orqali ifodalanib u uch xil usul bilan hisoblaniladi.

1.O'rtacha tortilgan sortni aniqlash. Bu usulda har bir sort bo'yicha iShlab chiqarilgan mahsulotning miqdorini aynan shu sort belgisiga ko'paytirib, so'ngra hosil bo'lgan so'mma hamma sortlar bo'yicha ishlab chiqarilgan jami mahsulotlarning miqdoriga taqsimlash kerak.

## 8.5-jadval

### **Mahsulot sifati bo'yicha rejaning bajarilishi.**

#### **a) o'rtacha tortilgan sort**

SORT	O'lchov birligi	Miqdor	
		Reja bo'yicha	Haqiqatda
1-sort	Ming dona	22890	28620
2-sort	Ming dona	12210	9875
3-sort	Ming dona	5210	3750
JAMI	Ming dona	40310	42245

Jadvalda berilgan raqamlarga ko'ra, sortlilik koeffisienti

$$\text{a) reja bo'yicha} = \frac{22890 \times 1 + 12210 \times 2 + 5210 \times 3}{40310} = 1,56$$

$$\text{b) haqiqatda} = \frac{28620 \times 1 + 9875 \times 2 + 3750 \times 3}{42245} = 1,41$$

Hisobdan ko'rinishicha, sortlilik koeffisienti reja bo'yicha 1,56, haqiqatda esa, 1,41 ni tashkil etdi. Demak sortlilik koeffisienti 0,15 bandga ko'paygan. Sortlilik koeffisienti qanchalik birga yaqinlaShsa, shunchaga sort yuqori bo'ladi. Agar sortlilik koeffisienti birga teng bo'lsa, u holda hamma mahsulot birinchi sort bilan ishlab chiqarilganligini bildiradi.

2.O'rtacha sorlilik koeffisienti. Uni aniqlash uchun avval har bir sortning bahosini birinchi sort bahosiga nisbati orqali Shartli raviShda birinchi sortga o'tkazish koeffisienti aniqlanadi, so'ngra bu koeffisientlarni har bir sort bo'yicha bo'lgan mahsulot miqdoriga ko'paytirilib, jami ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'linadi.

## 8.6-jadval

### b) o'rtacha sorlilik koeffisienti

SORT	Bir dona-ning ulgurji bahosi (so'm)	O'tkazish koeffisienti	Miqdori	
			reja bo'yicha	Haqiqatda
1-sort	690	1,0	22890	28620
2-sort	675	0,978	12210	9785
3-sort	625	0,906	5210	3750
JAMI	-	-	40310	42245

Jadvaldagi raqamlarga ko'ra, o'rtacha sortlilik koeffisienti

$$\text{a) reja bo'yicha} = \frac{1x 22890 + 0,978 x 12210 + 0,906 x 5210}{40310} = 0,981$$

$$\text{b) haqiqatda} = \frac{1 x 28620 + 0,978 x 9875 + 0,906 x 3750}{42245} = 0,987$$

Demak, o'rtacha sortlilik koeffisienti rejaga nisbatan 0,006 bandga oshgan. Bu esa mahsulot sifatini yaxshilanganligidan dalolat beradi.

3.O'rtacha sortni o'rtacha tortilgan bahoga asosan aniqlash. Bu usulda har bir sort bo'yicha mahsulot miqdorini aynan shu sortlar bahosiga ko'paytirilib, so'nga hosil bo'lgan qiymatni ishlab chiqarilgan mahsulotlarning jami miqdoriga bo'linadi.

## 8.7-jadval

### v) o'rtacha sortni o'rtacha tortilgan bahosi

SORT	Mahsulot birligining ulgurji bahosi (so'm hisobida)	Mahsulot hajmi			
		Reja bo'yicha		Haqiqatda	
		ming dona	ming so'm	ming dona	ming so'm
1-sort	17	130	2210	145	2465
2-sort	14	28	392	25	350
3-sort	12	11	132	5	60
JAMI	-	169	2734	175	2875

Jadvalda berilgan ma'lumotlarga ko'ra mahsulot birligining o'rtacha tortilgan bahosi.

a) reja bo'yicha =  $\frac{2734}{169} = 16$  so'm 18 tiyin

b) haqiqatda =  $\frac{2875}{175} = 16$  so'm 43 tiyin

Demak, haqiqatda o'rtacha tortilgan baho rejaga nisbatan 25 tiyinga oshgan yoki sortning ortishi natijasida har bir mahsulot o'rta hisobda qo'shimcha 25 tiyin berar ekan. Endi bu farqni haqiqatda ishlab chiqarilgan jami mahsulot miqdoriga ko'paytirsak, u holda mahsulotning sifati oshishi natijasida qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi aniqlanadi.ya'ni  $(25 \times 175) = 43$  ming 750 so'm.

Ayrim sanoat korxonalarida mahsulotning sifati ballar bo'yicha ham baholanadi. Masalan, oliy darajadagi sifatga – 5 ball, birinchisiga – 4 ball, ikkinchisiga – 1 ball. μo'yilgan ballar va mahsulotning miqdoriga asosan o'rtacha tortilgan ball aniqlanadi. Binobarin. qo'yilgan ball qancha yuqori bo'lsa, mahsulot sifati ham shuncha yuqori bo'ladi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatiga yana iste'molchilar tomonidan tuShadigan da'volarga qarab ham baho beriSh mumkin. Ularda qaysi xil tovarlarda qanday nuqsonlar bor, keltirilgan da'vo so'mmasi va h.k.lar o'z aksini topadi. Agar bu kabi da'volar soni o'tgan yillarga nisbatan kamaysa, u holda mahsulot sifati ham oShadi.

Texnika taraqqiyoti mahsulot assortimentini muttasil yangilab turishni, eskirib qolganlarini ishlab chiqarishdan olishni va yangi xil mahsulotlar ishlab chiqarishni taqozo qiladi. Bu kabi chora va tadbirlar mahsulot sifatining yaxshilash bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladi.

Bizning respublikamizda mahsulot sifatini xarakterlovchi eng asosiy ko'rsatkish, bu O'zbekiston Davlat Standartlashtirish Qo'mitasi tomonidan belgalangan ko'rsatkichlardir.

### **Qisqa xulisalar**

Ushbu bobni o'rganish natijasida talabalar mahsulotni sotishni tahlil qilishning vazifalari, tuzilgan shartnoma majburiyati asosida mahsulot etkazib berish bo'yicha sotish rejasи bajarilishini va mahsulotni sotish bo'yicha biznes-rejani bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilishni, mahsulot sifatini tahlil qilish usullarini bilishlari kerak.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Mahsulot sotishni tahlil qilishning ahamiyati va vazifalari nimadan iborat?

2. Sotilgan mahsulotni korxona faoliyatini ifodalovchi umumlashgan ko'rsatkichlar tizimida tutgan o'rni.

3. Sotilgan mahsulot bo'yicha biznes-rejani bajariliShi va uni o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili.

4. Tovar mahsuloti ishlab chikarish bo'yicha biznes-rejani bajarilishini tahlili.

5. Mol etkazib berish bo'yicha shartnoma majburiyatini bajarilishini tahlili.

6. Mahsulotni sifati deganda nima tushuniladi?

7. Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning sifatiga qanday baho beriladi?

8. Engil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari sifatiga qanday baho beriladi?

9. O'rtacha sortlilik koeffisienti qanday aniqlanadi?

10. O'rtacha sortni o'rtacha tortilgan baho qanday aniqlanadi?

11. Mahsulot ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Барлиенко В.И. Анализ хозяйственной деятельности. Учебное пособие. –М.: Омега-Л, 2009 .

2. Чиркова М.Б., Коновалова Е.М. Анализ хозяйственной деятельности. – М.: Эксмо. 2008.

3.Ваҳабов А.В.. Иброҳимов А.Т. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Дарслик. –Т.: Шарқ. 2005.

4.Пардаев М.Қ., Шоалимов А.Х. Бошқарув таҳлили. Щыув ышлланма. –Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2005 .

5.www.cer.uz- (Центр экономического исследования)

6.www.pravo.eastink.uz-(Сборник экономических законодательств)

## **IX BOB. MEHNAT RESURSLARI BILAN TA'MINLANGANLIK, MEHNAT UNUMDORLIGI VA ULARNING MAHSULOT HAJMIGA TA'SIRINI TAHLILI**

- 9.1.Iqtisodiyot sub'yeqtalarining mehnat omillarini tahlil qilishning mohiyati, vazifalari va axborot manbalari.
- 9.2. Korxonalarni ishchi kuchi bilan ta'minlanganligini tahlil qilish.
- 9.3. Mehnat unumdorligi darajasini tahlil qilish.
- 9.4. Ishchilarни ish vaqtidan foydalanishni tahlil qilish.
- 9.5.Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat omillarini tahlil qilish.
- 9.6. Mehnatga haq to'lash fondidan foydalanishni tahlil qilish.

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar**

Mehnat resurslari; asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlar, asosiy faoliyatda bo'limgan xodimlar; ishchilar soni bo'yicha mutlaq va nisbiy farq, mehnat unumdorligining mohiyati; bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi; bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi; bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha kunlik ish unumi; bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumi; ish kunining o'rtacha uzunligi; hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi kunlari va kishi soatlari; mehnatga haq to'lash fondi; asosiy ish haqi, qo'shimcha ish haqi.

### **9.1. Iqtisodiyot sub'yeqtalarining mehnat omillarini tahlil qilishning mohiyati, vazifalari va axborot manbalari**

Hozirgi kunda global moliyaviy inqiroz jahondagi barcha mamlakatlarni qamrab olayapti. Uning jiddiy va uzoq davom etadigan oqibatlarini bartaraf etish uchun har qanday xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning o'z tasarrufidagi barcha resurslar – moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to'g'ri boshqarishni ta'minlashi zarur bo'ladi. Mamlakatimizda 2010 yili ko'rilgan amaliy choralar natijasida 950 mingdan ko'proq yangi ish o'rirlari yaratilgan bo'lib, ulardan 600 mingdan ziyodi kichik biznes sohasida hamda 210 mingdan ko'prog'i xizmat ko'rsatish sohasida ochildi.

Hozirgi sharoitida korxona ishlab chiqarish dasturini muvaffaqiyatli bajarilish, uning faoliyatini natijaviyligi va samaradorligi ko'p lihatdan mehnat resurslari bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liq.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishiga, mahsulot tannarxini pasayishiga, foyda miqdori va rentabellik darajasini oshishiga hamda texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishi korxonalarning mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liqdir.

Mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat omillari tarkibida quyidagi ko'rsatkichlar o'rganiladi:

1.Korxonaning ishchi kuchi bilan qay darajada ta'minlanganligi.

2.Ish vaqtidan samarali foydalanish.

3.Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi. (mehnat unumdarligining darjasи).

Ushbu qayd etilgan mehnat omillarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ko'rsatgan ta'sir doirasi tarixan turlicha bo'lган. Chunonchi, texnika va texnologik jarayonlari uncha ravnaq topmagan sharoitda mahsulot ishlab chiqarish asosan qo'shimcha tarzda ishchi kuchini jalg qilish evaziga erishilgan. Hozirgi sharoitda, ilmiy-texnika taraqqiyoti barq urgan davrda mahsulot ishlab chiqarish faqat mehnat unumdarligini oshirish hisobiga olinishi kerak.

Korxonalarni mehnat resurslari bilan ta'minlanganligini o'rganishda tahlilning vazifalari quyidagilardan iborat:

- korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanganishi, ularning tarkibi va strukturasini o'zgarishini mehnat unumdarligiga bo'lган ta'sirini hisoblash va baho berish;
- mehnat unumdarligini rejasining bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash va ob'ektiv baho berish;
- ish vaqtini yo'qotish sabablarini aniqlash va unga baho berish;
- mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat omillarini tahlil qilish va ularga baho berish;
- mehnat resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha ichki xo'jalik imkoniyatlarini aniqlash;
- mehnatga haq to'lash fondini o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarini aniqlash va baho berish.

Mehnat omillarini tahlil qilish uchun kerakli axborot manbalari quyidagilar hisoblanadi:

- biznes-reja ma'lumotlari;
- yillik statistik hisobotning 1-T sonli "Mehnat hisoboti" shakli;
- ish vaqnidan foydalanish, ish vaqtি balansi to'g'risidagi hisobot, ish kunini fotografiyasi va boshqa ma'lumotlar.

## **9.2. Korxonalarini ishchi kuchi bilan ta'minlanganligini tahlil qilish**

Korxonada ishlovchi barcha xodimlar ikki turkumga bo'linadi: asosiy faoliyatda ishlovchi va asosiy bo'limgan faoliyatda xizmat qiluvchi xodimlar.

O'z navbatida asosiy faoliyatda xizmat qiluvchi xodimlar quyidagi toifalarga bo'linadi: ishchilar, xizmatchilar, shu jumladan: rahbarlar, mutaxassislar va boshqa xizmatchilar. Ushbu qayd etilgan xodimlar mahsulot ishlab chiqarishda birday qatnashmaydilar. Agar, rahbarlar, mutaxassislar va xizmatchilar soni bo'yicha faqat mutlaq farqni aniqlash etarli bo'lsa, ishchilar soni bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atini hisobga olgan holda nisbiy farq ham aniqlanadi. Ishchilar soni bo'yicha nisbiy farqni aniqlash usuli quyidagicha: o'tgan yildagi ishshilarning amaldagi soni tovar mahsulotining o'tgan yilga nisbatan aniqlangan o'sish sur'atiga ko'paytirilib, so'ngra yuzga bo'linadi. Shu tariqa hisoblangan ko'rsatkich ishchilarning joriy yildagi haqiqiy soni bilan taqqoslanadi. Olingan natija ishchilar soni bo'yicha nisbiy kamlik yoki ortiqchalikni ko'rsatadi. Nisbiy kamlik esa mehnat unumdarligini o'sganligidan dalolat beradi.

Korxonaning ishchi kuchi bilan qay darajada ta'minlanganligini tahlil qilish uchun quyidagi 9.1-jadvalni havola qilamiz.

9.1-jadvaldan ko'rinishicha, birlashmada o'tgan yilga nisbatan hamma xodimlarning soni 176 kishiga oshdi. Undan ishchilar soni 223 kishiga oshgan bo'lsa, xizmatchilarning soni esa 47 kishiga kamaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish joriy yilda o'tgan yilga nisbatan 11,41 foizga oshgan bo'lsa. Sanoat ishlab chiqarish xodimlarining soni esa faqat 3,1 foizga ko'paydi. Bunday maqbul nisbat birlashmaning mehnat resurslaridan maqsadga muvofiq foydalanganligidan dalolat beradi. Bu o'rinda shuni ham ta'kidlash lozimki, texnika taraqqiyotining jadal ravnaqi o'z navbatida mutaxassislarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish borasidagi ahamiyatini beqiyos oshiradi. Shu sababli ularning mutlaq sonining yoki salmog'ining kamayishini har doim ham ijobiy baholash mumkin emas.

## 9.1-jadval

### Korxonaning ishchi kuchi bilan ta'minlanganligini tahlil qilish

Ishlovchilar toifasi	Haqiqatda		O'tgan yilga nisbatan mutlaq farq (+,-)	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati (foiz hisobida)
	O'tgan yili	Joriy yili		
Hamma xodimlar	5973	6149	+176	102,95
Jumladan: asosiy faoliyatda	5788	5964	+176	103,1
Undan: ishchilar	5203	5426	+223	104,29
xizmatchilar(rahbarlar, mutaxassislar va boshqa	585	538	-47	91,97
Jumladan: rahbarlar	209	192	-17	91,87
mutaxassislar	299	276	-23	92,31
Asosiy bo'limgan faoliyatda	185	185	-	100,0

Yuqorida aytilganidek, ishchilar soni bo'yicha mutlaq farq aniqlashdan tashqari yana nisbiy farqni ham aniqlash kerak. Ishchilar soni bo'yicha nisbiy farqni aniqlash uchun quyidagi 9.2-jadvalni tuzamiz.

## 9.2-jadval

### Ishchilar soni bo'yicha mutlaq va nisbiy farqni aniqlash

Ko'rsatkichar	Haqiqatda o'tgan yili	Haqiqatda joriy yili	Tovar mahsuloti hajmining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati (111,41 %)	Farq	
				Mutlaq	Nisbiy
Ishchilar	5203	5426	5797	+223	-371

9.2-jadvaldan ko'rinishicha, mahsulot hajmining o'sish sur'atini hisobga olmaganda ishchilar soni bo'yicha mutlaq farq 223 kishini tashkil qiladi. Mahsulot hajmining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati (111,41 foiz) inobatga olganda esa, nisbiy kamlik 371 kishini tashkil etdi. Bu esa birlashma jamoasining mehnat unumdarligini oshirish borasidagi ulkan yutug'dir.

### **9.3. Mehnat unumdorligi darajasini tahlil qilish**

Mehnat unumdorligi vaqt birligi (soat, smena, oy, kvartal,yil) ichida ishchilar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki bir mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarf qilingan vaqt birligi bilan o'lchanadi.

Mahsulot hajmining muttasil oshiriSh va shu asosda xalqning turmush farovonligini oshirishdagi muhim omil - mehnat unumdorligini uzluksiz oshirishdir. Hukumatimizning qarorlarida ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishda mehnat unumdorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi chuqur ilmiy tarzda tahlil qilib berilgan.

Mehnat unumdorligini oshirish yo'llari ko'p qirralidir. Bular ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va mexanizasiyalashtirish, yangi mashinalarni joriy qilish, ishlayotgan dastgohlarni zamonaviylashtirish, dastgohlardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish mehnat ilmiy tarzda tashkil etishni yaxshilash, ish vaqtidagi yo'qotiShlarni tugatish, ilg'or ishlab chiqarish tajribalaridan foydalanish, mehnatga haq to'laSh va moddiy rag'batlantiriSh sistemasini to'g'ri tashkil qilish va h.k.lar.

Mehnat unumdorligini hisoblashda quyidagi uchta ko'rsatkichni qo'llash mumkin:

- 1.Natural ko'rsatkichlar.
- 2.Shartli-natural ko'rsatkichlar.
- 3.Pul (qiymat) ko'rsatkichlar.

Natural ko'rsatkichlar bir xil mahsulot ishlab chiqaradigan (tonna, metr, dona va h.k.) korxonalarda qo'llaniladi. Masalan, neft qazib chiqarish natural holda massa yoki hajm birliklarida, yalpi don hosili tonna yoki sentnerlarda, engil avtomobillar ishlab chiqarish donalarda o'lchanadi va hokazo. Keyingi yillarda mahsulot natural o'lchovlarini takomillashtiriSh yuzasidan ancha ishlar qilindi. Masalan, xom ashyodan yaxshiroq foydalanish maqsadida qog'oz ishlab chiqarish tarmog'ida qog'oz ishlab chiqarish ilgarilari bo'lganidek tonnalarda emas, balki kvadrat metrlarda o'lchanadi. Natural ko'rsatkichlar hozirgi sharoitda xo'jalik mexanizmining eng zarur elementidir.

Shartli-natural ko'rsatkichlar turli xil mahsulotlarni yagona o'lchovga keltiriShga asoslangan. Masalan, 15 ot kuchi birligiga keltirib hisoblangan traktorlar.

Qiymat ko'rsatkichlari har xil mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarda qo'llaniladi. Qiymat ko'rsatkichlari korxona va birlashmalar ishini baholaShda,xo'jalik hisobi va moddiy rag'batlantiriShda, ishlab chiqarish samaradorligini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Qiymat ifodasida korxonalarining ishlab chiqargan mahsulot hajmi belgilanadi,

mahsulot tannarxi va foyda o'rtasidagi o'zaro nisbatlar aniqlanadi. Mehnat unumdorligi, fond samaradorligi va mahsulotga material sarfi qiymat ifodasida belgilanadi. Tovar, realizasiya qilingan va sof mahsulotlar ham qiymat ko'rsatkichlarida hisoblanadi. uiymat ko'rsatkichini qo'llashda ikki shartni hisobga olish kerak: mahsulotga qo'yilgan bahoning va uning assortimentining o'zgarmasligi.

Mehnat unumdorligi moddiy ishlab chiqarishda vaqt birligi davomida hosil qilingan mahsulot miqdori bilan o'lchanadi. Bunda individual (yakka tartibda ishlovchining (lokal) uchastka, sexdagi, korxona, tarmoqdagi) va ijtimoiy xalq xo'jaligi ko'lamidagi mehnat unumdorligi farqlanadi. Ijtimoiy mehnat unumdorligi moddiy ishlab chiqariShda band bo'lган har bir ishlovchi hisobiga hosil qilingan milliy daromad miqdori bilan o'lchanadi. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligining darajasi tovar mahsulotining hajmini sanoat ishlab chiqarish xodimlarining soniga nisbati bilan aniqlanadi.

Mehnat unumdorligini tahlil qiliSh uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 1-T sonli "Mehnat to'g'risida hisobot" shaklidan olinadi. Ushbu shaklda – mahsulot hajmi, bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi, hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi kunlari va kishi soatlari berildi. Bu ko'rsatkichlarga binoan bir ishchi tomonidan o'rtacha bir yilda ishlangan kishi kunlarni, ish kunining o'rtacha uzunligini va bir iShchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha kunlik va soatlik ish unumini aniqlash mumkin. Tahlil uchun quyidagi 9.3-jadvalni havola qilamiz.

9.3-jadvaldan ko'rinishicha, hisobot davrida bir sanoat ishlab chiqarish xodimiga to'g'ri keluvchi haqiqatdagi o'rtacha yillik ish unumi o'tgan yilga nisbatan 12612 so'mga ortdi, yoki uning o'sish sur'ati 108,13 foizni tashkil etdi. Shuningdek, bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik, kunlik va soatli ish unumlarining o'sish sur'atlari mutanosib ravishda 106,84; 108,15; 108,25 foizni tashkil etdi. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumining o'sish sur'ati kunlik ish unumining o'sish sur'atidan 1.31 foiz orqada. (108.15-106.84). Bunga asosan ishchilarining kun bo'yi bekor turib qoliShlari sabab bo'lган. Korxona bo'yicha har bir ishchi tomonidan bir yilda qariyb 3 kun ishlanmagan. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha kunlik ish unumining o'sish sur'ati soatlik ish unumidan 0,10 foiz orqada (108,25-108,15). Bunga esa ishchilarining smena ichida bekor ish yo'qotishlari sabab bo'ladi. Bizning misolimizda korxona bo'yicha ish kunining o'rtacha uzunligi 0,01 soatga kamaygan.

### 9.3-jadval

#### Mehnat unumdorligini tahlil qilish

Nº	Ko'rsatkichlar	O'l-chov birligi	Haqiqatda o'tgan yili	Haqiqatda joriy yili	O'tgan yilga nisbatan mutlaq farq (+, -)	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati (%)
A	1	2	3	4	5	6
I.	Asos qilib olingan ma'lumotlar					
1.	Tovar mahsulotining o'zgarmas (qiyosiy) ulgurji baho	m.s.	898370	1000910	+102540	111,41
	Sanoat ishlab chiqarish xodimlarining o'rtacha ro'yxatdagi soni	kishi	5788	5964	+176	103,04
3.	Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soni	kishi	5203	5426	+223	104,29
4.	Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi kunlari	kun	1,252156	1,289944	+3778	103,02
5.	Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi soatlari	soat	9.701061	9.985046	+283985	102,93
6.	Bir sanoat ishlab chiqarish xodimiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi (1q : 2q)	so'm	155213	167825	+12612	108,13
	Hisoblangan analitik ko'rsatkichlar:					
7.	Ishchilarning sanoat ishlab chiqarish xodimlarida tutgan salmog'i (2q x100:2q)	%	89,89	90,98	+1,09	101,21
8.	Bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi – kunlari (4q : 3q)	kun	240,66	237,73	-2,93	98,78
9.	Ish kunining o'rtacha uzunligi (5q : 4q)	soat	7,75	7,74	-0,01	99,87
10	Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi (1q : 3q)	so'm	172664	184466	+11802	106,84

A	1	2	3	4	5	6
11	Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha kunlik ish unumi (1q : 4q)	so'm, tiyin.	717,46	775,93	+55,47	108,15
12	Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumi (1q : 5q)	so'm, tiyin.	92,60	100,24	+7,64	108,25

Hisobot davrida tovar mahsulotning mutlaq hajmi o'tgan yilga nisbatan 102540 ming so'mga oshgan. Ma'lumki, mahsulot ishlab chiqarish hajmi yo xodimlar sonini ko'paytirish yo'li bilan yoki har bir xodimning mehnat unumdarligini oshirish orqali o'sib borishi mumkin. Hozirgi sharoitda ularning ikkinchisi hal qiluvchi yo'ldir, zero ishlovchilar sonini ko'paytirish imkoniyati cheklangan. Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ikki omil ta'sir ko'rsatadi: 1. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari sonining o'zgarishi. 2. Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi. Birinchi omilning ta'sirini hisoblash uchun ishlovchilar sonida bo'lgan farqni o'tgan yildagi bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumiga ko'paytiriladi. Bizning misolimizda joriy yili haqiqatdagi ishlovchilarning soni o'tgan yilga nisbatan 176 kishiga oshgan, o'tgan yildagi bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi ish unumi esa 155213 so'mni tashkil edi.

Demak, mahsulot hajmining ko'paytirishning 27317 ming so'mi (176 x 155213) = 27317 ming so'm) yoki 26,6 foizi [ 27317 x 100 : 102540] ishlovchilar sonining oshishi evaziga hosil bo'ldi.

Ikkinci omilning ta'sirini hisoblash uchun bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumida bo'lgan farqni joriy yildagi ishlovchilarning haqiqatdagi soniga ko'paytriladi: ya'ni  $12612 \times 5964 = 75218$  m.s. Demak, mahsulot hajmini ko'paytirishning 75218 ming so'mi yoki 73,4 foizi ( $75218 \times 100 : 102540 = 73,4\%$ ) mehnat unumdarligini oshirish hisobiga hosil qilingan.

Ikki omilning yig'indisi  $27317 + 75218 = 102535$  m.s. mahsulot hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan bo'lgan mutlaq farqga teng.

9.3-jadvaldan ko'rinishicha, tovar mahsuloti bo'yicha bir sanoat ishlab chiqarish xodimiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi joriy yili o'tgan yilga nisbatan 12612 so'mga oshgan. Ishlovchilarning ish unumi darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz.

## 9.4-jadval

### Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumini tahlili

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Haqiqatda		O'tgan yilga nisbatan mutlaq farq (+,-)	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati (%)
		O'tgan yili	Joriy yili		
1. Tovar mahsuloti	m.s.	898370	1000910	+102540	111,41
2.Sanoat ishlab chiqarish xodimlarining o'rtacha ro'yxatdagi soni	kishi	5788	5964	+176	103,04
Jumladan: Ishchilar	kishi	5203	5426	+223	104,29
3.Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi	kishi	155213	167825	+2612	108,13
Bir ishchiga	kishi	172664	184466	+11802	106,84
4.Ishchilarining ishlovchi xodimlar tarkibidagi salmog'i	%	89,89	90,98	+1,09	102,21

9.4-jadvaldan ko'rinishicha, bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi o'tgan yilga nisbatan 12612 so'mga oshgan.

Bunga ikki omil ta'sir ko'rsatdi:

1.Ishchilarining ishlovchi xodimlar tarkibidagi salmog'inинг o'zgarishi.

$$+1,09 \times 172664 = +1882 \text{ so'm.}$$

2. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumining o'zgarishi.

$$+11802 \times 90,98 = +10737 \text{ so'm.}$$

Demak, ikki omilning yig'indisi  $(+1882) + (+10737) = +12619$  so'm. Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumining mutlaq o'sishiga taxminan (12612 so'm) teng.

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmini muttasil ravishda oshirish ishchilarining ish unumiga bevosita bog'liq. Bunga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblash uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz.

## 9.5-jadval

### Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumini tahlil qilish

Ko'rsatkichlar	O'l-chov birligi	Haqiqatda		Mutlaq farq (+,-)	O'sish sur'ati (%)
		O'tgan yili	joriy yili		
1. Tovar mahsuloti	m.s.	898370	1000910	+102540	111,41
2. Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soni	kishi	5203	5426	+223	104,29
3. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi ish unumi	so'm	172664	184466	+11802	106,84
4. Hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi kunlari	kun	1252156	1289944	+37788	103,02
5. Hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi soatlari	soat	9,701061	9,985046	+283985	102,95
<b>Hisoblangan ko'rsatkichlar:</b>					
1. Bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi kunlari (4q : 2q)	kun	240,66	237,73	-2,93	98,73
2. Ish kunining o'rtacha uzunligi (5q x 4q)	soat	7,75	7,74	-0,01	99,87
3. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumi (1q : 5q)	s.t.	92,60	100,24	+7,64	108,25

9.5-jadval ko'rinishicha, joriy yili bir ishchiga to'g'ri keluvchi yillik ish unumi o'tgan yilga nisbatan 11802 so'mga oshgan. Bunga quyidagi uch omil ta'sir ko'rsatdi.

1. Ish vaqtidagi kun bo'yicha yo'qotishlar:

$$-2,93 \times 7,75 \times 92,60 = -2102 \text{ so'm } 71 \text{ tiyin.}$$

2. Smenalar ichidagi sodir bo'ladigan ish vaqtini yo'qotishlar:

$$-0,01 \times 237,73 \times 92,60 = -220 \text{ so'm } 14 \text{ tiyin.}$$

3. Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumining o'zgarishi

$$+ 7,64 + 237,73 \times 7,74 = + 14057 \text{ so'm } 85 \text{ tiyin.}$$

Hisoblangan uch omilning yig'indisi (-2102,71) + (-220,14) + (+14057,85) = +11734 so'm 98 tiyin, ya'ni bir ishchiga to'g'ri keluvchi ish unumidagi mutlaq farqga teng.

#### **9.4. Ishchilarni ish vaqtidan foydalanishni tahlil qilish**

Mehnat unumdorligining o'sishi bevosita ish vaqtidan oqilona foydalanishga bog'liq. Afsuski, ko'p korxonalarda ish vaqtidan qoniqarsiz foydalaniлади. Ayniqsa, hozirda ishlab chiqarishni jadallashtirish sharoitida bekor yo'qotilgan har bir daqiqaning bahosi qimmatga tushayapti. SHuning uchun mehnat unumdorligining oshishi bilan ish vaqtining har bir daqiqasini qimmati oshib boradi. Ish vaqtidan foydalanishning umumlashgan ko'rsatkichi – hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi soatlari hisoblaniladi. Bizning misolimizda joriy yilda hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi soatlari o'tgan yilga nisbatan 283985 soatga oshgan. (9.3-jadval). Bunga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi.

1.Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonining o'zgarishi. Bu omilning ta'sirini aniqlash uchun ishchilar sonida bo'lган farqni o'tgan yilda bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi kunlari va ish kunining o'rtacha uzunligiga ko'paytiriladi, ya'ni  $+223 \times 240,66 \times 7,75 = +415921$  kishi soati.

2.Bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi kunlarining o'zgarishi. Bu omilning ta'sirini hisoblash uchun bir ishchi tomonidan ishlangan kishi kunlarida bo'lган farqni joriy yildagi ishchilarning o'rtacha ro'yxatidagi soniga va o'tgan yildagi ish kunining o'rtacha uzunligiga ko'paytiriladi, ya'ni  $-2,93 \times 5426 \times 7,75 = -123211$  kishi soati.

3.Ish kunining uzunligining o'zgarishi. Bu omilning ta'sirini aniqlash uchun ushbu ko'rsatkichda bo'lган farqni joriy yildagi hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi kunlariga ko'paytiriladi, ya'ni  $-0,01 \times 1,289944 = -12899$  kishi soati.

Yuqorida hisoblangan uchta omilning yig'indisi  $(+415921) + (-123211) + (-12899) = +279811$  kishi soati taxminan hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi soatlarida bo'lган farqga tengdir.

Tahlil qilinayotgan birlashmada ish vaqtidan foydalaniShda kun bo'yi yo'qotishlar qariyb uch kunni tashkil etdi. Bunga quyidagilar sabab bo'ladi: har yili ishlovchilarga beriladigan navbatdagi javob berish (ta'til), o'qish uchun beriladigan ruxsat, kasallik tufayli ishga chiqmaslik, korxona ma'muriyati ruxsati bilan ishga chiqmaslik, davlat vazifasini bajariSh, qishloq xo'jalik ishlariga jalb qilish natijasida ishga chiqmaslik, sababsiz ishga chiqmaslik va x.k. Smena ichida sodir bo'ladigan bekor turishlarni tahlil qiliSh ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Mehnat va ish haqini hisob qilish bo'yicha asosiy nizomda, agar bekor turish 5 daqiqadan

oshsagina uni hisobga olib hujjatlashtirish ko'zda tutilgan. Smena ichida sodir bo'ladigan bekor turishga quyidagilar sabab bo'ladi:

1.Ish joylarini kerakli xom ashyo bilan yomon va qoniqarli ta'minlash, qaysiki ish vaqt yo'qotishning 50 foizini tashkil etadi.

2.Ishchilarning o'zлari tomonidan yo'l qo'yiladigan bekor turishlar. Bu ish vaqt yo'qotishning taxminan 40 foizini tashkil qiladi.

3.Boshqa sabablar natijasida bekor turishlar, yoki elektr quvvatining bo'lmasligi, dastgohlarning nosozligi va h.k.lar.

## **9.5. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat omillarini tahlil qilish**

Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar tarkibida mehnat omillarini asosiy o'rinni egallaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga quyidagi mehnat omillari ta'sir ko'rsatadi:

1.Ishchilarning o'rtacha ro'yxatidagi sonining o'zgarishi.

2.Bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi kunlarining o'zgarishi.

3.Ish kunining o'rtacha uzunligini o'zgarishi.

4.Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumining o'zgarishi.

Bu omillarning mahsulot ishlab chiqarishga ko'rsatgan ta'sirini aniqlash uchun uchta usulni qo'llashimiz mumkin.

1.Zanjirli almashtirish usuli.

2.Ko'rsatkichlarning bajarilish foizi darajasidagi farq usuli.

3.Ko'rsatkichlarning darajasidagi mutlaq farq usuli

Zanjirli almashtirish usulining mohiyati quyidagidan iborat: ya'ni hisob formulasi tarkibiga kirgan reja doirasidagi ayrim olingan miqdoriy ko'rsatkichlarni aynan shu ko'rsatkichlarning haqiqatdagi darajasiga ketma-ket almashtiriladi. U yoki bu ko'rsatkichning ta'siri ketma-ket ayirish yo'li bilan aniqlanadi: ikkinchi hisobdan birinchi hisob ayiriladi, uchinchi hisobdan ikkinchi hisob va h.k. Birinchi hisobda hamma ko'rsatkichlar reja doirasida, so'ngi hisobda esa haqiqatdagi bajarilishi olinadi.

Zanjirli almashtirish usuli qo'llash tartibi quyidagi jadvalda berilgan (9.6-jadval).

## 9.6-jadval

### Tovar mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat omillarini zanjirli almashtirish usuli bilan aniqlash

Hisobotni tartib soni	AlmaShtirishning tartib soni	Hisob formulasiga kiruvchi omillar				Umum-lashgan ko'rsatkich - tovar mahsuloti (1us x 2us x 3us x 4us) ming so'm	Oldingi hisobga nisbatan farq (+,-) ming so'm	O'zgarish-nинг sabab lari
		Ishchi lar ning soni (kishi)	Bir ishchi tomoni dan ishlan gan kishi kunlar (kun)	Ish kunining uzunligi (soat)	Soatlik ish unumi (so'm, tiyin)			
	B	1	2	3	4	5	6	7
	-	O'tgan yil 5203	O'tgan yil 240,66	O'tgan yil 7,75	O'tgan yil 92,60	O'tgan yil 898608	-	-
	1	Joriy yil 5426	O'tgan yil 240,66	O'tgan yil 7,75	O'tgan yil 92,60	Hisoblangan 937122	+38514	Ishchilar soni hisobiga
	2	Joriy yil 5426	Joriy yil 237,73	O'tgan yil 7,75	O'tgan yil 92,60	Hisoblangan 925713	-11409	Ish vaqtidan foydalanishda kun bo'yи bekor turish
	3	Joriy yil 5426	Joriy yil 237,73	Joriy yil 7,74	O'tgan yil 92,60	Hisoblangan 924519	-1194	Smena ichidagi bekor turish
	4	Joriy yil 5426	Joriy yil 237,73	Joriy yil 7,74	Joriy yil 100,24	Joriy yil 1000796	+76277	Soatlik ish unumining o'sishi

9.6-jadvaldan ko'rinishicha, joriy yili tovar mahsulotning hajmi o'tgan yilga nisbatan 102540 ming so'mga oshgan. Bu o'sishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

1. Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonining o'zgarishi.

$937122 - 898608 = +38514$  ming so'm.

Demak, ishchilarning soni joriy yili o'tgan yilga nisbatan 223 kishiga oshdi. Buning natijasida korxona 38514 ming so'mga ko'p mahsulot ishlab chiqardi.

2.Bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan ish kunlarning o'zgarishi.

925713-937122=-11409 ming so'm.

Har bir ishchi tomonidan joriy yili o'tgan yilga nisbatan qariyb uch kun kam ishlangan. Bu esa tovar mahsuloti ishlab chiqarish hajmini 11409 ming so'mga kamaytirgan.

3.Ish kuni uzunligining o'zgarishi.

924519-925713 =-1194 ming so'm.

Smena ichidagi bekor turishlarning ko'payishi mahsulot ishlab chiqarish hajmini 1194 ming so'mga kamaytirdi

4.Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha soatlik ish unumining o'zgarishi.

1000796-924519 =+76277 ming so'm.

Soatlik ish unumining o'tgan yilga nisbatan 7 so'm 64 tiyinga ko'payishi natijasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 76277 ming so'mga oshgan. Demak, korxonada mahsulot ishlab chiqarish asosan mehnat unumdorligini oshirish evaziga erishildi. Agar korxona ish vaqtidan foydalaniSh borasida faqat o'tgan yil darajasiga erishganda edi, u holda mahsulot ishlab chiqarish hajmini qo'shimcha ravishda 12603 ming so'mga (11409+1194) oshirishi mumkin bo'lur edi. Bu esa mahsulot ishlab chiqarishni oshirish borasidagi eng muhim rezerv bo'lib hisoblanadi.

Ko'rsatkichlarning bajarilish foizi darajasidagi farq usuli. Bu usul zanjirli almashtirishning soddalashtirilgan turidir. Uni qo'llash tartibi quyidagi jadvalda havola qilinadi (9.7-jadval).

### 9.7-jadval

**Tovar mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat omillarini berilgan ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati darajasidagi farq usuli bilan aniqlash**

Nº	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkich-larning o'sish sur'ati, foiz.his.	Foizda bo'lgan farq (+,-)	Tovar mahsuloti hajmiga ta'siri (2 us x898370:100)
1.	Ishchilarining o'rtacha ro'yxatdagi soni	104,29	+4,29	+38540
2.	Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi kunlari	103,02	-1,27	-11409
3.	Hamma ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi soatlari	102,93	-0,09	-809
4.	Tovar mahsuloti	111,41	+8,48	+76182
	Jami:	X	+11,41	+102504

x)898370 ming so'm – tovar mahsuloti hajmining o'tgan yildagi haqiqiy qiymati.

9.7-jadvaldan ko'rinishicha, olingan natija zanjirli almashtirish usuli orqali hisoblangan natijaga taxminan teng. Bu ikki usulda olingan natjalarning aynan bir-biriga mos kelmasligi ko'rsatkichlarning miqdor va foizlarini butunlab olinganligidir.

3. Ko'rsatkichlarning darajasidagi mutlaq farq usuli. Bu ham ikkinchi usul kabi zanjirli almashtirish usulining texnik jihatdan eng soddalashtirilgan usulidir. Bizning misolimizda tovar mahsulotning hajmi joriy yili o'tgan yilga nisbatan 102540 ming so'mga oshgan. Bu o'sishga quyidagi mehnat omillari ta'sir ko'rsatdi.

1.Ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi sonining o'zgariShi. Bu omilning ta'sirini hisoblash uchun ishchilar sonidan bo'lган farqni o'tgan yildagi bir ishchiga to'g'ri keluvchi yillik ish unumiga ko'paytiriladi. (+223 x 172664 =+38504 ming so'm)

2.Bir ishchi tomonidan ishlangan kishi kunlarining o'zgarishi. Ushbu ko'ratkichda bo'lган farqni joriy yildagi ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soni va o'tgan yildagi bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha kunlik ish unumiga ko'paytiriladi. (-2,93 x 5426 x 717,46 =-11406 ming so'm).

3.Ish kunining uzunligini o'zgarishi. Ushbu ko'rsatkichda bo'lган farqni joriy yilda hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi kunlari va o'tgan yilda bir ishchiga to'g'ri keluvchi soatlik ish unumiga ko'paytiriladi. (-0,01 x 1289944 x 92,60 =-1194 ming so'm).

4.Bir ishchiga to'g'ri keluvchi soatlik ish unumining o'zgarishi. Ushbu ko'rsatkichda bo'lган farqni joriy yilda hamma ishchilar tomonidan ishlangan kishi soatlariga ko'paytiriladi. (+7,64 x 9985046 =+76286 ming so'm).

Omillarning tengligi (balansi): (+38504) +(-11406) + (-1194) +(+76286) =+102190 ming so'm. Bu usulda 350 ming so'mga farq (102540-102190) ko'rsatkichlar miqdorini butunlash hisobiga ro'y berdi. Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish rezervi 12600 ming so'mni tashkil qiladi (11406+1194).

## **9.6. Mehnatga haq to'lash fondidan foydalanishni tahlil qilish**

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbol rejalarida xalq farovonligini sifat jihatdan yangi pog'onalarga ko'tarish belgilangan. Ish haqi tizimini doimo shunday takomillashtirib borish kerakki, toki u mehnatning miqdori va sifatiga qarab haq to'lash tamoyiliga mos tuShsin, uning sharoiti va natjalarini hisobga olsin, xodimlar malakasini, mehnat unumdarligini oshirishni, mahsulot sifatini yaxshilashni,barcha xil

resurslardan oqilona foydalanishni va ularni iqtisod qilishni rag'batlantirsin.

Shularni hisobga olib hozir ishlab chiqarish tarmoqlarida ishchi va xizmatchilarning ish haqini ko'zda tutilayotgan darajada oshirish asosan korxonalarning o'zлari topgan mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jadalroq ta'sir ko'rsatadi.

Mehnatga haq to'lash fondi – milliy daromadning xodimlar o'rtaSIDA ular mehnatining miqdori va sifatiga muvofiq taqsimlanadigan hamda shaxsiy iste'mol maqsadlari uchun foydalaniladigan qismi.

Mehnatga haq to'lash fondi – mehnat bo'yicha biznes-rejaning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, korxonalarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning istiqbol va yillik biznes rejasida ko'zda tutiladi.

Mehnatga haq to'lash fondiga hamma xodimlarga – doimiy, mavsumiy, vaqtincha ishlaydigan xodimlarga bajarilgan ish uchun to'langan pul so'mmalari, shuningdek, amaldagi qonunlarga muvofiq xodimlar (emizikli onalar ishidagi uzilish uchun haq to'lash va boshqalar)ga ishlanmagan vaqtlari uchun to'langan haq so'mmasi ham qo'shiladi. Mehnatga haq to'lash fondidan tarif stavkalari va mansab okladlari bo'yicha haq to'lash, iShbay mehnatga haq to'laSh, ishchilarga mukofotlar to'lash, og'ir va zararli mehnat sharoitlari uchun, kasb mahorati uchun, bir necha kasblarni qo'shib bajarganliklari va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganligi uchun qo'shimcha va ustama haqlar beriladi, navbatdagi va qo'shimcha ta'tillar uchun haq to'lanadi, ko'p yil ishlagani uchun bir yo'la taqdirlash uchun va h.k. Demak, korxona ularning mehnat natijalari uchun barcha to'lovlarning yagona manbai-mehnatga haq to'lash fondi hisoblanadi. Mehnatga haq to'lash fondi ish haqi fondi va moddiy rag'batlantiriSh fondi o'rniga taShkil etilgan. Tahlilning asosiy vazifasi mahnatga haq to'laSh fondining tobora kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash hisoblanadi. Zero ish haqi tannarxda tutgan salmog'i jihatdan yuqori bo'lib, uning qisqartiriSh tannarxning kamayishiga, bu esa o'z navbatida, foyda va rentabellik darajasini oshiradi. Tahlil uchun ma'lumotlar yillik hisobotning 1-T sonli "Korxonalarning mehnat to'g'risidagi hisobot" nomli shaklidan olinadi. Tahlilning dastlabki bosqichi asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining va uning toifalarining mehnatga haq to'lash fondini o'tgan yildagi mehnatga haq to'lash fondi bilan taqqoslab mutlaq farqni aniqlashdan boshlanadi. (9.8-jadval.)

9.8-jadvaldan ko'rinishicha, asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining mehnatga haq to'lash fondi joriy yili o'tgan yilga nisbatan

## 9.8-jadval

### **Asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarning mehnatga haq to'lash fondidan foydalanishni tahlili**

Ko'rsatkichlar	Haqiqatda		Farqi	
	O'tgan yili	Joriy yili	Mutlaq (+,-)	Foiz hisobida
Asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining yillik mehnatga haq to'lash fondi				
Jami:	10831,2	11755,9	+924,7	+8,5
Jumladan: Ishchilar	9877,1	10773,8	+896,7	+9,1
Xizmatchilar (rahbarlar, mutaxassislar va boshqa xizmatchilar)	954,1	982,1	+28,0	+2,9
Undan: Rahbarlar	380,1	394,1	+14,0	+3,7
Mutaxassislar	464,2	482,2	+18,0	+3,9

924,7 ming so'm yoki 8,5 foizga oshgan. Ushbu mutlaq o'sish asosan ishchilarining ish haqi fondining 896,7 ming so'mga o'sish evaziga sodir bo'ldi. Lekin, mutlaq farqga qarab asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining ish haqi fondidan foydalanishga baho berib bo'lmaydi. Shuning uchun ushbu xodimlarning ish haqi fondi bo'yicha nisbiy farqni aniqlash kerak. Uni aniqlash uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz (9.9-jadval).

## 9.9-jadval

### **Asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarining ish haqi fondi bo'yicha mutlaq va nisbiy farqni aniqlash**

Ko'rsatkichlar	Summasi (ming so'm)
1. Asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarning ish haqi fondi a) baza bo'yicha b) haqiqatda v) mutlaq farq (+,-)	10939,5 11755,9 +816,4
2. Tovar mahsuloti hajmining o'tgan yilga nisbatan qo'shimcha o'sish sur'ati 11,41 foiz	
3. Hisoblangan ish haqi fondi. $10939,5 + \frac{10939,5 \times 11,41}{100} = 11813,2$	11813,2
4. Nisbiy iqtisod – (ortiqcha harajat) $11755,9 - 11813,2 = -57,3$	57,3

9.9- jadvaldan ko'riniShicha, tovar mahsuloti hajmining o'sish sur'atini hisobga olmagan holda ish haqi fondi bo'yicha 816,4 ming so'm mutlaq ortiqcha harajatga yo'l qo'yilgan. Tovar mahsuloti hajmining o'siSh sur'atini (111,41 foiz) hisobga olganda esa, nisbiy iqtisod 57,3 ming so'mni tashkil edi. Bu esa korxonaning mehnat resurslaridan oqilona foydalanganligidan dalolat beradi.

Mehnatga haq to'lash fondiga ta'sir qiluvchi omillarni mutlaq farq usuli orqali ham aniqlash mumkin. Bunda mehnatga haq to'lash fondining o'zgarishiga ikki omil ta'sir ko'rsatadi: 1) ishlovchi xodimlar soni; 2) xodimlarning o'rtacha yillik ish haqi. Birinchi omilning ta'sirini aniqlaSh uchun xodimlar sonida bo'lган farqni xodimlarning o'tgan yildagi o'rtacha yillik ish haqi miqdoriga ko'paytiriladi.

Ikkinchi omilning ta'sirini aniqlaSh uchun xodimlarning o'rtacha yillik ish haqida bo'lган farqni xodimlarning o'tgan yildagi ro'yxatdagi o'rtacha soniga ko'paytiriladi.

### **Qisqa xulosalar**

Ushbu bobni o'rganish natijasida talabalar korxonalarda mehnat omillarini tahlil qilish vazifalarini, ularni ishchi kuchi bilan ta'minlanganligini, mehnat unumdarligini mohiyati va uni hosoblashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlarni, ish vaqtidan foydalanishning umumlashgan ko'rsatkichiga va mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat omillarin, mehnatga haq to'lash fondidan foydalanishni, xususan asosiy faoliyatda ishlovchi xodimlarning mehnatga haq to'lash fondi bo'yicha ortiqcha xarajatni (iqtisod) aniqlash usullarini bilashlari kerak.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

- 1.Mehnat resurslarini tahlil qiliShni ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari.
- 2.Mahsulot ishlab chiqariSh hajmiga ta'sir qiluvchi omillarni o'zaro bog'liqligi.
- 3.Ishlovchi xodimlarni soni va tarkibini tahlil qilish.
- 4.Ishchilar soni bo'yicha mutlaq va nisbiy farqni qanday aniqlanadi?
- 5.Mehnat unumdarligini tahlil qilishning ahamiyati va vazifalari.
- 6.Mehnat unumdarligini omilli tahlili.
- 7.Bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumini tahlili.
- 8.Bir ishchiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yillik ish unumi tahlili.
- 9.Ish vaqtidan foydalanishni tahlil qiliSh.
- 10.Mahsulot hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat omillarini tahlili

11.Mehnat resurslaridan samarali foydalanish natijasida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha rezervlarini aniqlash usuli.

12.Mehnatga haq to'lash fondini tahlil qilishning ahamiyati va vazifalari.

13.Sanoat ishlab chiqarish xodimlarining mehnatga haq to'lash fondini tahlil qilish.

14.Sanoat ishlab chiqarish xodimlarining mehnatga haq to'lash fondi bo'yicha nisbiy iqtisod (ortiqcha xarajat) aniqlash.

15.Ishchilarni mehnatga haq to'lash fondini tahlil qilish.

16.Rahbarlar, mutaxassislar va boshqa xizmatchilarni mehnatga haq to'lash fondini tahlil qilish.

### **Asosiy adabiyotlar**

1.Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебное пособие. –М.: Инфра-М. 2009.

2.Барлиенко В.И. Анализ хозяйственной деятельности. Учебник. –М.: Омега-Л, 2009.

3.Гинзбург А.И. Экономический анализ. Учебник. - СПБ.: Питер, 2007.

4.Ваҳобов А.В., Ибрагимов А.Т. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Дарслик. - Т.: Шарқ, 2005.

5. Пардаев М.Қ., Шоалимов А.Х. Бошқарув таҳлили. Ўқув қўлланма. - Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2005.

6.Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. -T.: Mehnat, 2004.

7.www.pravo.eastink.uz- (Сборник экономических законодательств).

8.www.apb.org.uk- (Auditing Practices Board).

## **X BOB.IQTISODIYOT SUB'EKTLARINI MODDIY (MATERIAL) RESURSLAR BILAN TA'MINLANISHINI TAHLILI**

10.1.Korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlanganligini tahlil etishning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari.

10.2. Material sarfini kamaytirishning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.

10.3.Korxonani moddiy-texnikaviy ta'minot bo'yicha biznes-rejansini bajarilishini tahlili.

10.4. Korxonani material resurslar bilan ta'minlanganligini tahlil qilish

10.5. Ishlab chiqarishda materiallardan samarali foydalanishni tahlil qilish

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar**

Mehnat buyumlari, tejamkorlik rejimi, resurslardan oqilona foydalanish; rivojlangan bozor; ta'minot holati; omborxona ma'lumotlari; iShlab chiqarish zahiralari; mahsulot ishlab chiqarish va sotish bo'yicha sarf –xarjatlari; iqtisod qilish natijasida qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi; ortiqcha xarajat oqibatida iShlab chiqarilmagan mahsulot hajmi; mahsulot birligi uchun belgilangan xarajat normasi (me'yori), haqiqatdagi xarajatlar; bir so'mlik moddiy xarajatlarga to'g'ri keluvchi mahsulot hajmi (material samarasi), bir so'mlik tovar mahsuloti ishlab chiqarishga ketgan moddiy xarajatlar hajmi (material sarfi).

### **10.1. Korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlanganligini tahlil etishning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari**

Xo'jalik faoliyati jarayonining yakuniy bosqichidan olinadigan tayyor mahsulotlarning tannarxidagi sarflangan xom ashyo va materiallarning ulushini imkoniyati boricha kamaytirish muhim o'rinn tutadi, chunki talab va taklifdan kelib chiqqan holda ularga o'rnatilgan baho mahsulotlarning xaridorlik darajasini belgilaydi. Ushbu muomalalar va talablardan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishni tashkil qilayotganda tabiiy va moddiy resurslardan unumli foydalanish kerak.

Hozirgi jarayonda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning ishlab chiqarish hajmini keng ko'lamda kengaytirish va ularni rivojlanishi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Bunda ishlab chiqrilayotgan mahsulotning sifati o'ta yuqori va xaridorgir bo'lishi ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yaxshilanishiga hamda moliyaviy barqarorlikka erishishlariga olib keladi. Albatta bunday yuqori

samaradorlikka erishishda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga ketadigan materiallarning ulushi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bu o'z navbatida, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda moddiy resurslarga bo'lган ehtiyojni bir tomondan oshirilishi, ikkinchi tomondan ushbu zahiralarning qiymatining bozor talablarini inobatga olib, mahsulot tannarxining qanchaga tushishini hisobga olishni taqozo etadi.

Korxonalarining moddiy resurslar bilan o'z vaqtida, zaruriy miqdorda belgilangan sifatda hamda bir maromda ta'minlanganligi, ulardan rasional foydalanish pirovardida uning iqtisodiy rivojlanishiga va taraqqiy etishi uchun har tomonlama ta'sir etadi. Shu boisdan, korxonalarda yaratilayotgan mahsulotda moddiy resurslarning ulushi qanday salmoqni tashkil etishini tahlil qilish muhimdir.

Moddiy resurslar deb, ishlab chiqarishning muayyan sikkida foydalanishda bo'lган va shu siklda ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmatlar) tannarxiga o'z qiymatini to'liq o'tkazib boruvchi buyumlarga aytildi. Xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i, ehtiyoq qismlar korxona aylanma mablag'larini tashkil qiladi. Aylanma mablag'larining korxona uchun umumiyligi miqdori yuqori tashkilotlar, ya'ni tegishli vazirlik tomonidan belgilanadi. Materiallarning har bir turi bo'yicha normativ miqdori korxona tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Har bir ishlab chiqarish korxonasida mahsulot ishlab chiqarish jarayonining to'xtovsiz davom etib turishida belgilangan normativga rioya qilinishi muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodchi olimlar A.V.Vahabov va A.T.Ibrohimovlarning<sup>1</sup> darsligida: «Moddiy resurslar tahlilining asosiy maqsadi – mavjud natijaga odilona baho berish bilan birga yo'l qo'yilgan kamchiliklarni kelgusida bartaraf qilish va shu orqali iqtisodiy tahlil qilinayotgan ob'ektning iqtisodiy ahvolini yaxshilashdan iboratdir» deb aytib o'tilgan.

Moddiy resurslar tahlilining asosiy maqsadi – mavjud natijaga odilona baho berish bilan birga yo'l qo'yilgan kamchiliklarni kelgusida bartaraf qilish va shu orqali iqtisodiy tahlil qilinayotgan ob'ektning iqtisodiy ahvolini yaxshilashdan iboratdir.

Moddiy resurslar tahlilining mazmuni, uning oldiga qo'yilgan vazifalaridan kelib chiqadi. Tahlilda ashyoviy resurslar bilan korxonanining ta'minlanganlik darajasiga, ulardan samarali foydalanishning holatiga, mahsulot hajmini o'stirishda ashyolarni to'g'ri boshqarishning ahamiyatiga, ashyoviy resurslarni iqtisod qilish yuzasidan ichki imkoniyatlarni belgilash va yo'lga qo'yishga muhim ahamiyat beriladi.

<sup>1</sup> Vahabov A.V., Ibrohimov A.T. «Moliaviy va boshqaruy tahlili». –T.: Sharq. 151 6.

Shu ma'noda iqtisodiy tahlil oldiga ham o'ta muhim vazifalar qo'yiladi. Jumladan:


- moddiy resurslar ta'minoti rejasining bajarilishga baho berish;
- resurslar va ular bo'yicha normativlarga qat'iy amal qilinishini o'rganish;
- moddiy resurslar va ulardan samarali foydalanishning darajasiga baho berish;
- moddiy aylanma mablag'lar, ashyoviy resurslar aylanishini o'rganish;
- muhim samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishini omilli tahlil qilish;
- mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi mehnat buyumlari bilan bog'liq bo'lgan omillarni o'rganish;
- ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida mehnat buyumlarining salmoq ko'rsatkichlarini o'rganish va h.k.lar.

10.1-rasmda mehnat buyumlaridan foydalanish omillarining shakllanishi va tahlilini ifodalovchi ko'rsatkichlarni keltiramiz.

Korxonaning moddiy resurslaridan foydalanish tahlilining axborot manbalari quyidagilardan iborat:

- moddiy-texnika ta'minoti rejasi;
- arizalar;
- xom ashyo va materiallarni etkazib berish shartnomalari;
- material resurslarini ishlatilishi va ulardan foydalanish bo'yicha hamda ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha statistik hisobot shakllari;
- moddiy-texnika ta'minoti bo'limining operativ ma'lumotlari;
- analitik buxgalteriya hisobining moddiy resurslarning kirimi, chiqimi va qoldiqlari to'g'risidagi axborotlari.

Korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlanishi va ulardan samarali foydalanganligiga baho berishda iqtisodiy tahlilning ahamiyati kattadir. Korxonada moddiy resurslardan qay darajada foydalanilayotganligini tahlil etish natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga sarflanayotgan xarajatlarni tejash maqsadida foydalanilmay qolgan ichki imkoniyatlarni topish mumkin.



**10.1-rasm. Mehnat buyumlaridan foydalanish omillarining shakllanishi va tahlilini ifodalovchi ko'rsatkichlar**

## **10.2. Material sarfini kamaytirishning xalq xo'jaligidagi ahamiyati**

Ishlab chiqarishni texnologik yangilash sharoitida moddiy boyliklardan foydalanish ustidan nazortani kuchaytirish, xo'jasizlikka qarshi kurash, mahsulot tannarxida moddiy xarajatlarning ulushini kamaytirib borish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Jumladan, moddiy va mehnat resurslarini to'g'ri, tejamli sarflash iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda, aholining moddiy farovonligini oshirishda muhim omildir.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi o'z navbatida mehnat buyumlarining ortishiga olib keladi. Agar xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlarida (engil va oziq-ovqat) moddiy xarajatlarning ishlab chiqarish xarajatlarida tutgan salmog'i 80 foizni tashkil etishini nazarda tutsak, u holda material sarfini kamaytirishning naqadar xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega ekanligini ko'ramiz.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tejamkorlik rejimining kuchaytirish, hamma turdag'i resurslarni oqilona va tejab-tergab sarflash, ularning nobud bo'lishini kamaytirishga sabot bilan erishish, resurslarni tejaydigan va chiqitsiz texnologiyaga o'tishni amalga` oshirish, ishlab chiqarishning ikkilamchi resurslari va chiqitlaridan foydalanishni yaxshilash, ularning qayta ishlaydigan ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish, ikkilam xom ashyni to'plashni shu jumladan aholidan to'plashni tashkil qilish va tayyorlov tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlaSh kerak. Xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida sodir bo'layotgan xo'jasizlik, nobudgarchilik va tejamsizliklarga juda ham ko'p misollar keltirish mumkin.

Material sarfini kamaytirishning quyidagi yo'llari mavjud:

- 1.Mahsulotlarning konstruksiyasini o'zgartirish va takomillashtirish.
- 2.Ishlab chiqarish jarayonlari va ishlab chiqarish dastgohlarining texnologiyasini takomillashtirish.
- 3.Eng maqbul bichish xaritalarini qo'llash orqali materiallarga ketadigan xarajat normalarini kamaytirish.
- 4.Ishlab chiqarishning ikkilamchi resurslari va chiqitlaridan foydalanishni yo'lga qo'yish.
- 5.Ishlab chiqarishda brakga aslo yo'l qo'ymaslik va h.k.lar.

Mehnat predmetlariga: xom ashyo, materiallar, yonilg'i va boshqa predmetlar kirib, ular har bir ishlab chiqarish siklida butunlay o'z qiymatini mahsulotga o'tqazadi.

### **10.3.Korxonani moddiy-texnikaviy ta'minot bo'yicha biznes-rejansini bajarilishini tahlili**

Iqtisodiyotning hozirgi rivojlanish bosqichida, ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida, ishlab chiqarishni jadallashtirish va aholining moddiy farovonligini yana ham oshirishda korxonalarni moddiy-texnikaviy ta'minotii bo'yicha biznes-rejani bajarilishini tahlil qilish katta ahamiyatga egadir.

Korxonada mahsulot etkazib berish shartnomalar bilan rasmiylashtiriladi. Bunda tranzit bilan (bevosita) mahsulot tayyorlovchilardan (iste'molchilarga) yoki ta'minot – mol o'tkazish korxonalari va tashkilotlarining omborlari orqali (ombordan mol etkazib berish) amalga oshiriladi. Mahsulotlarni omborlardan etkazib berishda mol oluvchilarga mahsulotni iste'molga tayyorlash (materiallarni qirqish va bichish, mayda idishlarga qadoqlab yoki o'lchab joylash) va boshqalar yuzasidan ishlab chiqarish xizmati, tranzit xizmati ko'rsatiladi.

Moddiy-texnikaviy ta'minotni bozor iqtisodiyotiga mos ravishda qayta qurish moddiy resurslarni markazlashtirilgan tarzda fondlash va iste'molchilarni mol etkazib beruvchilarga biriktirib qo'yishdan ishlab chiqarish vositalari bilan fondlar va naryadlarsiz, iste'molchilarining buyurtmasi bo'yicha, shartnomalaridan foydalangan holda, xaridor manfaatini ko'zlab, ish yuzasidan sherik tanlash orqali erkin oldi-sotdi shaklidagi savdo qilishga o'tish natijasida ishlab chiqaruvchining o'z amrini o'tkazishini va monopoliyasini (tanho huquqqa ega bo'lishi) bartaraf etib rivojlangan bozorning paydo bo'lishiga olib keldi. Korxonalarning moddiy-texnika ta'minotining holatini tahlil qilish cheklangan doirada olib boriladi, chunki korxonalarning hisobotida, jumladan yillik hisobotda ta'minot holati to'g'risida ma'lumotlar juda kam beriladi, unda keltirilgan materiallarning assortimenti va sifati bo'yicha ishlab chiqarish talab va ehtiyojlariga mos keladimi yoki yo'qmi shunga o'xshash ma'lumotlar ko'rsatilmaydi. Shunig uchun moddiy-texnika ta'minoti bo'limi va omborxonaning ma'lumotlariga murojaat qilish kerak bo'ladi. Ana shu ma'lumotlarga asoslangan holda materiallar guruhi va ularning alohida olingan hillari bo'yicha ularning keltirilishi, rejaning qanday bajarilganligini aniqlashimiz mumkin.

Yillik hisobotdan esa faqat ishlab chiqarish zahiralarining yil boshiga va yil oxiriga bo'lган qoldiqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni (balansdan), ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar summasini 5-S "Mahsulot ishlab chiqarish va sotishga korxona sarf xarajatlari to'g'risida hisobot" shaklidan olinadi.

Yuqorida qayd etilgan shakllardan olingan ma'lumotlarga asoslanib moddiy-texnikaviy ta'minot bo'yicha biznes-rejaning bajarilishiga umumiylaho berish mumkin. Bunday yuzaki tahlil korxonalarning ta'minot holatini har tomonlama aniqlashda etarli emas, chunki korxonalar umuman materiallar bilan ta'minlanganlari holda materiallarning qaysi birlari bo'yicha ortiqchalik, qaysi birlari bo'yicha esa etishmovchilik bo'lishi ehtimoldan holi emas. Shuning uchun korxonalarning materiallar bilan to'la-to'kis va zarur assortimentlari bo'yicha ta'minlanganligini aniqlash uchun omborxona hisobotidan olingan ma'lumotlarga murojaat qilish kerak.

Ushbu masalalarning amaliy jihatlarini ushbu bobning keyingi savolllarida batafsil ko'rib chiqamiz.

#### **10.4. Korxonani material resurslar bilan ta'minlanganligini tahlil qilish**

Korxonada ishlab chiqarish jarayonining bir maromda amalga oshirish ko'p jihatdan korxonani moddiy resurslar bilan to'liq ta'minlanishiga bog'liqdir.

Korxonaning moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyoji ikki manba hisobiga, ya'ni, tashqi ta'minot va ichki ta'minot hisobiga qondiriladi.

Tashqi ta'minot deganda, korxonalar, xom ashyo birjalari bilan tuzilgan shartnomasi asosida moddiy-texnika resurslarini chetdan etkazib beruvchilardan kelib tushishi tushuniladi.

Ichki ta'minot deganda ta'minot rejasining bajarilishi, ichki resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, iqtisod rejasiga rioya qilish kabilar tushuniladi.

Korxonani xom ashyo va materiallar bilan ta'minlanganligi darajasi sotib olingan xom ashylarning haqiqatdagi miqdorini rejadagi talabni taqqoslash orqali aniqlanadi. Shu bilan birga moddiy resurslarni olib kelish shartnomalarini bajarilayotganligini ta'minlash va haqiqatda bajarilayotganligini tekshirish lozim.

10.1-jadvalda korxonani moddiy resurslar bilan etkazib berish shartnomalari va ichki ehtiyoj manbalari orqali ta'minlanganligini tahlil qilamiz.

10.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, A materialiga bo'lgan talab etkazib berish shartnomalari va ichki ehtiyoj manbalari bo'yicha to'liq ta'minlanmagan.

Reja bo'yicha qoplash ta'minlash koeffisienti quyidagiga teng:  
$$50+4420 : 4700=0,95$$

## 10.1-jadval

### **Moddiy resurslarni etkazib berish shartnomalari va ichki ehtiyoj manbalari bilan ta'minlanganligini tahlili**

Materi-al turi	Rejada-gi ehtiyoj, m	Ehtiyojni qoplash manbalari		Shartno-mada belgilan-gan, m	Shartnomaviy ehtiyoj-larni ta'minlash, %	Mol etkazib beruvchilar-dan olingan, m	Shartnomalarni bajarilishi. %
		ichki	tashqi				
A Va h.k.z	4700	50	4650	4420	95	4190	94,8

Haqiqatda esa, A materialini etkazib berish rejasidagi 10% ga bajarilmagan:

$$4190 + 50 : 4700 = 0,90$$

Demak, A materiali bo'yicha ehtiyoj faqat 90 % ga ta'minlangan.(100-90).

Bundan tashqari, mol yuboruvchilardan olingan materiallarning sifati, ularni standartlarga javob berishi, texnika va shartnoma shartlari hamda mol yuboruvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarga bildirilgan e'tirozlar tekshiriladi. Asosiy e'tibor materiallarni o'z vaqtida etkazib berish rejasini bajarilishini o'rghanishga beriladi. Materiallarni o'z vaqtida etkazib bermaslik natijasida mahsulotni ishlab chiqarish va sotish rejasini bajarilmay qoladi.

Tahlil jarayonida xom ashyo va materiallarning muhim turlarini haqiqatdagi miqdorini mavjudligi tekshiriladi. Shu maqsadda natura ko'rinishidagi materiallarni haqiqatda mavjudlik to'g'risidagi ma'lumotlar va normativ bilan taqqoslanadi. Tahlil uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz, (10.2-jadval).

## 10.2--jadval

### **Moddiy resurslar zahirasi holatini tahlili**

Material	Bir kunlik xarajat, m	Haqiqatdagi zahira		Zahira normasi, kunlar	Zahira normasi bo'yicha o'zgarish	
		M	kunlar		Kunlar	M
A	20	200	10	15	-5	-100

Ortiqcha va keraksizini aniqlash uchun xom ashyo va materiallarning holati ham o'rganiladi. Ularni ombor hisobining kirim va chiqim ma'lumotlari orqali aniqlash mumkin. Agar qaysidir bir material bo'yicha 1 yil va undan ko'p davrda xarajat bo'lmasa, ularni o'tmaydigan guruhga kiritiladi va umumiy qiymati hisoblanadi.

Zahiralarni boshqarish – tahlilning muhim va mas'uliyatli qismidir. Korxonaning pirovard natijalari zahiralalar bilan ta'minlanganligi bilan bog'liqdir. Zahiralarni samarali boshqarish kapitalni aylanishini tezlashishiga imkon beradi, uni foydalilagini oshiradi, ularni saqlash uchun joriy xarajatlarni kamaytiradi, joriy xo'jalik aylanmasidan kapitalning bir qismini ozod qiladi.

Zahiralarni boshqarish quyidagilar bilan belgilanadi:

- Tovar-moddiy boyliklarning zahira strukturasini va umumiy miqdorini oshiradi;
- Xizmat ko'rsatish bo'yicha zahiralarni kamaytiradi;
- Ularning harakati bo'yicha nazoratni ta'minlaydi.

Tahlil yakunida har bir turni o'zgarishi hisobiga mahsulotni ishlab chiqarish hajmining o'sishi (kamayishi) aniqlanadi:

A) tayyorlab qo'yilgan xom ashyo va materiallarning miqdori;

B) xom ashyo va materiallar qoldig'i;

V) xom ashyo va materiallarning past sifati uchun chiqitlar, rejadan ortiq material va boshqa omillarni almashishi;

G)mahsulot birligi uchun ketgan xom ashyo xarajatlarining salmog'i.

## **10.5. Ishlab chiqarishda materiallardan samarali foydalanishni tahlil qilish**

Moddiy boyliklardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, xo'jasizlikka qarshi kurash, mahsulot tannarxida moddiy xarajatlarning ulushini kamaytirib borish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Jumladan, moddiy va mehnat resurslarini to'g'ri, tejamli sarflash iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda, aholining moddiy farovonligini oshirishda muhim omildir.

Moddiy resurslardan samarali foydalanishni tahlil etishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- korxonalarni zaruriy moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash;
- moddiy resurslarni korxonaga etkazib berish hajmini, komplekslilagini, sifatlilagini, sortlilagini hamda maromiyligining darajasini belgilash;

- moddiy resurslarni etkazib berishda korxonalarini tuziladigan shartnomalarning o'z vaqtida tuzilganligini aniqlash;
- moddiy-texnika ta'minotini belgilangan rejasining haqiqatga yaqinligini tekshirish;
- transport-tayyorlov xarajatlarini hisoblash;
- moddiy resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning mahsulot hajmiga, uning tannnarxiga ta'sirini miqdor jihatdan hisoblash;
- xom ashyo, yoqilg'i va materiallardan samarali foydalanilmagan ichki imkoniyatlarni aniqlash va boshqalar.

Materillarni reja doirasida tayyorlash mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha biznes-rejani bajarish uchun imkoniyat yaratadi. Agar materiallar tejab-tergab sarf etilmasa va ularning haqiqatdagi sarfi normaga nisbatan ortiqcha bo'lsa, u holda tayyorlangan materiallar mahsulot ishlab chiqariSh bo'yicha biznes-rejani bajariSh uchun etarli bo'lmaydi. Tahlil qilish orqali materiallardan foydalanishda ortiqcha sarf-xarajat bo'lgan bo'lsa, u holda qancha kam mahsulot ishlab chiqarildi yoki materiaillarni iqtisod qilish natijasida qancha qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarganligini aniqlash kerak. Bularni hisobga olish usuli quyidagicha:

1.Mahsulot birligi uchun belgilangan xarajat normasini materialarga ketgan haqiqiy xarajatlar bilan taqqoslanadi.

2.Olingan iqtisod yoki ortiqcha xarajat ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy miqdoriga ko'paytiriladi.

3.Materialarni sarf etishda sodir bo'lgan ortiqcha xarajatni reja bo'yicha belgilangan xarajat normasiga bo'linadi,iqtisodni esa haqiqiy xarajat miqdoriga bo'linadi. Shu tariqa iqtisod qilish natijasida qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ortiqcha xarajat oqibatida ishlab chiqarilmagan mahsulot hajmi aniqlanadi. Tahlil uchun kerakli ma'lumotlar muhim mahsulot turlari tannarxida (kalkulyasiyasida) beriladi.

10.3-jadvaldan ko'rinishicha, korxona erkaklar poyafzalini tayyorlashda unga sarflanadigan ko'n tovarlarini iqtisod qilish natijasida qo'shimcha ravishda 52 juft poyafzal ishlab chiqarishga erishdi. Xotin-qizlar poyafzalini tayyorlashda esa 35,5 ming kv.dsm. ga ko'p ko'n tovarlari ortiqcha xarajat qilindi. Natijada 27 juft kam ayollar poyafzali ishlab chiqarildi. Alovida olingan materiallardan foydalanishni tahlil qilishdan tashqari korxona bo'yicha materiallardan samarali foydalanishni tahlil qilish kerak.

### 10.3- jadval

#### Materiallardan foydalanishni tahlil qilish

Ko'rsatkichlar	Erkaklar poyafzali	Xotin-qizlar poyafzali
1. Mahsulot birligiga sarf qilinadigan ko'n tovarlari – 100 juft poyafzalga kv.dsm.  reja bo'yicha haqiqatda farqi (+,-)	1817 1805 -12	1320 1327 +7
2. 100 juft hisobida haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori	7850	5070
3. Iqtisod (-), ortiqcha (+) hamma ishlab chiqarilgan poyafzalga (ming, kv, dsm)	(7850x12) -94,2	(5070x7) +35,5
4.Qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish yoki kam ishlab chiqarish	(94,02:1805) +52	+35,5:1820 -27

Tahlil uchun kerakli ma'lumot yillik hisobotning I-P sonli "Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha hisobot" va 5-S shaklida olinadi.

### 10.4-jadval

#### Mehnat buyumlaridan samarali foydalanishni tahlil qilish

Nº	Ko'rsatkichlar	Biznes- reja bo'yicha	Haqi- qatda	Mutlaq farq (+,-)
1.	Moddiy xarajatlar, ming so'm..	628430	620430	-8000
2.	Tovar mahsuloti ming so'm...	942600	997970	+55370
3.	Bir so'mlik moddiy xarajatlarga to'g'ri keluvchi mahsulot hajmi (material samarası ( 2 qator: 1qator so'm, tiyin)	1,50	1,61	+0,11
4.	Tovar mahsulotiga ketgan material sarfi, tiyin (1 qator: 2 qator), yuzdan bir aniqlikda 0,01	0,6667	0,6217	-0,045
5.	Material sarfining o'zgarishining ta'siri(+,-) a) tovar mahsulotining ishlab chiqarish tannarxi (moddiy xarajatlarda( qimmatlashishi +; pasayishi -) ming so'm. (4 qator 5 us x 2 qator 4 us) b) tovar mahsulotining hajmi, ming so'm. (5 qator 5 us : 4 qator 3 us)	- -	- -	-44908 +67358

hisobi:

$$5 a - 0,045 \times 997970 = -44908 \text{ ming so'm (+)}$$

$$5 b - 44908 : 0,6667 = +67358 \text{ ming so'm (-)}$$

Tahlil qilinayotgan korxona moddiy xarajatlarni iqtisod qilish natijasida qo'shimcha ravishda 67358 ming so'mli mahsulot ishlab chiqarishga erishdi. Demak, korxona tovar mahsulotiga ketadigan material sarfini kamaytiriSh borasida barcha chora va tadbirlarni o'tqazmoqda deb xulosa chiqarishimiz mumkin.

10.4-jadvaldan ko'rinishicha, hisobot yili haqiqatda tovar mahsuloti hajmi biznes-rejaga nisbatan 55370 ming so'mga oshgan. Bunga ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

1.Moddiy xarajatlarning o'zgarishi (ekstensiv omil): -  $8000 \times 1,50 =$  12000 ming so'm.

2.Material samarsini o'zgarishi (intensiv omil) :  $+0,11 \times 620430 = +68247$  ming so'm.

Hisoblangan ikki omilning yig'indisi (-12000) + (+68247) =+56247 ming so'm. mahsulot hajmidagi mutlaq farqga (55370 m.s.) taxminan teng keladi. Bu yerda 877 ming so'mga farq (56247 – 55370) omillar miqdorini butunlash hisobiga ro'y berdi.

Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo'shimcha o'sishi faqat intensiv (jadal) omil hisobiga sodir bo'ldi. Bu esa o'z navbatida korxonaning iqtisodiy salohiyati oshganligidan dalolat beradi.

Materiallardan samarali foydalanishning samaradorligini oshirish maqsadida:

- mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini ko'paytirish;
- ishlab chiqrailayotgan mahsulotning sifatini oshirish va turlarini ko'paytirish;
- materiallar tuzilishini maqbullashtirish;
- me'yordan ortiqcha ishlab chiqarish va tayyor mahsulot zahiralarni, shuningdek, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmini kamaytirish;
- chiqarilayotgan mahsulot talabi va taklifini o'rganishni yaxshilash;
- materialarni qabul qilish, saqlash va etkazishni to'g'ri tashkil etish lozim.

Shunday qilib, yuqorida bildirilgan taklif va tavsiyalarni hal etish korxona ishi samaradorligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi muqarrar, deb hisoblaymiz. Shu tufayli korxonani moddiy resurslardan samarali foydalanganligini tahlili iqtisodiy tahlilning tarkibiy qismi bo'lib qolmog'i kerak.

## **Qisqa xulosalar**

Ushbu bobni o'rganish natijasida talabalar korxonalarini moddiy resurslar bilan ta'minlanganligini tahlil etishning ahamiyati va vazifalarini;

moddiy xarajatlarni kamaytirish mohiyatini; korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlanganligini tahlil qilish usullarini; moddiy resurslardan samarali foydalanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish usullarini bilishlari kerak

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Moddiy resurslar bilan ta'minlanish va ulardan samarali foydalanishni tahlil qilishning ahamiyati va vazifalari.
2. Material sarfini kamaytirishning yo'llari.
3. Moddiy-texnika ta'minoti bo'yicha biznes-rejani bajarilishini tahlil qilish.
4. Mahsulot etkazib berish qanday rasmiylashtiriladi?
5. Korxonalarning moddiy-texnika ta'minotining holatini tahlil qilish.
6. Ishlab chiqarishda alohida olingan materiallardan foydalanishni tahlil qilish.
7. Materiallarni iqtisod qilish natijasida qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi qanday aniqlanadi?
8. Materiallarni ortiqcha xarajat qilish oqibatida ishlab chiqarilmagan mahsulot hajmi qanday aniqlanadi?
9. Korxona bo'yicha mehnat buyumlaridan samarali foydalanishni tahlil qilishning ahamiyati.
10. Material samarasi va material sig'imi ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?
11. Tovar mahsuloti ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga qanday mehnat buyumlari omillari ta'sir ko'rsatadi?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Гинзбург А.И. Экономический анализ. Учебник- –Спб.: Питер, 2009.
2. Барлиенко В.И. Анализ хозяйственной деятельности. Учебник. –М.: Омега-Л, 2009.
3. Пардаев М.К., Шоалимов А.Х. Бошқарув таҳлили. –Т.: Иқтисодиёт ва хуқуқ дунёси. 2005.
4. Вахобов А. ва бошқалар. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Дарслик. - Т.: Шарк, 2005.
5. www.iiia.org.uk- (The Institute of Internal Auditors-United Kingdom).
6. www.iask.org.uk- (International Accounting Standards Committee).

## **XI BOB. MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI TAHLILI**

11.1. Mahsulot tannarxini pasaytirishning ahamiyati, uning mohiyati, tahlil vazifalari.

11.2. Tovar mahsuloti uchun ketgan xarajatlarni tahlili.

11.3. Xarajatlarning iqtisodiy elementi va kalkulyasiya moddalari bo'yicha tahlili

11.4. Mahsulot turlari bo'yicha tannarx va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar**

Xarajatlarni turkumlaSh; mahsulot tannarxini kiritiladigan xarajatlar; mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlar; 1 so'mlik mahsulot iShlab chiqariSh xarajatlari; xarajatlarni iqtisodiy elementi bo'yicha tahlil etiSh; iShlab chiqariSh yunaliShidagi boShqa xarajatlar; maxsulot tannarxini pasaytiriSh buyicha rezervlarni aniqlaSh tartibi.

### **11.1. Mahsulot tannarxini pasaytirishning ahamiyati, uning mohiyati, tahlil vazifalari**

Hozirgi sharoitida iqtisodiyot oldiga qo'yilgan vazifalardan biri – bu uni samaradorligini ko'tarishdan iboratdir. Ushbu maqsadga ishlab chiqarilgan mahsulot tanarxini kamaytirish asosida erishish mumkin bo'ladi. Zero, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturining ustuvor yo'naliishlaridan biri sifatida: «Qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish» kerakligini ta'kidlab o'tdilar<sup>2</sup>. Buning amaliy natijasi sifatida 2009 yilda sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi 18 foizga, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, «O'zmetkombinat» aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasi, «O'zeltexsanoat» uyushmasi, «O'zqurilishmateriallari» kompaniyasi va boshqa korxona va tarmoqlarda 20-25 foizga kamayganligini aytib o'tish mumkin.

<sup>2</sup> Karimov I.A. «Jahon molivaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choraları». –T.: «O'zbekiston». 2009. 34 b.

Mahsulot tannarxi korxonalar xo`jalik faoliyatini ifodalovchi sifat ko`rsatkichi bo`lib, korxona faoliyatining ishlab chiqarish va moliyaviy tomonlarini aks ettiradi, ularni ish samaradorligini ko`rsatadi. Shu boisdan, maxsulot tannarxini taxlil qilish boshqaruv va moliyaviy taxlili fanlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Maxsulot tannarxi** deganda, maxsulotni ishlab chiqarish, sotish va korxona moliyaviy faoliyati bo`yicha barcha xarajatlarning pul orqali ifodalanishi tushuniladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot tannarxini tahlil qilishning ahamiyati turli xildagi mulkchilik shakllarida ish yuritayotgan korxonalar uchun beqiyosdir, zero, ishlab chiqarish xarajatlari to`g`risida to`la ma'lumotlarga ega bo`lmasdan turib ishlab chiqarishni tashkil qilish va samarali boshqarish mumkin emas. Mahsulot tannarxini arzonlashtirish jonli mehnat hamda buyumlashgan mehnatni tejashni aks ettiradi, foydaning ortishini ta'minlaydi, ulgurji va chakana narxlarni arzonlashtirish imkonini yaratadi.

Mahsulot tannarxini arzonlashtirishning asosiy yo`llari quyidagilardan iborat: boshqaruv usullarini, ishlab chiqarish va mehnatni ilmiy tashkil qilishni, xo`jalik hisobini takomillashtirish, ishlab chiqarish asosiy fondlaridan foydalanishni yaxshilash, moddiy resurslardan tejattergab foydalanish, ishlab chiqarishni boshqarish va unga xizmat ko`rsatish xarajatlarini kamaytirish, xo`jasizlikka qarshi kurashish kabilar.

Mahsulot tannarxini tahlil qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Korxona xo`jalik faoliyati davomida yuzaga keladigan xarajatlar tarkibini aniqlash.
- Mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan bog`liq haqiqiy xarajatlarning reja va o`tgan yilgi xarajatlarga nisbatan bo`lgan tejam yoki o`rtacha xarajatga ta`sir etuvchi omillarni aniqlash.
- Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida material va mehnat resurslaridan to`g`ri foydalanish ustidan nazorat olib borish.
- Bir so`mlik tovar mahsulotiga ketgan xarajatlarning o`zgarishiga ta`sir qiluvchi omillarni aniqlash.
- Mahsulot tannarxining iqtisodiy elementi va kalkulyatsiya moddalari bo`yicha tarkibini tahlil qilish.
- Tannarxini arzonlashtirish rezervlarini aniqlash.

“Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish buyicha xarajatlar tarkibi hamda

moliyaviy natijalarni shakllantirish xaqida”gi nizomga muvofiq hamma xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

- mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga qo`shiladigan xarajatlar;
- ishlab chiqarish tannarxiga qo`shilmaydigan, ammo asosiy faoliyatdan olinadigan foydada hisobga olinadigan davr xarajatlariga qo`shiladigan xarajatlar;
- korxona umumxo`jalik faoliyatidan olinadigan foyda yoki zarar-larni hisobga olinadigan, korxona moliyaviy faoliyati bo`yicha xarajatlar;
- soliq to`langunga qadar foyda yoki zarar hisob-kitobida hisobga olinadigan tasodifiy zararlar.

Shunday qilib, xarajat moddalari quyidagicha guruhlanadi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi:

a) to`g`ri va egri material xarajatlari;

b) to`g`ri va egri mehnat xarajatlari;

v) ishlab chiqarish ahamiyatidagi ustama xarajatlar qo`shilgan holda boshqa to`g`ri va egri xarajatlar.

2. Davr xarajatlari:

a) sotish bo`yicha xarajatlar;

b) ma'muriy xarajatlar;

v) boshqa operasion xarajatlar va zararlar.

3. Moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlar:

a) foizlar bo`yicha xarajatlar;

b) chet el valyutasi bilan bog`liq operasiyalar bo`yicha salbiy kurs farqlari;

v) qimmatli qog`ozlarga sarflangan mablag`larni qayta baholash;

g) moliyaviy faoliyat bo`yicha boshqa xarajatlar.

4. Tasodifiy zararlar.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish yoki qayta ishlash jarayonida ishlataladigan tabiat resurslari, xom ashyo, material, yoqilg`i, energiya, asosiy fondlar, mehnat resurslari, hamda ishlab chiqarish bilan bog`liq boshqa xarajatlarning puldagi ifodasidir.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladigan xarajatlar o`zlarining iqtisodiy mazmuniga muvofiq quyidagi xarajat unsurlariga bo`linadi:

1.Ishlab chiqarish material xarajatlar (qaytariladigan chiqindilar qiymati chiqarib tashlangan holda).

2.Ishlab chiqarish xarakteridagi mehnatga haq to`lash xarajatlari.

3.Ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug`urta ajratmalari.

4.Ishlab chiqarish ahamiyatidagi asosiy fondlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.

5.Ishlab chiqarish ahamiyatidagi boshqa xarajatlar.

«Xarajatlar tarkibi to'g'risidag...» Nizomda ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishning umumiyligi ta'minlangan. Buning yakunida mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini rejalashtirish, tahlil etish va nazorat qilishga imkoniyat tug'iladi.

Mazkur nizom buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish maqsadlarida xarajatlarni hisoblash tartiblaridagi farqlanishlarini hisobga olib, ishlab chiqilgan. Boqhqaruv hisobi va boshqaruv tahvilining maqsadi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshligini aniqlashdir.

Korxonalarning mahsulotlari tannarxini tahlil qilishda asosiy axborot manbalar quyidagilar hisoblanadi:

- xo'jalik sub'yektlarining biznes reja ma'lumotlari;
- 5-S «Korxona sarf-xarajatlari to'g'risida»gi hisoboti ma'lumotlari;
- 1-T «Mehnat hisoboti» ma'lumotlari;
- buxgalteriya hisobining ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olib boruvchi schyot ma'lumotlari va boshqa turdag'i qo'shimcha ma'lumotlar.

## **11.2. Tovar mahsuloti uchun ketgan xarajatlarni tahlili**

Mahsulot tannarxini tahlil qilish jami tovar mahsulotining to'la tannarxi bo'yicha rejaning bajarilishiga umumiy baho berish bilan boshlanadi.

Tovar mahsuloti 2 turkumga bo'linadi: taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan mahsulot.

Taqqoslanadigan mahsulot deganda shu yil va undan oldingi yillarda seriyali va ommaviy tartibda ishlab chiqarilgan mahsulotning barcha turlari tushuniladi.

Taqqoslanmaydigan mahsulot esa joriy yilda ishlab chiqarilgan mahsulotdir.

Tahlil qilish jarayonida taqqoslanadigan mahsulot jumlasiga kiradigan mahsulotning haqiqiy tannarxi reja tannarxi va uning o'tgan yilgi darajasi bilan, taqqoslanmaydigan mahsulotning haqiqiy tannarxi esa faqat rejada ko'rsatilgan tannarxi bilan solishtiriladi.

## 11.1-ladval

### Tovar mahsuloti tannarxini tahlili

(ming so'm)

Ko'rsatkichlar	Tovar mahsuloti tannarxi			Farqi (+,-)	
	O'tgan yilgi tannarxi	Reja tannarxi	Hisobot yilining haqiqiy tannarxi	O'tgan yilga nisbatan	Rejaga nisbatan
Jami tovar mahsuloti	x	6071	6018	-	-53
Shu jumladan Taqqoslanadigan	4095	3924	3856	-239	-68
Taqqoslanmaydigan	x	2147	2162	X	-15

11.1-jadvaldan ko'rinishicha, korxonada jami tovar mahsulotining haqiqatdagi to'la tannarxi rejaga nisbatan 53 ming so'mga afrzonlashgan. Jumladan taqqoslanadigan tovar mahsulotining haqiqatdagi to'la tannarxi reja tannarxiga nisbatan 68 ming so'mga arzonlashgan bo'lsa, taqqoslanmaydigan tovar mahsuloti esa 15 ming so'mga qimmatlashgan.

Mahsulot tannarxini tahlil qilish jarayonida bir so`mlik tovar mahsulotiga ketgan xarajat ko`ratkichini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. U ishlab chiqarish tannarxini tovar mahsuloti hajmiga nisbati tariqasida aniqlanadi. Masalan, tovar mahsulotining qiymati 100 mln. so`nni tashkil etsa, mahsulotni ishlab chiqarish tannraxi 80 mln. so`m bo`lsa, u holda tovar mahsulotining har so`miga qilingan xarajat 80 tiyin (80:100)ga, yalpi foyda esa 20 tiyinga teng bo`ladi. Demak, bu ko`rsatkichda foyda bilan ishlab chiqarish tannarxi o`rtasidagi bog`liqlikni yaqqol ko`rsatishimiz mumkin. Bu ko`rsatkich orqali qilingan xarajatlarning samaradorligini aniqlash mumkin.

Tahlil etishda bir so`mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar dinamikasi, biznes rejaga nisbatan o'zgarishi aniqlanadi (11.2- jadval).

11.2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tahlil qilinayotgan korxonada ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining har so'mi uchun qilingan xarajat hisobot davrida 82,18 tiyini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 4,25 tiyinga yoki 95 % ga, biznes rejaga nisbatan esa 2,12 tiyinga yoki 97 % ga kamaygan. Xarajatlarning bunday tartibda kamayishi korxonaning rentabelligini oshiradi. O'rganilayotgan davrda har bir so`mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajat biznes rejaga nisbatan 2,12 tiyinga kamayishi hiisobiga, korxona bo'yicha 3023,12 ming so`mlik (2,12 x142600/100) kam xarajat qiliningan. Demak, korxona o'rganilayotgan

## 11.2- jadval

### **Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar tahlili**

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili		Farqi (+,-)	
		biznes rejada	haqiqatda	o'tgan yilga nisbatan	biznes rejaga nisbatan
A	1	2	3	4	5
1.Maxsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi, ming so'mda	115900	118356	117187	+1287	-1169
2. Tovar maxsulotiningg solishtirma ulgurji bahosi, ming so'mda	134100	140400	142600	+8500	+2200
3. Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar, tiyin hisobida	86,43	84,30	82,18	-4,25	-2,12

davrda har bir so'mlik mahsulot uchun 2,12 tiyin kam xarajat qilishi evaziga uning daromadi 3023,12 ming so'mga oshdi.

Tahlil jarayonida 1 so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarni rejaga va o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sabablari va unga omillarning ta'sirini aniqlash lozim.

11.2-jadvaldan ko'rinishicha, mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi, haqiqatda biznes-rejaga nisbatan 1169 ming so'mga kamaydi. Bu o'zgarishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi.

1). Tovar maxsulotiningg solishtirma ulgurji bahosining o'zgarishi:  $+2200 \times 84,30 = +1854,6$  ming so'm.

2). Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar hajmining o'zgarishi:  $-2,12 \times 142600 = -3023,1$  ming so'm.

Demak yuqorida hisoblangan omillarning ta'siri 1169 ming so'mni tashkil etadi:  $+1845,6 - 3023,1 = -1169$  ming so'm.

### **11.3.Xarajatlarning iqtisodiy elementi va kalkulyasiya moddalari bo'yicha tahlili**

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va tahlil etishning uslubiy va me'yoriy shakli O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan 1999 yil 5 fevralda tasdiqlangan 54-sонли Mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxi, maxsulot (ish bajarish va xizmat ko'rsatish) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va

moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'risida»gi Nizom bilan belgilanadi.

Sanoat korxonalari ishlab chiqarish xarajatlarini rivojlantirish maqsadida buxgalteriya hisobi va hisobotida uning yo'naliishlari bo'yicha guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir;

1. Xarajatlarniyag iqtisodiy elementari bo'yicha.
2. Xarajatlarning kalkulyasion moddalari bo'yicha.

Xarajatlarning elementi bo'yicha guruhlarga ajratishdan maqsad ularning strukturasi va dinamikasini nazorat qilishdan iborat.

Ko'rsatkichlarni taqqoslash orqali jonli mehnat bilan boshqa xarajat turlarining nisbati, ishlab chiqarish zahiralarini normalashtirish va tahlil etish, oborot mablag'larining tezligini aniqlash va milliy daromadni hisoblash imkoniyati tushuniladi.

Xarajatlarning elementlari bo'yicha tahlil natijalariga muvofiq material sig'imi, mehnat sig'imi va fond sig'imi darajalari bo'yicha tannarxni pasaytirish imkoniyatlarni aniqlash mumkin.

Tahlil etishda jami xarajatdagi har bir elementning tutgan salmog'i aniqlanib, o'tgan yildagisi hamda smetadagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslanib, ularning o'zgarish sabablari aniqlanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy elementlari va kalkulyasion moddalari bo'yicha o'rganish quyidagicha farqlanadi, ya'ni, bo'limgar bo'yicha o'rganiladi, mahsulotlar turi va turkumi bo'yicha esa ishlab chiqarish xarajatlari kalkulyasiya modlalari asosida ko'rib chiqiladi. Tahlil etishda ishlab chiqarish xarajatlarining jami tarkibi bo'yicha o'zgarishlarni mutlaq va nisbiy jihatdan o'rganiladi. Nisbiy jihatdan o'rganishda har bir turkum xarajat moddasi yoki elementining jami ishlab chiqarish xarajatlari tarkibidagi salmog'iga baho beriladi

Tahlil uchun quyidagi jadvalni keltiramiz (11.4-jadval).

11.4-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, jami xarajatda moddiy va mehnat xaqi xarajatlarining tutgan ulushi yuqorida. Ularning ulushi bazis davridagi 62,8 va 25,4 foizdan, hisobot davriga kelib 63,6; 25,6 foizgacha oshgan. Shu davr amortizasiya ajratmalari ulushi esa 6,9 foizdan hisobot davriga kelib 5,9 foizga kamaygan. Jami ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida ijtimoiy sug'urta ajratmalari bilan boshqa ishlab chiqarish xarajatlarining ulushida hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan o'zgarish bo'limgan (1,5;3,4).

### 11.3-jadval

## **Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementlari va kalkulasion modalari bo'yicha turkumlanishi**

<b>Iqtisodiy elementlari bo'yicha</b>	<b>Kalkulasion moddalari bo'yicha</b>
<b>1</b>	<b>2</b>
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita xarajatlar	Xom ashyo Yoqilg'i Elektr quvvati Ehtiyyot qismlar Idishlar va xokazo
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita mehnat xaqqi xarajatlari	Asosiy ish haklari Qo'shimcha ish haqlari Ish haqiga ustamalar
Ishlab chiqarishga taalluqli mehnat haqidan ajratmalar	Ijtimoiy ta'minot bo'limiga Mehnat birjasiga Kasaba uyushmasiga
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizasiysi, xarajatlari	Asosiy vositalarning eskirishi Nomoddiy aktivlarning eskirishi Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarnnng ijara haqlari
Ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar	Turli ishlar va xizmatlar Soliqlar, yig'imlar va xokozo.

## 11.4-jadval

### Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementlari bo'yicha tahlili

Xarajat elementlari	O'tgan yili		Hisobot yili		Farqi (+,-)	
	S umma, (ming so'm)	Sa lmog'i (foiz hisobida)	S umma ming so'm	S almo- g'i (foiz hisobi- da)	S um- ma (ming hisobi- da)	S almo- g'i (foiz S hisobi- da)
A	1	2	3	4	5	6
1.Moddiy xarajatlar	72355	62,8	74317	63,6	+1963	+0,8
2.Mexnat xaqi xarajatlari	29265	25,4	29914	25,6	+649	+0,2
3.Ijtimoiy sug'urta ajratmalari	1728	1,5	1753	1,5	+25	-
4.Amortizasiya ajratmalari	7950	6,9	6894	5,9	-1053	-1
5.Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	3917	3,4	3972	3,4	+55	-
Jami ishlab chiqarish xarajatlari	115215	100	116850	100	+1635	-

### 11.4.Mahsulot turlari bo'yicha tannarx va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili

Aloxida mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulotlar tannarxini aniqlash, moliyaviy natijaga daxldor bo'lган elementlarni iqtisodiy jarayonlarning turi, o'rni, joyi va javobgarlik bo'yicha hisobga olinishi va nazorat qilinishi korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini boshqarishda muhim hisoblanadi. Aloxida olingan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxini aniqlashga hisobkitoblarning muhim ob'ekti sifatida qaraladi. Bunda mahsulot tannarxining to'g'ri aniqlanishiga ahamiyat beriladi. Mahsulotlar tannarxini aniqlash va hisobga olish, moliyaviy natijaviylikni tarkibini o'rganish bilan birga, foydaning shakllanish qatorlarini to'g'ri baholash imkonini beradi. Bir xildagi mahsulot turlarini ishlab chiqaradigan korxonalarda mahsulot tannarxining qiyosiy tahlili va uning natijalari iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.

Aloida olingan mahsulotlar tannarxining tahlili xarajatlarni iqtisodiy elementlari bo'yicha emas, balki, xarajat moddalari bo'yicha o'rganishni,

ularning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlariga baho berishni hamda o'zgarish sabablarini o'rganishni tavsiflaydi. Mahsulot ishlab chiqarishning kalkulyasiya moddalari ishlab chiqarish va texnologiya jarayonlari xususiyatiga bog'liq. Sanoat korxonalaridagi kalkulyasiya moddalari tarkibini bir xil ko'rinishga ega bo'lishi tannarxni umumiy xajimda va moddalari bo'yicha tashkil etish imkoniyati tug'iladi. Bunday tahlil bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot birligiga belgilanadigan narxni aniqlaqhda foyda va rentabellikni oqhriqhda muhim o'rinn tutadi.

Mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxiga va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni xarajat moddalarining xar bir turi bo'yicha aloxida tarkiblash mumkin. Masalan, material xarajatlar yoki xomashyo xarajatlari qatori bo'yicha xarajatlar o'zgarishiga moddiy sarflar me'yorining o'zgarishi, ularni sotib olish baholarining o'zgarishi ta'sir qilsa, mehnat xahqi xarajatlarining o'zgarishida ishchilar soni va bir xodimga to'g'ri keladigan issh haqlarining o'zgarishi ta'sir qiladi. Amortizasiya xarajatlari bo'yicha ham xuddi shu shakilda tarkiblashni aytib o'tish mumkin, ya'ni, amortiasiyalangan qiymatning o'zgarishi, amortizasiya me'yorlari, shuningdek amortizasiya ajratmalari ajratiladigan asosiy vositalar turi,

## 11.6 - jadval

### **Mahsulot birligining ishlab chiqarish xarajatlarini tahlili**

Xarajat moddalari	Korxona 1		Korxona 2	
	Mahsulot birligi uchun sarflangan xarajat, co'mda	Jamiga nisbatan salmog'i, %	Mahsulot birligi uchun sarflangan xarajat, so'mda	Jamiga nisbatan salmog'i, %
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>3</b>
1. Xomashyo aa materiallar xarajati	304	27,6	231,7	22,5
2. Yarim fabrikat xarajatlari	100	9,0	154,5	15,0
3. Yoqilg'i va energiya xarajatlari	62	5,6	63,9	6,2
4. Ish haqi xarajatlari	273	24,8	219,4	21,3
5. Ijtimoiy sug'urta ajratmalari	55	5,0	55,6	5,4
6. Brakdan kurligan zarar	25	2,3	30,9	3,0
7.Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	281	25,7	274	26,6
Jami ishlab chiqarish xarajatlari	110,1	100,0	1030	100,0

salmog’iga bog’liq va hokazolar. Omillar ta’sirini aniqlashda xar bir ta’sir birligi alohida va boshqa omillar ta’sirsiz o’rganiladi.

11.6 - jadval ma’lumotlari shuni ko’rsatadiki, mahsulotini ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar ikkinchi korxonada birinchi korxonaga qaraganda 70 so’m iqtisod qilingan. Har bir xarajat moddasini bir-biri bilan taqqoslaqh ularning strukturasini o’rganish tufayli shunday xulosaga kelish mumkin: 2-korxonada chetdan keltirilgan yarim fabrikat, tayyor detal va mahsulotning boshqa qismlari 1-korxonaga nisbatan ko’proq keltirilishi mahsulot tannarxidagi mehnat haqi xarajatlarining ulushini 1-korxonadagi 24,8 foizlan 2-korxonada 21,3 foizga ko’paytirishga erishilgan. Shu tufayli 2-korxonada strukturaviy o’zgarishlar tufayli tannarx 70 so’mga pasaygan.

### **Qisqa xulosalar**

Ushbu bobni o’rganish natijasida talabalar ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi to’g’risida tushuncha va uni hisoblash uslublari; tannarxni tahlil etishning mazmuni va maqsadini; Xarajatlarning iqtisodiy elementi va kalkulyasiya moddalari bo’yicha tahlilini; 1 so’mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish usullarini bilishlari kerak.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Maxsulot tannarxi deganda nimani tushunasiz?
2. Sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini tahlil etishning ahamiyati nimadan iborat?
3. Mahsulot tannarxining tahlil asosiy vazifalar nimalardan iborat bo’ladi?
4. Mahsulot tannarxini tahlil etishda foydalaniladigan asosiy axborot manbalari nimalardan iborat?
5. Bir so’mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajat qanday aniqlanadi?
6. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementi va kalkulasiyani moddalari qanday tahlil etiladi?
7. Tannarxga qo’shiladigan boshqa turdagи xarajatlar qanday tahlil etiladi.
8. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yullarini ko’rsatib bering.

## **Asosiy adabiyotlar**

- 1.Олишневская Н. Экономический анализ. Учебное пособие. –М.: Аст.Полиграфиздат, 2010.
- 2.Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебник. –М.: Инфра-М, 2009 .
- 3.Ваҳабов А.В., Иброҳимов А.Т. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Дарслик. –Т.: Шарқ, 2005.
- 4.Пардаев М.Қ., Шоалимов А.Х. Бошқарув таҳлили. Ўқув қўлланма. - Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2005.
- 5.Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma.-T.: Mehnat, 2004 .
- 6.www.cer.uz- (Центр экономического исследования).
- 7.www.pravo.eastink.uz- (Сборник экономических законодательств).

## **XII BOB.BALANS KO'RSATKICHLARI VA MOLIYAVIY HOLATINI TAHLILI**

12.1. Korxonalar moliyaviy holati tahlilining mazmuni, vazifalari va axborat manbalari.

12.2. Buxgalteriya balansi va uni tahlilda qo'llanilishi.

12.3. Korxona mulkining tarkibi va tashkil topish manbalarini tahlili.

12.4. Korxona balansi likvidligi va to'lov qobiliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlili.

12.5. Korxona kapitalini tarkibini tahlili.

12.6. Korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlili.

12.7. Korxonaning aylanma mablag'larining aylanishini tahlili.

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar**

Balansning aktiv va passiv qismlari; korxona mulkining tarkibi; korxonaga qarashli va qarzga olingan mablag'lar; mustaqillik koeffisienti; moliyaviy barqarorlik koeffisienti; mablag'lar bilan ta'minlanish koeffisienti; investisiya koeffisienti; korxonanining moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlari; mutloq harakatchanlik koeffisienti; shoshilinch harakatchanlik koeffisienti; joriy harakatchanlik koeffisienti; qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash koeffisienti; debitor va kreditor qarzlari orasidagi nisbat koeffisient; qisqa muddatli majburiyatlarni korxonaning o'z aylanma mablag'lari bilan qoplash koeffisienti; eng ko'p to'lov qobiliyatli aktivlar; tez sotiladigan aktivlar; sekin sotiladigan aktivlar; qiyin sotiladigan aktivlar; eng tez to'lanadigan majburiyatlar; qisqa muddatli passivlar; uzoq muddatli passivlar; doimiy passivlar; tez likvidlik koeffisienti; mutloq likvidlik koeffisienti; aylanma mablaglarni aylanish koeffisienti; aylanma mablaglarni aylanish kuni.

### **12.1. Korxonalar moliyaviy holati tahlilining mazmuni, vazifalari va axborat manbalari**

Iqtisidiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy holatining ahamiyati oshib bormoqda. Xususiy, jamoa, qo'shma, hissadorlik, davlat va boshqa shakldagi mulkka ega bo'lgan korxonalar moliyaviy ahvolini o'rganishning mazmuni shundan iboratki, bunda o'z vaqtida pul tushumlarining kelishi, hisoblashish intizomiga rioya qilish, xususiy va qarz mablag'larining to'g'ri nisbatga bo'lishini ta'minlash, moliyaviy tartib va intizomga, barcha ishlab chiqarish bo'g'inlarida iqtisod va tejamkorlikka rioya qilish muhim ahamiyat kasb

etadi. Korxonalarining moliyaviy holati ko'p jihatdan – baho, kredit, foyda va uni iqtisodiy taqsimlanish mexanizmiga bog'liqdir. Shu bois, hozirgi sharoitida har qanday korxonaning moliyaviy ahvolini bilish va o'rganishga e'tibor kuchaymoqda.

Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish moliyaviy tahlilning yakunlovchi bosqichi bo'lib hisoblanadi. Korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilishning asosiy maqsadi – moliyaviy faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab, mablag'lardan yanadi to'g'ri foydalangan holda hisob-kitob tartibini mustahkamlashga qaratiladi. Demak, bu mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, xarajatlarni tejash, pul-moliya aloqalari va boshqa faoliyatlarning bir-biriga bog'liqligini ko'rsatadi.

Ayniqsa, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, maxsus va maqsadli mablag'lar, zahira jamg'armasi, foyda va zararlar, turli xil hisob-kitoblar, qiymatli qog'oz va veksellar bo'yicha ma'lumotlardan ko'proq foydalilaniladi. Bular xo'jalik faoliyatining to'g'ri boshqarilishi, uning moliyaviy barqaror bo'lishi va to'lov qobiliyatining yaxshilanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Korxona moliyaviy resurslarini to'g'ri va mohirona boshqarish uchun birinchi navbatda korxonaning moliyaviy ahvoli va resurslardan foydalananish samaradorligi aniqlanishi va tahlil qilinishi lozim bo'ladi.

Korxonaning moliyaviy ahvoli moliyaviy resurslarning turlar bo'yicha mavjudligini, raqobatbardoshlik darajasi, davlat va boshqa xo'jalik sub'yektlari oldida majburiyatlarni boshqarish qobiliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar majmuidir.

Korxona moliyaviy ahvolini baholash mulkiy holat; likvidlilik; moliyaviy barqarorlik; moliyaviy natijalar; ishga oid faollikni ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'yicha baholanadi.

Korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilishning asosiy vazifasi quyidagilarni baholash hisoblanadi:

- buxgalteriya balansi va mulkiy holat ko'rsatkichlari tuzilmasi;
- asosiy vositalar ahvoli, ta'minlanganlik va foydalananish samaradorligi;
- moliyaviy barqarorlik;
- likvidlilik va to'lov qobiliyati;
- xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari;
- ishga doir faollik.

Bajariladigan vazifalar shuni ko'rsatyaptiki, moliyaviy holatni tahlil qilish korxonalarda shakllanayotgan boshqaruv tizimini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega.

Korxonalarning ichki va tashqi omillar ta'siri ostida shakllangan moliyaviy holati, ularning istiqbolini aniqlash bilan birga, bu korxona bilan aloqada bo'lgan boshqa tashkilotlar va korxonalarning moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Umuman korxonalarning ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatini, jumladan ularning moliyaviy holati tahlili asosini bir butun kompleks iqtisodiy fanlar: iqtisodiy nazariya, makro va mikro iqtisodiyot, menejment va marketing, statistika, buxgalteriya hisobi, audit, moliya, kredit va boshqalar tashkil etadi. Demak, tahlilchi mutaxassis-auditorlar keng iqtisodiy ilmga ega bo'lishlari kerak.

Korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish, ya'ni moliyaviy tahlil – bu keng ko'rsatkichlar yordamida, kompleks usullardan foydalanilib korxonalarning moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligi va ulardan foydalanish darajasini ifodalashdir<sup>3</sup>.

Korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilish keng miqyosda va aniq vazifalarni bajarish uchun o'tkaziladi. Korxonalarni ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatining moliyaviy holatini tahlil qilish uchun an'anaviy, qadimdan qo'llanib kelinayotgan usullar bilan birga, keng tarzda statistika usulari, moliyaviy holatni ifodalovchi ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish, statistik kuzatishlarni o'tkazish, absolyut, nisbiy, o'rtacha, dinamik ko'rsatkichlardan foydalanish, dinamik qatorlardan, iqtisodiy indekslar tizimidan, omillararo korrelyasiya aloqalarini aniqlash, jadval va chizma tizimdan foydalanish lozim.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish natijasida korxona va tashkilotlarning xalq xo'jaligining qaysi tarmog'iga va qaysi mulk shakliga munosibligidan qat'iy nazar, yangi hisobot shakllari va ularni taqdim etish tartiblari o'zgardi. Yangi hisobot ko'p jihatdan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot bo'yicha xalqaro andozalar talabiga javob beradi.

Korxonalar moliyaviy holati tahlilining darajasi va mazmuni foydalanilayotgan ma'lumotlar bazasiga bog'liq. Iqtisodiy fanlarning rivojlanishi, buxgalteriya hisobi va hisobotlarining takomillashtirilish bilan ma'lumotlar bazasi ham takomillashib boradi. Demak, foydalaniladigan ma'lumotlar moliyaviy tahlilning manbalari bo'lib hisoblanadi. Bunday manbalar sifatida korxonalarning yillik va boshqa hisobotlarini ko'rish mumkin.

Yangi tasdiqlangan moliyaviy hisobotlarda moliyaviy holatni har tomonlama ifodalash uchun imkoniyatlar mavjud etilgan. Moliyaviy tahlilni o'tkazishda, albatta yuqorida ko'rsatilgan moliyaviy manbalar bilan chegaralanmaslik lozim. Zaruriyat bo'lsa, boshqa buxgalteriya

<sup>3</sup> Akramov E.A. «Korxonalarning moliyaviy holatini tahlili». - T.: Moliya. 2003. 8 бет

hisoboti va hisobi ma'lumotlaridan foydalanish ham kerak. Moliyaviy ma'lumotlardan foydalangan holda korxonalar faoliyatiga to'g'ri baho berish muhim vazifa hisoblanadi.

## **12.2.Buxgalteriya balansi va uni tahlilda qo'llanilishi**

Buxgalteriya balansi korxonaning moliyaviy xolatini taxlil qilishning asosiy manbasi hisoblanadi. “Balans” atamasi lotincha bis – ikki marta, banx – tarozi pallasi so’zlaridan tarkib topib, tom ma’noda ikki palla degan ma’noni anglatadi va tenglik tushunchasi sifatida ishlatiladi.

Balansning aktiv va passiv tomonlari bo’ladi. Aktiv tomonida korxona mablag’lari, passivida esa xo’jalikning o’ziga tegishli manbalar, kreditga va qarzga olingan boshqa manbalar ko’rsatiladi. Aktiv mablag’larning oshishi, passivdagi manbalar va foyda (daromad) ning ko’payishi bilan bog’liqdir. Balansning barcha bo’lim va bandlarini chuqur o’rganish moliyaviy ahvolni to’liq o’zlashtirishning asosini tashkil qiladi. Balans o’sganda korxona mablag’larini guruhash va joylanishini ularni hosil etish manbalarini pul bahosida muayyan sanaga aks ettirish tushuniladi.

Buxgalteriya balansi quyidagi belgilari bo'yicha tasniflanadi: tuzilish vaqtি, axborot hajmi, mulkchilik shakli, aks ettirish ob'ekti “tozalash” usuli.

Tuzilish vaqtiga ko’ra buxgalteriya balanslari kirish, joriy, tugatish, bo’lish va birlashtirish balanslariga bo’lishi mumkin.

Kirish balansi korxonaning paydo bo’lish vaqtiga tuziladi. U korxona o’z faoliyatini boshlayotgan mulkini ko’rsatadi.

Joriy balanslar – korxona qonunchilik bilan belgilangan muddatda mavjud bo’lgan vaqt mobaynida vaqt-vaqt bilan tuzib turiladi.

Tugatish balanslari korxona tugatilayotganda tuziladi.

Bo’lish balanslari yirik korxona bir necha mayda korxonalarga bo’linganda tuziladi.

Birlashtirish balansi bir necha korxonalar bir korxonaga birlashganda tuziladi.

Axborot xajmi bo'yicha balanslar bir martalik va yig'ma balanslarga bo’linadi.

Bir martalik balans faqat bitta korxona bo'yicha joriy xisob asosida tuziladi.

Yig'ma balans esa bir martalik balanslar asosida tuziladi. U birlashmalar, vazirliklar va shu kabilarning xo’jalik mablag’larini aks ettiradi.

Mulkchilik shakllariga ko'ra - davlat, o'z, aralash, qo'shma korxonalar va jamoat tashkilotlari balanslari farqlanadi.

Aks ettirish ob'ektiga ko'ra - balanslar mustaqil va aloxida balansga ajratiladi.

Mustaqil balansni yuridik shaxs bo'lган korxonalar tuzadi. Aloxida balansni korxonaning filiallari, sexlari tuzadi.

"Tozalash" usuliga ko'ra balanslar balans "brutto" va balans "netto"ga ajratiladi. Balans brutto – tartibga soluvchi moddalarni o'z ichiga oluvchi balansdir.

Balans netto – qiymatdan tartibga soluvchi moddalar summasi chegiriladi.

Masalan, asosiy vositalarning qoldiq qiymatini xisob-kitob qilish uchun asosiy vositalar" summasidan ularning eskirish summasi chegiriladi (012 satr= 010-011).

O'zbekiston Respublikasidagi barcha korxonalar balans-netto tuzadi.

Buxgalteriya balansiga qo'yiladigan asosiy talablar uning to'g'riliqi, realligi, yaxlitligi, izchilligi va tushunarligidir.

**Balansning to'g'riliqi** uni tuzishda asoslanilgan xujjatlarning to'laligi va sifati bilan ta'minlanadi. Balansning xar bir moddasi xujjatlar, buxgalteriya xisob raqamlaridagi yozuvlar, buxgalteriya xisob-kitoblari va inventarlash bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Balans ma'lumotlarini qasddan buzish - niqoblash deyiladi. Balansni niqoblash asosan qoida buzishlarni yashirish maqsadida amalga oshiriladi. Ayrim xollarda balansni niqoblash uni tuzish bo'yicha qoidalarni mukammal bilmaslik oqibatida sodir bo'ladi.

**Balansning realligi.** Balans to'g'ri, ammo noreal bo'lishi mumkin. Masalan, asosiy vositalar ma'naviy eskirgan, debtorlik qarzini talab qilib olib bo'lmasligi kabilar real xolatni ko'rsatmaydi.

Balansning birligi balansni yagona hisobga olish va baholash tamoyillari bo'yicha tuzilishi, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida buxgalteriya hisobi, hisob raqamlari (schet)ning yagona nomenklaturasi va ularning korrespondensiyasi kabilarni qo'llanishi.

**Balansning davomiyligi.** Har bir keyingi balans oldingi balansdan kelib chiqishi bilan izohlanadi.

**Balansning aniqligi.** Balansni aniq va tushunarli bo'lishi uchun moddalar rekvizitlari va nomlari ikki tilda (o'zbek va rus tilida) bayon qilingan.

Buxgalteriya balansini tahlil qilishga tayyorlash uni tuzishni to'g'riligini va moddalarining aniqligini tekshirishni, balans ko'rsatkichlari

bilan moliyaviy xisobotning boshqa shaklari o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashni ko'zda tutadi.

Balans tuzilishining to'g'riliqini tekshirishda arifmetik va moddiy tekshiruvlar amalga oshirilishi kerak bo'ladi.

Arifmetik tekshiruv balans va aylanma qaydnomasi (vedomostlar), Bosh daftardagi summalarini solishtirish, balans guruxlari va bo'limlari bo'yicha summalarini aktiv va passiv yakunlari tengligini xisoblash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Moddiy tekshiruvlar moddiy boyliklar, pul mablag'lari xaqiqiy qoldig'ini buxgalteriya xisobi ma'lumotlari bilan qiyoslash orqali amalga oshiriladi. Tovar-moddiy boyliklarning barcha qoldig'i ularni natura shaklida xaqiqiy mavjudligiga muvofiq kelishi kerak. Asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari qoldig'ini xisobot ma'lumotlarini yo'qlama (inventarizasiya) dalolatnomalari bilan taqqoslab tekshirgan ma'qul.

Tahlil qilishning samarasi avvalambor hisobot ma'lumotlarining sifatiga bog'liq. SHu bois hisob va hisobot materiallarni tekshirish kerak. Moliyaviy xisobot ma'lumotlarini tahliliy jihatdan qayta ishslashning usullaridan biri tahliliy jadvallarni tuzishdir. Jadvalga tahlil qilinadigan ko'rsatkichlarning baza va amaldagi darajasi kiritiladi, mutloq farq aniqlanadi hamda tegishli xulosa yoziladi.

Tahliliy jadvallar ustunligi shundan iboratki, u ham bo'lsa ko'rsatkichlarning o'zaro bog'lanishi juda ham aniq ko'rgazmali tarzda namoyon bo'ladi.

Moliyaviy tahlilning so'nggi bosqichi uning natijalarini rasmiylashtirish xisoblanadi.

Tahlil natijalariga asoslangan holda ma'lumotnomasi yoki izohnoma yoziladi. Izohnomada korxonaning xo'jalik faoliyatida qo'lga kiritilgan yutuqlari va yo'l qo'ygan kamchiliklari aks ettiriladi xamda bu kamchiliklarni bartaraf qilish yo'llari ko'rsatiladi. Bu o'rinda ayniqsa, ichki xo'jalik rezervlarni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va moliyaviy xolatni barqarorlashtirish yo'llari ko'rsatiladi. Izohnoma qisqa va mazmunli bayon etilishi kerak.

### **12.3.Korxona multkining tarkibi va tashkil topish manbalarini tahlili**

Hozirgi kunda har qanday xo'jalik yurituvchi sub'yeqtning o'z tasarrufidagi resurslaridan (moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari) foydalanish samaradorligini to'g'ri boshqarishni ta'minlashi zarur bo'ladi.

Korxona moliyaviy resurslarini to'g'ri va mohirona boshqarish uchun birinchi navbatda, korxonaning moliyaviy ahvoli, resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash hamda tahlil qilinishi lozim bo'ladi.

Korxonalar mulkining tarkibini o'rganish va uni ko'paytirish yo'llarini aniqlash xo'jalik faoliyatining tahlilida muhim o'rinni tutadi. Ayniqsa, balansga qarab, korxona mol-mulki va boyligining tarkibini kuzatish, sof mablag' holatini aniqlash, imkoniyat me'yorini o'lchashga yordam beradi.

Korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatini buxgalteriya balansi asosida dastlabki baholash hisobot yili oxirida bo'lgan balans moddalarini yil boshiga bo'lgan ma'lumotlar bilan taqqoslash va chetga chiqishlarni aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Balansning ayrim moddalari bo'yicha o'zgarishlar korxona xo'jalik faoliyati natijasida sodir bo'ladi.

Balansni tahlil qilishda uning tuzilmasi aniqlanadi va xo'jalik faoliyati natijasida mablag'lar hamda ularning manbalari tarkibida sodir bo'lgan o'zgarishlar o'rganiladi; mablag'lar qanchalik to'g'ri joylashtirilganligi aniqlanadi va korxona moliyaviy ahvoliga dastlabki baho beriladi.

Tahlil qilinayotgan korxonaning mulkiy holatini buxgalteriya balansi asosida tahlil qilishda ularni tavsiflovchi ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi, ularning bir yildagi va qator yillardagi o'zgarishlari aniqlanadi, (12.1-jadval).

12.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, korxonada xo'jalik mablag'lari hisobot yili 1218085 ming so'mga oshgan yoki qo'shimcha o'sish sur'ati 7,3 % ni tashkil etdi. Hisobot yili oxiriga kelib, korxona mulkining asosiy qismini uzoq muddatli aktivlar 30,03%, aylanma aktivlar 69,97% , zahira va xarajatlar 45,26% , shuningdek debitorlik qarzlari 52,83 % ni tashkil qilgan. Asosiy vositalar hisobot yili oxiriga kelib 5691235 ming so'mni yoki barcha xo'jalik mablag'larining 85,83 % ni tashkil qilgan.

Pul mablag'larining salmog'i 1,78 %ni tashkil qilib, aksiya va sarmoyalari xo'jalik mablag'larining atigi esa 13,52 % ini tashkil qiladi.

## 12.1-jadval

### Korxona mulkiy holatini tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga		Yil oxiriga		Farqi	
	Summa, m.s	Salmogi , %	Summa, m.s.	Salmogi , %	Summa, m.s.	Salmogi , %
Jami mulk (400 satr)	16676389	100	17894474	100	+1218085	-
Jumladan:	5007310	30,03	6631114	37,06	+1623804	+7,03
1.Uzoq muddatli aktivlar (130 satr)						
Undan	4330160	86,48	5691235	85,83	+1361075	-0,65
A)asosiy vositalar (qoldiq bahoda) (012 satr)						
G)aksiyalar, sarmoyalar (040-090 satrlar)	677150	13,52	939879	14,17	+133899	+0,65
2.Aylanma aktivlar – jami (390 satr)	11669079	69,97	11263360	62,94	-405719	-7,03
Undan	5281557	45,26	4495645	39,91	-785912	-5,35
A)zahira va xarajatlar (150+180 satrlar)						
B)pul mablag'lari (330+...+360)	208283	1,78	1341526	11,91	+1133243	+10,13
V)debitor qarzlari (220+...+310 satrlar)	6164939	52,83	5408389	48,02	-756550	-4,81

Tahlil qilinayotgan korxonada muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlar mavjud emas. Bular korxona mablag'lari tuzilmasini yaxshilaydi hamda moliyaviy holatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Bozor munosabatlari davrida xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni iqtisodiy mustaqil hamda moliyaviy barqaror faoliyat ko'rsatishlarida ularni oqilona boshqarish, hisob-kitob yuritishni bozor iqtisodiyoti talablariga moslash, bor moddiy, moliyaviy va mehnat boyliklaridan samarali foydalangan holda ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishni tashkil etish, natijada yuqori foyda olib, davlat byudjeti oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish rezervlarini tashkil etish eng dolzarb vazifalardan sanaladi.

Iqtisidiyotni modernizasiyalash sharoitida turli mulk shaklidagi korxonalar faoliyatiga to'liq erkinlik berilishi kerak. Yangicha ish yuritish avval uchramagan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, tashqi

va ichki bozordan tajribali mijoz va hamroh tanlash bilan birga ularning moliyaviy imkoniyatlarini o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Korxonaning o'z mablag'lari ustav, qo'shilgan va zahira sarmoyalardan; taqsimlanmagan foydadan; maqsadli tushumlar va fondlardan; kelgusidagi xarajatlar va to'lovlar zahiralaridan; kelgusi davrlar daromadlaridan iborat bo'ladi.

Korxonaning o'z mablag'lari manbalarini tahlil qilish avvalambor buxgalteriya balansi, passiv 1-bo'limi asosida dastlab o'z mablag'lari manbalarining tarkibiy tuzilishini va ularning bir yildagi o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Tahlil uchun 12.2-jadvalni havola qilamiz.

## 12.2-jadval

### **Korxonaining o'z mablag'lari manbalarining tarkibiy tuzilmasi va ularning o'zgarishi**

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga		Yil oxiriga		( ming so'm)	
	Summa , m.s	Salmog i, %	Summa , m.s	Salmog i, %	Summa , m.s	Salmog i, %
Ustav kapitali	524026	4.12	524026	3,68	-	-0,44
Qo'shilgan kapital	233615	1.84	233615	1.64	-	-0,2
Rezerv kapitali	7719522	60.77	10524141	73.87	+2804619	+13.1
Taqsimlanmagan foyda	4060405	31.97	2846164	19.98	-1214241	-11.99
Maqsadli tushumlar va fondlar	164108	1.29	119936	0,8	-44172	-0,49
Kelgusi xarajatlar va to'lovlar zahiralari	-	-	-	-	-	-
Jami o'z mablag'lari manbalari	12701676	100	14247582	100	+1545906	-

12.2-jadval ma'lumotlari, korxonada o'z mablag'lari manbalari 1545906 ming so'mga ko'payganligi va yil oxirida 14247582 ming so'mni yoki 112 % ni tashkil qilganligini ko'rsatib turibdi.

Endi, 12.2-jadval ma'lumotlari asosida korxonani o'z mablag'lari manbalarini har bir turi bo'yicha hisobot yilidagi o'zgarish sabablarini aniqlaymiz.Korxonada ustav kapitali hisobot yili 524026 ming so'mni tashkil qilib, uni mulk manbalaridagi salmog'i 3,68 % ni tashkil qilgan. Rezerv kapitali hajmi 2804619 ming so'mga va uning jami mulk manbalaridagi salmog'i 13,1 % ga ko'paygan. Korxona mulki manbalarida hisobot yili boshida rezerv kapitalining salmog'i 60,77 % bo'lган bo'lsa,

yil oxiriga kelib 73,87 % dan iborat bo'lgani holda, o'z mablag'lari manbalarida u asosiy hisoblanadi. Taqsimlanmagan foyda yil mobaynida 1214241 ming so'mga kamaygan va hisobot yili oxiriga kelib 2846164 ming so'mni tashkil qildi. Korxonada maqsadli tushumlar va fondlar hajmi hisobot yili oxiriga kelib 44172 ming so'mga kamaydi yoki uning jami mulk manbalaridagi salmog'i 0,8 % ni egalladi.

Korxonaning moliyaviy holati barqarorligi deganda, asosan uning o'z mablag'larining hajmi qarzga olingan mablag'lar hajmidan ko'p bo'lishi tushuniladi. Tahlil uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz, (12.3-jadval).

### 12.3-jadval

#### **Korxona mulkini tashkil topish manbalari va ularni tahlili**

Balans passivi	Yil boshiga		Yil oxiriga		Farq (+, -)	S al mog'i %
	S umma	S almo-	S umma	S almo-		
Jami mulk manbalari	16676389	100	17894474	100	+1218085	-
1.O'z kapitali	12701676	76,16	14247582	79,06	+1545906	-
Jumladan:						
A)Ustav kapitali	524026	4,12	524026	3,68	-	-0,44
b)Qo'shilgan kapital	233615	1,84	233615	1,64	-	-0,2
v)Rezerv kapitali	7719522	60,77	10524141	73,87	+2804619	+13,1
g)Taqsimlanmagan foyda	4060405	31,97	2846164	19,98	-1214241	-11,99
D)Maqsadli tushumlar va fondlar	164108	1,29	119936	0,8	-44172	-0,49
2.Qarzga olingan kapital	3974713	23,83	3646892	20,38	-327821	-3,45
Jumladan:	-	-	-	-	-	-
a)Uzoq muddatli majburiyatlar						
b)Qisqa muddatli kredit va qarzlar	3474713	100	3646892	100	+172179	-

12.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, korxonaning jami mulk manbalari hisobot yili oxiriga kelib 1218085 ming so'mga oshdi. O'z mablag'larining manbalari yil boshiga 12701676 ming so'mni yoki 76,16 % ni tashkil qilgani holda yil oxiriga kelib 14247582 ming so'mni yoki 79,06% dan iborat bo'lgan. Korxona mulkining asosiy qismini o'ziga tegishli mablag'lari tashkil etgan. Qarzga olgan mablag'lari yil oxiriga

3646892 ming so'mni yoki 20,38 % ni tashkil qildi. Hisobot davrida uzoq muddatli passivlar mavjud bo'lmasdi.

## **12.4.Korxona balansi likvidligi va to'lov qobiliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlili**

Jahon iqtisodiy inqirozi davom etayotgan hozirgi sharoitda korxona balansi likvidligi va to'lov qobiliyatni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish uning moliyaviy holatini baholashda muhim o'rinni egallaydi. Korxona balansi likvidligini tahlil etish moliyaviy tahlilning eng asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, korxonalarining hayot-mamotini, ularni bankrot bo'lish yoki kelgusida faoliyat kechirish muammolarini ochishga yordam beradi.

Likvidlilik korxonaning o'z joriy aktivlari hisobiga o'zining qisqa muddatli (joriy) majburiyatlarini bajarishga layoqatliligin ko'rsatadi. Balans aktiv "realizasiya qilinadigan", ya'ni mol-mulkni istalgan vaqtida naqd pulga aylantirsa bo'ladi. Balans aktivining moddalari yo'q bo'lib ketmay, balki bir shakldan boshqa bir shaklga o'tadi. Balans passivining moddalari "uziladigan", ya'ni ular qarzdorlik uzilishi tufayli "yo'q bo'lish" qobiliyatiga ega. Mana shunday "likvidlik" passivda realizasiya qilinadigan aktivlar bilan aks ettiriladigan majburiyatlarni to'lashni anglatadi.

Balans likvidligini aniqlash dolzarbligi korxonalarini bankrotlik oqibatida tugatish muammosi yuzaga keladigan bozor sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Balansning likvidlik darajasini aniqlash uchun aktivning ma'lum muddatda to'lanishi lozim bo'lgan qismiga taqqoslanadi. Agara aktiv moddalari realizasiya majburiyatlarini to'lash uchun kifoya qiladigan summasini bersa, bu ma'noda balans likvid, ya'ni korxona to'lovga layoqatli, aks holda esa u to'lovga layoqatsiz hisoblanadi.

Balans likvidligini kerakli darajada bo'lishi – bu korxona faoliyatini davom etishi, boshqa korxona va tashkilotlar – ta'minotchi, kreditor, bank organlari va davlat byudjeti bilan me'yoriy iqtisodiy aloqalarni davom ettirish kafolatidir. Bozor munosabatlari murakkab bo'lib, bu vaziyatda korxona balansi likvidlik xususiyatga ega va ega bo'lmasligi mumkin. Balansning likvidligi tasodifan, vaqtincha, uzoq muddatli va doimiy bo'lishi mumkin. Lekin amaliyot talabi – korxonalar balansi likvidlikka ega bo'lishidir.

Balansning likvidlik xususiyati bozor munosabatlarining asosiy talablaridan biridir. Korxona likvidlik xususiyatiga ega bo'lsa, bu korxona

iqtisodiyot majmuasida faoliyat ko'rsatishi mumkin. Agarda korxona balansi bu xususiyatga ega bo'lmasa, u boshqa korxona va tashkilotlar bilan me'yoriy ravishda iqtisodiy aloqalarni olib borolmaydi va faoliyat kechirishi og'irlashib ketadi. Demak, balans likvidligi katta ahamiyatga ega bo'lib, uni tahlil qilib turish ob'yektiv zaruriyatdir.

Xorijiy mamlakatlarda balans likvidligi tahlil etilganda korxonaning butun majburiyatlari va ham uzoq, ham qisqa muddatga olingan qarzlar bo'yicha hisob-kitob olib boriladi.<sup>4</sup> Bizning iqtisodiy adabiyotmizda, uslubiy ko'rsatmalarda balans likvidligini tahlil qilishda faqat qisqa muddatga olingan qarzlar e'tiborga olinadi.

Iqtisodiy adabiyotda korxonalar balansi likvidligini tahlil eitsh uchun har hil tizimdagи ko'rsatkichlar tavsiya etilgan. A.D.Sheremet va R.S.Sayfullin<sup>5</sup> o'z monografiyasining "Balans likvidligi tahlili" bo'limida qo'shimcha ko'rsatkichlardan, "Moliyaviy koeffisientlar tahlili" bo'limida asosiy ko'rsatkichlardan foydalanganlar.

V.S.Vasilyeva<sup>6</sup> balans likvidligini tahlil etish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalangan:

- joriy likvidlik (qoplash) koeffisienti;
- absolyut likvidlik koeffisienti;
- harakatchan likvidlik;
- ishchi kapitalining samaradorligi;
- qarzlarnig dinamiklik omili;

A.T.Ibrohimov<sup>7</sup> balans likvidligini tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni tavsiya etadi:

- likvidlik darajasi;
- qoplashning o'tish koeffisienti;
- likvidlikning umumiy koeffisienti;
- toza tushum koeffisienti.

Iqtisodiy adabiyotlarni chuqur o'rganish natijasida balans likvidligini tahlil etish uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimi to'g'risida hamfikrlilik yo'qligini ta'kidlash kerak. Iqtisodiy adabiyotlarda balans likvidligini tahlil qilish uchun tavsiya qilingan ko'rsatkichlar keng va har hil bo'lib, ular bir tizimga solinmagan, turkumlashmagan, tavsiflanmagan.

Bu borada iqtisodchi olim I.T.Abdukarimovning<sup>8</sup> tavsiyalarini diqqatga sazovor deb topdik. Ushbu tavsiyaga ko'ra likvidlik, ya'ni naqd

<sup>4</sup> Saviskaya G.V. «Metodika kompleksnogo analiza xozyaystvennoy deyatelnosti». M.: Infra-M. 2006.

<sup>5</sup> Sheremet A.D., Sayfullin R.S. "Metodika finansovogo analiza". -M. : Yuniti..2003 .

<sup>6</sup> Vasilyeva V.S. «Finansoviy analiz». -M.: Knorus. 2007.

<sup>7</sup> Vahabov A.V., Ibrohimov A.T. "Moliyaviy tahlil". -T.: "Sharq" . 2002.

pulga aylanish tezligiga ko'ra korxona aktivlari quyidagi 4 guruhga ajratiladi :

- 1.O'ta tez pulga aylanadigan aktivlar.
- 2.Tez realizasiya qilinadigan aktivlar.
- 3.Sekin realizasiya qilinadigan aktivlar.
- 4.Qiyin realizasiya qilinadigan aktivlar.

Balansning passivi ham aynan aktiv kabi qarzlarni qaytarish muddatiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- 1.Tez muddatda to'lanadigan majburiyatlar.
- 2.Qisqa muddatli passivlar.
- 3.Uzoq muddatli passivlar.
- 4.Doimiy passivlar.

Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash hisob-kitobi usulini 12.4-jadvalni keltiramiz.

## 12.4-jadval

### Korxona balansi likvidligini tahlil qilishni hisob-kitob usuli

	Aktiv	Balans satrlari		Passiv	Balans satrlari
1	O'ta tez pulga aylanadigan aktivlar 2 oygacha	2 320+..+370-satr №1-shakl	3	Zudlik bilan to'lanadigan majburiyatlar, 2 oygacha	5 600-satr №1-shakl
2	Tez sotiladigan aktivlar, 2 oydan oygacha	210+211-satr №1-shakl 6	2	Qisqa muddatli majburiyat-lar, 2 oydan oygacha	620+660+730+ 740 №1-shakl
3	Sekin sotiladigan aktivlar	030+140+190+2 00№1-shakl	3	Uzoq muddatli passivlar, 6 oydan 1 yilgacha	490-satr №1-shakl
4	Qiyin sotiladigan aktivlar 1 yildan oshiq	012+022+100+2 11 №1-shakl	4	Doimiy passivlar 1 yildan oshiq	480-satr №1-shakl

<sup>8</sup> Abdukarimov A.T. "Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari". –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 1999. 69.

Balansning mutlaq likvidligini aniqlash uchun bir yo'la quyidagi holatga erishish lozim.

$$\begin{array}{ll} A1 > P1 & A3 > P3 \\ A2 > P2 & A4 < P4 \end{array}$$

Balansning likvidligi va to'lovga layoqatliligin tahlil qilish ehtiyoji korxona moliyaviy mablag'larda cheklanganligi, shuningdek, investorlar, aksiyadorlar va turli kreditorlar uchun to'lovga layoqatliligin aniqlash zaruriyati munosbati bilan yuzaga keladi. Balansning likvidligini tahlil qilishda korxonaning to'lash qobiliyati ham baholanishi zarur.

Korxonaning to'lov qobiliyati eng muhim ko'rsatkich hisoblanib, u korxonaning moliyaviy holatining barqarorligini ifodalaydi.

To'lov qobiliyati deganda, xo'jalikning muddati kelgan to'lov majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan mablag'larning yetarli yoki kamchiliginini aniqlash tushuniladi.

To'lov mablag'lariga pul mablag'lari, jo'natilgan tovar va mahsulotlar qiymati (hali pul kelib tushmagan), debitor sotishdan tushgan tushum va boshqalar kiradi. SHuningdek, qisqa muddatga olingan ssudalar ham vaqtincha to'lov majburiyatlarini amalga oshirish uchun manba bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'oz, aksiya, obligasiya sotishdan olingan mablag' va qo'shma korxonalar qatnashishidan kelgan daromadlar ham to'lov majburiyatlarini bajarishdagi manba bo'lishi kerak. To'lov majburiyatlariga mol etkazib beruvchi va pudratchilarga, byudjet va sug'urtaga, mehnat haqi, turli hil kreditorlarga bo'lgan qarzlar kiradi. Korxonaning ma'lum bir kundagi to'lov qobiliyatini aniqlash uchun shu muddatdagi to'lov majburiyatları bilan mablag'lar solishtiriladi. Korxonaning to'lov qobiliyatini ega bo'lishi muhim va bu uning o'z vaqtida zarur bo'lgan qarzlarni qaytarish imkoniyatlarini belgilaydi.

Korxona balansi likvidligini aniqlash maqsadida balansning ma'lum moddalari va moliyaviy hisobotning boshqa turlarini aks ettiruvchi koeffisientlar tarzidagi ko'rsatkichlarni butun bir tizimi hisoblab chiqiladi. Balansni to'lov qobiliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lib, quyidagilar kiradi:

**1.Mutloq likvidlik koeffisienti.** Mutloq likvidlik koeffisienti pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalarning joriy majburiyatlardagi ulushini tavsiflaydi. Aylanma mablag'larning eng mobil (xarakatchan) qismi pul mablag'lari va qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar hisoblanadi. CHunonchi, qimmatli qog'ozlar tezda pulga aylantirilib qarzlarni uzishga va to'lovlarni to'lashga ishlatsiz mumkin. Binobarin, shu

sababli ularni qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati mutloq likvidlik koeffisienti deb ataladi.

Mutloq likvidlik koeffisienti asosida shu vaqtdagi majburiyatlarni qoplash uchun naqd pul mablag'lari mayjudligini aniqlash mumkin. Bu birinchi navbatda mazkur korxonaga mahsulot etkazib beruvchilar uchun ahamiyatli. Bu ko'rsatkichni normadagi darajasi bo'lib  $>02 <0.7$  hisoblanadi. Ushbu koeffisientni ahamiyati agar 0.2 dan kam, 0.7 dan yuqori bo'lmasa, u holda nazariy jihatdan korxonaning to'lov qobiliyatini ta'minlangan bo'ladi.

**2.Shoshilinch likvidlik koeffisienti.** Shoshilinch likvidlik koeffisienti joriy majburiyatlardagi pul mablag'lari, hisob-kitoblar va boshqa aktivlar ulushini tavsiflaydi. Ushbu koeffisient korxonaning likvid aktivlar hisobidan tezda joriy majburiyatlarni uzish qobiliyatini ko'rsatadi.

Shoshilinch likvidlik koeffisienti korxonaning tez likvid aktivlardan joriy majburiyatlarni bajarish qobiliyatini belgilaydi va to'lash koeffisienti ko'rsatkichini to'ldiradi. Shoshilinch likvidlik koeffisienti ko'rsatkichining yuqoriligi moliyaviy xavf darajasining pastligidan va chetdan qo'shimcha moliyaviy mablag'larni jalb qilish uchun yaxshi imkoniyatlar borligidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich kredit berishda banklar va kredit beruvchi boshqa muassasalarni qiziqtiradi. Ushbu koeffisientning normadagi darajasi bo'lib  $> 0,7 < 2,0$  hisoblanadi.

**3.Joriy likvidlik koeffisienti.** Joriy likvidlik koeffisienti joriy majburiyatlар aylanma mablag'lar bilan qay darajada ta'minlanishiga ko'ra, ya'ni aylanma aktivlarga qo'yilgan moliyaviy resurslarning necha so'mi joriy majburiyatlар bir so'miga to'g'ri kelishini tavsiflab, korxonaning to'lovga layoqatliligiga umumiy baho beradi.

Bu ko'rsatkichning o'sishi ijobiy deb qaraladi. Ammo bo'ko'rsatkichning jiddiy o'sishi nomaqbul bo'lib, ishlab chiqarish zahiralariga joylangan mablag'lar aylanuvchanligi susayganidan, debtorlik qarzlarining asossiz ko'payishidan dalolat beradi. Ushbu koeffisientning normadagi darajasi bo'lib,  $>2 <3,0$  ya'ni ahamiyati 2 dan 3 gacha bo'lishi nazariy jihatdan asoslangan. Agar ushbu koeffisientning ahamiyati 1-dan kam bo'lsa, u holda korxona uchun moliyaviy xavf-xatar tug'iladi. Chunki bu salbiy holat bir so'mlik qisqa muddatli qarzlarga bir so'mdan kam joriy aktivlar to'g'ri keladi degani.

Ushbu koeffisientning ahamiyati 3-dan ko'p bo'lishi maqsadga muvofiq emas, zero menejment nuqtai nazaridan aktivlarni boshqarish borasidagi o'quvsizlikdan dalolat beradi. Aktivlarni keragidan ko'p jamlanishi ulardan samarali foydalanishga olib kelmaydi. Lekin joriy

likvidlik koeffisientini ahamiyati 3-dan ko'p bo'lishi kreditorlarni korxonaga sarmoya qo'yishga ko'proq jalg etadi.

Endi korxona amaliy ma'lumotlaridan foydalanib, ushbu koeffisientlarni tahlil qilib chiqamiz. Tahlil uchun 12.5-jadvalni havola qilamiz.

### 12.5-jadval

**Korxona balansining to'lov qobiliyatini (likvidlik)  
koeffisientlarini tahlili**

Koeffisientlar	Nor- ma	Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarish (+,-)
1.Mutloq likvidlik koeffisienti	>0,2 <0,7	0,05	0,4	-0,1
2.Shoshilinch likvidlik koeffisienti	>0,7 <2,0	1,6	1,8	+0,2
3.Joriy likvidlik koeffisienti	>2 <3,0	2,9	3,1	+0,2

12.5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, mutloq likvidlik koeffisienti hisobot davrida norma doirasida bo'ldi – 0,05; 0,4; Ushbu koeffisientning yil oxiri yil boshiga nisbati o'zgarishi – 0,1 ga kamaygan.

Korxonada shoshilinch likvidlik koeffisienti hisobot yili boshida – 1,6, oxiriga – 1.8 koeffisientni tashkil qildi, ya'ni esa norma doirasida.

Joriy likvidlik koeffisienti hisobot yilda 2,9; 3,1 koeffisientni tashkil qildi. Hisobot yili boshiga nisbatan farqi esa 0,2 ga ko'paygan.

Demak, korxona balansini to'lovga layoqatli deb hisoblash mumkin. Chunki barcha hisoblangan koeffisientlar norma doirasida bo'lган.

Shu tariqa hisoblab chiqarilgan likvidlik va to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari korxonaning turli davrlaridagi balanslarini, shuningdek, moliyaviy holatni baholash maqsadida turli korxonaning balansini taqqoslash imkonini beradi. Likvidlik va to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari belgilangan me'yorlardan past bo'lган va yomonlashib borayotgan korxonalar bankrot deb topilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1998 yil 28 avgustda qabul qilingan "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, kreditorlarning pul mablag'lari bo'yicha talablarini to'liq hajmda qondirishga, shu jumladan soliqlar, yig'imlar, byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga boshqa majburiy to'lovlarini to'lashga qodir bo'lмаган korxonalar bankrot (iqtisodiy jihatdan nochor) deb hisoblanadi.

Korxonani bunday ahvolga olib bormaslik uchun uning likvidligi va to'lov qobiliyati muntazam tahlil qilib borilishi hamda baholab turilishi kerak. Likvidlik va to'lov qobiliyatining yaxshilanishiga quyidagi yo'llar bilan erishiladi.

- mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish hajmini ko'paytirish;
- tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot qoldiqlarini qisqartirish;
- debtorlik va kreditorlik qarzlarini kamaytirish hamda ular yuzasidan muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarni to'lash;
- o'z majburiyatlari bo'yicha vaqtida hisob-kitob qilish hamda muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarni to'lash;
- joriy aktivlardagi o'z aylanma mablag'lari ulushini ko'paytirish;
- aylanma mablag'lar aylanish tezligini oshirish.

Likvidlik va to'lov qobiliyati darajasi ko'p jihatdan korxonaning moliyaviy barqarorligi hamda iqtisodiy baquvvatligiga bog'liq bo'ladi.

## **12.5.Korxona kapitalini tarkibini tahlili**

Korxonalarning moliyaviy xolatini yaxShilash uchun korxona, kapitalini tarkibini yaxshilash va taxlil qiliSh katta axamiyatga egadir. Korxona kapitalini tarkibini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lib quydagilar hisoblanadi.

1.Mustaqqilik koeffisienti. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun xususiy kapital summasi (passiv balansni I bo'lilim jami) balansni jami summasiga bo'linadi.

2.Moliyaviy barqarorlik koeffisienti. Bu korsatkichni aniqlash uchun: xususiy kapital plus uzoq muddatli qarzga olingan kapital summasini balansini jami sumasiga bo'linadi.

3.Mablag'lar bilan ta'minlanish koeffisienti. Bu korsatkichni aniqlash uchun xususiy kapitalning qarzga olingan kapital summasiga bo'linadi.

4.Investisiya koeffisient. Bu korsatkichni aniqlash uchun xususiy kapital summasini uzoq muddatli aktivlar (balansni I aktiv bo'limi jamiga) bo'linadi.

12.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishaptiki korxona kapitalining tarkibi yil mobaynida yomonlashgan, bunga sabab bo'lib, yil boshiga qaraganda mustaqqilik koeffisentini 0,24 ga, moliyaviy barqarorlik koefisientini 0,25 ga, mablag' bilan ta'minlanish koeffisienti 30,3, investisiya koeffisienti 0,23 ga kamayishi hisoblanadi. Tahlilning kelgusi vazifasi korxona kapitali tarkibini yaxshilashdan iborat.

## 12.6-jadval

### Korxona kapitali tarkibining tahlili

Nº	Ko'rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	O'zgarish
1	Mustaqqilik koeffisienti.	$\frac{187225}{226912} = 0.82$	$\frac{188019}{323608} = 0.58$	-0,24
2	Moliyaviy barqarorlik koefisienti	$\frac{187801}{226912} = 0.83$	$\frac{188325}{323608} = 0.58$	-0,25
3	Mablag' bilan ta'minlanish koeffisienti.	$\frac{187225}{4322} = 43.3$	$\frac{188019}{14502} = 13.0$	-30,3
4	Investisiya koefisienti	$\frac{187225}{98118} = 1.91$	$\frac{188019}{112171} = 1.68$	-0,23

### 12.6. Korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlili

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxona faoliyatini erkin va mustaqil boshqarishni taqozo etiladi. Endi boshqarish iqtisodiy dastaklar bilan amalga oshirilib, hozirgi kunda korxonani boshqarishda ularning mohiyati keskin o'zgardi.

Korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlardan eng muhimi uning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardir. Shu tufayli bu ko'rsatkichlarni tahlil qilish hozirgi kunda muhim va dolzarb hisoblanadi.

Aktivlar (asosiy fondlar, nomoddiy aktivlar, aylanma mablag'lar) ga qo'yilgan mablag'larni o'z mablag'lari hisobiga qoplaydigan, noo'rin debtorlik va kreditorlik qarzlariga yo'l qo'ymaydigan hamda o'z majburiyatlariga o'z vaqtida to'laydigan korxona moliyaviy barqaror korxona hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlikka tegishli ko'rsatkichlar, ularni hisoblash yo'llari va tahlili iqtisodiy adabiyotlarda etarlicha yoritilgan. Xususan, Rossiya iqtisodiy tahlil fanining ko'zga ko'ringan yirik namoyondalari A.D.Sheremet, R.S.Sayfullin, A.L.Li, S.I.Kravchenko, V.V.Kovalev va boshqalarning moliyaviy tahlil bo'yicha chop etilgan qator darslik, o'quv qo'llanmalarini, ilmiy maqolalarini e'tirof etish joiz. Iqtisodchi olimlarning korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda foydalilaniladigan ko'rsatkichlar tizimi borasida tavsiyalari turlicha.

A.D.Sheremet, R.S.Sayfullin<sup>9</sup> tomonidan moliyaviy tahlilga bag'ishlab chop etilgan "Moliyaviy tahlil uslubi" o'quv qo'llanmasida

<sup>9</sup> Sheremet A.D., Sayfullin R.S. "Metodika finfnsovogo analiza". -M. : Yuniti..2007 .

korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanishni tavsiya qilganlar:

- o'zlik manbalar koeffisienti;
  - o'zlik va majburiyatlar nisbati;
  - chaqqonlik koeffisienti;
  - haraktchan va harakatsiz mablag'lar nisbati;
  - qisqa muddatli qarzlar koeffisienti;
  - zahira va xarajatlarni shakllanishida mustaqil manbalar koeffisienti;
  - kreditorlik qarzlar koeffisienti;
- A.F.Ionova<sup>10</sup> quyidagi moliyaviy koeffisientlarni tavsiya etgan:
- o'zlik kapitalining jamlanganlik koeffisienti;
  - uzoq muddatli majburiyatlarning tarkibiy koeffisienti;
  - o'zlik kapitalining chaqqonlik koefisienti;
  - qarzlarni uzoq muddatga olish koeffisienti.

O'zbekistonda ham iqtisodiy tahlilga va uning ayrim sohalariga bag'ishlangan adabiyotlar, ilmiy risola va maqolalar chop etilgan. Bevosita korxonalarning moliyaviy holatiga bag'ishlangan nufuzli ishlardan biri E.A.Akramov<sup>11</sup> tomonidan chop etilgan "Korxonalarning moliyaviy holatini tahlili" o'quv qo'llanmani e'tirof etish joiz. Ushbu ishda muallif moliyaviy barqarorlikni ikki tizimli ko'rsatkichlarga umumlashtirishni tavsiya etgan:

#### I . Asosiy ko'rsatkichlar:

- 1) O'zlik mablag'larining manbalari.
- 2) O'zlik mablag'larining manbalari va uzoq muddatli passivlar.
- 3)Umumiyl manbalar – o'zlik mablag'larining manbalari, uzoq muddatli va boshqa passivlar.

#### II. Qo'shimcha ko'rsatkichlar:

- 1)Aylanma mablag'larning o'z manbalari bilan ta'minlanganlik koeffisienti.
- 2)Majburiyat va o'z manbalar nisbat koeffisienti.
- 3)Moliyaviy qaramlik koeffisienti.
- 4)O'zlik kapitalning chaqqonlik koeffisienti.
- 5)Moliyalashtirish koeffisienti.
- 6)Kapitalni qarzga olish koeffisienti.

<sup>10</sup> Ionova A.F., Selezneva A.A. "Finansoviy analiz". -M.: Yuniti. 2009.

<sup>11</sup> Akramov E.A. «Korxonalarning moliyaviy holatini tahlili». - T.: Moliya. 2003.

Iqtisodchi olim M.Q.Pardaev, B.I.Isroilov<sup>12</sup> tomonidan chop etilgan “Iqtisodiy tahlil” o’quv qo’llanmada moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko’rsatkichlarni 5 guruhga bo’linadi:

- 1.Xususiy mablag’lar bilan bog’liq ko’rsatkichlar.
- 2.Chetdan jalb qilingan mablag’lar bilan bog’liq ko’rsatkichlar.
- 3.Harakatdagi mablag’lar bilan bog’liq ko’rsatkichlar.
- 4.Aylanma mablag’lar bilan bog’liq ko’rsatkichlar.
- 5.Asosiy vositalardan foydalanish bilan bog’liq ko’rsatkichlar.

Uzoq muddatli istiqbol nuqtai nazaridan korxona faoliyatining barqarorligi, korxona iqtisodiyotining tashqi kreditorlar va ievestorlarga bog’liqlik darajasi moliyaviy barqarorlik mezoni hisoblanadi. Korxonaning o’zining shu vaqtga bo’lgan qarzlari bilan hisob-kitob qilish qobiliyatini tavsiflovchi balans likvidligidan farqli o’laroq, moliyaviy barqarorlik – korxonaning to’lovga doimo layoqatlilagini kafolatlovchi muayyan holatdir.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilishda ularni tavsiflovchi ko’rsatkichlarni hisoblab chiqish, ularni bir yil yoki bir necha yil uchun dinamikada qiyoslash, ularning yomonlashish yoki yaxshilashish sabablarini aniqlash, moliyaviy holatni yaxshilashga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqish kerak bo’ladi.

Moliyaviy barqarorlik koeffisientlarining ahamiyati asosan kreditorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi, zero ushbu koeffisientlar orqali ular korxonaning chet el sarmoyalariga qaramlik darajasini, moliyaviy holatining barqarorligini, bankrot (sinish) ehtimolini hamda investisiya siyosatini yurgizish variantlarini aniqlaydilar.

Korxonalarni moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko’rsatkichlar tahlil qilish usulini quyidagi jadvalda havola qilamiz (**12.7-jadval**).

Endi, korxona amaliy ma’lumotlarini qo’llagan holda korxonaning moliyaviy barqarorligi ko’rsatkichlari tahlilini quyidagi jadvalda havola qilamiz, (**12.8-jadval**).

Korxonaning moliyaviy jihatdan mustahkamligini va jalb qilingan qarz mablag’lariga qaramlik darajasini ifodalovchi ko’rsatkich – qarzga olingan va o’z mablag’larining koeffisientidir.

12.8-jadval ma’lumotlaridan ko’rinishicha, agar yil boshiga korxonaning o’z mablag’larining har so’miga 0.3 tiyin qarzga olingan mablag’lar to’g’ri kelgan bo’lsa, yil oxiriga kelib 1,2 tiyinni tashkil etdi. Demak, korxonaning qarz mablag’lariga qaramligi oshgan. Bunday holat uning moliyaviy holatini barqarorlik darajasini pasaytiradi. Ushbu

<sup>12</sup>.Pardaev M.Q.,Isroilov B.I. “Iqtisodiy tahlil”. -T.: “Mehnat”, 2004.

## 12.7-jadval

### Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini hisob-kitob usuli

Ko'rsatkichlar	Norma	Aniqlash tartibi
1.Qarzga olingan va o'z mablag'larining nisbati	<1	<u>1-shakl.770 satr</u> 1-shakl.480 satr
2.Korxona jami mulkida asosiy va moddiy aylanma mablag'larning ulushi.	>0.5	<u>1-shakl 130+140 satr</u> 1-shakl. 400 satr
3.Korxona jami mulkida asosiy vositalarni ulushi	>0.3	<u>1-shakl. 130 satr</u> 1-shakl.400 satr
4.O'z mablag'lari bilan ta'minlanishi	>0.1	<u>1-shakl.480-130</u> 1-shakl.390 satr
5.Korxona to'lov qobiliyatি	>2.0	<u>1-sh.390-2a-sh.7 ustun</u> 1-shakl. 600 satr
6.Uzoq muddatli qo'yilmalar tarkibi	>0.1	<u>1-shakl.570+580</u> 1-shakl. 130 satr
7. Jalb qilingan kapital tarkibi.	<0.1	<u>1-shakl.570+580</u> 1-shakl. 770satr
8.O'z kapitalini uzoq muddatli majburiyatlarga nisbati	-	<u>1-shakl.480</u> 1-shakl. 570+580 satr
9.O'zining kapitalining asosiy kapitalga nisbati	-	<u>1-shakl.480 satr</u> 1-shakl. 012+030
10.Joriy aktivlarning qarzga olingan kapitalga nisbati	>1.0	<u>1-shakl.390 satr</u> 1-shakl. 770 satr
11.Uzoq muddatli qarzlarni o'z kapitaliga nisbati	<1.0	<u>1-shakl.570+580 satr</u> 1-shakl. 480 satr
12.Amortizasiyani jamg'arish koeffisienti	>0.5	<u>1-shakl.011+021 satr</u> 1-shakl. 010+020 satr

koeffisientning ahamiyati hisobot yili oxiriga 1 dan kattaligini e'tirof etish kerak, ya'ni norma doirasidan tashqarida.

Korxonaning jami mulkida asosiy va aylanma mablag'larning ulushi hisobot yili boshida 08 ni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxiriga kelib 0.7 ni tashkil qilib, 0.1 ga kamaydi. Asosiy va aylanma mablag'larning korxona mulkida tutgan salmog'i tadbirkorlik bilan korxona mablag'laridan foydalanish darajasini ko'rsatadi. Ushbu koeffisientning ahamiyati 0.5 dan kam bo'lmasligi kerak.

## 12.8-jadval

### **Korxona moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini tahlili**

Koeffisientlar	Norma	Yil boshiga	Yil oxiriga	O'zgarish (+.-)
1.Qarzga oigan va o'z <1 mablag'larining nisbati		0,3	1,2	+0,9
2.Korxona jami mulkida >0,5 asosiy va moddiy aylanma mablag'larning ulushi.		0,8	0,7	-0,1
3.Korxona jami mulkida >0,3 asosiy vositalarni ulushi		0,3	0,4	+0,1
4.O'z mablag'lari bilan >0,1 ta'minlanishi		0,6	0,7	+0,1
5.Korxona to'lov >2,0 qobiliyati		2,9	3,1	+0,2
6.Uzoq muddatli >0,1 qo'yilmalar tarkibi		-	-	-
7.Jalb qilingan kapital <0,1 tarkibi.		-	-	-
8.O'z kapitalini uzoq muddatli majburiyatlarga nisbati		-	-	-
9.O'zining kapitalining asosiy kapitalga nisbati	-	2,5	2,1	-0,3
10.Joriy aktivlarning >1,0 qarzga olingan kapitalga nisbati		2,9	3,1	+0,2
11.Uzoq muddatli <1.0 qarzlarni o'z kapitaliga nisbati		-	-	-
12.Amortizasiyani >0.5 jamg'arish koeffisienti		-	-	-

Korxona jami mulkida asosiy vositalarni ulushi hisobot yili oxiriga kelib 0,4ni tashkil qilib, hisobot yili boshiga nisbatan 0,1 ga ko'paydi. Korxona jami mulkida asosiy vositalarning salmog'i koeffisienti 5-koeffisientni to'ldiruvchi koeffisient hisoblanib, u asosiy vositalardan qanchalik samarali foydalanish darajasini ko'rsatadi.

O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffisienti 0,1 dan oshmasligi kerak. Korxonada ushbu koeffisient hisobot yilda normadan yuqori, ya'ni – 0,6; 0,7 koeffisientni tashkil qildi. Bu korxonani to'lovga qodirligi pasayganligidan dalolat beradi.

Hisobot yili boshida korxonaning to'lov qobiliyati 2,9 ni, hisobot yili oxirida 3,1 ni tashkil etdi. Korxonaning to'lov qobiliyati o'z aylanma mablag'larining saqlanuvchanligi, tez pulga aylanadigan aylanma aktivlarning holatiga hamda ulardan smarali foydalanishga bog'liqdir. Ushbu koeffisitentning ahamiyati 0,2 dan kam, 0,3 dan yuqori bo'lmasa, u holda nazariy jihatdan korxonaning to'lov qobiliyati ta'minlangan bo'ladi. Korxonada ushbu koeffisient darajasi normadan yuqori bo'lgan.

O'zining kapitalini asosiy kapitalga nisbati koeffisienti hisobot yili oxirida 2,1 ga teng bo'lib, 0,3 ga kamaygan.

Demak, tahlil natijalaridan korxonaning moliyaviy barqarorligi yomon emas, degan xulosaga kelish mumkin.

Korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin.

Korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun xususiy kapitalning ko'payishi, undan samarali foydalanish lozim. Korxona xususiy kapitalining ko'payishi birinchi marta ta'sischilar hisobidan tashkil topgan Nizom jamg'armasi orqali ta'minlasa, keyinchalik korxona faoliyati davomida olingan foydadan ajratmalar evaziga ko'paytirib borish mumkin. SHu tufayli xususiy kapitalni ko'paytirish uchun, eng avvalo, korxona foydasini ko'paytirib borish mumkin. Korxoanning foydasi har qanday xo'jalik faoliyatining natijasi bo'lib qolmasdan, balki samarali faoliyat natijasidir.

Korxonalarning juda ko'p xarajati banklardan olingan qarz uchun to'lanadigan foiz va transport xarajati tashkil etadi. SHu tufayli korxona imkonи boricha oborotdagi mablag'larda o'z mablag'larining ulushini ko'paytirishi va nihoyat barcha oborot mablag'larini o'zining hisobidan qoplashi lozim. Asosiy vositalarni shakllantirishda uning hissasida faol qismini ko'paytirish va jismoniy mehnatni engillashtiruvchi uskunlarni sotib olish maqsadga muvofiqdir. Agar korxonaning transport vositasi bo'lsa, u faqat korxona zararini kamaytiribgina qolmasdan, balki foyda olishni ham ta'minlashi mumkin. Shu tufayli moliyaviy barqarorlikni baholaganda asosiy vositalar bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlardan foydalilaniladi.

Ishlab chiqarish texnologiyasi tez o'zgarayotgan, fan-texnika taraqqiyoti jadallashayotgan paytda asosiy vositalarni zudlik bilan yangilanishini taqozo qiladi. Bu esa uning amortizasiyasi me'yorini ko'paytirishni talab qiladi. SHunday ekan, asosiy vositalarning ham yangilanishi, ilg'or texnologiyani uzluksiz ravishda joriy qilishni ta'minlash chora-tadbirlari ishlab chiqilishi lozim.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning asosiy yo'llaridan biri korxona debitor qarzlarini ko'paytirmaslik chorasini ko'rishdir. Hozirgi paytda juda ko'p firmalar va korxonalar moliyaviy jihatdan barqaror emas. Bunday sub'yeqtalar bilan iqtisodiy munosabatda bo'lish ehtiyyotkorlikni talab qiladi. Ularga tovar berish, pul o'tkazish harakatdagi mablag'ni o'lik mablag'ga aylantirish bilan barobar. SHu tufayli bunday xo'jalik operasiyalarini sodir qilishdan oldin hamkor sub'yeqtalar moliya-xo'jalik faoliyatini ham chuqur o'rganishni talab qiladi.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda chetdan jalb qilingan mablag'lar, xususan bank kreditining ham o'rni katta. Korxonaning moliyaviy potensiali tarkibida chetdan jalb qilingan mablag'lar hissasi kamayib borishi lozim. Bank krediti foiz yuqori bo'lib turgan hozirgi sharoitda har bir korxona imkonni boricha undan kam foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Ish barqarorlashib, ishlab chiqrish faoloiyati bir me'yorga tushgan paytdagina bank kreditidan foydalanish ma'lum darajada yaxshi natija berishi mumkin. Shu tufayli moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun bank kreditidan foydalanish vaqtini, uning hajmini ham bilishni talab qiladi.

Korxonaning moliyaviy qaram bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Bu holat erkin raqobat sharoitida yanada muhimdir. Shu tufayli korxona rahbarlari korxonani moliyaviy qaramlikdan saqlash orqali uning barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rishi maqsadga muvofiqdir. Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bu – bir yoqlama yoki mavsumiy yumush emas. U doim amalgalashish lozim bo'lgan keng qamrovli, ko'p qirrali ishdir.

## **12.7.Korxonaning aylanma mablag'larining aylanishini tahlili**

Korxonadagi iqtisodiy jarayonlar sodir bo'lishida aylanma mablag'larning roli kattadir. Aylanma mablag'lar qanchalik tez sur'atlar bilan aylansa, ular qancha samarali foydalanilsa, korxonaning moliyaviy barqarorligi shuncha yaxshi ta'minlanadi.

Mamlakatimizda 2009 yili korxonalarga aylanma mablag'larini ko'paytirish uchun umumiyligi miqdorda 233 milliard so'mdan iborat imtiyozli kreditlar berilishi ishlab chiqarishning pasayishini oldini olish imkonini berdi.

Hozirgi sharoitida korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ularni aylanma mablag'larini tahlil qilish muhim masala hisoblanadi.

Korxonaning aylanma mablag'lari – uning aylanma fondlar, muomala fondlari va boshqa harakatdagi aktivlarda turgan pul mablag'laridir. Ular asosiy fondlardan farqli o'laroq, to'xtovsiz xarakatda bo'ladi. Chunki bir ishlab chiqarish sikli mobaynida to'liq iste'mol qilinib, o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazgan holda ham buyum-natura ko'rinishida, ham qiymat shaklida tiklanadi.

Mablag'larning ulushi korxonaning umumiyligi mablag'larida faoliyat sohasiga qarab, 60 % dan 90 % gacha bo'ladi. Korxonaning moliyaviy va iqtisodiy ahvoli ko'p jihatdan ana shu mablag'lardan samarali foydalanishga bog'liq.

Korxona iqtisodiy salohiyati tarkibida etakchi o'rinni aylanma mablag'lar hissasi tashkil etadi. Tahlil jarayonida aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini aniqlash va tahlil qilish ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammoning hal qilinishida olimlar bir to'xtamga kelishgan. Ya'ni, aylanma mablag'larni ifodalash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish tavsiya qilinmoqda.

Ammo qanday ko'rsatkichlardan foydalanish va ularni tasniflash bo'yicha olimlar o'rtasida turli qarashlar mavjud. Ayrim darsliklarda<sup>13</sup> ba'zi qismlaridagina "Korxona aktivlari tahlili" qisqa qarab chiqilgan. Ayrim tadqiqotchilar aylanma mablag'larin ifodalovchi ko'rsaktichlarni uchga bo'lib o'rganishni tavsiya qilishadi. Masalan, "Moliyaviy tahlil"<sup>14</sup> darsligida aylanma mablag'larni baholovchi ko'rsatkichlar uning holatini, harakatini va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga bo'lingan. Ammo ko'rsatkichlar tizimining aniq tasnifi berilmagan. Buning ustiga aylanma mablag'larning harakati va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar bir-biri bilan aralashib ketgan.

Keyingi yillarda chop etilgan, bevosita korxonaning moliyaviy holatini baholashga bag'ishlangan iqtisodiy adabiyotda<sup>15</sup> ham ushbu masala nazardan chetda qolgan. Aylanma mablag'larga tegishli faqat uch ko'rsatkich tavsiya qilingan. Tabiiyki, bunday yondoshish qo'yilgan muammoning to'liq hal bo'lishi uchun etarli emas.

Bevosita moliyaviy tahlilga bag'ishlangan adabiyotlarda ham aylanma mablag'larni ifodalovchi ko'rsaktichlarga kam e'tibor berilgan<sup>16</sup>,

<sup>13</sup> Saviskaya G.V. "Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya". -M.Infra-M. 2009.

<sup>14</sup> Voljin I.O.Ergashboyev V.V. "Moliyaviy tahlil". -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 1998.

<sup>15</sup> Hasanov N., Najbitdinov S. "Korxonani moliyaviy holatini baholash: muammolar va ularni hal qilish". -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyos. 1999.

<sup>16</sup> Yergeshev Y.Y. "Iqtisodiy va moliyaviy tahlil". -T.: Konsauditinform . 2005.

xuddi shu holatni V.V.Petrov va V.V.Kovalevlarning tadqiqotlarida ham kuzatish mumkin<sup>17</sup>.


Ma'lumki korxonalarining faoliyat ko'rsatishi uchun, ular kerakli miqdorda ishlab chiqarishning asosiy va aylanma fondlari, mehnat va boshqa resurslari bilan ta'minlanishi lozim. Ishlab chiqarishning asosiy fondlari o'z tarkibiga bino, inshoot, uskuna, xo'jalik jihozlarini olib, ular ishlab chiqarishning texnikaviy bazasini tashkil etadi va uzoq vaqt, ko'plab ishlab chiqarish sikllarida hizmat qiladi. Ularning qiymati amortizasiya hisoblash orqali ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tannarxiga o'tkaziladi.

Ishlab chiqarish aylanma fondlari o'z tarkibiga ishlab chiqarish zahiralarini, pul mablag'larini olib, ular ishlab chiqarishning bir sikkida foydalaniladi va qiymati ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxiga to'liq o'tkaziladi. Ishlab chiqarishda ham asosiy, ham aylanma mablag'larni borligi, holati, ulardan foydalanish darajasi korxonalarining moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, asosiy vositalardan samarali foydalanilsa, mehnat unumдорлиги oshadi, tannarx kamayadi, foya ko'payadi, rentabellik darajasi ko'tariladi. Aylanma mablag'lardan samarali foydalanilsa, mahsulot tannarxi kamayadi, foya ko'payadi, rentabellik darajasi ko'tariladi. Lekin korxonalarining moliyaviy holati tahlil qilinganda, faqat bir muammo – aylanma mablag'larni aylanishi bilan korxonalarini moliyaviy holati o'rtasidagi aloqa tahlil etiladi, chunki aylanma mablag'larni aylanishini o'zgarishi korxonalar moliyaviy holatiga bevosita va miqdoran ta'sir ko'rsatadi. Undan tashqari amaliyot shuni ko'rsatadiki, aylanm mablag'larning aylanishi susaygan vaziyatda ham korxona moliyaviy holatining boshqa ko'rsatkichlari ijobiy va aksincha, aylanma mablag'larning aylanishi tezlashgan bo'lsa, korxona moliyaviy holatining boshqa ko'rsatkichlari yomonlashgan bo'lishi mumkin.

Aylanma mablag'larning aylanishi tezlatilsa, uning bir qismi tejaladi, qo'shimcha foya barpo bo'ladi, unday ishlab chiqarishni kengaytirish uchun va boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin. Aksincha, aylanma mablag'larning aylanishi sekinlashtirilsa, korxonaga aylanma mablag'lari etmay qoladi va korxonad faoliyatni davom ettirish uchun tashqi manbalardan (bank krediti va hokazo) foydalanib, korxona aylanma mablag'lari to'ldirilishi kerak. SHu sababli korxonalarini aylanma mablag'larining aylanishini o'zgarishi va uni korxonalarining moliyaviy holatiga ta'siri tahlil etiladi.

<sup>17</sup> Artyomenko V.G. "Analiz finansovoy otchetnosti". –M.: Omega-L. 2009.

Aylanma mablag'larini ishlab chiqarishda ishtirok etish xarakteri va unga ta'sir etish darajasi; hosil bo'lish manbalari bo'yicha tasniflash mumkin  
(12.2-rasm)



## 12.2-rasm. Aylanma mablag'larni tasniflash ko'rsatkichlari

Korxonaning moliyaviy holati tahlil qilinganda balans bo'yicha o'ziga qarashli aylanma mablag'larning mavjud summasi aniqlanadi va ular bilan qay darajada ta'minlanganligiga baho beriladi. Tahlil uchun 12.9-jadvalni havola qilamiz.

## 12.9-jadval

### Korxonaning mavjud o'ziga qarashli aylanma mablag'lari tahlili

Ko'rsatkichlar	Hisobot yili boshi	Hisobot yili oxiri	O'zgarishi (+,-)
A			
1.O'z mablag'larining manbalari (balansning I passiv bo'limi jami, 480)	12701676	14247582	+1545906
2.Uzoq muddatli qarzlar (balansning II passiv bo'limi, 580 satr)	-	-	-
3.Jami manbalar: (1+2)	12701676	14247582	+1545906
4.Asosiy vositalar va boshqa oborotdan tashqari aktivlar (balansning I aktiv bo'limi jami, 130 satr)	5007310	6631114	+1623804

A	1	2	3
5.Korxonaning mavjud o'ziga qarashli aylanma mablag'lari. (3-4)	7694366	7616468	-77898
6.Moddiy aylanma mablag'lar (balansning II aktiv bo'limi, 140 satr)	5281557	4495645	-785912
7.Moddiy aylanma mablag'larni o'ziga qarashli aylanma mablag'lar bilan ta'minlanishi. (5-6; +,-)	+241280 9	+312082 3	+708014

12.9-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, korxonaning o'ziga qarashli aylanma mablag'lari yil boshiga 7694366 ming so'mni tashkil etgan holda yil oxiriga 7616468 ming so'mni tashkil etgan , ya'ni 77898 ming so'mga kamaygan. Korxonada moddiy aylanma mablag'larni o'ziga qarashli aylanma mablag'lar bilan yil boshida 2412809 ming so'mga, yil oxirida esa 3120823 ming so'mga ko'p ta'minlangan. Korxonaning aylanma mablag'lari manbalari bilan ta'minlanganligining asosiy sababi jami manbalarni 1545906 ming so'mga, asosiy vositalar va boshqa oborotdan tashqari aktivlarni 1623804 ming so'mga oshishi hisoblanadi.

Endi, korxonani aylanma mablag'lari bilan etarli darajada ta'minlanish sabablarini o'rganib chiqamiz. Buning uchun korxonani ishlab chiqarish zahiralari va xarajatlar holatini tahlil qilamiz. Tahlil uchun quyidagi 12.10-jadvalni havola qilamiz.

## 12.10-jadval

### Korxonaining zahiralari va xarajatlari holatini tahlili

Zahira va xarajatlar	Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarishi	Yil boshi-ga nisba-tan , %
	Mutloq Summa	Salmog'i, %	Mutloq Summa	Salmog'i %
1.Ishlab chiqarish zahiralari	979324	37,48	3124447	69,50
2.Tugallanmagan ishlab chiqarish	-	-	-	-
3.Tayyor mahsulot	3302233	65,52	1371198	30,50
Zahira va xarajatlarni ja'mi	5281557	100	4495645	100
			-785912	100
				5,1
				8

12.10-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, korxonada yil mobaynida zahira va xarajatlar 785912 ming so'mga yoki 85,1% ga kamaygan. Korxonada zahira va xarajatlar tarkibida ishlab chiqarish zahiralarini salmog'i hisobot yili boshida 37,48 % ni, hisobot yili oxirida esa 69,50 % ni, tayyor mahsulotning salmog'i esa 65,52 %; 30,50 % ni tashkil qildi.

Aylanma mablag'larni aylanishini ifodalovchi ko'rsaktichlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1.Aylanma mablag'larni aylanish koeffisienti. Aylanma mablag'larni bir yilda necha marta aylanishini bildiradi.

2.Aylanma mablag'larni aylanish kuni. Aylanish kuni, aylanma mablag'larni bir marta aylanib chiqish uchun necha kun ketganini ifodalaydi.

3.Aylanma mablag'larni bandlik koeffisienti. Bandlik koeffisienti, aylanma mablag'larni oborotda, ya'ni realizasiya hajmida tutgan o'rnini ifodalaydi.

Aylanma mablag'larni aylanishini bir oyligini, bir kvartalligini, yarim yilligini va bir yilligini aniqlash va tahlil qilish mumkin.

Endi yuqorida ko'rilgan aylanma mablag'larni aylanishi bilan korxonaning moliyaviy holati o'rtasidagi aloqani ifodalovchi ko'rsatkichlarni korxona amaliy ma'lumotlarini qo'llagan holda quyidagi 12.11-jadvalda ko'rib chiqamiz.

12.11-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, moddiy aylanma mablag'larning aylanish koeffisienti hisobot yili oxiriga kelib 2,6 bandga ko'paygan. Moddiy aylanma mablag'larning aylanish kuni esa 22,1 kunga kamaygan. Buning natijasida ularning bandlilik koeffisienti ham 0,.06 bandga kamaygan. Debitorlik qarzlarining aylanish koeffisienti 2.1 ga oshgan, aylanish kuni esa 24,1 kunga kamaygan. Bir kunlik oborot hajmi hisobot yili oxirida 100.46 ming so'mni tashkil qilib, 21,4 ming so'mga ko'paygan.

12.11-jadval ma'lumotlari asosida aylanma mablag'larni aylanish kunini o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni hisob-kitobini zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlaymiz, (12.12-jadval).

## 12.11-jadval

Aylanma mablag'larini aylanish ko'rsatkichlarini tahlili		(ming so'm)	
Ko'rsatkichlar	Hisobot yili boshi	Hisobot yili oxiri	Farqi (+,-)
1.Sotishdan olingan sof tushum	28461	36164	+770
	732	542	2810
2.Moddiy aylanma mablag'larni o'rtacha yillik qoldig'i	52815	44956	-
	57	45	785912
3.O'rtacha debitorlik qarzları	61649	54083	-
	39	89	756550
4.Hisobot davridagi kun	360	360	-
5.Moddiy aylanma mablag'larning aylanish koeffisienti (1:2).	5,4	8	+2,6
6.Moddiy aylanma mablag'larni aylanish kuni (2x360:1).	66,8	44,7	-22,1
7.Moddiy aylanma mablag'larni bandlilik koeffisienti (2:1).	0,18	0,12	-0,06
8.Debitorlik qarzları aylanish koeffisienti (1:3)	4,6	6,7	+2,1
9.Debitorlik qarzları aylanish kuni (3x360:1).	77,9	53,8	-24,1
10.Bir kunlik oborot (1:360).	79,06	100,4	+21,
	6	4	
11.Aylanma mablag'larni aylanishini tezlashuvi natijasida mablag'larni bir qismini ortib qolishi.			
12.Aylanma mablag'larni aylanishini sekinlashuvi natijasida oborotga qo'shimcha mablag'larni jalb qilinishi	-22,1x 100,46 = -		- 2220,2 2220,2

## 12.12-jadval

**Aylanma mablag'larni aylanish kunini o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli bilan aniqlash**

Hisobni tar-tib soni	Almashtirish-ni tar-tib soni	Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omillar		Umumlashgan ko'rsatkich – Aylanma mablag'larni aylanish kuni	Oldingi hisobga nisbatan farq (+.-)	O'zgarish sabablari
		Sotishdan olingan sof tushum	Aylanma mablag'larni yillik qoldig'i			
A	V	1	2	3 (2x360:1)	4	5
1	-	28461732	5281557	66.8	-	
2	1	36164542	5281557	52.6	-14.2	1-omil oshgan
3	2	36164542	4495645	44.7	-7.9	2-omil kamaygan

Omillar balansi: -22.1

12.12-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, aylanma mablag'larning aylanish kuni 22.1 kunga kamaygan. Bu o'zgarish quyidagi omillar ta'sirida sodir bo'lган:

1.Sof tushum hajmining 7702810 ming so'mga oshishi, aylanma mablag'larning aylanish kunini 14,2 kunga kamaytirgan.

2.Moddiy aylanma mablag'larning yillik qoldig'inинг 785912 ming so'mga oshishi esa aylanma mablag'lar aylanish kunini 7,9 kunga kamaytirgan.

Shunday qilib, barcha omillar ta'siri natijaning umumiyo o'zgarishiga teng:  $(-14,2) - (-7,9) = -22,1$

Aylanma mablag'larni aylanishini tezlashishi aylanma mablag'larni ishlab chiqarishdan bir qismini ozod qilinishiga, aylanma mablag'larni sekinlashuvi esa ishlab chiqarishga aylanma mablag'larni qo'shimcha jalb qilinishiga olib keladi.

Aylanma mablag'larni aylanishini tezlushuvi natijasida qancha aylanma mablag'larni ishlab chiqarishdan ozod qilinganligini yoki aylanma mablag'larni aylanishini sekinlashuvi natijasida qancha aylanma mablag'larni qo'shimcha ishlab chiqarishga jalb etilishini aniqlash uchun aylanma mablag'larni aylanishini tezlashgan yoki sekinlashgan kunini bir kunlik oborot summasiga ko'paytirish kerak.

12.12-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, «Toshkent yog'-moy kombinati» da aylanma mablag'larni aylanishini tezlashuvi natijasida oborotdan  $2220,2(22,1 \times 100,46 = -2220,2)$  ming so'm qo'shimcha mablag' jalb qilingan. Aylanma mablag'lar aylanuvchanligini tezlashganligining

asosiy sabablari korxona ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffisientini yuqoriligi hisoblanadi.

Aylanma mablag'lar aylanib turishining korxona moliyaviy holatiga ta'sirini tahlil etish aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirishga safarbar etilgan taklif va tavsiyalar bilan yakunlanishi kerak.

Shunday qilib, aylanma mablag'larning aylanib turishini tahlil qilish moliyaviy tahlilning asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, u hamma vaqt korxona rahbari, tahlilchilar va auditorlarning e'tibor markazida bo'lishi lozim.

### **Qisqa xulosalar**

Ushbu bobda xo'jalik sub'yektlarining moliyaviy xolatini o'rghanishning ahamiyati, tahlilning maqsadi, vazifalari va axborot manbalari, buxgalteriya balansining tarkibi va tuzilishi, mol-mulk tarkibining tahlili, mablag'lar manbaining tahlili, aylanma mablag'larini qoplashga o'zlik manbalarining etish yoki etmasligining tahlili, moliyaviy barqarorlik tahlili, korxona balansini likvidlilik va to'lov qobiliyatining tahlili, mol-mulk va mablag'lar xarakatchanligining tahlili, aylanma mablag'lar aylanishining tahlili hamda bu ko'rsatkichlarni korxona moliyaviy holatiga ta'siri aniq misollar yordamida o'rghanib chiqilgan.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

- 1.Buxgalteriya balansini tahlil qilishning mazmuni nimalardan iborat?
- 2.Moliyaviy holat tahlilida qanday usullardan foydalaniladi?
- 3.Korxonalar moliyaviy holati tahlilini mazmuni, vazifalari va axborot manbalari.
4. Buxgalteriya balansining aktiv va passiv qismiga ta'rif.
5. Korxona mulkining tarkibi va uning o'zgariShini tahlili.
6. Korxonaga qaraShli va qarzga olingan mablag'larni tahlili.
- 7.Zahira va xarajatlarni qoplashga o'zlik manbalarining etarliligi yoki etishmasligini qanday aniqlalanadi?
8. Zaxira va xarajatlar holatini tahlili.
9. Korxona kapitali tarkibining tahlili.
- 10.Moliyaviy barqarorlik deyilganda nima tushuniladi?
- 11.Korxonaning moliyaviy barqrorliginini ifodalovchi koeffisientlarni tahlili..
12. Balansning harakatchanlik ko'rsatkchilarining tahlili.
- 13.To'lov qobiliyatini yaxshilash uchun qanday choralar zarur?

- 14.Aylanma mablag'larning aylanishi qanday aniqlanadi?
- 15.Aylanma mablag'larning aylanishini tezlatish uchun qanday tadbirlar zarur?
- 16.Balansning tarkibi qanday nisbatda bo'lgani maqsadga muvofiq?

### **Asosiy adabiyotlar**

- 1.Берднюкова Т.Б. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия. Учебное пособие. –М.: Инфра-М, 2010 .
- 2.Артёменко В.Г., Останов В.В. Анализ финансовой отчетности. Учебное пособие. -М.: Омега-Л, 2009.
3. Васильева Л.С. Финансовый анализ. Учебник. –М.: Кнорус, 2007.
- 4.Ваҳабов А.В., Иброҳимов А.Т. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Дарслик. –Т.: Шарқ. 2005
- 5.Ақрамов Э.А. Корхоналар молиявий ҳолатини таҳлили. Ўқув қўлланма. –Т.: Moliya, 2003 .
- 6.[www.uz](http://www.uz)- (Национальная Информационная агентство)
- 7.[www.cer.uz](http://www.cer.uz)- (Центр экономического исследования)

## **XIII BOB. MOLIYAVIY NATIJALAR TO'G'RISIDAGI HISOBOT TAHLILI**

13.1. Moliyaviy natijalarni tahlil qilishning mazmuni, maqsadi, vazifalari va axborot manbalari

13.2. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo'llari

13.3. Korxonalarning yalpi foydasi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarini tahlil qilish.

13.4. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olingan foyda (zarar) tahlili.

13.5. Umumxo'jalik faoliyati va soliq to'lagunga qadar foyda (zarar) ning tahlili.

13.6. Sof foyda va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili.

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar**

«Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»; mahsulot (tovar, ish va xizmat)lari sotishdan sof tushum; sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi; mahsulot sotishning yalpi foydasi; davr xarajatlari; sotish xarajatlari; ma'muriy xarajatlar; boshqa operasion xarajatlar; kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri harajatlari; asosiy faoliyatning foydasi (zarar); moliyaviy faoliyatning jami daromadlari (xarajatlari); moliyaviy faoliyatining boShqa daromadlari (xarajatlari); umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari); favquloddagi foyda (zarar); daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar); daromad (foyda) solig'i hamda boshqa soliqlar va yig'imlar; sof foyda.

### **13.1. Moliyaviy natijalarni tahlil qilishning mazmuni, maqsadi, vazifalari va axborot manbalari**

Ma'lumki, 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining nufuzli xalqaro ekspertlar va iqtisodchilarning tahlil va xulosalariga ko'ra dunyo mamlakatlari iqtisodiyotiga og'ir ta'siri tobora pasayib boradi va 2010 yilda jahon iqtisodiyotini o'sishi kutilmoqda. 2009 yilda global iqtisodiyotning o'sishi taxminan 1 foizga qisqargan. 2010 yilda esa dunyoda iqtisodiy rivojlanish 3 foiz atrofida oshishi mumkin.

Hozirgi davrda oldimizda turgan birinchi va asosiy vazifa – bu izchil iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni mukammallashtirish va ilg'or texnologiyalar bilan qayta qurollantirishning bosh sharti bo'lgan makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishishdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni boshqarish jarayonida iqtisodiy dastaklardan keng ko'lamda foydalilanadi. Bularga foyda, baho,

rentabellik ko'rsatkichlari, soliq, kredit, dividendlar kiradi. Ushbu iqtisodiy dastaklar ichida foyda iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtirish hamda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini ifodalovchi eng muhim mezondir.

Foyda korxonaning kelgusi ravnaqi, xodimlarni ijtimoiy himoyalashni ta'minlovchi asosiy manbadir. Bozor iqtisodiyoti lug'atida foyda – bu buxgalteriya tushunchasida daromadning ko'payganlgini anglatadi, deb ta'riflangan.

Bundan tashqari foydaga (daromad) iqtisodiy harakatning zaruriy sharti masadi sifatida ham qaraladi. Jahon amaliyotida foyda deyilganda ko'pincha biznes samaradorligining tadbir vositasi sifatida qaraladi. Iqtisodchi olimlar A.V.Vahabov va A.T.Ibrohimovlar foyda ko'rsatkichiga quyidagicha ta'rif beradilar:<sup>18</sup> «Foyda bu daromadlar va xarajatlar farqlanishidagi yuqori o'zgaruvchanlikdir. Ular o'rtasidagi quyi o'zgaruvchanlik esa zararni ifodalaydi».

Daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalarni xarakterlovchi foydani o'lchashga daxldor bo'lgan elementlar hisoblanadi. Daromadlarni va xarajatlarni, ya'ni foydani aniqlash va o'lchash- korxona o'z omoliyaviy hisobotini tayyorlashda foydalaniladigan kapital konsepsiysi hamda kapitalning saqlanishiga bog'liq bo'ladi.

Daromadlar – bu hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning oqimi yoki ko'payishi shaklida o'sishi yoki passivlarning qatnashchilarning kapitalidagi omonatlardan farq etuvchi o'sishiga olib keluvchi kamayishdir.

Xarajatlar – hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklini kamayishi, shuningdek, qatnashchilar o'rtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir.

Shuningdek, foyda xo'jalik sub'yektlarining mahsulot sotishdan, asosiy va umumxo'jalik faoliyatları natijasidan hamda favquloddagi vaziyatlardan so'ng o'z barcha xarajatlarini qoplab, qo'shimcha organ daromadlar yig'indisidan iboratdir, deb tushunish ham mumkin. Demak, olingan foydani tahlil qilishda, daromadning ko'paygan yoki kamayganligi, buning o'zgarish sababalari hamda ta'sir etuvchi omillar o'rganilishi lozim.

Moliyaviy natijalar tahlili moliyaviy tahlilning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu mavzuni tahlil qilishda bevosita korxonaning oxirgi natiasi, ya'ni foyda va rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlar o'rganiladi.

<sup>18</sup> Vahabov A.V., Ibrohimov A.T. «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». –T: Sharq. 2005. 240 б.

Moliyaviy natijalar tahlilida daromad va xarajatlarning o'zaro farqlashidagi holatga ham baho beriladi. Moliyaviy natijalarni tahlil qilishda foyda va zararning shakllanish qatorlari bo'yicha o'zgarishlari o'rganiladi. Foyda va zararning omilli tahlili olib boriladi. Korxonada moliyaviy natijaviylikni yaxshilash yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi va ularni yo'lga qo'yishning chora va tadbirlari belgilanadi. Korxonaning foydalilik darajasini xarakterlovchi rentabellik ko'rsatkichi va uning omilli tahlili o'tkaziladi.

Tahlil moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni o'qish, vertikal tahlil, gorizontal tahlil, trendli tahlil va ko'rsatkichlarni aniqlash usullarida olib boriladi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni o'qishda uning satrlar bo'yicha ko'rsatkichlar tartiblanishiga, moliyaviy natijaviylikni xarakterlovchi umumiylar qatorlarning qiymat ifodasi, hisobot davri va o'tgan yilning shu davri bo'yicha ma'lumotlariga umumiylar izoh beriladi.

Vertikal tahlilda moliyaviy natjalarning shakllanishini bir qatorli va ko'p qatorli usullarda o'zaro farqlanishlarga va nisbiy o'zgarishlarga baho beriladi.

Gorizontal tahlilda esa moliyaviy natjalarning bo'yamasiga tarkiblanishi va ularning o'zgarishlari o'rganiladi.

Asosli yoki trend tahlilda moliyaviy natijalar va ularning yillar bo'yicha o'zgarish dinamikasi yoki asos yiliga nisbatan o'zgarishlariga baho beriladi.

Moliyaviy natjalarni tahlil qilishning asosiy vazifalari quydagilardan iborat:

- korxonaning yalpi foydasi va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni tahlil qilish;
- asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan kelgan foydani o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlili;
- umumxo'jalik faoliyatidan kelgan foyda foydani o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish;
- soliq to'langunga qadar foyda va uni o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlili;
- sof foyda hajmining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy omillarni hamda foyda miqdorini oshirish bo'yicha ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash;
- korxonaning rentabellik ko'rsatkichlarini o'rganish va ularga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;
- korxonaning rentabellik darajasini oshirish chora-tadbirlrini ishlab chiqish.


Moliyaviy natijalarni tahlil qilishda asosiy axborot manbasi sifatida 2-shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» dan foydalaniladi. “Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot” (2-shakl) mahsulot ishlab chiqarish (ishlar, xizmatlar) jarayonining yakuniy mahsuli bo'lib, u ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun tegishli boshqaruq qarorlarini qabul qilishda asosiy axborot manbai hisoblanadi. SHu bilan birga tahlil jarayonida korxonaning «Buxgalteriya balansi», «Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqida ma'lumotnoma», «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot», «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot», «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot», «Moliyaviy-iqtisodiy holat bo'yicha ma'lumotnoma» kabi hisobotlari ma'lumotlari va hisob-kitoblari qo'llaniladi.

### **13.2. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo'llari**

Bozor munosabatlari sharoitida xar bir xo'jalik yurituvchi su'byektlar o'z tasarrufidagi barcha resurslar moddiy, mehnat va moliyaviy ressurslaridan samarali foydalanishini to'g'ri yo'lga qo'yishi zarur bo'ladi.

Iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalaridan biri - tahlil qilinayotgan ob'yeqt yoki birorta iqtisodiy toifani xolisona baholash uchun uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, ularni nazariy va metodologik jihatdan har tomonlama asoslashdan iborat.

Xo'jalik yurituvchi sub'yeqtarning moliyaviy natijalari bu keng qamrovli tushunchadir. Ularning shakllanishi va taqsimlanishi bo'yicha to'liq va har tomonlama asoslangan xulosa chiqarish uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim. Ko'rsatkichlar haqida to'g'ri xulosa chiqarish uchun, avvalo, ularni ilmiy jihatdan tasniflash kerak. Iqtisodiy tahlilda ko'rsatkichlar g'oyat ko'p belgilar bilan tasniflanadi. Chunonchi, iqtisodiy ko'rsatkichlarni iqtisodiy mazmuni, foydalanish darajasi, ifodalanish shakli, umumlashtirish darajasi, xo'jalik faoliyatining bo'g'inlari va shakllanish holati bo'yicha kabi belgilar bo'yicha tasniflash qabul qilingan. Bu o'rinda biz moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy mazmuni bo'yicha tasnifini havola qilish bilan cheklanamiz, zero ko'rsatkichlarni ushbu belgi bo'yicha tasniflash tegishli xulosa chiqarish uchun etarli bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichlar tasnifi quyidagi rasmda ko'rsatilgan, (13.1-rasm).



### **13.1-rasm. Moliyaviy natijalar shakllanishini ifodalovchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy mazmuni bo'yicha tasnifi.**

13.1-rasmdan ko'rinishicha, moliyaviy natijalarning shakllanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar bir qancha. Binobarin, ularning har biri ma'lum miqdorga ega bo'lishi va tahlil qilinayotgan toifaning u yoki bu jihatini ifodalashi kerak. Bu holat aniq axborotlardan foydalanishni taqozo etadi.

Iqtisodiy tahlilning eng muhim vazifalaridan biri moliyaviy natija-larni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va ularni hisob-kitob usullarini ishlab chiqishdan iborat. XXI asr bo'sag'asida bu borada tadqiqot olib borgan I.T. Abdukarimov , E.A. Akramov, M.I. Bakanov , I.O.Voljin , M.Q.Pardaev, G.I.Saviskaya, A.D.Sheremet va boshqalar moliyaviy natijalarni ifodalovchi har bir ko'rsatkichni aniqlashning nazariy jihatdan asoslangan uslublarini ko'rsatib bergenlar.

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini, ularning «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» da ifodalanishini, har bir ko'rsatkichning aniqlanish yo'llarini, moliyaviy natijalarning umumlashgan ko'rsatkichlari tahlilini yoritishdan iborat. Ushbu mavzuni tahlil qilishda bevosita korxonaning oxirgi natijasi, ya'ni foyda va rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlar o'rganiladi. Ammo ushbu ko'rsatkichlar bozor munosabatlari sharoitida bir qancha omillar ta'sirida, ko'pgina manbalar hisobidan shakllanadi. Shu tufayli, korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlilining ko'lami ancha kengaygan.

Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlartizimi uning daromadlari, foydasi va rentabelligi bilan bog'liq ko'rsatkichlardir.

«Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi...» Nizomga asosan korxonaning daromadi quyidagilardan iborat:

- Mahsulotni sotishdan kelgan sof tushum;
- Korxonaning asosiy faoliyatidan kelgan boshqa daromadlar;
- Moliyaviy faoliyatdan kelgan daromad;
- Tasodifiy daromadlar.

Bu tarzda daromadlarni bo'linishi korxonaning xo'jalik faoliyatiga xolis baho uchun imkoniyat beradi.

#### I.Mahsulotni sotishdan olingan sof tushum.

1.1 Sotishdan olingan sof tushum = mahsulotni sotishdan olingan yalpi tushum - qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksiz solig'i, qaytib kelgan tovarlar, xaridorlarga berilgan imtiyozlar va boshqalar.

1.2. Eksport faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar harakatdagi qonunda ko'zda tutilgan tartibda foydani hisoblaydi.

1.3. Mahsulotni sotishdan olinadigan tushum «O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi haqidagi» Qonunga muvofiq aniqlanadi.

#### II. Asosiy faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlar.

Daromadlarning bu moddalari «Boshqa operasion daromadlar va kirimlar» bo'yicha aks ettiriladi.

Bularga quydagilar kiradi.

2.1. Xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganligi uchun to'lanadigan jarima, o'sim va boshqalar hamda zararlarni qoplash yuzasidan daromadlar.

#### 2.2. Hisobot yilida aniqlangan o'tgan yil foydalari.

2.3. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'limgan operasiyalardan olinadigan boshqa daromadlar, masalan, renta daromadi, korxona oshxonasi, yordamchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar.

2.4.Korxona asosiy fondlari va boshqa mulklarini sotishdan olinadigan daromad.

2.5.To'lash muddati o'tib ketgan kreditorlik va debitorlik qarzlarini tegishli schyotga yozishdan olinadigan daromad.

2.6.Boshqa operasion daromadlar.

III.Moliyaviy faoliyatidan olinadigan daromad.

Moliyaviy faoliyatidan olinadigan daromadlar quydagি asosiy bo'limlar bo'yicha aks etiriladi:

3.1.Uyushma kompaniyalar va shu'ba korxonalaridan olinadigan daromadlar.

3.2.Boshqa olinadigan devidendlar.

3.3.Sho'ba va uyushma korxonalariga berilgan qarzlar bo'yicha foizlar.

3.4.Olingan boshqa foizlar.

3.5.Chet el valyutalari va operasiyalari va valyuta schyotlari bo'yicha ijobiy kurs farqlari.

3.6.Sarmoyalangan mablag'larni qayta baholashdan olinadigan foyda.

Moliyaviy faoliyatidan olinadigan daromadga quydagilar kiradi:

1.O'zbekiston Respublikasi xududida va uning tashqarisida joylashgan korxona faoliyatida o'z ulushi bilan qatnashishdan olinadigan daromadlar; korxonaga qarashli aksiya devidentlari.

2.Uzoq muddatli ijara berilgan mulkdan olinadigan daromad.

3.Valyuta schyotlar va valyuta operasiyalari bo'yicha ijobiy kurs farqlari.

4.Qimmatli qog'ozlar, sho'ba korxonalari va boshqalarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholashdan olinadigan foyda.

5.Moliyaviy faoliyatdan olinadigan boshqa daromadlar.

IV.Tasodifiy foyda.

Favqulotda foyda moddalari – bu olinishi kutilmagan, korxona faoliyatidan tashqaridagi holatlar va muammolar oqibatida olingan g'ayri oddiy xususiyatga ega foydadir. Bunga asosiy faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlar bo'limida ko'rsatiladigan o'tgan davrlaridagi daromadlari va foyda kirmaydi.

Korxonaning sof foydasi moliyaviy natijalarning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Sof foyda miqdorini aniqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tasdiqlagan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni tarkib

topishi haqidagi» Nizomga ko'ra quyidagi oraliq foyda ko'rsatkichlarini aniqlash kerak:

1.Yalpi foyda = Sof tushum – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

2.Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan kelgan foyda (zarar) = yalpi foyda - davr xarajatlari ± asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromad (xarajat).

3.Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (zarar) = asosiy faoliyatdan olingan foyda + olingan dividendlar + boshqa olingan dividendlar ± olingan va berilgan qarzlar bo'yicha foizlar ± boshqa olingan va to'langan foizlar ± valyuta kursi farqi ± moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromad (xarajat).

4.Soliq to'lagunga qadar foyda (zarar)= umumxo'jalik faoliyatidan kelgan foyda ± favquloddagi foyda (zarar).

5.Sof foyda (zarar) = soliq to'lagunga qadar foyda - foydadan soliq - boshqa soliqlar va ajratmalar.

### **13.3. Korxonalarining yalpi foydasi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarini tahlil qilish**

Xo'jalik yurituvchi sub'yeqtarning moliyaviy natijalarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, foyda ko'rsatkichlari ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'yeqtarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini belgilovchi mezon - sof foydadir. Sof foyda miqdorini aniqlash uchun "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xarajatlar tarkibi, mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga qo'shiladigan va moliyaviy natijalarni tarkib topishi haqidagi" Nizomga asosan oraliq foyda ko'rsatkichlarini aniqlash kerak bo'ladi. Tahlil qilish avvalambor, korxona yalpi foydasi va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashdan boshlanadi.

Mahsulotlar sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija foyda yoki zarar quyidagi bog'lanishlar asosida aniqlanadi. Ya'ni, mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushumdan shu mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini chegirish asosida aniqlanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'yeqtarning moliyaviy natijalari tarkibida asosiy o'rinni mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foyda tashkil etadi. Moliyaviy natijalarning asosiy qismi mahsulot, ish , xizmatlarni sotishdan shakllanganligi sababli tahlilda

asosiy e'tibor ushbu qatorning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishi va omilli ta'siriga qaratiladi.

Ishlab chiqarishning cheklangan resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish ichki imkoniyatlarni izlab topishni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, omilli tahlil usullaridan keng miyyosda foydalanishni talab qilmoqda. Shu boisdan, mahsulot sotishdan olingan foyda yoki zarar o'zgarishida omilli tahlilga alohida ahamiyat berildi.

Mahsulotlar sotishdan olingan foyda (zarar) hajmining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish uchun quyidagi 13.1-jadvalni keltiramiz.

### 13.1-jadval

#### Korxonada mahsulotlar sotishdan kelgan yalpi foyda va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili

(ming so'm)

Tar-tib raqa-mi	Ko'rsatkichlar	Hisobot yili boshi	Hisobot yili oxiri	O'zgarishi (+,-)	O'sish sur'ati, %
1.	Mahsulot sotishdan olingan sof tushum	726803	1224630	+497827	168
2.	Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi	528282	905261	+376979	171
4.	Mahsulot sotishdan kelgan yalpi foyda (1q – 2q)	198521	319369	+120848	161

13.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, yalpi foyda hajmi hisobot yili oxiri hisobot yili boshiga nisbatan 61 % ga oshdi. Bunga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

1. Mahsulot sotishdan olingan sof tushum hajmini 497827 ming so'mga oshishi natijasida yalpi foyda miqdori 250 % ga ( $497827 \times 100 : 198521$ ) oshdi .

2. Sotilgan mahsulot tannarxni 376979 ming so'mga ortishi ovaziga yalpi foyda miqdori 189 % ga ( $376979 \times 100 : 198521$ ) kamaygan.

Shunday qilib yuqorida hisoblangan 2 ta omilning ta'siri(+250)+(-189)=+61 %. Bu foiz esa yalpi foyda hajmida bo'lgan umumiy farqga teng (+61%) teng.

Endi, mahsulotlar sotishdan kelgan yalpi foydaning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlaymiz, (13.2-jadval).

## 13.2-jadval

### Mahsulotlar sotishdan kelgan yalpi foydaning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlash hisob-kitobi

Hisobning tartib soni	Almashtirishning tartib soni	Hisob tarkibiga omiillar		formulasi kiruvchi	Natijaviy ko'rsatkich – yalpi foyda (1u-2u)	Oldingi hisobga nisbatan farq, (+,-)	O'zgarish sabablari
		Mahsulot sotishdan olingan sof tushum	Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi				
A	B	1	2	3	4	5	
1	-	726803	528282	198521	-		
2	1	1224630	528282	696348	+497827	Sof tushum oshgan	
3	2	1224630	905261	319369	-376979	Tannarx oshgan	
Omillar balansi:		+120848					

13.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, korxonada mahsulotlarni sotishdan tushgan yalpi foyda hajmi yil oxiri yil boshiga nisbatan 120848 ming so'mga oshdi. Sof tushum hajmini 497827 ming so'mga ko'payishi yalpi foydani shu summaga oshirdi. Yalpi foyda sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini oshishi hisobiga 376979 ming so'mga kamaydi. Hisoblangan 2 ta omilning ta'siri:

$$( +497827 ) + ( -376979 ) = +120848 \text{ ming so'm.}$$

### 13.4. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olingan foyda (zarar) tahlili

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olingan foyda qatoriga korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyatining mahsulot ishlab chiqarish va sotishdan tashqari faoliyatidan olinadigan foydasi kiritiladi. Ular bo'yicha xarajatlar va daromadlar qatori alohida tarkiblangan holda umumiylashtirilishi belgilanadi. Operasion daromadlar va xarajatlar o'zining sof qiymati bo'yicha ham moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga tushirilishi belgilanadi. Bunda operasion jarayonlardan olingan daromadlar ular bo'yicha xarajatlar qiymatiga farqlangan holda hisobotga foyda yoki zarar qatoriga tushiriladi.

Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foydani aniqlash uchun mahsulotlar sotishdan tushgan yalpi foydadan davr xarajatlari va asosiy faoliyatdan olingan boshqa xarajatlar chegirilishi, asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar qo'shilishi tavsiya etilgan.

Korxonada asosiy faoliyatdan olingan foyda (zarar) va uni o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarga baho berishda davr xarajatlari, asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar hamda xarajatlarni ham tahlil qilish kerak.

Davr xarajatlari deyilganda- bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lмаган xarajatlar va sarflar tushuniladi. Davr xarajatlari tarkibiga mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan xo'jalik sarflari kiritiladi. Ularni yuzaga chiqish shakli va o'rniga qarab quyidagilarga ajratish mumkin:

- sotish xarajatlari;
- ma'muriy xarajatlar;
- boshqa operasion xarajatlari.

Sotish xarajatlari – mahsulot (ish, xizmat)tannarxiga kiritiladigan xarajatlar, mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq yagona tartiblashni va to'g'ridan-to'g'ri korxona faoliyat natijaviyligi bog'lanishi tartiblangan.

Sotish xarajatlari mahsulotlarni xaridor va buyurtmachilarga ortib jo'natish va sotish bilan bog'liq bo'lган xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Sotish xarajatlarini ish haqi xarajatlari, ish haqidan ajratmalar, material xarajatlari, asosiy vositalar va nomaterial aktivlar amortizasiysi, reklama xarajatlari, ish va xizmatlar, boshqa xarajat moddalari bo'yicha tarkiblash va tahlil etish mumkin.

Ma'muriy xarajatlar qatoriga korxona boshqaruvi bilan bog'liq bo'lган xarajatlar kiritiladi va ularning korxona sarflari tarkibidagi salmog'i sezilarli ulushni tashkil etadi. Bu bevosita rahbarlar va boshqaruv apparatining xizmati xarajatlaridir.

Boshqa operasion xarajatlari qatoriga yuqorida tarkibga kiritilmagan xarajatlar ishlab chiqarishni taokmillashtirish, o'zlashtirish va yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bilan bog'liq bo'lган xarajatlar kiritiladi.

Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va xarajatlar tahlilida asosiy ishlab chiqarish faoliyatining mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan tashqari faoliyatlardan olingan daromad va yo'qotishlarni tahlil etiladi.

Korxonaning asosiy faoliyatdan boshqa xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari;
- loyiha va qurilish-montaj ishlarida chalalikni bartaraf etish xarajatlari;
- maslahat va axborot tizimlariga haq to'lash;
- auditorlik xizmatlari uchun to'lovlar;
- salomatlikni muhofaza qilish va xodimlarni ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashuvi bilan bog'liq bo'limgan dam olishlarni tashkil etish tadbirlari xarajatlari;
- kompensasiya va rag'batlantirish tusidagi to'lovlar;
- ish haqini hisoblashda e'tiborga olinmaydigan xarajatlar, ya'ni moddiy yordam;
- vaqtincha to'xtatib qo'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va ob'yektlarini saqlash xarajatlari;
- sog'lomlashtirish, xalq ta'limi, ijtimoiy ta'minot va shu kabi tashkilotlarga badallar;
- byudjetga majburiy to'lovlar, soliqlar va yig'imlar va byudjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar;
- zararlar, jarimalar, penyalar va boshqa xarajatlar.

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olingan boshqa daromadlarga quyidagilar kiradi:

- undirilgan yoki qarzdor tomonidan e'tirof qilingan jarimalar va penyalar;
- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yil foydalari;
- yordamchi xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlardan olingan daromadlar;
- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa mol-mulkarni sotishdan olingan daromadlar;
- da'vo bildirish muddati o'tgan kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;
- tovar-moddiy boyliklarning qayta baholanishidan ko'rilmagan natijalar;
- davlat subsidiyalaridan daromadlar;
- xolisona moliyaviy yordam;
- boshqa operasion daromadlar.

Endi korxona amaliy ma'lumotlaridan foydalangan holda operasion foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun quyidagi jadvalni tuzish tavsiya qilinadi, (13.3- jadval).

### 13.3-jadval

#### **Korxonaining asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda (operasion foyda) hajmining tahlili**

(ming so'm)

Tar-tib ra-qam-i	Ko'rsatkichlar	Hisobot yili boshi	Hisobot yili oxiri	Mutlaq farq, (+,-)	O'sish sur'ati, %
1	Tovarlarni sotishdan tushgan yalpi foyda	198521	319369	+120848	161
2	Davr xarajatlari	199723	327888	+128165	164
3	Asosiy faoliyatning boshka operasion daromadlari	10271	9650	-621	94
4	Asosiy faoliyatning boshka operasion xarajatlari	-	-	-	-
5	Asosiy ishlab chikarish faoliyatidan tushgan foyda (1q-2q+3q-4q)	9069	1131	-7938	125

13.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, tahlil qilayotgan korxonada asosiy faoliyatdan tushgan foyda hajmi hisobot yili oxiri yil boshiga nisbatan 7938 ming so'mga kamaygan. Bunga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1.Tovarlarni sotishdan tushgan yalpi foyda hajmining 120848 ming so'mga ko'payishi natijasida asosiy faoliyatdan tushgan foyda miqdori shu summaga oshdi. (+)

2.Davr xarajatlari hajmining 128165 ming so'mga ortishi evaziga asosiy faoliyatdan tushgan foyda miqdori shu miqdorda kamaygan.(-)

3.Boshqa operasion daromadlar miqdori 621 ming so'mga kamaygan. Bu esa, o'z navbatida, asosiy faoliyatdan tushgan foyda hajmini shu summaga kamaytirgan.(-)

Shunday qilib, yuqorida hisoblangan 3 ta omilning ta'siri:  $(+120848)+(-128165)+(-621) = -7938$  ming so'm. Bu esa asosiy faoliyatdan tushgan foyda hajmida bo'lgan umumiylar farqga (-7938) teng.

Endi, asosiy faoliyatdan kelgan foydaning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlaymiz, (13.4-jadval).

### 13.4-jadval

#### **Asosiy faoliyatdan kelgan foydaning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarini zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlash hisob-kitobi**

(ming so'm)

Hisobning tartib soni	Almashtirishning tartib soni	Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omiillar			Natijaviy ko'rsatkich - operasion foyda [1u-2u+3u]	Oldingi hisobga nisbatan farq, (+,-)
		yalpi foyda	davr xarajatlari	asosiy faoliyatdan kelgan boshqa operasion daromadlar		
A	B	1	2	3	6	7
1	-	198521	199723	10271	9069	-
2	1	319369	199723	10271	129917	+120848
3	2	319369	327888	10271	1752	-128165
4	3	319369	327888	9650	1131	-621
Omillar balansi:						-7938

Odatda, operasion daromadlarni asosiy qismi xo'jalik shartnomasiga muvofiq mol etkazib berish bo'yicha shartnomalarni bajarmaganligi uchun to'lanadigan jarima, penya (o'sim) hamda yuzaga kelgan zararlarni qoplashdan tushgan daromadlar; hisobot yili aniqlangan o'tgan yildagi foyda miqdori; renta daromadi; asosiy fondlar va boshqa moddiy boyliklarni sotishdan keladigan daromadlar; to'lash muddati o'tib ketgan kreditorlik va deponentlik qarzlari; korxonaning oshxonasi, yordamchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlardan iborat bo'ladi.

### **13.5.Umumxo'jalik faoliyati va soliq to'lagunga qadar foyda (zarar)ning tahlili**

Korxonalar mahsulot ishlab chiqarish va sotish faoliyatidan tashqari moliyaviy sohalar natijasida ham foyda yoki zarar olishlari mumkin. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zarar, bu asosiy faoliyatdan

olingo foyda summasiga moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar qo'shiladi va zararlar ayriladi.

Korxonalarini xo'jalik hamda moliyaviy faoliyatlaridan olinadigan daromadlar va xarajatlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, moliyaviy faoliyatdan yuzaga keladigan xarajatlar ulushining ortishi korxonalarini inqirozga olib kelishi mumkin. Hozir moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan natijalarning xo'jalik yurituvchi sub'yeqtalar yakuniy moliyaviy natijalariga ko'rsatayotgan ta'siri beqiyos darajada oshib bormoqda.

Moliyaviy faoliyatdan olingan natija korxona faoliyat natijaviyligining alohida hisob qatori sifatida tarkiblanadi. Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar qatori «Xarajatlar tarkibi to'g'risida...»gi Nizomga muvofiq tarkiblanadi.

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar quyidagi asosiy bo'limlar bo'yicha aks ettiriladi:

- Uyushma va sho'ba korxonalaridan olinadigan daromadlar;
- Boshqa olingan daromadlar;
- Uyushma va sho'ba korxonalariga berilgan qarzlar bo'yicha foizlar;
- Chet el valyutalari operasiyalari va valyuta schetlari bo'yicha ijobiy kurs farqlari;
- Sarmoyalangan mablag'larni qayta baholashdan olinadigan foyda.

Moliyaviy faoliyatidan olingan daromadlarga quydagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi xududida va uning tashqarisida joylashgan korxona faoliyatida o'z ulishi bilan qatnashishidan olinadigan daromadlar, korxonaga qarashli aksiya dividendlari;
- uzoq muddatga ijara berilgan mulkdan olinadigan daromadlar;
- valyuta schyotlari va operasiyalari bo'yicha ijobiy kurs farqlari;
- foizlar bo'yicha boshqa to'lovlar.

Moliyaviy xarajatlarga quyidagi moddalar kiradi:

- bankga qisqa muddatli kreditlar bo'yicha to'lovlar va mol etkazib beruvchilar kreditlari bo'yicha foiz to'lovleri xarajatlari;
- uzoq muddatga ijara olingan mulk yuzasidan foiz to'lash bo'yicha xarajatlar;

- chet el valyutasi bilan bog'liq operasiyalar yuzasidan zarar va salbiy kurs farqlari;
- sarmoyalangan mablag'larni qayta ba'qolashdan ko'rilgan zararlar;
- qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar;
- moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

Tahlilda ularning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlariga, mutloq va nisbiy o'zgarishlariga baho beriladi hamda uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi. Ta'sir etuvchi omillar har bir tarkib qator bo'yicha alohida va umumiylasosda o'rganiladi.

Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar moliyaviy natijalar to'g'risidagi moliyaviy hisobotdan va uning qatorlari bo'yicha berilgan izohlardan olinadi. Tahlil qilinayotgan korxona bo'yicha umumxo'jalik faoliyatidan ko'rilgan foydani o'sish sur'atini havola etamiz, (13.5 -jadval).

### 13.5-jadval

**Korxona bo'yicha umumxo'jalik faoliyatidan ko'rilgan foydaning  
o'sish sur'ati**

(ming so'm)

Ko'rsatkichlar	Hisobot yili boshi		Hisobot yili oxiri		O'zgarishi (+,-)	
	foyda	zarar	Foyda	zarar	foyda	zarar
A	1	2	3	4	5 (3-1)	6(4-2)
1. Operasion foyda	9069	-	1131	-	-7938	-
2. Dividendlar shaklidagi daromadlar	-	-	28	-	-	-
3. Foizlar shaklidagi daromadlar (xarajatlar)	-	-	10384	-	-	-
4. Moliyaviy lizingdan daromadlar (xarajatlar)		-	-	-	-	-
5. Valyuta kursi farqidan daromadlar (zararlar)	232	432	568	817	+336	+385
6. Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari (xarajatlari)	-	-	-	-	-	-
7. Moliyaviy faoliyat bo'yicha jami daromadlar (xarajatlar) Jami (2+3+4+5+6)	232	432	10980	817	+10748	+385
8. Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (1+-7)	8869	-	11294	-	+2425	-

13.5-jadval ma'lumotlaridan ko'riniib turibdiki, umumxo'jalik faoliyatdan ko'rilgan foyda hajmi hisobot yili oxiri yil boshiga nisbatan 2425 ming so'mga oshgan yoki uning o'sish sur'ati 127 % ni tashkil etdi.

Umumxo'jalik faoliyatidan ko'rilgan foydaning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlaymiz, (13.6-jadval ).

### 13.6-jadval

#### Umumxo'jalik faoliyatidan ko'rilgan foydaning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash hisob-kitobi

(ming so'm)

Hisoblashning tartib soni	Almashtirishning tartib soni	Hisob formulasi tarkibiga			Natijaviy ko'rsatkich-umumxo'jalik faoliyatidan kelgan foyda, 1us + 2us - 3us	Oldingi hisobga nisbatan farq, (+, -)	O'zgarish sabablari
		operasion foyda	moliyaviy faoliyat bo'yicha jami	xara-jatlar			
A	B	1	2	3	4	5	6
1	-	9069	232	432	8869	-	-
2	1	1131	232	432	931	-7938	Operasion foyda Kamaygan
3	2	1131	10980	432	11679	+10748	Moliyaviy faoliyatdan tushgan daromadning ko'paygan
4	3	1131	10980	817	11294	-385	Moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan zararlar ko'paygan
Omillar balansi: +2425							

Shuni ta'kidlash kerakki, sof foyda miqdori faqat bir asosiy faoliyatgagina bog'liq emas. Uning shakllanishida bir qator qo'shimcha faoliyatlar ham mavjudki, ularning korxonaning sof foydasining shakllanishidagi hissasi katta. Bular qatoriga moliyaviy faoliyatdan olinadigan foyda (zarar), tasodifiy foyda (zarar)lar kiradi.

Korxonaning soliq to'langunga qadar foydasi asosiy ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatidan olinadigan natija, favqulodda faoliyatdan yoki holatlardan natijasi jamlangan holda joriy davr bo'yicha aniqlanadi.

Soliq to'langunga qadar foyda davlatning va axborotdan foydalanuvchilarning e'tibor shartidagi asosiy qator hisoblanadi.

Daromad va xarajatlar ularning yuzaga chiqish vaqtি va o'rni bo'yicha yuritilgan holda yakuniy natija ushbu qoida asosida tuziladi.

Soliq to'langunga qadar foyda umumxo'jalik faoliyatidan olingan foydaga favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan foydani qo'shish yoki zarar bo'lsa ayirish yo'li bilan aniqlanadi.

Favqulodda foyda (zarar) bu - olinishi kutilmagan, xo'jalik yurituvchi sub'yeqtalar faoliyatidan tashqaridagi holatlar oqibatida olingan (ko'rilgan) g'ayrioddiy xususiyatga ega foyda (zarar)dir. Bunga asosiy faoliyatdan olinadigan boshqa daromadlar (xarajatlar) kirmaydi.

Soliq to'langunga qadar foyda davlatning va axborotdan foydalanuvchilarning e'tibor shartidagi asosiy qator hisoblanadi. Daromad va xarajatlar ularning yuzaga chiqish vaqtি va o'rni bo'yicha yuritilgan holda yakuniy natija ushbu qoida asosida tuziladi.

Soliq to'langunga qadar foyda umumxo'jalik faoliyatidan olingan foydaga favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan foydani qo'shish yoki zarar bo'lsa ayirish yo'li bilan aniqlanadi.

Favqulodda foyda (zarar) bu - olinishi kutilmagan, xo'jalik yurituvchi sub'yeqtalar faoliyatidan tashqaridagi holatlar oqibatida olingan (ko'rilgan) g'ayrioddiy xususiyatga ega foyda (zarar)dir. Bunga asosiy faoliyatdan olinadigan boshqa daromadlar (xarajatlar) kirmaydi.

Tasodifiy foyda 3 ta mezon talabiga javob berishi kerak:

1.Bir qancha yillar davomida qaytarilmasligi.

2.Korxonaning boshqaruv holatlari yoki mulkdorlarning qabul qilgan boshqaruv qarorlariga bog'liq emasligi.

3.Korxonaning odatdagи xo'jalik faoliyatidan tashqari holatlar oqibatida yuzaga kelishi.

Korxonalarni odatiy xo'jalik faoliyatida shunday moddalar yuzaga kelishi mumkinki, ular faqat g'ayrioddiy yoki kutilmagan holatlar bo'lisi mumkin.

Masalan, chet el valyutasi bo'yicha operasiyalaridan ko'rilgan zarar kutilmagan zarar, lekin tasodifiy emas, zero valyuta kursining beqarorligi natijasida sodir bo'lgan zararlar oddiy zararlar qatoriga kiradi.

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, quyidagi moddalar favqulodda moddalar tarkibiga kirmaydi:

1. Shubhali debitorlik qarzlarini hisobdan chiqarish natijasida keladigan zararlar.

2. Chet el valyutasi bilan bo'lgan operasiyalar va valyuta schyoti bo'yicha kurs farqlaridan keladigan foyda (zarar).

3. Bahoni korrektirovka qilish.

4. Aktivlar bahosini kamaytirish.

5. Soliqlar bo'yicha stavkalarning o'zgarishi.

6. O'tgan yillardagi zararlarning hisobot yilida aniqlangan miqdori.

7. Hisobot yilida aniqlangan o'tgan yil foydalar.

8. To'lash muddati o'tib ketgan kreditorlik va debitorlik qarzlarni tegishli schyotga yozishdan olingan daromad.

Chet el tajribasiga ko'ra favqulodda zararlar quyidagilardan iborat:

1. Tabiiy ofat natijasida yuzaga keladigan katta miqdordagi yo'qotishlar.

2. Siyosiy tanglik natijasida paydo bo'ladigan yo'qotishlar.

3. Qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan qonunlarni o'zgartirish natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlar.

Shunday moddalar ham borki, ularni favqulodda zararlar tarkibiga kiritish yoki kiritmaslik masalasi tashqi muxitga (ob – havo, jug'rofik joylashish) bog'liq.

Masalan, xo'jalik yurituvchi sub'yekt sovuq bo'ladigan mintaqada joylashgan bo'lsa, u holda arning qattiq sovuq bo'lishi natijasida hosilning nobud bo'lishi favqulodda hodisa emas.

Korxonada soliq to'langunga qadar foydani o'sish sur'atini havola qilamiz, (13.7- jadval).

Tahlil qilinayotgan korxonada hisobot yili davomida favqulodda foyda va zarar ko'rilmagan. Soliq to'langunga qadar foyda hajmi hisobot yili oxiri yil boshiga nisbatan 2425 ming so'mga oshgan yoki uning o'sish sur'ati 127 % ni tashkil etdi.

### 13.7-jadval

### **Korxonada soliq to'langunga qadar foyda hajmining o'sish sur'ati**

(ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	Hisobot yili boshi	Hisobot yili oxiri	Mutlaq farq, (+, -)	O'sish surati, (%)
1.	Umumxo'jalik faoliyatidan ko'rilgan foyda (zarar)	8869	11294	+2425	127
2.	Favqulodda foyda	-	-	-	-
3.	Favqulodda zarar	-	-	-	-
4.	Soliq to'langunga qadar foyda (zarar) (1q + 2q - 3q)	8869	11294	+2425	127


### **13.6.Sof foyda va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili**

Korxonalarni moliyaviy-xo'jalik faoliyatini baholovchi barometr - sof foyda miqdoridir. Shu sababli ham sof foyda miqdorini o'rganish va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish korxona samaradorligini oshirishga olib keladi. Har bir xo'jalik sub'yekti o'z faoliyati natijasida sof foydaga erishishni ko'zlaydi. Ushbu ko'rsatkich soliq to'loviga qadar bo'lган foyda summasidan foydadan soliq va boshqa soliqlar va ajratmalarini chegirish asosida aniqlanadi.

Sof foyda - korxonaning butun ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyatining hamma turlari bo'yicha, shu jumladan, mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bevosita va bilvosita xarajatlar, operasion daromadlar va xarajatlar qoldig'i, moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va xarajatlar qoldig'i, tasodifiy foyda va zararlar qoldig'i bo'yicha aniqlanadi.

Sof foydaning shakllanishi va uni to'g'ri taqsimlash hamda undan oqilona foydalanishda shunday maqbul tartibni qo'llash kerakki, toki u korxona jamoasi va har bir xodim mehnatining samaradorligini oshirishga bo'lган moddiy manfaatdorligini o'z-o'zidan kuchaytirsin. Foydaning shakllanishi va ishlatilishi o'ziga xos xususiyatga egadir.

Buni quyidagi 13.2-rasmda ko'rishimiz mumkin



### 13.2-rasm.Foydaning shakllanishi va ishlatilishi

Korxonada sof foydaning tarkib topishi, uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash usullari hamda sof foydani taqsimlash borasidagi o'z echimini kutayotgan muammolarni hal qilish bo'yicha ayrim tavsiyalarni keltiramiz. Buning uchun esa quyidagi jadvalni tuzishni tavsiya qilamiz, (13.8-jadval).

13.8-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishi, korxona bo'yicha hisobot yili boshida foydaning 94,9 %i davlat byudjetiga tushgan, 5,1 %i esa korxona ixtiyorida qolgan. Hisobot yili oxirida esa byudjetga to'lovlar 59,7 %ni ( $56,2\% + 3,5\%$ ) tashkil qilgan bo'lsa, sof foyda esa 40,3 % ni egalladi yoki 35,2 %ga ko'paydi.

13.8-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, hisobot yili sof foyda hajmi o'tgan yilga nisbatan 4097 ming so'mga oshgan. Bu o'zgarishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan:

## 13.8-jadval

### Korxona sof foydasini tahlili

(ming so'm)

Tartib raqami.	Ko'rsatkichlar	Hisobot yili boshi		Hisobot yili oxiri		O'zgarishi	
		summa, (ming so'm)	sal- mog'i, %	summa, (ming so'm)	sal- mog'i, %	summa, (ming so'm)	salmo- g'i, %
1.	Soliq to'langunga qadar foyda	8869	100	11294	100	+2425	-
2.	Foyda (daromad) solig'i	8374	94,4	6349	56,2	-2025	-38,2
3.	Boshqa soliqlar va ajratmalar	40	0,5	393	3,5	+353	+3
4.	Jami soliqlar (2q+3)	8414	94,8	6742	59,7	-1672	-35,1
5.	Hisobot davri sof foydasi (zarari) (1q-4q)	455	5,1	4552	40,3	+4097	+35,2

1.Soliq to'langunga qadar foydani o'zgarishi.

2.Soliq va to'lovlarning o'zgarishi.

Ushbu omillarning ta'sirini zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlaymiz, (13.9-jadval).

Sof foyda mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bevosita va bilvosita xarajatlar, operasion daromadlar va xarajatlar qoldig'i, moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va xarajatlar qoldig'i, tasodifiy foyda va zararlar qoldig'i bo'yicha ham aniqlanadi.

Sof foyda hajmining 4097 ming so'mga ko'payishi quyidagi omillar hisobiga ro'y berdi:

- mahsulotni sotishdan tushgan sof tushumni o'sishi korxonaning sof foydasini 497827 ming so'mga oshirgan (13.1-jadval) ;
- sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxining oshishi sof foyda hajmini 376979 ming so'mga kamaytirgan (13.1-jadval) ;
- davr xarajatlarini o'tgan yilga nisbatan oshganligi sof foydani 128165 ming so'mga kamaytirgan (13.3-jadval) ;

### 13.9-jadval

#### **Sof foydaning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlash hisob-kitobi**

Hisobni tartib soni	Almash -tirish- ni tartib soni	Hisob formulasi kiruvchi omillar Soliq to'langunga qadar foyda	tarkibiga Jami soliqlar	Umumlash gan ko'rsatkich – Sof foyda	Oldingi hisobga nisbatan farq (+/-)	O'zgarish sabablari
A	V	1	2	3 (1-2)	4	5
1	-	8869	8414	455	-	
2	1	11294	8414	2880	+2425	Soliq to'langunga qadar foyda oshgan
3	2	11294	6742	4552	+1675	Jami soliqlar kamaygan
Omillar balansi: +4097						

- asosiy faoliyatdan olingan daromadlarini kamayishi sof foyda hajmini 621 ming so'mga kamaytirgan (13.3-jadval);
- moliyaviy faoliyatdan daromadlarni oshishi foydani 10748 ming so'mga oshirgan (13.5-jadval);
- moliyaviy faoliyatdan xarajatlarni oshishi foydani 385 ming so'mga kamaytirgan (13.5-jadval);
- foyda solig'i va to'lovlarini kamayishi foyda summasini 1672 ming so'mga oshirgan (13.8-jadval).

Shunday qilib, barcha omillar ta'sirida hisobot yili sof foydasining umumiyligi farqi kelib chiqadi: (497827-376979-128165-621+10748-385+1672= +4097 ming so'm.

Omilli tahlil natija ko'rsatkichini yaxshilashning ichki imkoniyatlarini izlab topish yo'llarini aniqlab beradigan eng muhim iqtisodiy vositalardan biri. Binobarin, moliyaviy natijalarni omilli tahlil qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad foyda turlari va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi ijobjiy va salbiy omillarni hisoblash hamda foyda miqdorini oshirish bo'yicha ichki xo'jalik imkoniyatlari summasini aniqlash, ularni ishlab chiqarishga safarbar qilishdan iborat.

Tahlil qilinayotgan korxonaning sof foydasi hajmini oshirish uchun katta imkoniyat bo'lган. Hisoblangan 7 ta omildan 4 tasining ta'siri salbiy

bo'lgan. Agar ushbu omillar 2008 yil boshidagi darajada saqlanib qolninganida edi, sof foyda summasi 506150 ming so'mga oshgan bo'lar edi ( $376979+128165+621+365$ ). U holda, sof foydaning umumiy hajmi hisobot yili 510702 ming so'mni ( $506150 + 4552$ ) yoki uning o'sish sur'ati 10 marta emas ( $4552:455 \times 100$ ) :  $1724368 \times 100$ ), balki 12 marta ( $510702 : 455 \times 100$ ) oshgan bo'lar edi. Demak, sof foyda hajmini oshirish bo'yicha imkoniyatlar miqdori 506150 ming so'mga teng ekan.

Binobarin, korxona boshqaruv ma'muriyati kelajakda omilli tahlil natijasida aniqlangan ichki imkoniyatlardan to'liq foydalanish, ularni amaliyatga safarbar qilish yo'llarini ishlab chiqishi lozim.

Soliq to'languncha qadar foydani taqsimlash deganda foydani davlat byudjeti daromadlarini tashkil etishiga, xo'jalik yurituvchi sub'yekt-larning ichki pul mablag'lari fondlarini barpo etishga va ularning boshqa ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirish tushuniladi. Foydani taqsimlash zamirida butun jamiyat manfaatlarini mehnat jamoalari va har bir xodimning manfaatlari bilan uyg'unlashtirish, ularda o'z faoliyatlarini takomillashtirish, foydaning ortishi va undan ishlab chiqarishni kengaytirish, ijtimoiy rivojlanish, xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun foydalanishdan manfaatdorlikni vujudga keltirish yotadi.

Foydani taqsimlash avvalo, uning umumiy summasidan alohida tartibda davlat byudjetiga foydadan soliq hamda boshqa soliq va ajratmalar ajratishni nazarda tutadi. Soliqlar to'langandan so'ng korxonalar tasarrufida qoladigan sof foyda dividendlar to'lashga va zahira sarmoyani to'ldirishga yo'naltiriladi. Taqsimlanmagan qismi buxgalteriya balansi passivining 2-bo'limi «O'z mablag'lari manbalari» 450-satri «Taqsimlanmagan foyda» da ko'rsatiladi. Agar korxona zarar ko'rgan bo'lsa, shu satrda zararning hali qoplanmagan qismi ko'rsatilib, o'z mablag'lari summasining yakuni xuddi shu summaga kamaytiriladi (480-satr).

Shulardan kelib chiqqan holda, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning moliyaviy salohiyatini oshirish hamda ularning moliyaviy barqarorlik darajasini ta'minlash uchun bozordagi faollikni keskin tarzda kuchaytirish kerak.

### **Qisqa xulosalar**

Ushbu mavzuni o'rganiSh natijasida talabalar moliyaviy natijalarni tahlil qilishning mazmuni, moliyaviy natijalarni tahlil qiliShning maqsadi va asosiy vazifalari, moliyaviy natijalarni tahlil qiliSh uchun qo'llanadigan axborot manbalarini, moliyaviy natijalarni ifodalovchi

ko'rsatkichlar tizimini, ularning «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»da ifodalanishini, har bir alohida olingan ko'rsatkichlarni aniqlanish yo'llarini, ularni o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash hamda sof foyda hajmini oshirish bo'yicha foydalilmagan ichki imkoniyatlarni aniqlash usullarini biliShlari kerak.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

- 1.Moliyaviy natijalarni tahlil qilishning mazmuni, maqsadi, vazifalari va axborot manbalari.
- 2.Asosiy qiymat ko'rsatkichlari tizimida foydani tutgan o'rni.
- 3.Moliyaviy natijalarni o'rganishda qanday ma'lumotlardan foydalilanadi?
- 4.Korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatidan olinadigan daromadlarni tahlil qilish va ularning tarkibi.
5. Mahsulotni sotishdan tushgan yalpi foyda qanday aniqlanadi?
6. Mahsulotni sotishdan tushgan yalpi foydaning o'zgarishiga qanday omillar ta'sir qiladi?
7. Asosiy faoliyat foydasi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlili.
- 8.Davr xarajatlari deganda qanday xarajatlarni tushunasiz?
9. Korxonaning umumxo'jalik faoliyatidan kelgan foyda va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning tahlili.
- 10.Moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromad va yo'qotishlar qanday o'rganiladi?
- 11.Soliq to'langunga qadar foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlili.
- 12.Favquloddagi foyda va zararlar qanday tahlil qilinadi?
- 13.Sof foyda va uning o'zgariShiga ta'sir etuvchi omillarning tahlili.
- 14.Sof foyda hajmini oshirish bo'yicha ichki xo'jalik imkoniyatlarini aniqlash usuli.

### **Asosiy adabiyotlar**

- 1.Берднюкова Т.Б. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия. Учебное пособие. –М.: Инфра-М, 2010.
- 2.Ионова А.Ф., Селезнева Н.Н.Финансовый анализ. Учебное пособие. -М. : ЮНИТИ. 2010.
3. Васильева Л.С. Финансовый анализ. Учебное пособие.–М.: Кнорус, 2009.

4. Ваҳабов А.В., Иброҳимов А.Т. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Дарслик. -Т.: Шарқ, 2005.
5. Акрамов Э.А. Корхоналар молиявий ҳолатини таҳлили. Ўқув қўлланма. –Т.: Молия, 2003.
6. Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil.O'quv qo'llanma. -Т.: Mehnat, 2004.
7. www.uz- (Национальная Информационная агентство).
8. www.cer.uz- (Центр экономического исследования).

## **XIV BOB. RENTABELLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLILI**

14.1. Rentabellik ko'rsatkichlarni tahlil qilishning mazmuni, maqsadi va vazifalari.

14.2. Rentabellik ko'rsatkichlari tizimi va ularni aniqlash usullari.

14.3. Rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'zgarishiga ta'sir kiluvchi omillarning tahlili.

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar**

Rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi; rentabellik ko'rsatkichlarini tahlilida foydalaniladigan ma'lumot manbalari; jami aktivlar rentabelligi; xususiy kapital rentabelligi; sotilgan mahsulot rentabelligi; asosiy faoliyat rentabellik ko'rsatkichlari; rentabellik ko'rsatkichlari darajasi o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar.

#### **14.1. Rentabellik ko'rsatkichlarni tahlil qilishning mazmuni, maqsadi va vazifalari**

Iqtisodiy inqiroz sharoitida foydaning mutlaq miqdori korxonalarining xo'jalik yuritish borasidagi samaradorlik darajasini har tomonlama belgilamaydi. Shu boisdan nisbiy ko'rsatkichlarni aniqlash talab qilinadi. Bu ko'rsatkich – rentabellik ko'rsatkichlaridir.

Korxonalar faoliyatining yakuni rentabellik - iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichida ifodalanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rentabellik foyda olish darajasi, sarflangan xarajat yoki kapital hisobiga to'g'ri keladigan foyda hajmini belgilaydi.

Rentabellik ko'rsatkichlari jami ijtimoiy ishlab chiqarish va har bir savdo tashkilotlari va korxonalarining iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bu ko'rsatkichda kengaytirilgan ishlab chiqarish, umum davlat ehtiyojlarini ta'minlash, xalqning ijtimoiy rivojlanishini yuksaltirish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko'rsatish uchun sarflanadigan jonli va buyum shaklidagi mehnat tejaming pul shaklida ifodalanishi hamda qo'shimcha mahsulotning massasi o'z aksini topadi.

Rentabellik xo'jalik sub'yektlari faoliyatining samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, xo'jalik faoliyati natijalarini to'la va har tomonlama tavsiflab beradi. Rentabelli korxonalar hamma xarajatlarini o'z daromadlari bilan qoplaydilar va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qo'shimcha foyda yaratadilar. Korxonalar o'zlari hosil qilgan foyda hisobiga ishlab chiqarishni kengaytirish, ijtimoiy-madaniy tadbirlar,

xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun mablag' sarflaydilar. Bu o'rinda e'tiborda tutish kerakki, korxonalar xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tomondan mustahkam qilishga faqat rentabellikni o'stirish bilangina erishib bo'lmaydi. Buning uchun korxonalarini ixtisoslashtirish, ularning faoliyati aholi va xalq xo'jaligi talablarini qondirishini ko'zda tutgan holda olib borilishi, hamma xodimlarning asosiy diqqatini korxona ichki imkoniyatlaridan foydalanib, rentabellikni oshirishga qaratish talab qilinadi.

Rentabellik ko'rsatkichlari korxonalarning xo'jalik faoliyatida bir qancha funksiyalarni bajaradi:

- korxonaga qo'yilgan mablag'larning qoplash darajasini ko'rsatadi. Masalan, korxonaning rentabellik darajasi 2 foiz bo'lsa, u holda korxonaga qo'yilgan kapital 50 yildan so'ng qoplanadi, 4 foiz bo'lsa 25 yildan keyin va hokazo. Ushbu ko'rsatkich xalq xo'jaligining alohida olingan tarmoqlari bo'yicha ham ishlab chiqilishi kerak. SHu asosda, rentabellik bo'yicha belgilangan me'yoriy ko'rsatkich muayyan korxonalarning rentabellik ko'rsatkichlari bilan taqqoslanishi kerak. Xalq xo'jaligi bo'yicha rentabellik darajasi 20 foizdan kam bo'lmasa, maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. SHunda korxonaga qo'yilgan kapital 5 yilda qoplanadi hamda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish uchun real imkoniyat yaratiladi:
  - ishlab chiqarishni kengaytirish, zamonaviylashtirish va uni qayta tiklash ta'minlanadi;
  - olingan kredit va qarzlarni qaytarish, ya'ni korxonalarning to'lov qobiliyati ta'minlanadi;
  - ishlab chiqarishning ijtimoiy sohasi rivoj topadi hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida xodimlarni ijtimoiy himoya qilish ta'minlanadi.

Rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qilishning asosiy vazifasi - bu bozor iqtisodiyoti sharoitida rentabellik ko'rsatkichlarning yangi tizimini yaratish, ularni aniqlash va tahlil qilish yo'llarini ko'rsatish hamda ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish evaziga ichki imkoniyatlarni axtarib topish orqali tahlil qilinayotgan korxona faoliyatining samaradorligini oshirish yo'llarini o'rgatishdan iboratdir.

Rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish uchun axborot manbalari sifatida moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalaniladi.

## **14.2.Rentabellik ko'rsatkichlari tizimi va ularni aniqlash usullari**

Rentabellik ko'rsatkichlarini iqtisodiy tahlil qilishdan ko'zlangan asosiy maqsadalaridan biri tahlil qilinayotgan iqtisodiy ko'rsatkichlarni xolisona va to'g'ri baholash uchun ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishdan hamda ularni nazariy va uslubiy jihatdan asoslashdan iboratdir.

Rentabellik keng qamrovli tushunchalar qatoriga kirganligi bois, uning holati va undan foydalanish darajasi xususida to'liq hamda mukammal xulosa chiqarish uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur. Shu boisdan Rossiya Federasiyasi va O'zbekiston Respublikasining vakolatli idoralari qabul qilgan rasmiy hujjatlarga asosan rentabellik ko'rsatkichlar tizimi va ularni hisoblash usullarini ko'rib chiqamiz. Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu masala yuzasidan iqtisodchi olimlar o'rtasida birlik yo'q. Masalan, «Moliyaviy tahlil bo'yicha uslubiy tavsiyalar»da quyidagi rentabellik ko'rsatkichlari tavsiya etilgan: sotilgan mahsulot rentabelligi, asosiy vositalar rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi, permanent kapital rentabelligi, jami kapitalning rentabellik koeffisenti.

«Xarajatlar tarkibi to'g'risida...» Nizomga asosan quyidagi rentabellik ko'rsatkichlari tavsiya etilgan: jami aktivlarning rentabelligi, sotilgan mahsulot rentabelligi, xususiy (o'z) kapitalining rentabelligi.

Rossiya iqtisodiy tahlil fanining ko'zga ko'rigan yirik olimlari M.I. Bakanov, A.D. Sheremet, G.V.Savitskaya, V.V.Kovalev, L.I. Kravchenko va boshqalarning moliyaviy tahlil bo'yicha chop etilgan qator darslik, o'quv qo'llanma va ilmiy maqolalarini e'tirof etish joiz. Xusan, A.D. Sheremet, E.V.Negashev<sup>19</sup> tomonidan moliyaviy tahlilga bag'ishlangan «Moliyaviy tahlil usuli» o'quv qo'llanmasida rentabellik ko'rsatkichlarini uchta guruhga umumlashtirish tavsiya etilgan:

- 1.Kapital (aktivlar) rentabelligi;
- 2.Mahsulot rentabelligi.
- 3.Pul mablag'lari oqimi asosida hisoblangan rentabellik ko'rsatkichlari.

O'zbekistonda ham iqtisodiy tahlil va uning ayrim sohalariga bag'ishlangan adabiyotlar, o'kuv va amaliy qo'llanmalar, risolalar, ilmiy maqolalar chop etilgan. Bular jumlasiga I.T.Abdukarimov, E.A.Akramov, Yo.A.Abdullaev, I.O.Voljin, E.E.Ergeshev, A.T.Ibrohimov, B.I.Isroilov,

<sup>19</sup> Sheremet A.D., Negashev E.V. «Metodika finansovogo analiza». –M.: Infra-M. 2003 .

S.Najbiddinov, M.Q.Pardaev, M.M.To'laxo'jaeva, V.V.Ergashboev, N.Xasanov kabilarning ishlarini kiritish mumkin.

Bevosita korxonalarning moliyaviy holatiga bag'ishlagan adabiyotlarda rentabellik ko'rsatkichlarining tahliliga ko'p e'tibor berilgan nufuzli ishlardan biri sifatida E.A.Akramov<sup>20</sup> tomonidan chop etilgan «Korxonalarning moliyaviy holati tahlili» o'quv qo'llanmani e'tirof etish joiz. Ushbu ishda muallif rentabellik ko'rsatkichlarini ikki tizimli ko'rsatkichlarga umumlashtirishni tavsiya etgan:

I. Umumiyl rentabellik ko'rsatkichlari:

- 1) jami aktivlarning rentabelligi;
- 2) ishlab chiqarish fondlarining rentabelligi;
- 3) korxonaning joriy xarajatlari rentabelligi;
- 4) sotilgan mahsulot rentabelligi.

II. Qo'shimcha rentabellik ko'rsatkichlari:

- 1) xususiy (o'z) kapitalining rentabelligi;
- 2) qarzga olingan kapitalning rentabelligi;
- 3) asosiy kapitalning rentabelligi;
- 4) aylanma kapitalning rentabelligi;
- 5) permanent (investisiya) kapitalning rentabelligi.

Moliyaviy tahlilga bag'ishlangan adabiyotlar ichida rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qilishga alohida e'tibor berilgan tadqiqotlar qatoriga V.I.Barlienko<sup>21</sup>, M.Q.Pardaevlarning<sup>22</sup> ishlarini kiritish mumkin.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlarning birortasida ham rentabellik ko'rsatkichlari iqtisodiy mazmuni bo'yicha tizim sifatida tavsiflanmagan. Ko'rsatkichlar haqida to'g'ri xulosa chiqarish uchun, eng avvalo, ularni ilmiy asoslangan holda tasniflash kerak.

Bu borada iqtisodchi olimlardan M.Q.Pardaev va B.I.Isroilovlarning tavsiyalarini diqqatga sazovor deb hisobladik. Ularning tavsiyalariga ko'ra rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlar iqtisodiy mazmuni bo'yicha to'rt guruhga bo'linadi: ishchanlik bilan bog'liq umumiyl rentabellik ko'rsatkichlari, iqtisodiy salohiyat bilan bog'liq rentabellik ko'rsatkichlari, moliyaviy salohiyat bilan bog'liq rentabellik ko'rsatkichlari va moliyaviy bozordagi faollik bilan bog'liq rentabellik ko'rsatkichlari.

<sup>20</sup> Akramov E.A. «Korxonalarning moliyaviy holatini tahlili». - T.: Moliya. 2003.

<sup>21</sup> Barlienko V.I. «Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti». -M.: Omega-L. 2009.

<sup>22</sup> Pardaev M.Q., Isroilov B.I. "Iqtisodiy tahlil". -T.: Mehnat, 2004.

Bugungi kunda amaliyotda keng tarqalgan va iqtisodchilar tomonidan bir qancha rentabellik ko'rsatkichilarini aniqlashni quyidagi usullari tavsiya etilgan (14.1- jadval).

### 14.1- jadval

#### **Rentabellik ko'rsatkichlarni hisoblash usuli**

Nº	Ko'rsatkichlar	Aniqlanish formulasi	Moliyaviy hisobotda ifodalanishi
1.	Jami aktivlarni rentabelligi	Soffoyda : aktivlarni o'rtacha qiymati	<u>2-sh. 270 s</u> 1-sh. 400 s
2.	Joriy aktivlar	Soffoyda: joriy aktivlarni o'rtacha qiymati	<u>2-sh. 270 s</u> 1-sh. 390 s
3.	Sotilgan mahsulotni retabelligi	Sof foyda: mahsulotni sotishdan tushgan sof tushum	<u>2-sh. 270 s</u> 2-sh. 010 s
4.	Sotilgan mahsulotni retabelligi	Sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tanarxi: mahsulotni sotishdan tushgan sof tushum	<u>2-sh. 020 s</u> 2-sh. 010 s
5.	Korxonaning asosiy faoliyatining rentabelligi	Maxsulotni sotishdan tushgan yalpi foyda: sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tanarxi	<u>2-sh. 030 s</u> 2-sh. 020 s
6.	Xususiy (o'z) kapitalining rentabelligi	Sof foyda: o'z mablag'larining o'rtacha yilik qiymati	<u>2-sh. 270 s</u> 1-sh. 480 s
7.	Asosiy kapitalining rentabelligi	Sof foyda: <i>uzoq</i> muddatli aktivlarning o'rtacha yilik qiymati	<u>2-sh. 270 s</u> 1-sh. 130 s
8.	Permanent kapitalining rentabelligi	Sof foyda: <i>uz</i> mablaglarning o'rtacha kiymati + <i>uzok</i> , muddatli kreditlar + <i>uzok</i> , muddatli qarzlar.	<u>2-sh. 270 s</u> 1-SH (480+570+580) s
9.	Qarzga olingan kapitalining rentabelligi	Sof foyda: qarzga olingan kapitalning o'rtacha qiymati.	<u>2-sh. 270 s</u> 1-sh. 770 s
10.	Sarmoyalangan kapitalning rentabelligi (samaradorligi)	Solik, to'lagunga qadar foyda + to'langan foizlar kapitali + uzoq muddatli qarz kapitali	<u>2-sh. 240+4-sh.110</u> 1-sh. (480+570+580)

### **14.3.Rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'zgarishiga ta'sir kiluvchi omillarning tahlili**

Rentabellik ko'rsatkichlarining nazariy jihatni masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni uning amaliy jihatni hisoblanadi. SHu boisdan, endi yuqorida tavsiya etilgan rentabellik ko'rsatkichlaridan faqat jami aktivlar rentabelligi, sotilgan mahsulot rentabelligi va asosiy faoliyat rentabelligi misolida omilli tahlil usulini ko'rib chiqamiz. Qolgan ko'rsatkichlarning omilli tahlilini ham shu yo'sinda o'tkazish mumkin. Bu erda umumiylilik tahlil uslubi saqlanib holgan holda, ayrim ta'sir etuvchi omillar va ularning soni tahlilning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'zgaradi.

**Jami aktivlarning rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning tahlili.** Jami aktivlarning rentabelligi darajasi korxonalarning asosiy fondlar va aylanma mablag'lardan foydalanish (samarodorlik) darajasini ko'rsatadi. Ushbu rentabellik darajasining normasi ahamiyati 5 foizdan 10 foizgacha bo'lishi kerak. Jami aktivlarning rentabelligi darajasi — korxonaning bir so'mlik mulkidan necha so'm foyda olganligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich korxonalar o'rtasidagi raqobat kurashida indikatorlik vazifasini o'taydi.

Raqobatbardoshlik darajasi tahlil qilinayotgan korxonaning jami aktivlarning rentabelligi darajasini o'rtacha tarmoqdagi koeffisienti bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Jami aktivlarning rentabelligi darajasini tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar 1-shakl (Balans), 2-shakl («Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»)dan olinadi.

14.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha hisobot yili oxiri jami aktivlarni rentabellik darajasi yil boshiga nisbatan 0,22 %ga ko'paydi.

Bunga ikki omil ta'sir ko'rsatdi :

1. Sof foyda hajmining o'zgarishi.
- 2.Jami aktivlarning o'rtacha miqdorining o'zgarishi.

## 14.2-jadval

### Jami aktivlarning rentabellik darajasi va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish

(ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	Hisobot boshi	yili	Hisobot oxiri	yili	O'zgarishi (+,-)
1.	Sof foyda		455		4552	+4097
2.	Jami aktivlar summasi					
	A)yil boshiga		1130937		1359871	+228934
	B)yil oxiriga		1359871		2079697	+719826
	V)o'rtacha miqdori		1245404		1719784	+474380
3.	Jami aktivlarning rentabellik darajasi (1x100:2v), % hisobida		0,04		0,26	+0,22

Ushbu omillarning ta'sirini zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlaymiz (14.3-jadval).

## 14.3-jadval

Jami aktivlarni rentabellik darajasini o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli  
almashtirish usuli orqali aniqlash hisob-kitobi

Hisobni tartib soni sobnitartibsoni	Almashtirishni tartib soni	Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omillar		Umumlashg an ko'rsatkich – Jami aktivlarni rentabellik darjasи	Oldingi hisobga nisbata n farq (+,-)	O'zgarish sabablari
		Sof foyda	Jami aktivlarni o'rtacha Miqdori			
A	V	1	2	3(1x100:2)	4	5
1	-	455	1245404	0,04	-	
2	1	4552	1245404	0,36	+0,32	Sof foyda hajmi oshgan
3	2	4552	1719784	0,26	-0,1	Jami aktivlarni o'rtacha miqdori oshgan

Omillar balansi: +0.22

14.3-jadvaldan ko'inishicha sof foyda hajmining hisobot yili oxiri yil boshiga nisbatan 4097 ming so'mga kupayishi natijasida jami aktivlarning rentabellik darajasini 0,32 % ga oshdi. Jami aktivlarning o'rtacha mikdori hisobot yili boshi oxiriga nisbatan 474380 ming so'mga ko'payishi natijasida esa jami aktivlarning rentabellik darajasi 0,01 % ga kamaydi.

**Sotilgan mahsulot rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlili.** Ushbu rentabellik ko'rsatkichi bir so'mlik sof tushumga to'g'ri keluvchi xarajat birligini ko'rsatadi. Ushbu rentabellik koeffisientining o'sishi mahsulot tannarxining pasayishi va sotilgan mahsulot rentabelligini oshishidan dalolat beradi. Sotilgan mahsulot rentabelligi ko'rsatkichini sof foydani sof tushumga nisbati tariqasida ham aniklasa bo'ladi. Bunda bir so'mlik sotilgan mahsulot qancha sof foyda birligini berishini ko'rishimiz mumkin. Ushbu ko'rsatkichni tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar 2-shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» dan olinadi. Tahlil uchun quyidagi jadvalni havola etamiz. (14.4-jadval).

#### 14.4.-jadval

**Korxonaning sotilgan mahsulotlari rentabellik darajasi va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish**  
(ming so'm)

Ko'rsatkichlar		Hisobot yili boshi	Hisobot yili oxiri	O'zgarishi (+,-)
Sotilgan mahsulotning chiqarish tannarxi	ishlab	528282	9052	+37
Sof foyda		61	6979	
		455	4552	+40
			97	
Mahsulot sotishdan tushgan sof tushum	03	7268	1224	+49
Sotilgan mahsulot rentabelligi (ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha) (1x100:3)		72.68	73.92	+1, 24
Sotilgan mahsulot rentabelligi (sof foyda bo'yicha) (2x100:3), %		0,06	0,37	+0, 31

14.4-jadval ma'lumotlaridan ko'inishicha hisobot yili oxiri sotilgan mahsulot rentabelligi (ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha) yil boshiga nisbatan 1,24 % ga ko'paydi. Bunga ikki omil ta'sir ko'rsatdi.:

- 1.Sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxini o'zgarishi.
2. Mahsulot sotishdan tushgan sof tushum hajmini o'zgarishi.

Ushbu omillar ta'sirini zanjirli almashtirish usuli orqali aniklaymiz. (14.5-jadval).

### 14.5-jadval

#### **Sotilgan mahsulot rentabellik darajasini (ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha) o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlash hisob-kitobi**

Hisobni tartib soni	Almashtirishni tartib soni	Hisob tarkibiga omillar		Umumlashgan ko'rsatkich – Sotilgan mahsulotni rentabellik darjasini	Oldingi hisobga nisbatan farq (+.-)	O'zgarish sabablari
		Sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi	Mahsulot sotishdan tushgan sof tushum			
A	V	1	2	3(1x100:2)	4	5
1	-	528282	726803	72,68	-	
2	1	905261	726803	124,5	+51,82	Mahsulot tannarxi oshgan
3	2	905261	1224630	73,92	-50,58	Sof tushum hajmi oshgan

Omillar balansi: +1,24

14.5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, sotilgan mahsulotni ishlab chiqarish tannarxini hisobot yili oxiri yil boshiga nisbatan 376979 oshishi natijasida sotilgan mahsulot rentabelligi 51,82 bandga oshgan. Sof tushumni 497827 ming so'mga oshishi esa sotish rentabelligini 50,58 bandga ko'paytirgan.

Shunday qilib, yuqorida hisoblangan ikkita omilning ta'siri; (+51,82)+(-50,58) = +1,24 %.

Endi sotilgan mahsulot rentabelligi darajasini sof foyda bo'yicha ham zanjirli almashtirish usuli orqali aniklaymiz ,( 14.6-jadval).

14.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha sof foyda hajmining hisobot yili oxiri boshiga nisbatan 4097 ming so'mga ko'payishi natijasida sotilgan mahsulot rentabelligi darjasasi 0,57 bandga oshdi. Sof tushumni 497827 ming so'mga oshishi esa sotish rentabelligi

### 14.6-jadval

**Sotilgan mahsulot rentabellik darajasini (sof foyda bo'yicha)  
o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli orqali  
aniqlash hisob-kitobi**

Hisobni tartib soni	tartib Almashtirishni soni	Hisob tarkibiga formulasi kiruvchi omillar		Umumlashgan ko'rsatkich – Sotilgan mahsulotni rentabellik darajasi (sof foyda bo'yicha), %	Oldingi hisobga nisbatan farq (+.-)	O'zgarish sabablari
		Sof foyda	Mahsulot sotishdan tushgan sof tushum			
A	V	1	2	3(1x100:2)	4	5
1	-	455	726803	0.06	-	
2	1	4552	726803	0.63	+0.57	Sof foydani ko'payishi
3	2	4552	1224630	0.37	-0.26	Sof tushumni ko'payishi

Omillar balansi: +0,31

darajasi 0,26 bandga ko'paytirdi. Sof tushumni ko'payishi o'z navbatida sotish rentabelligi darajasini oshirishi kerak edi.

Shunday qilib, yuqorida hisoblangan ikkita omilning ta'siri;  $(+0,57)+(-0,26) = +0,31\%$ . Bu foiz esa sotish rentabelligida bo'lgan farqga to'g'ri keladi.

**Korxonaning asosiy faoliyatining rentabellik darjasи.** Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun mahsulotni sotishdan tushgan yalpi foyda hajmini sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga bo'linadi.

Tahlil uchun quyidagi jadvalni keltiramiz (14.7-jadval).

14.7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, asosiy faoliyati rentabelligi hisobot yili oxiri yil boshiga nisbatan 2,3 % ga kamaydi. Bu o'zgarishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

### 14.7-jadval

#### **Korxonaning asosiy faoliyati rentabellik darajasi va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish**

(ming so'm)

Ko'rsatkichlar	Hisobot yili boshi	Hisobot yili oxiri	O'zgarishi (+,-)
Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda	198521	319369	+12 0848
Sotilgan mahsulotlarni tannarxi	528282	905261	+37 6979
Asosiy faoliyat rentabelligi (1x100:2), %	37,58	35,28	-2,3

1. Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda hajmini o'zgarishi.
  2. Sotilgan mahsulotlarni tannarxini o'zgarishi.
- Ushbu omillarni ta'sirini zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlaymiz (14.8-jadval).

### 14.8-jadval

#### **Asosiy faoliyat rentabeligi darajasini o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlash hisob-kitobi**

Hisobni tartib soni	Almashtirishni tartib soni	Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omillar		Umumlashgan ko'rsatkich —Asosiy faoliyat rentabelligi	Oldingi hisobga nisbatan farq (+.-)	O'zgarish sabablari
		Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda	Sotilgan mahsulotlarni tannarxi			
A	V	1	2	3(1x100:2)	4	5
1	-	198521	528282	37,58	-	
2	1	319369	528282	60,45	+22,87	Oshgan
3	2	319369	905261	35,28	-25,17	Oshgan

Omillar balansi: -2.3

14.8-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda hajmining hisobot yili oxiri boshiga nisbatan 120848 ming so'mga ko'payishi natijasida asosiy faoliyat rentabelligi darajasi 22,87 bandga oshdi. Sotilgan mahsulotlarni tannarxini o'zgarishi 376979 ming so'mga oshishi natijasida esa asosiy faoliyat rentabellik darajasi 25,17 bandga kamaydi.

Shunday qilib, yuqorida hisoblangan ikkita omilning ta'siri;  $(+22,87)+(-25,17) = -2,3\%$  Bu foiz esa asosiy faoliyat rentabelligida bo'lgan farqga to'g'ri keladi.

Biz yuqorida metodologik asos sifatida fakat mulk rentabelligi, sotish rentabelligi va asosiy faoliyat rentabelligi darajasining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisob-kitobini havola etdik. Bunday hisob-kitoblar boshqa rentabellik ko'rsatkichlarining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashida ham qo'llanilishi mumkin.

### **Qisqa xulosalar**

Ushbu bobni o'rganish natijasida talabalar bozor iqtisodiyoti sharoitida rentabellik ko'rsatkichlarining yangi tizimini, ularni aniqlash va tahlil qilish yo'llarini hamda ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish evaziga ichki imkoniyatlarni axtarib topish orqali tahlil qilinayotgan korxona faoliyatining samaradorligini oshirish yo'llarini bilishlari kerak.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1.Rentabellik ko'rsatkichlarni tahlil qilishning maqsadi, mazmuni, vazifalari va axborot manbalari.

2.Rentabellik ko'rsatkichlari tizimi va ularni aniqlash usullari.

3.Jami aktivlar rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

4.Joriy aktivlar rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

5.Sotilgan mahsulot rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlili.

6.Asosiy faoliyat rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlili.

7.Moddiy aylanma mablag'lar rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

8.Asosiy kapital rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

9.Real asosiy kapital rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

10.O'z (xususiy) kapital rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

11.Qarzga olingan kapital rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

12.Sarmoyalangan kapital rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

### **Asosiy adabiyotlar**

1.Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебник. –М.: Инфра-М, 2009.

2.Артёменко В.Г. Останов В.В. Анализ финансовой отчетности. Учебное пособие. –М.: Омега-Л, 2009.

3.Малибор Т.А. Комплексный анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятия. Учебное пособие. –М.: Владос, 2007.

4.Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil.O'quv qo'llanma. -Т.: Mehnat, 2004.

5.Акрамов Э.А. Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили. Ўқув қўлланма. – Т.: Молия, 2003.

6.www.cer.uz- (Центр экономического исследования).

7.www.pravo.eastink.uz- (Сборник экономических законодательств).

## **XV BOB.DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINING TAHLILI**

15.1.Iqtisodiyot sub'yektlarini debtorlik va kreditorlik qarzlarini tahlil qilishning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari.

15.2.Debitorlik va kreditorlik qarzlari umumiylajmi tahlili.

15.3.Debitorlik qarzlarini tahlili. Debitorlik qarzlarini aylanuvchanligini tahlili.

15.4.Kreditorlik qarzlarini tahlil qilish. Kreditorlik qarzlarini aylanuvchanligini tahlili.

15.5. Bozor faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlarining tahlili.

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar**

Debitorlik va kreditorlik majburiyatları haqidagi ma'lumotnoma; debtor qarzlar; kreditor qarzlar; debtorlik va kreditorlik majburiyatlarini aylanish koeffisienti; debtorlik va kreditorlik majburiyatlarini aylanish kuniga ta'sir qiluvchi omillar; korxonaning ishlab chiqarish vositalari va xom ashyo bozoridagi faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar; mehnat bozoridagi faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar; iste'mol bozoridagi faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar; moliya bozoridagi faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

### **15.1.Iqtisodiyot sub'yektlarini debtorlik va kreditorlik qarzlarini tahlil qilishning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari**

Korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilishda debtorlik va kreditorlik qarzlarni tahlil etishga alohida e'tibor qaratish lozimdir. Hozirgi sharoitda faoliyat ko'rsatish uchun zarur shart - moliyaviy hisob-kitob intizomiga qat'iy rioya qilishdir. Tovarlar va xizmatlar uchun barcha hisob-kitoblar ikki tomon tasdiqlagan shartnomaga muvofiq belgilangan mudatda bajarilishi shart. Hozirgi kunda ilgari shakllangan korxonalararo iqtisodiy aloqalar tarqalib ketdi. Bu aloqalarni yangi shart-sharoitlarda yangichasiga tubdan o'zgartirib shallantirish zaruriyati paydo bo'ldi. Natijada, korxonalararo aloqalar murakkablashdi va debtorlik-kreditorlik qarzlar ko'paya boshladи, ishlab chiqarishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muammoga aylandi. Ko'pgina korxonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yomonlashuvi omillaridan biri – katta summadagi muddati o'tgan debtorlik va kreditorlik qarzlarning to'planib qolishi bo'lib qoldi.

Buxgalteriya hisobida «debitor» atamasi muayyan korxonadan qarzdor bo'lgan shaxsni anglatadi. «Kreditor» atamasi esa muayyan

korxonani qarzdor qilgan shaxsni bildiradi. Ikki tomonlama shartnoma majburiyatlarida bir korxonaning o'zi ham debtor, ham kreditor bo'lisi mumkin.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini hosil bo'lisi bilan bog'liq moliyaviy ahvolning yomonlashuvi davlatning moliyaviy holatida ham aks etadi, chunki bularning bari byudjet to'lovlarining kelib tushmasligi, tovar aylanishi hajmining kamayishi, kassa rejasining bajarilmasliliga olib keladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini tahlil qilishda quyidagilarni amalga oshirish kerak bo'ladi:

- yil boshiga va yil oxiirga bo'lgan debtorlik va kreditorlik qarzlarni aniqlash;
- ularning yil boshidagi va bir necha yildagi o'zgaruvchan farqini hisoblab chiqish;
- debtorlik va kreditorlik qarzlarni tuzilmasini aniqlash;
- 2a-shakl «Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotnomma ma'lumotlari bo'yicha muddati o'tgan debtorlik qarzlari ulushini, shuningdek respublika hududidan tashqarida ayrim davlatlar bo'yicha yuzaga kelishini aniqlash;
- ularni yuzaga kelish vaqtini va sabablarini aniqlash, ularni undirish va to'lov choralarini ko'rish;
- debtorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirsh bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish.

Muddati o'tgan debtorlik va kreditorlik qarzlarni oldini olish bevosita davlat nazaridagi va e'tiboridagi masala hisoblandi. Negaki, korxonalar va tashkilotlar o'rtasida bo'ladigan o'zaro munosabatlarda majburiyatlarni tartiblash asosida davlat naqd pul muomalasini boshqarish va iqtisodiy tadbirlar rejdasini tuzib chiqish uchun chora-tadbirlar belgilanadi.

Tahlil etishda korxonalarni muayyan davrga bo'lgan o'zaro debtorlik va kreditorlik majburiyatlarining holatiga, tarkibiga, tashkil topish muddatlariga, yuzaga kelish sabablariga, debtorlik va kreditorlik majburiyatlarining oqlanuvchanliliga, ular bo'yicha dargumon qarzlarning yuzaga chiqishiga baho beriladi.

Iqtisodchi olimlar A.Vahabov va A.Ibrohimovlarning<sup>23</sup>: «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» darsligida debtorlik va kreditorlik majburiyatlari tahlili maqsadiga quyidagicha ta'rif berilgan: «tahlil etishning asosiy

<sup>23</sup> Vahabov A.V., Ibrohimov A.T. «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». –T: Sharq. 2005. 46 6.

maqsadi - debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining aylanish davrini tezlashtirish asosida korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash borasida chora-tadbirlar belgilashdan iborat».

Debitorlik va kreditorlik majburiyatları tarkibi korxonalarining qanday tashkilotlar bilan bozor sharoitida aloqa qilayotganligiga ham bog'liqdir.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari bevosita korxona bilan qarshi tomon o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblardan kelib chiqadigan majburiyatlardir. Bu majburiyatlar korxona bilan mol etkazib beruvchilar yoki xaridorlar o'rtasidagi munosabatlarda, korxona bilan bank tashkilotlar o'rtasida, korxona bilan soliq organlari o'rtasidagi, korxona bilan ijtimoiy ta'minot bo'limlari, shuningdek xodimlar, mulk egalari, aksionerlar va investorlar bilan bo'ladigan munosabatlarda yuzaga keladi. Ularni yuzaga kelishini asosiy sababi hisob-kitoblarda. YA'ni bugun ortilgan mahsulot ham puli to'langunga qadar, debitorlik va kreditorlik majburiyatlar qatoriga kiritiladi. Bunda daromad va xarajatlarning yuzaga chiqishi bilan ular bo'yicha hisob-kitoblarning amalga oshishi orasida farqlanish kelib chiqadi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining yuzaga kelishi bo'yicha quyidagi sabab qatorlarini tarkiblash mumkin:

- o'zaro hisob-kitoblarda tomonlarning to'lov layoqatiga ega emasligi;
- tovarlarni ortib jo'natish va sotishda hisob-kitoblarning zamonaviy shakllarining cheklanganligi;
- mulk va unga egalik qilishda mas'ullik hissining yo'qligi;
- o'zaro shartnomaviy munosabatlarning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;
- daromadlarni tan olish yuzasidan korxonalar tarmoq xususiyatidan kelib chiqilmaganligi;
- xarajatlar tarkibiga kiruvchi ish va xizmatlarni hisobga olishda qat'iy hujjatlashtirish mezonlarining yo'qigi;
- xodimlar va kapital egalari bilan korxona o'rtasidagi munosabatlarda qat'iy shartlarning yo'qligi;
- kredit tashkilotlari bilan mijoz o'rtasida bo'ladigan munosabatlarda korxonalar faoliyatini baholashning uslubiy asoslari-dagi kamchiliklar;
- sug'urta tashkilotlari bilan korxonalar o'rtasidagi munosabatlarda qat'iy davlat qonunchilik mexanizmining mavjud emasligi va h.k. sabablarni kiritish mumkin.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlar bo'yicha hisobot, ma'lumotnoma har oyning 1-sanasiga tuziladi va tegishli tashkilotlarga topshiriladi.

Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar korxona balansi (1-shakl) hamda debitorlik va kreditorlik majburiyatları to'g'risidagi ma'lumotnomadan (2a-shakl) olinadi. Ushbu shaklda aks etgan ko'rsatkichlar to'lov qobiliyati, moliyaviy intizomga rioya qilinganlik va boshqa tashkilotlar bilan iqtisodiy aloqalarning holatiga baho berish uchun asosiy manbadir. Shuningdek, tahlil manbasi sifatida buxgalteriya hisobining analitik schyotlari ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Bundan tashqari debitorlik va kreditorlik qarzlari korxona balansi, ya'ni har chorakda tuziladigan korxona aktivlari, kapitali va majburiyatları holati to'g'risidagi hisobotda ham aks etadi.

## **15.2.Debitorlik va kreditorlik qarzlari umumiyligi hajmini tahlili**

Korxonalarga iqtisodiy erkinlik berilishi tufayli ko'pchilik ularning ish faoliyatini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun to'g'ridan-to'g'ri respublikadagi va xorijiy firma va kompaniyalar bilan aloqa qilmoqdalar. Lekin shuni eslatib o'tish kerakki, hisob-kitoblar o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi bois ko'pchilik sanoat korxonalarida va firmalarda debitorlik va kreditorlik qarzlari o'sib bormoqda.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarni o'rganish debitorlik qarzi qoida tariqasida, pul va moddiy mablag'lar amalda chiqib ketishi hisobiga paydo bo'lishini, ularning kamayishi esa pul va moddiy mablag'lar qaytib kelishi yoki qayta baholanishi natijasi bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Kreditorlik qarzi tashqaridan mablag'lar kelishi (mahsulot etkazib berilishi, sho'ba va uyushmagan kirgan korxonalarga qarzlar) hamda xo'jalik faoliyati jarayonida qarz paydo bo'lib, uning yozilishi natijasida vujudga keladi. Masalan, byudjetga qarzlar soliqlar yozish natijasida, mehnatga haq to'lash qarzlari – ish haqi yozish natijasida paydo bo'ladi va hokazo. Bu qarzlar ushbu korxonada hosil qilingan qo'shimcha qiymat hisobiga yoki uning qayta taqsimlanishi hisobiga vujudga keladi. Kreditorlik qarzining ushbu guruhi bo'yicha qarz xo'jalik faoliyati jarayonida yozilganida paydo bo'ladi, qarzlar olingan daromadlar hisobiga to'lanadi. Korxona rahbarlari qarzni yozish davrining qisqarishiga va u korxona daromadlari hisobidan to'lanishlariga erishishlari kerak.

Korxonalarni moliyaviy holatiga baho berishda debitorlik va kreditorlik qarzlari balansini tuzish muhim o'rinni egallaydi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari balansini ular orasidagi o'zaro tenglik nisbatini

xarakterlaydi. Bunda debitorlik majburiyatlarining kreditorlik majburiyatlaridan ortib ketishi yoki aksincha holatlari ifodalanadi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari balansi ma'lumotlaridan ularning tarkibini o'rganish korxonalarning qanday turli xil tashkilotlar bilan iqtisodiy aloqadaligi, tomonlarning o'zaro to'lov shartnomalarini bajarishga munosabati va qarzlar miqdorini tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, debitor va kreditor majburiyatlar tarkibida dargumon qarzlarning borligi, undirilishi murakkab bo'lgan debitorlarning paydo bo'lishi, korxonalarning moliyaviy ahvolini pasaytirishga olib keladi. Bunday holat kreditor qarzlarni o'z vaqtida uzishni qiyinlashtiradi. Natijada debitor va kreditorlik tashkilotlarning soni ortadi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari balansini tahlilini quyidagi jadvalda keltiramiz, (15.1-jadval).

### 15.1-jadval

#### **Korxona debitorlik va kreditorlik qarzlari umumiyligi holatini tahlili**

Debitorlik qarzlari	Summa (ming so'm)	Kreditorlik qarzlari	Summa (ming so'm)
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitob	68571799	Mol etkazib beruvchilarga qarz	6142
Sho'ba va qaram jamiyatlarning qarzlari	-	Sho'ba va qaram jamiyatlarning qarzlari	
Mol etkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar	36797	Soliqlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar va majburiy to'lovlar	47125609
Byudjetga soliq va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovleri	1621	Byudjet bo'yicha qarzlar	102667
Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovleri	2172	Maqsadli davlat fondiga to'lov qarzlari	138571
Boshqa debitorlik qarzlari	31917371	Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlar	530882
Jami	100529763	Boshqa kreditorlik qarzlari	277417
BALANS	1000529763	Olingan bo'naklar	2164011
		Jami	50345299
		Debitorlik qarzlarining kreditorlik qarzlaridan ortiqchaligi	50184464
		BALANS	1000529763

15.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, korxonada hisobot yili oxirida debitorlik majburiyatları va kreditorlik majburiyatlariga nisbatan 50184464 ming so'mga ko'p bo'lgan. Debitorlik majburiyatları tarkibida xaridor va buyurtmachilardan bo'lgan qarz 68571799 ming so'mni, boshqa debitorlik qarzlari 68571799 ming so'mni tashkil qilgan.

Kreditorlik qarzlari tarkibida asosiy o'rinni soliqlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar va majburiy to'lovlar 47125609 ming so'mni, olingan bo'naklar esa 2164011 ming so'mni tashkil qilgan.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatları tengligi 1000529763 ming so'mni tashkil qilgan. Shundan sof debitorlik qarzlari summasi 50184464 ming so'mdan iborat bo'ldi.

Demak, korxona boshqaruva ma'muriyati debitorlik qarzlari hajmini kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishlari lozim.

### **15.3.Debitorlik qarzlarini tahlili. Debitorlik qarzlarini aylanuvchanligini tahlili**

Me'yoriy iqtisodiy sharoitda debitorlik va kreditorlik qarzlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga, korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilashga yordam beradigan zarur hodisadir. Lekin mikroiqtisodiyotda debitorlik va kreditorlik qarzlari me'yordan ortib ketib, muddatidan kechiktrilsa, iqtisodiyotning mikro va makro darajalarida jiddiy halokat sifatida bir qator korxonalarning likvidsilligi, to'lov qobiliyatsizligini keltirib chiqaradi. Bular esa, o'z navbatida korxonalarni bankrot bo'lishiga olib keladi, davlat byudjetiga darmad tushishini, kamaytiradi, iqtisodiyotning barqaror taraqqiyotiga ta'sir etadi.

Debitorlik qarzi – korxonaning aylanmasidan chiqib qolgan va boshqa jismoniy hamda yuridik shaxslarda turgan mablag'lari. Korxonani o'z mablag'lari yoki boshqa korxonalarning mablag'lari bu qarzlarni qoplash manbai bo'lib xizmat qiladi<sup>24</sup>.

Debitorlik qarzi aylanma aktivlarning bir qismi bo'lib, «Aylanma aktivlar» degan balans aktivining 2-bo'limida ko'rsatiladi.

Debitorlik qarzlarining yuzaga kelishi mablag'larni korxona muomalasidan chiqaradi, uning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, o'z aylanma mablag'larining etishmasliliga sabab bo'ladi, natijada esa kreditor va mahsulot beruvchilardan qarzdorlik ortadi. Bu esa to'lovsizlikka olib kelishi mumkin. Debitorlik qarzlari korxonalarning

<sup>24</sup> Pardaev M.Q., Isroilov B.I. "Iqtisodiy tahlil". -T.: "Mehnat". 2004. 418 6.

naqd pulga va moddiy aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini chegaralaydi. Bu ehtiyojlarni qoplash uchun korxonalar tashqi mablag'larni safarbar etishga majbur bo'ladilar. Debitorlik qarzlarning ko'payib borishi korxona aylanma mablag'larining aylanishini sekinlashtiradi, demak, moliyaviy holatini og'irlashtiradi.

Debitorlik qarzlari tahlil etilganda ular hajmining o'zgarishi – dinamikasi va o'zaro nisbati aniqlanadi. Bu qarzlarning dinamikasi aniqlanganda ham debitorlik, ham kreditorlik qarzlar bo'yicha muhlatli va muhlati o'tgan qarzlar alohida tahlil etiladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari o'rtasidagi nisbat hal xil, ularning hajmi esa bir xil bo'lishi mumkin. Debitorlik qarzlar kreditorlik qarzlaridan, kreditorlik qarzlar esa debitorlik qarzlardan ko'p bo'lishi mumkin.

Debitorlik majburiyatları tarkibi deganda uning yuzaga chiqish qatorlari yoki o'rni tushuniladi. Xaridor va buyurtmachilarga bo'lgan debitorlik majburiyatları, xodimlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha debitorlik majburiyatları va hokazo.

Shuningdek, debitorlik va kreditorlik majburiyatları tarkibida muddati o'tgan majburiyatları to'g'rsidagi ma'lumotnomada alohida qatorlanadi. Ularning respublika ichkarisidagi korxonalar va respublika tashqarisidagi korxonalar o'rtasida muddati o'tgan majburiyatlarga ajratish mumkin. Muddati o'tkazib yuborilgan majburiyatlar korxona moliyaviy holatini og'irlashtiruvchi asosiy sabab omili sifatida olinadi va muhim e'tibor beriladi.

Debitorilk qarzlarining tahlili ularning yil boshiga va yil oxiridagi summasi hamda tuzilmasini qiyoslash, bir yillik farqini aniqlashdan boshlanadi. Tahlil uchun quyidagi 15.2-jadvalni keltiramiz.

15.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, korxonada debitorlik qarzlarining hajmi hisobot yili oxirida 100529763 ming so'mni tashkil qilib, 47198345 ming so'mga oshgan yoki uning o'sish sur'ati 188,5 % dan iborat bo'ldi.

Debitorlik qarzining tuzilmasida ham o'zgarishlar ro'y berdi. Debitorlik qarzlari tarkibida hisobot yili boshida boshqa debitorlik qarzining ulushi 61,30 %ni, xaridor va buyurtmachilarning qarzi 38,65 % ni tashkil qildi. Korxonada hisobot yili oxirida debitorlik qarzlari tarkibida xaridor va buyurtmachilarning qarzi 68,21 %ni egallagan holda, mutloq summada 47958709 ming so'mga oshdi. Boshqa debitorlik qarzlari hisobot yili oxirida 31917371 ming so'mni tashkil qilgan holda, uning

## 15.2-jadval

### **Korxonaning debitor qarzlari summasi va tuzilmasini o'zgarishini tahlili**

Ko'rsatkichlar	Yil boshida		Yil oxirida		Farq (+,-)	
	Summa, m.s.	Salmog'i %	Summa, m.s.	Salmog'i %	Summa, m.s.	Salmo- g'i %
<b>Debitorlar</b>						
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitob	20613090	38,65	68571799	68.21	+47958709	+29.56
Mol etkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar	21393	0.04	36797	0.04	+15404	-
Byudjetga soliq va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovleri	1449	0.003	1621	0.002	+172	-0.001
Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovleri	2175	0.004	2175	0.002	-	-0.002
Boshqa debtorlik qarzlari	32693311	61.30	31917371	31.75	-775940	-29.55
Jami	53331418	100	100529763	100	+47198345	-
Muddati o'tgani	2977408	-	204414	-	-2772994	-

salmog'i 31,75 % dan iborat bo'ldi. Debitorlik majburiyatlari tarkibida qolgan ko'rsatkichlarning salmog'i sezilarli darajada bo'lmadi.

Korxonada muddati o'tgan debtorlik majburiyatlari hajmi hisobot yili boshida 2977408 ming so'mni, oxirida esa 204414 ming so'mni tashkil qilgan holda 2772994 ming so'mga kamaydi.

Debitorlik majburiyatlari yoki qarzlari tahlilida ularning aylanuvchanligiga alohida e'tibor beriladi. Negaki debtorlik va kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik darajasi korxona faoliyatiga baho berishning muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Iqtisodchi olimlar A.Vahabov va A.Ibrohimovlarning<sup>25</sup> darsligida: «Debitorlik majburiyalarining aylanuvchanligi deganda, qarz majburiyatlarining undirib olish muddati va ularning aylanish koefisienti

<sup>25</sup> Vahabov A.V., Ibrohimov A.T. «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». –T: Sharq. 2005. 56 6.

tushuniladi. Bu bevosita bugungi yuzaga kelgan majburiyatning necha kundan keyin naqd pulga aylanish darajasini xarakterlaydi» deb aytilgan.

Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligini sotishdan olingan sof tushumni debitorlik majburiyatlarining mavjud summasiga bo'lish asosida aniqlanadi.

Debitorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrining kelendarъ kuniga ko'paytrish va sotishdan olingan sof tushum summasiga bo'lish asosida debitorlik qarzlarining aylanish kuni aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichlarning hisob-kitobini 15.3-jadvalda keltiramiz.

### **15.3-jadval**

#### **Korxonaning debitorlik qarzlarining aylanuvchanligini tahlili**

Ko'rsatkichlar	Hisobot boshi	davri	Hisobot oxiri	davri	Farqi (+.-)
1.Debitorlik qarzlari	53331418			100529763	+47198345
2.Mahsulot sotishdan olingan sof tushum	457340100			613071300	+155731200
3.Aylanma aktivlar	56766442			103586466	+46820024
4.Muddati o'tgan debitorlik qarzlari	2977408			204414	-2772994
5.Debitorlik qarzlarining aylanish koeffisienti (2 : 1)	8,57			6,10	-2,47
6.Debitorlik qarzlarining aylanish davri, kunda (1x360:2)	41,98			59,03	+17.05
7.Aylanma aktivlar tarkibida debitorlik qarzlari, % (1:3x100)	93,95			97,05	+3,1
8.Muddati o'tgan debitorlik qarzlari ulushi, % (4:1x100)	5,58			0,20	-5,38

15.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, korxonada debitorlik majburiyatlarining hajmi hisobot davri boshiga nisbatan 47198345 ming so'mga oshgan. Mahsulot lar sotishdan olingan sof tushum hajmi esa hisobot yili oxirida 613071300 ming so'mni tashkil qilib, 155731200 ming so'mga oshgan. Debitorlik qarzlarining undirilish davri esa hisobot davri boshiga nisbatan 17,05 kunga oshgan. Ya'ni, debitorlik qarzlarining undirib olinishi bir qadar sekinlashgan. Bu holat bevosita debitorlik qarzlari va mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum

summasining oshishi hisobiga ro'y bergan. Hisobot davrida debtorlik majburiyatlarining jami aylanma aktivlardagi salmog'i o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,1 % ga oshgan. Korxonada muddati o'tgan debtorlik qarzlarining debtorlik majburiyatlardagi ulushi hisobot yili boshi 5,58 % ni, oxirida esa 0,20 % ni tashkil qilgan.

Debtorlik qarzlarining aylanishiga ikkita omil ta'sir ko'rsatdi:

1.Debtorlik qarzlari hajmi.

2.Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi.

Ushbu omillarni ta'sirini zanjirlialmashtirish usuli bilan aniqlaymiz, (15.4-jadval).

#### **15.4-jadval**

#### **Debtorlik qarzlarining aylanish davri o'zgarishini hisob-kitobi**

Hisobni tar-tib soni	Almashtirish-ni tar-tib soni	Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omillar		Umumlashgan ko'rsatkich – Debtorlik qarzlarining aylanish davri (1x360:2)	Oldingi hisobga nisbatan farq (+.-)	O'zgarish sabablari
		Debtorlik qarzlarining hajmi	Mahsulot sotishdan oligan sof tushum			
A	V	1	2	3	4	5
1	-	53331418	457340100	41,98	-	
2	1	100529763	457340100	79,13	+37,15	Debtorlik qarzlari hajmi shgan
3	2	100529763	613071300	59,03	-20,1	Sof tushum hajmi shgan

Omillar balansi: +17,05

15.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, debtorlik qarzlariig aylanish kuni 17,05 kunga sekinlashgan. Bu o'zgarish quyidagi omillar ta'sirida bo'lган:

1.Debtorlik qarzlari hajmining 47198345 ming so'mga oshishi natijasida debtorlik qarzlarinig aylanish kuni 37,15 kunga ko'paygan.

2.Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmining 155731200 ming so'mga oshishi debtorlik qarzlarining aylanish kunini 20,1 kunga kamaytirgan.

Shunday qilib, barcha omillar ta'siri natijaning umumiyl farqiga teng:  $(+37,15) - (-20,1) = +17,05$  kun.

Korxonaning debitorlik qarzlarini tahlili natijalaridan ko'rinib turibdiki, korxonada hisobot yilda muddati o'tgan debitorlik majburiyatlari bo'lган. Shu boisdan, ishda korxonada muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini oldini olish maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

- o'zaro shartnomaviy munosabatlarda tomonlarning mas'ulligi va ularning shartlariga qat'iy amal etish;
- dargumon qarzlar bo'yicha rezervlar tashkil qilish mexanizmini ishlab chiqish;
- muddati o'tkazib yuborilgan har qanday to'lovlar summasi bo'yicha huquqiy javobgarlik shartini belgilash.

Ushbu amaliy tavsiyalarni korxona faoliyatiga tadbiq etilishi natijasida, uning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga hamda iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini oshirishga erishish mumkin.

#### **15.4.Kreditorlik qarzlarini tahlil qilish. Kreditorlik qarzlarini aylanuvchanligini tahlili**

Barcha korxona va tashkilotlarning bozorda faoliyat ko'rsatishida zarur shart- hisob kitob va moliyaviy intizomga qat'iy rioya qilishdir. Tovarlar va xizmatlar bo'yicha barcha hisob-kitoblar har ikki tomon tasdiqlagan shartnomalarga muvofiq belgilangan muddatlarda bajarilishi shart. Majburiyatlarning buzilishi korxonalarda ishlab chiqarishda uzilishlarga olib keladi, to'lovlarни amalga oshirmsaslik zanjiriga hamda debitorlik va kreditorlik qarzlarning ko'payishiga, ularning moliyaviy ahvolini yomonlashuviga olib keladi.

Iqtisodchi olim A.I.Ginzburgning<sup>26</sup> asarlarida quyidagicha ta'rif berilgan: «Kreditorlik qarzi – boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan vaqtincha jalb etilgan mablag'lardir. Ulardan shu korxonaning aylanmasida vaqtincha foydalaniladi. Ularni to'lash muddati kelganda bu mablag'lar aylanma mablag'lar summasidan olib berilishi kerak».

Kreditorlik qarzlar – «boshqa korxonalar hisobidan faoliyat ko'rsatish» desa ham bo'ladi. Chunki ko'p korxonalar mablag'larga bo'lgan ehtiyojini qoplash uchun bank kreditlaridan emas, balki kreditorlik qarzlaridan foydalanadilar.

---

<sup>26</sup>Ginzburg A.I. «Ekonomicheskiy analiz». –Spb.: Piter. 2009. 364 b.

Kreditorlik qarzi qaytarilganda majburiyatlar summasi kamayadi. SHuningdek, aylanma mablag'lar, ya'ni pul mablag'lari, tovar-moddiy boyliklar ham kamayadi. Bunday holatda buxgalteriya balansining yakuniy summasi kamayadi, qarz korxonaning mablag'lari hisobidan uziladi.

Kreditorlik qarzi qisqa muddatli qarzning bir qismi bo'lib, u «Majburiyatlar» balans passivining 2-bo'limida ko'rsatiladi.

Kreditorlik majburiyatlarining to'lash muddatlari bo'yicha quyidagi tarkibga bo'lish mumkin:

- to'lash muddati kelgan majburiyatlar;
- to'lash muddati o'tgan majburiyatlar.

Kalendar muddatiga ko'ra qarzlarni to'lash davrida quyidagicha bo'linadi:

- 1 oygacha bo'lган majburiyatlar;
- 1 oydan 1 oygacha bo'lган majburiyatlar;
- 3 oydan 6 oygacha bo'lган majburiyatlar;
- 6 oydan 1 yilgacha bo'lган majburiyatlar;
- 1 yildan ortiq muddatga bo'lган majburiyatlar.

Kreditorlik qarzlarni uzishda korxonalar muddati o'tgan majburiyatlarni, so'ngra muddati kelgan to'lovlarni amalga oshirgani maqsadga muvofiq. Tomonlar o'rtasida shartnomaviy majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmaganligi uchun iqtisodiy sanksiyalarni joriy etilganligi va jarimlar undirilishi mablag'larning noo'rin sarflanishiga sabab bo'ladi. Muddati o'tgan kreditorlik qarzlari bo'limganligi ham moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi muhim omildir. Kreditorlik qarzlarni ham 90 kun ichida qaytarilganligi korxona uchun ijobjiy hol hisoblanadi.

Endi **korxona** amaliy ma'lumotlarini qo'llagan holda, kreditorlik qarzlari summasi va tuzilmasini o'zgarishini quyidagi jadvalda ko'rib chiqamiz, (15.6-jadval).

15.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha **korxonada** kreditorlik majburiyatları hajmi 37582093 ming so'mga oshgan yoki uning o'sish sur'ati 3,9 marta oshgan.

Kreditorlik qarzlarining tuzilmasida ham o'zgarishlar bo'lgan. Uning tarkibida hisobot davrida sho''ba va qaram jamiyatlar qarzining salmog'i 82,44; 93,60 % ni tashkil qilgan holda, yil boshiga nisbatan 36603818 ming so'mga oshgan.

Korxonada kreditorlik qarzlari tarkibida olingan bo'naklarlar salmog'i yil boshida 10,72 % ni, yil oxiriga kelib 4,29 % ni tashkil qilgan holda, 796233 ming so'mga oshdi. Byudjet bo'yicha qarzlar hisobot yili

## 15.6-jadval

### Korxona bo'yicha kreditorlik qarzlari summasi va tuzilmasining o'zgarishini tahlili

Ko'rsatkich	Yil boshida		Yil oxirida		Farq (+,-)	
	Summa	Sal-mog'i	Summa	Sal-mog'i	Summa	Sal-mog'i
<b>Kreditorlar</b>						
Mol etkazib beruvchi beruvchilar va pudratchilarga qarz	88433	0,69	6142	0,01	-82291	-0.68
SHo''ba va qaram jamiyatlarning qarzlari	10521791	82,44	47125609	93,60	+36603818	+11,16
Olingan bo'naklar	1367778	10,72	2164011	4,29	+796233	-6,43
Byudjet bo'yicha qarzlar	109392	0,86	102667	0,20	-6725	-0,66
Maqsadli davlat fondiga to'lov qarzlari	95283	0,75	138571	0,27		-0,48
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlar	480424	3,76	530882	1,05	+50458	-2,71
Boshqa kreditorlik qarzlari	100105	0,78	277417	0,55	+177312	-0,23
Ja'mi	12763206	100	50345299	100	+37582093	-
Muddati o'tkazib yuborilgan	-	-	-	-	-	-

oxirida 102667 ming so'mni tashkil qilib, uning salmog'i 0,20 % dan iborat bo'ldi. Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlar hisobot yili oxiri yil boshiga nisbatan 50458 ming so'mga oshgan holda uning debtorlik qarzlari tarkibidagi ulushi 1,05 % ni tashkil qildi.

Kreditorlik qarzlarining holatiga ularning aylanish darajalarni o'rGANISH asosida baho berish uchun 15.7-jadvalni keltiramiz.

15.7-jadvaldan ko'rinishicha, tahlil qilinayotgan korxonada kreditorlik majburiyatları hisobot yili oxirida yil boshiga nisbatan 37582093 ming so'mga oshgan. Sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi esa hisobot yili boshida 4573401 ming so'mni, yil oxirida esa 6130713 ming so'mni tashkil qilib, 1557312 ming so'mga oshgan.

Kreditorlik qarzlarining oshganligi sababli uning aylanish tezligi 0,24 koeffisientga kamaygan. Kreditorlik qarzlarining aylanish davri 1,95 kunga oshgan. Bundan ko'rinib turibdiki, kreditorlik qarzlarinig uzish muddati oshib borgan. Ayniqsa, tahlil yillarda korxonada muddati o'tgan kreditorlik qarzlarining yo'qligi e'tiborga loyiqdır.

## 15.7-jadval

### Korxona bo'yicha kreditorlik qarzlarining aylanishini tahlili

Ko'rsatkichlar	Hisobot davri boshi	Hisobot davri oxiri	Farqi (+.-)
1.Kreditorlik qarzlari	127632	5034	+375
06	5299	82093	
2.Sotilgan mahsulotlar (ish, xizmatlar) ning ishlab chiqarish tannarxi	457340	6130	+155
1	713	7312	
3.Majburiyatlar	127632	5034	+375
06	5299	82093	
4.Kreditorlik qarzlarining muddati o'tgani	-	-	-
5.Kreditorlik qarzlarining aylanish koeffisienti (2 : 1)	0.36	0.12	-0.24
6.Kreditorlik qarzlarining aylanish davri, kunda (1x360:2)	1,01	2.96	+1.95
7.Majburiyatlar tarkibida kreditorlik qarzlari ulushi, % (1:3x100)	100	100	-
8.Muddati o'tgan kreditorlik qarzlarining jami kreditorlik qarzlari tarkibidagi salmog'i, % (4:1x100)	-	-	-

Kreditorlik qarzlarining jami majburiyatlar tarkibidagi salmog'ini hisobot davrida 100 % ni tashkil qilganligi korxonani bankning uzoq va qisqa muddatli kreditlaridan foydalanmayotganligidan dalolat beradi.

Bankning kreditidan foydalanmaslikni korxona uchun ijobjiy hamda salbiy tomonlari bor. Ijobjiy qirrasi qarz so'ramasdan zarur aylanma mablag'larga ega bo'lib, faoliyat ko'rsatish va foizlar to'lamasdan pul tushumiga ega bo'lishlik sanalsa, salbiy tomoni qo'shimcha mablag'lar jalb qilib, o'z faoliyatini yanada kengaytirgan holda foyda olishni ko'paytirishga o'rghanmoqlik bozor iqtisodiyoti talablaridan biridir.

Endi, 15.7-jadval ma'lumotlariga asoslangan holda, korxonada kreditorlik qarzlarining aylanishiga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodiy tahlilning an'anaviy usullaridan biri – zanjirli almashtirish usuli orqali aniqlaymiz, (15.8-jadval).

15.8-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, kreditorlik qarzlarining aylanish davri 1,95 kunga oshgan. Bu o'zgarishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan:

## 15.8-jadval

### Kreditorlik qarzlarining aylanish davri o'zgarishini tahlili

Hisobni tartib soni	Almashtirishni tartib soni	Hisob formulasi tarkibiga kiruvchi omillar		Umumlashgan ko'rsatkich – Kreditorlik qarzlarining aylanish davri (1x360:2)	Oldingi hisobga nisbatan farq (+,-)	O'zgarish sabablari
		Kreditorlik qarzlarining hajmi	Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi			
A	V	1	2	3	4	5
1	-	12763206	4573401	1.01	-	
2	1	50345299	4573401	3.96	+2.95	Kreditorlik qarzlari hajmi oshgan
3	2	50345299	4573401	2.96	-1	Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi hajmi oshgan

Omillar balansi: +1,95

1.Kreditorlik majburiyatlari hajmining 37582093 ming so'mga oshishi natijasida kreditorlik qarzlarining aylanish kuni 2.95 kunga oshgan.

2.Sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxining 1557312 ming so'mga oshishi, kreditorlik qarzlarining aylanish kunini 1 kunga kamaytirgan.

Shunday qilib, hisoblangan ikkita omilning ta'siri natijaning umumiyligi o'zgarishiga teng:

$$(2.95) - (-1) = +1,95 \text{ kun.}$$

Korxonada debtorlik va kreditorlik qarzlarining ahvolini yaxshilash bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

- zarur mahsulotni etkazib berish va xarid qilish shartnomalarini o'z vaqtida, to'g'ri tuzish;
- hisob-kitob to'lov hujjalarni o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirish;
- mahsulot etkazib berish va sotishni vaqtida hisob-kitob qilib borish;
- mahsulot etkazib beruvchilar va xaridor korxonalarining moliyaviy ahvolini o'rganish;

- mahsulot hajmini oshirish va sifatini yaxshilash;
- mahsulot etkazib beruvchilar va xaridorlar bilan o’z vaqtida hisob-kitob qilish;
- korxona buxgalterlari, iqtisodchilari va moliya xodimlarining malakasini muntazam oshirib borish;
- korxonaning moliyaviy ahvolini o’z vaqtida tahlil qilish hamda ularning natijalarini menejerga taqdim etish.

Har bir korxona rahbari debitorlik va kreditorlik qarzlari holati faqat shu korxonanig emas, balki unga hamkor bo’lgan va umuman butun respublika iqtisodiyotining moliyaviy ahvoliga ta’sir ko’rsatadigan asosiy omillardan biri ekanligini doimo esda tutishlari lozim. Demak, korxonada debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish, ularning tarkibini takomillashtirish va shu yo’l bilan uning iqtisodiy va moliyaviy holatini yaxshilash korxona kun tartibiga qo’ylgan asosiy masalalardan biridir.

### **15.5. Bozor faolligini ifodalovchi ko’rsatkichlarining tahlili**

Har bir korxona bozor tizimi sharoitida uning sub’yekti hisoblanadi. Uning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyati esa Shu bozor tizimidagi o’rni va faolligiga bogliqdir. Bu borada quydagи masalalar ko’rib chiqiladi:

- Korxonaning bozor tizimidagi o’rni.
- Korxonaning ishlab chiqarish vositalari bozoridagi faolligini ifodalovchi ko’rsatkichlar va ularni aniqlash yo’llari.
- Korxonaning xom ashyo bozoridagi faolligini ifodalovchi ko’rsatkichlar va ularni aniqlash yo’llari.
- Korxonaning mehnat bozoridagi faolligini ifodalovchi ko’rsatkichlar va ularni aniqlash yo’llari
- Korxonaning iste’mol bozoridagi faolligini ifodalovchi ko’rsatkichlarni aniqlash va tahlil qiliSh yo’llari.
- Korxonaning moliya bozoridagi faolligini ifodalovchi ko’rsatkichlar va ularni aniqlash yo’llari.

1.Korxonaning bozor tizimidagi faoliyati uning ishlab chiqarish vositalari bozor, xom ashyo bozori, mehnat bozori, moliya bozori va iste’mol bozoridagi o’rni va faolligiga bog’liqdir. Shuningdek korxonaning iqtisodiy mustaqilligi, moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligi, uning bozordagi faolligiga va bozor tizimidagi o’rniga bog’liq bo’lib, bu jarayonlar korxona ishlab chiqargan tovarining sifati va narxida namoyon bo’ladi.

2.Korxonaning ishlab chiqarish vositalari bozoridagi faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, ishlab chiqarish vositalarini (IB) xarid qilish darajasi (Xd.iv) hisoblanadi. U quyidagi formula asosida aniqlanadi.

XKiv

$$Xd.iv = \frac{\text{XK}}{\text{XK}}$$

Bunda :

XK.iv - xarid qilingan ishlab chiqarish vositalarining haqiqiy miqdori;

XK - biznes-rejada (loyixada, dasturda) ko'zda tutilgan ishlab chiqarish vositalarining miqdorri.

Masalan, tahlil o'tkazilayotgan korxona bozorga mos tovarlar ishlab chiqarish maqsadida o'z faoliyatini qayta rekonstruksiya qilish dasturiga muvofiq ilg'or texnologiyani joriy qilish uchun 20 ta dastgox sotib olish rejalashtirilgan. Haqiqatda esa korxona ishlab chiqarish bozoridan tahlil davrida 17 ta dastgoh sotib olgan. Bu xolda zarur ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish darajasi 85% ni ( $17/20 * 100 = 85\%$ ) tashkil qiladi. Demak, ushbu korxonaning ishlab chiqarish vositalari bozoridagi faolligi uncha yuqori emas. Bu ko'rsatkich odatda 100%ga teng bo'lishi kerak.

3.Korxonaning xom ashyo (XA) bozoridagi faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Xom ashyo bilan ta'minlanish darajasi (XAtd) hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun haqiqiy xarid qilingan xom ashyo miqdori xom ashyoning biznes-rejadagi yoki loyixadagi miqdoriga bo'linadi.
- Xom ashyoning sifatlilik darajasi (XA sd) hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun loyixada ko'zda tutilgan navdagi xom ashyoning haqiqiy miqdori biznes-rejada ko'zda tutilgan xom ashyoning ushbu nav bo'yicha miqdoriga bo'linadi.

Tahlil qilinayotgan korxonaning ko'zda tutilgan dasturi bo'yicha o'z faoliyatini muntazam davom ettirib turishi uchun hisobot davrida 120 ming tonna oliy navli xom ashyo xarid qilishi kerak edi.

Haqiqatda korxona xom ashyo bozorida 130 ming tonna xarid qildi. shu jumladan, oliy nav bilan 45 ming tonna, I nav bilan 25 ming tonna va II nav bilan 10 ming tonna. Bu holda korxonaning xom ashyo bilan ta'minlanish darajasi 108,3% ni tashkil qildi.

$$XAtd = \frac{130 \times 100}{120} = 108,3\%$$

Xom ashyaning sifatlilik darajasi 79,2% ni tashkil qiladi.

$$XAtd = \frac{95}{120} \times 100 = 79,2\%$$

4.Korxonaning mehnat bozoridagi faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi.

- Ish joyining (shtatlarning) ta'minlaSh darajasi (SH.td). Bu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi:

$$SHtd = \frac{X}{X};$$

- Malakali mutaxassis xodimlar (MMX) bilan ta'minlanish darajasi (MX.td). Bu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi.

$$MXtd = \frac{MX}{X};$$

- Mamlakat mutaxassis xodimlarning tarkibiy tuzilishi (MXtt). Bu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi.

$$MXtt = \frac{MX}{X};$$

- Mehnat bozoridan qabul qilingan xodimlar uluShi (MBxu). Bu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi.

$$MBxu = \frac{MBx}{X} \times 100;$$

Bunda:

X - ishlayotgan xodimlar soni haqiqatda;  
X - ishlayotgan xodimlar soni biznes-reja bo'yicha;  
X – xodimlar soni Shtat jadvali bo'yicha;  
MX - ishlayotgan malakali xodimlar biznes-rejada;  
MX – ishlayotgan malakali xodimlar haqiqatda;  
MB – mehnat bozoridan qabul qilingan xodimlar soni.

5.Korxonaning iste'mol bozoridagi faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi

- Ishlab chiqariladigan mahsulot (ICHM) hajmining sotilishi bo'yicha shartnoma (Mm) bilan ta'minlanish darajasi (MSht). Bu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi.

MSh

$$MSht = \frac{\text{MSh}}{ICHM} ;$$

- Sotilgan mahsulotning (SM) ishlab chiqariladigan mahsulotdagi hissasi (SMx). Bu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi.

SM

$$SMx = \frac{\text{SM}}{ICHM} ;$$

- Ishlab chikariladigan mahsulotning bozor talabidagi (BT) hissasi (ICHMx). Bu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi.

ICHM

$$ICHMx = \frac{\text{ICHM}}{BT} ;$$

- Bozor talabining aholi ehtiyojidagi (AE) hissasi (BTx). Bu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi.

BT

$$BTx = \frac{\text{BT}}{AE} ;$$

- Sotilgan mahsulotning aholii extiyojidagi hissasi. (SM aeh) Bu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi.

SM

$$SMAex = \frac{\text{SM}}{AE} ;$$

- Korxonaning moliyaviy bozordagi faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lib quyidagilar hisoblanadi.

**1.Aksianing daromadligi.** Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun imtiyozli aksiyalar dividendi qiymatini oddiy aksianing umumiy qiymatiga bo'linadi.

**2.Aksianing qimmatliligi.** Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun aksianing bozor bahosini aksianing daromadliligiga bo'linadi.

**3.Aksianing rentabelligi.** Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun bitta aksiya dividenti 100 ga ko'paytirib aksianing bozor bahosiga bo'linadi.

**4.Dividendlilik darjasи.** Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun bitta aksianing dividendi aksianing daromadliligiga bo'linadi.

**5.Aksiyani baholash (kotirovkalash) koeffisienti.** Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun aksiyaning bozor bahosini aksiyaning hisob bahosiga bo'linadi.

### **Qisqa xulosalar**

Ushbu bobni o'rganish natijasida talabalar debitorlik va kreditorlik qarzlarini o'rganishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari; debitorlik va kreditorlik qarzlarini balansini tuzish; debitorlik va kreditorlik qarzlarining umumiy hajmi, tarkibi va vujudga kelish muddati buyicha tahlili; debitorlik va kreditorlik karzlarining aylanuvchanligini tahlili; debitorlik va kreditorlik karzlarini kamaytirish yullari; korxonaning bozor tizimidagi o'rni; korxonaning iShlab chiqariSh vositalari bozoridagi faolligi; korxonaning xom aShyo bozoridagi faolligi; korxonaning mehnat bozoridagi faolligi; korxonalaning iste'mol bozoridagi faolligi; korxonaning moliya bozoridagi faolligi kabi masalalarni bilishlari lozim.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

- 1.Debitorlik va kreditorlik qarzlarini tahlil qilishning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari nimalardan iborat?
- 2.Debitor qarzlari tarkibi qanday tahlil qilinadi?
- 3.Debitorlik qarzlarini aylanishi koeffisienti qanday aniqlanadi?
- 4.Debitorlik qarzlarini aylanish kuniga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
- 5.Kreditor qarzlarini tarkibi qanday tahlil qilinadi?
- 6.Kreditor qarzlarini aylanish koeffisienti va aylanish kuni qanday aniqlanadi?
- 7.Debitor va kreditor qarzlarini kamaytirish omillari nimada?
- 8.Korxonaning iShlabi chiqariSh vositalari bozordagi faolligini ifodolovchi ko'rsatkichlar.
- 9.Korxonaning xom aShyo bozoridagi faolligini ifodolovchi ko'rsatkichlar.
- 10.Korxonaning mehnat bozoridagi faolligini ifodolovchi ko'rsatkichlar.
- 11.Korxonaning iste'mol bozoridagi faolligini ifodolovchi ko'rsatkichlar.
- 12.Korxonaning moliya bozoridagi faolligini ifodolovchi ko'rsatkichlar.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

- 1.Олишневская Н. Экономический анализ. Учебное пособие. – М.: Аст.Полиграфиздат, 2010.
- 2.Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности. Учебник. –М.: Инфра-М. 2009.
3. Васильева Л.С. Финансовый анализ. Учебник. –М.: Кнорус. 2008.
- 4.Ваҳабов А.В., Иброҳимов А.Т. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Дарслик.–Т.: Шарқ, 2005.
- 5.Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil.O'quv qo'llanma. -Т.: Mehnat, 2004.
- 6.Акрамов Э.А. Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили. Ўкув қўлланма. – Т.: Молия. 2003.
- 7.www.uz- (Национальная Информационная агентство).
- 8.www.cer.uz- (Центр экономического исследования).

## **XVI BOB.IQTISODIYOT SUB'EKTALARINING ASOSIY VOSITA (FOND)LAR BILAN TA'MINLANGANLIGI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING TAHLILI**

16.1. Iqtisodiyot sub'ektlarini asosiy vositalar bilan ta'minlanganligini o'rghanishning ahamiyati, mazmuni va vazifalari.

16.2. Asosiy fondlarning tarkibi, tuzilishi va harakatinu tahlili.

16.3. Asosiy fondlarning texnik holati va harakat ko'rsatkichlarinini tahlili.

16.4. Asosiy fondlardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining tahlili.

16.5. Ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan vaqt va quvvat bo'yicha foydalanishni tahlil qilish.

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar**

Asosiy vositalar; asosiy vositalarning dastlabki qiymati; asosiy vositalarning eskirish koeffisienti; asosiy vositalarning yangilanish koeffisienti; asosiy vositalarning harakati; asosiy vositalarning chiqib ketishi; asosiy fondlarning yaroqlilik koeffisienti; asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik va qurollanganlik; asosiy vositalardan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar; fond samarasi va fond sig'imi ko'rsatkichi; o'rnatilgan asbob-uskunalar, harakatdagi asbob-uskunalar, asbob-uskunalardan ekstensiv va intensiv foydalanish koeffisientlari; asbob-uskunalarining smenalik ishlash koeffisienti, asbob-uskunalarini bo'sh turib qolishi.

### **16.1. Iqtisodiyot sub'ektlarini asosiy vositalar bilan ta'minlanganligini o'rghanishning ahamiyati, mazmuni va vazifalari**

Korxonalar faoliyat yuritishlari uchun ma'lum miqdorda asosiy vositalarga ega bo'ladilar. Asosiy vositalar deb, korxonada ko'p yil foydalilanidigan mehnat qurollari: ya'ni binolar, inshootlar, mashinalar va asbob-uskuna kabilarga aytildi. Ular milliy boylikning asosiy qismini tashkil etadi. Asosiy vositalar foydalanish jarayonida eskiradi va unung qiymati asta-sekinlik bilan ishlab chiqarilayotgan mahsuslot (ish, xizmat) tannarxiga o'tkaziladi. Shuning uchun ham asosiy vositalar dastlabki (qayta tiklash) va qoldiq qiymatlarda baholanadi.

Asosiy vositalar tahlilida korxonaning asosiy vositalar bilan qurollanish darajasiga, ularning texnik holati va harakat ko'rsatkichlariga, samaradorlik ko'rsatkichlariga va holatiga baho beriladi.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanish deyilganda, korxonaning biznes-rejasiga yoki o'tgan yillarga nisbatan asosiy fondlar bilan qurollanish darajasi tushuniladi. Korxonalarda asosiy vositalarning miqdorining etarli bo'lishi va holati faoliyat natijalariga juda qatta ta'sir qiladi.

Shuningdek, tahlil qilishda asosiy vositalarning tarkibi va turi bo'yicha o'zgarishlariga baho beriladi, ularning holat va harakat ko'rsatkichlariga muhim e'tibor qaratiladi, ularning korxonaning umumiy mablag'lardagi xissasi hisoblanadi.

Asosiy fondlarning unumini o'rganish asosida mahsulot ishlab chiqarishda ularning samaradorlik ko'rsatkichlariga baho beriladi. Asosiy vositalardan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlarni omilli tahlil qilish asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmini yoki fondlar samarasini oshirish yuzasidan ichki ho'jalik imkoniyatlari mavjudligi aniqlanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyot sub'ektlarini asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanishni o'rganishda tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- korxonaning asosiy vositalarshni umumiy hajmini aniqlash va unga baho berish;
- asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va harakatinu o'zgarishlariga baho berish;
- korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik holatini yaxshilash bo'yicha mavjad imkoniyatlarni aniqlash va unga baho berish;
- asosiy vositalarning tehnik holati, harakat ko'rsatichlarini o'rganish va baho berish;
- asosiy vositalardan samarali foydalanganlik darajalariga baho berish;
- ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan samarali foydalanishni tahlil qilish;
- asosiy vositalar samaradorligini oshirish bo'yicha ichki ho'jalik imkonoyatlarini aniqlash va hokazo.

Korxonaning asosiy vositalarini tahlil qilishda asosiy axborot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- biznes-reja ma'lumotlari;
- «Buxgalteriya balansi» (shakl № 1);
- «Moliyaviy natijalar to'grisida hisobot» (shakl №2);
- «Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot» (shakl №3);

Asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblashda analitik hisob ma'lumotlaridan ham foydalanish mumkin.

## **16.2. Asosiy fondlarning tarkibi, tuzilishi va harakatinu tahlili**

Mahsulot hajmining ko'pashiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri korxonalarni asosiy fondlar bilan etarli darajada ta'minlanishidir.

Sanoat mahsulotini va mehnat unumdoorligini beto'xtov o'sishiga ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, harakatdagi asbob-uskunalar va dastgohlarni zamonaviyashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini kiritish va ishlab chiqarish jarayonlarini to'la mexanizasiyalashtirish va avtomatlashtirish orqali erishiladi.

Mamlakatimizda 2010 yilda xo'jalik sub'yektlari tasarrufida qoldirilgan 500 millard so'mdan ortiq mablag'i ularni aylanma mablag'larini to'ldirish, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va boshqa maqsadlarga yo'naltirildi. Bular o'z navbatida iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat ko'rsatdi.

Ma'lumki, asosiy fondlar uzoq vaqt xizmat qiladi, ishlab chiqarish jarayonida o'zining natura shaklini saqlab qoladi va kapital mablag'lar hisobiga to'ldirilib boradi. Yangidan barpo qilingan davlat korxonalarining asosiy fondlarini shakllantirishning manbai asosan byudjet mablag'idi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab turgan korxonalar dastgohlar va boshqa mehnat vositalari sotib oladilar, yangi ishlab chiqarish ob'ektlari quradilar. Buni esa, korxonalar ishlab topgan o'z mablag'ları hisobidan, bank krediti yordamida bajaradilar. Bundan tashqari amortizasiya ajratmalari asosiy fondlarni sotib olish, ularni kapital va joriy remont qilish uchun mablag'larning muhim manbaidir.

Yirik va tobora ko'p kapital mablag'lar sarflash natijasida xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarining asosiy ishlab chiqarish fondlari jadal ko'payib bormoqda.

Jamiyat ulardan juda ham oqilona foydalanishdan g'oyat manfaatdorligi tabiiydir. Chunki bu fondlarni samarali ishlatish ko'p jihatdan butun ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini belgilaydi. Ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash ishlab chiqarish vositalariga sarflangan har bir so'm hisobidan mahsulotni eng ko'p miqdorda oladigan qilib xo'jalik yuritish demakdir.

Korxonalarning asosiy fondlari ishlab chiqarishdagi o'z ahamiyatiga qarab uch turkumga bo'linadi:

- sanoat ishlab chiqarish fondlari;

- boshqa tarmoqlarning sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlari;
- noishlab chiqarish asosiy fondlari.

Asosiy fondlarning mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan roli bir xil emas. Shuning uchun ular ikki qismga bo'linadi:

- 1) aktiv (faol) asosiy fondlar;
- 2) passiv (nofaol) asosiy fondlar.

Aktiv (faol) asosiy fondlarga kuch beradigan mashinalar va asbob-uskunalar, ish mashinalari, o'tkazgich jihozlar, o'lchash va tartibga solish asboblari kiradi. Passiv (nofaol) qismiga esa binolar, inshootlar va transport vositalari kiradi. Asosiy fondlarning aktiv (faol) qismi ishlab chiqarish asbob-uskunalar deb atalib, ular mehnat vositalari sifatida mahsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashadilar. Asosiy fondlarning passiv (nofaol) qismi esa mahsulot iShlab chiqarishda bevosita qatnashmasa ham ishlab chiqarish jarayonini uzlusiz olib borish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun asosiy fondlarning aktiv (faol) qismining salmog'i qancha ko'p bo'lsa, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyati ham shuncha ko'p bo'ladi. Bugungi kunda eng ilg'or sanoat korxonalarida asosiy fondlarning aktiv (faol) qismining salmog'i 65 foizni tashkil qiladi. Asosiy fondlarning aktiv (faol) qismining oshirish yo'llari quyidagilar:

- 1) ishlab chiqarish jarayonlarini to'la mexanizasiyalashtirish va avtomatlashtirish darajasini oshirish;
- 2) ishlab chiqarish maydonidan oqilona foydalanish;
- 3) bino va inshootlarni qurishda qurilish-montaj ishlari tannarxini kamaytirish va hokazolar.

Asosiy fondlarning tarkibi, tuzilishi va harakatini tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 3-sonli "Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot" shaklidan olinadi.

16.1-jadvaldan ko'rinishicha, joriy yili jami sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining qiymati o'tgan yilga nisbatan 183 ming so'mga yoki 0,5 foizga oshdi.

Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining o'sishi asosan ularning passiv qismining, ya'ni bino va inshootlar qiymatining 113 ming so'mga ortishi va ishlab chiqarish asbob-uskunalar (aktiv qismi) qiymatining 68 ming so'mga ko'payishiga hisobiga ta'minlandi. Fikrimizcha, asosiy fondlarning aktiv qismining passiv qismiga nisbatan past sur'atlar bilan

## 16.1-jadval

### Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining tarkibi va harakatini tahlil qilish

Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlari	O'tgan yili		Hisobot yili		O'tgan yilga nisbatan o'zgarishi (+,-)	
	So'mma, m.s.	Salmog'i % hisob.	So'mma, m.s.	Salmog'i % hisob.	So'mma, m.s.	Salmog'i % hisob.
1.Bino va inshootlar	18900	49,35	19013	49,41	+113	+0,06
2.Ishlan chiqarish asbob-uskunalar	19200	50,13	19268	50,07	+68	-0,06
3.Boshqa asosiy fondlar	200	0,52	202	0,52	+2	-
Jami	38300	100	38483	100	+183	-

o'sishga qaraganda tahlil qilinayotgan korxonada texnika taraqqiyoti sust darajada olib borilyapti degan, xulosaga keliShimiz mumkin. Binobarin, fonddan olinadigan samarani oshirish harakatdagi korxonalarini texnika jihatdan qayta qurollantiriSh va qayta uskunalashni tezkorlik bilan amalga oshirish hamda ishlab chiqarishga yangi texnikani kiritish birinchi galdagi vazifa bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun asosiy fondlarning aktiv qismining o'sish sur'ati passiv qismining o'sish sur'atiga nisbatan ustun darajada bo'lshi kerak. Tahlil qilinayotgan korxonada esa asosiy fondlarning aktiv va passiv qismlarining o'sish sur'atlari mos raviShda 100,35 foizni ( $19268 \times 100 : 19200$ ); 100,60 foizni ( $19013 \times 100 : 18900$ ) taShkil etdi. Agar, yuqorida aytilgandek ilg'or sanoat korxonalarida asosiy fondlarning aktiv qismining salmog'i 65 foizni tashkil qilishni hisobga olsak, u holda tahlil qilinayotgan korxonada uning salmog'i faqat 50 foizga teng bo'ldi. Demak, korxona kelgusida asosiy fondlarni yangilaSh borasida tub o'zgarishlar qilish lozim. Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlari qiymatini asos yilidan boshlab o'sib borish sur'atini ham tahlil qilish kerak.

Buning uchun quyidagi 16.2-jadvalni havola qilamiz.

16.2-jadvaldan ko'rinishicha, tahlil qilinayotgan korxona asosiy fondlarining qiymati uchinchi yili baza (asos) qilib olingan yilga nisbatan 483 ming so'mga yoki 101,27 foizga ( $483 \times 100 : 38000$ ) ortdi.

## 16.2-jadval

Ko'rsatkichlar	Asos yili	Yillar			Asos yili boshidan boshlab
		1-yil	2-yil	3-yil	
Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlari	38000	38150	38300	38483	-
Haqiqatda o'sish sur'ati, % hisobida	100	100,40	100,39	100,48	101,27

Endi zanjirli usulini qo'llasak ham aynan ushbu natija hosil bo'ladi, ya'ni 101,27 foizni aniqlash uchun asosiy fondlarning yillik qo'shimcha o'sish sur'atlarini bir-biriga ko'paytirilib, so'ngra chiqqan natija yana yuzga ko'paytiriladi  $(1,004 \times 1,0039 \times 1,0048) \times 100 = 101,27$  foiz yoki 483 ming so'm.

Asosiy fondlarning mutlaq o'sishini aniqlash bilan birga resurslarni nisbiy iqtisod qilingan yoki ortiqcha xarajat qilishga yo'l qo'yilgan miqdorini ham hisoblash kerak. Buning uchun sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining baza (asos) yilidagi qiymati tovar mahsuloti hajmining besh yillik boshidan boshlab o'rtacha yillik o'sish sur'atiga ko'paytirilib, so'ngra hisoblangan miqdor besh yillikning yillaridagi sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining miqdori bilan taqqoslanadi. Bizning misolimizda asosiy fondlarni nisbiy iqtisod qilish 1759 ming so'mni taShkil etdi.  $(38000 \times 1,059 - 38483) = -1759$  ming so'm. Demak, tovar mahsuloti hajmining o'rtacha yillik o'sish sur'atini hisobga olganda korxonaning asosiy fondlari  $(38000 \times 1,059) = 40242$  ming so'mni taShkil qiliShi kerak edi, haqiqatda esa ularning qiymati besh yillikning uchinchi yili 38483 ming so'mni tashkil etdi. Bu esa korxonaning asosiy fondlardan samarali foydalanish borasidagi yutug'idir.

### 16.3. Asosiy fondlarning texnik holati va harakat ko'rsatkichlarinini tahlili

Asosiy fondlar uzlusiz foydalanishda bo'ladilar. Shu sababli asosiy fondlarning bir qismi eskiradi, ishdan chiqadi, boshqalari esa foydalanishga joriy etiladi. Binobarin, asosiy fondlarning texnik holati tovar mahsuloti ishlab chiqarish rejasining bajarilishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Asosiy fondlarning texnik holati qoniqarli darajada bo'lsa, bu o'z navbatida asbob-uskunalar va dastgohlarning bekor turib qoliShiga, ayrim vaqtarda esa avariyalarga (halokatga) olib kelishi ehtimoldan holi emas. Shuning uchun asosiy fondlar texnik jihatdan yaxshi sozlangan holatda bo'lishi lozim. Asosiy fondlarni texnik jihatdan

qoniqarli darajada uShlab turish joriy va kapital remont (ta'mirlash) orqali amalga oshiriladi.

Asosiy fondlarning texnik holatini belgilovchi umumiy ko'rsatkichlardan biri ularning eskirish koeffisientidir. Asosiy fondlarning eskirish koeffisienti aniqlash uchun asosiy fondlarning eskirish so'mmasini (balans aktivining 1-bo'limi) ularning boShlang'ich qiymatiga (balans aktivining 1-bo'limi) bo'linadi. Odatda, asosiy fondlarning eskirish koeffisiientining kamayishi ularning texnik holatini yaxShilanganligidan dalolat beradi. Asosiy fondlardan uzlucksiz ravishda foydalanish natijasida ularning eskirish darajasi oshib boradi. Shuning uchun asosiy fondlarni yangilaSh kerak. Asosiy fondlarni yangilash koeffisientini aniqlash uchun yangi kelgan asosiy fondlar so'mmasini asosiy fondlarning yil oxiriga bo'lган qiymatiga bo'liSh kerak. Asosiy fondlarni chiqib ketiShi koeffisientini hisoblash uchun esa chiqib ketgan asosiy fondlar so'mmasini ularning yil oxiriga bo'lган qiymatiga bo'lish kerak.

Asosiy fondlarni ishga yaroqlilik koeffisientini ham aniqlash mumkin. Uni aniqlash uchun birdan eskirish koeffisenti ayrıladı.

Asosiy fondlarning texnik holatini har tomonlama va chuqr tahlil qilish uchun asosiy fondlarning qo'shimcha o'sish hamda chiqib ketishining o'rmini qoplash (kompensasiya) koeffisientlari ham aniqlanadi. Asosiy fondlarning qo'shimcha o'siSh koeffisientini aniqlash uchun yangidan kelgan va chiqib ketgan asosiy fondlarning nisbatidan chiqqan qoldig'ini yangi kelgan asosiy fondlarning miqdoriga bo'liSh kerak. Asosiy fondlarning chiqib ketgan qiymatini o'rmini qoplash koeffisienti chiqib ketgan va yangidan kelgan asosiy fondlarning nisbati orqali aniqlanadi.

Ma'lumki, alohida olingan asosiy fondlar ishlab chiqarish jarayonida har xil ish bajaradi va ular xizmat qilish muddati bo'yicha bir-birlaridan katta farq qiladilar. Shuning uchun yuqoridagi qayd qilingan ko'rsatkichlarni nafaqat asosiy fondlarning jami miqdori bo'yicha, balki ularning aktiv va passiv qismlari hamda alohida turlari bo'yicha ham aniqlash kerak. Asosiy fondlarning yangilash, chiqib ketish, qo'shimcha o'sish va o'rinni qoplash ko'rsatkichlari bir-birlari bilan uzviy ravishda bog'langanlar. Bu bog'liqlikni ko'rsatiSsh uchun quyidagi 16.3-jadvalni havola qilamiz. Tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 3-sonli "Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot" shaklidan olinadi.

### 16.3-jadval

## **Asosiy fondlarning yangilash, chiqib ketish, qo'shimcha o'sish va chiqib ketishning o'rnini qoplash ko'rsatkichlarini tahlil qilish**

Ko'rsat-kichlar	Yil boshiga bo'lgan mavjudligi	Hisobot yilida tushishi (ming so'm)		Chiqib keti shi-jami (ming so'm)	Yil oxiriga bo'lga n mavju dligi	Asosiy fondlarning xarakat koeffisientlari (%) hisobida)				
		jamii	jumladan yangi asosiy fondlar			yangilash 2 us:5 us x 100	jumladan yangi asos.fond.	chiqib ketishi 4us:1us x 100	chiqib ketishining o'mini qoplash 4 us:2us x 100	qo'shimcha o'sishi 2us-4us:2us
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Jami asosiy fondlar	39248	2561	1779	1034	40775	6,3	4,4	2,6	40,4	59,6
Jumladan: sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlari	37267	2557	1775	1028	38796	6,6	4,6	2,8	40,2	59,8
Undan: mashina va asbob-uskunalar	17929	1365	1363	830	18464	7,4	7,4	4,6	60,8	39,2
Boshqa tarmoqlar ning ishlab chiqarish asosiy vositalari	204	4	4	6	202	2,0	2,0	2,9	150,0	
Nosanoat ishlab chiqarish asosiy fondlari	1777	-	-	-	1777	-	-	-	-	-

16.3-jadvaldan ko'rinishicha, tahlil qilinayotgan korxonada asosiy fondlarning harakatini ifodalovchi ko'rsatkichlar darajasini yuqori deb bo'lmaydi. Bu o'rinda, jami asosiy fondlarni yangilash faqat 6,3 foizni, jumladan yangi mehnat vositalarini keltirish 4,4 foizni tashkil qildi. Bu o'rinda asosiy fondlarning aktiv qismi bo'l mish mashina va asbob-uskunalarni yangilash jarayoni biroz ustun darajada ketayotganligi

ta'kidlash mumkin. Asosiy fondlarni texnik jihatdan yangilash darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar chiqib ketgan asosiy fondlarning o'mini qoplash va ularning qo'shimcha o'sish koeffisientlari orqali aniqlanadi. Agar ushbu koeffisientlar birdan yoki 100 foizdan oshsa, u holda asosiy fondlarni yangilash intensiv (jadal) tarzda olib borilyapti degan xulosa chiqarishimiz mumkin va aksichna, agar koeffisientlar birdan (100 foizdan) kam bo'lsa, unda asosiy fondlarni yangilash jarayoni ekstensiv raviShda olib borilayotganini bildiradi. Bizning misolimizda chiqib ketgan asosiy fondlarining o'rmini qoplash koeffisientining eng yuqori darajasi sanoat ishlab chiqariSh asosiy fondlarining faol qismiga mansub bo'lib 59,8 foizni tashkil etdi. Asosiy fondlarning eskirish koeffisienti bilan ishga yaroqlilik koeffisienti o'rtasida o'zaro bog'lanish mavjud. Bu bog'laniShni yaqqol ko'rish uchun quyidagi 16.4-jadvalni havola qilamiz.

#### **16.4-jadval**

#### **Asosiy fondlarning eskirish va yaroqlilik darajasini tahlil qilish**

No	Ko'rsatkichlar	O'l-chov birligi	Yil boshiga	Yil oxiriga	O'zgariishi (+,-)
1.	Asosiy fondlarning boshlang'ich qiymati	m.s	39248	40775	+1527
2.	Asosiy fondlarning eskirish so'mmasi	m.s.	9317	11008	+1691
3.	Asosiy fondlarning qoldiq qiymati, (1-qator 2-qator)	m.s.	29931	29767	-164
4.	Asosiy fondlarning eskirishg koeffisienti, (2-qat. 1 qator x100)	%.	23,7	27,0	+3,3
5.	Asosiy fondlarning yaroqlilik koeffisienti , (3-qator : 1-qator x 100)	%	76,3	73,0	-3,3

16.4-jadvalda berilgan raqamlardan ko'rinishicha, asosiy fondlarning qariyb chorak qismi amortizasiyalashtirilgan, ya'ni asosiy fondlarning eskirgan qismining qiymati amortizasiya ajratmasi sifatida tarkib topgan. Asosiy fondlarning yaroqlilik koeffisienti etarli darajada. Binobarin, bu o'z navbatida korxonaga mahsulot ishlab chiqarish rejasini muvaffaqiyatli bajariqh uchun imkoniyat yaratadi. Va nihoyat, asosiy fondlarning texnik darajasini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biri asbob-uskunalarining xizmat qilish yoshi (davri) hisoblanadi. Bu ko'rsatkichni aniqlash asbob-uskunalar va dastgohlarning ishslash qobiliyati, ularni almashtirish hamda pirovard natijada fond samarasini oshirishga imkoniyat yaratadi. Tahlil qilish uchun harakatdagи asbob-uskunalar ma'lum turlari bo'yicha turkumlanilib, so'ngra ularning haqiqatda xizmat qilgan davri normativ

bo'yicha xizmat qilish muddati bilan taqqoslanadi. Odatda, asbob-uskunalar 10 yilgacha bo'lgan davrda almashtirilsa texnika taraqqiyoti talablariga javob bera oladi deb hisoblaniladi.

Asbob-uskunalarning xizmat qiliSh davri quyidagicha tavsiflanadi: 5 yilgacha; 5 yildan 10 yilgacha; 10-yildan 20 yilgacha va 20 yildan yuqori. Tahlil qiliShda asbob-uskunalarning o'rtacha xizmat qiliSh yoshi (davri) ham aniqlanadi. Uni aniqlash uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz.

### **16.5-jadval**

Ko'rsatkichlar	Xizmat qilish davri				
	5 yilgacha	5 yildan 10 yilgacha	10 yildan 20 yilgacha	20 yildan yuqori	Jami
Jami asbob-uskunalar	3280	3100	3600	4000	13980
Jamiga nisbatan foiz hisobida	23,5	22,2	25,8	28,6	100

16.5-jadvalda berilgan raqamlardan foydalanib, xarakatdagi asbob-uskunalarning o'rtacha xizmat qilish davrini aniqlaymiz. Buni hisoblash uchun oddiy o'rtacha arifmetik usulni qo'llaymiz, ya'ni

$$\frac{0+5}{2} = 2,5 \text{ yil}; \quad \frac{5+10}{2} = 7,5 \text{ yil}; \quad \frac{10+20}{2} = 15 \text{ yil};$$

20 yildan yuqorisi 20 yil. Shundan so'ng asbob-uskunalarning o'rtacha xizmat qilish davrini aniqlanadi, ya'ni:  $(2,5 \times 0,235 + 7,5 \times 0,222 + 15,0 \times 0,258 + 20 \times 0,286) = 11,8$  yil. Shunday qilib asbob-uskunalarning o'rtacha xizmat qilish davri ko'rsatkichi asbob-uskunalar parkining texnik darajasini hamda ularning ma'naviy eskirishini ifodalaydi.

### **16.4. Asosiy fondlardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining tahlili**

Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxona mavjud asosiy vositalardan samarali foydalanish lozim. Shuning uchun ham korxonalar asosiy vositalarning holati va foydalanish samaradorligini tahlil qilishi zarur.

Mahsulot ishlab chiqarish dasturining muvaffaqiyatli bajarish nafaqat asosiy fondlarning tarkibi, tuzilishi, texnik holati, balki ulardan samarali foydalanishga ko'p jihatdan bog'liq. Asosiy fondlardan foydalanishning umumlashtiruvchi ko'rsatkichi bo'lib fonddan olinadigan samara hisoblanadi. U asosiy ishlab chiqarish fondlarining bir so'mi yoki ming so'mi hisobiga bir yil ichida qancha mahsulot chiqarilganligini ko'rsatadi.

Masalan, korxonaning yillik mahsuloti 100 million so'mni tashkil etsin, asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati esa 50 million so'm deylik. Bunday holda fonddan olinadigan samara 2 so'mga teng bo'ladi. Demak, fond samarasi ko'rsatkichini aniqlash uchun tovar mahsuloti yoki sof tushum hajmini asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatiga bo'linadi. Buni quyidagi formula orqali ifoda qilish mumkin:

$$Fs = \frac{TM}{A_f};$$

Bu yerda: Fs – fonddan olinadigan samara;  
 TM – tovar mahsuloti hajmi;  
 Af – asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati.

Fond samarasi ko'rsatkichi jami asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymatiga va alohida ularning aktiv qismining qiymatiga nisbatan aniqlanadi. Fond samarsi ko'rsatkichining aksi fond sig'imi ko'rsatkichi bo'lib, u asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatini tovar mahsuloti hajmiga nisbati tariqasida aniqlanadi. Fond samarasi ko'rsatkichini tahlil qilish uchun kerakli ma'lumotlar yillik hisobotning 1-P "Korxona (birlashma)ning mahsulot ishlab chiqarish to'g'risida yillik hisoboti", 3-sonli "Asosiy vositalarning harakati haqidagi hisobot" shakllaridan olinadi. Tahlil uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz (16.6-jadval).

16.6-jadvaldan ko'rinishicha, hisobot davrida jami sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlaridan foydalanish yaxshilandi, ya'ni joriy yili fonddan olinadigan samara o'tgan yilga nisbatan 111 so'm 50 tiyinga oshdi. Bunga mashina va asbob-uskunalarning jami asosiy fondlar tarkibida tutgan salmog'inining 0,018 bandga kamayishi natijasida fonddan olinadigan samara 90 so'mga kam bo'ldi, ya'ni (-0,018 x 5010,7) mashina va asbob-uskunalardan olinadigan samaraning 410 so'm 20 tiyinga ortishi jami asosiy fondlardan olinadigan samarani 200 so'mga oshishiga olib keldi, ya'ni (410,2 x 0,486). Shunday qilib, bu ikki omilning yig'indisi (( -90 ) + (+200 ))=110 so'mni tashkil etdi. Bu so'mma taxminan jami asosiy fondlardan olingan samaradagi farq - 111 so'm 50 tiyinga to'g'ri keladi. Hisobot davrida tovar mahsuloti hajmi o'tgan yilga nisbatan 101540 ming so'mga oshdi.

## 16.6-jadval

### **Asosiy fondlardan foydalanishning samaradorlik darajasini tahlil qilish**

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili	O'tgan yilga nisbatan farq (+,-)
1.Tovar mahsulotlarining o'zgarmas korxona ulgurji bahosi. ming so'm.	898370	1000910	+102540
2. Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm.	355970	379830	+23860
3. Jumladan mashina va asbob-uskunalar.	179290	184640	+5350
4. Mashina va asbob-uskunalarning jami asosiy fondlar tarkibida tutgan salmog'i (3qator : 2 qator) 0,01 aniqlikda (koef.)	0,504	0,486	-0,018
5. Ming so'mlik sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlaridan olinadigan samara (1 qator : 2 qator), so'm	2523,7	2635,2	+111,5
6. Ming so'mli mashina va asbob-uskunalardan olinadigan samara (1q : 3q). so'm	5010,7	5420,9	+410,2
7. Ming so'mlik sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlaridan olinadigan samaraning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar: a) mashina va asbob-uskunalarning jami asosiy fondlar tarkibida tutgan salmog'ining o'zgarishi, so'm. b) ming so'mlik mashina va asbob-uskunalardan olinadigan samaraning o'zgarishi, so'm.	- - -	- - -	- -90 +200

Bunga ikki omil ta'sir ko'rsatdi:

1.Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining o'rtacha yillik qiymatini o'zgarishi (ekstensiv omil).

2.Asosiy fondlardan olinadigan samaraning o'zgarishi (intensiv omil).

Birinchi omilning ta'sirini hisoblash uchun sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining o'rtacha yillik qiymatida bo'lган farqni ularning o'tgan yildagi samaradorlik darajasiga ko'paytiriladi. Bizning misolimizda asosiy fondlarning qiymati o'tgan yilga nisbatan 23860 ming so'mga

oshgan, ularning o'tgan yildagi samaradorlik darajasi esa 2523,7 so'mni tashkil etdi. Demak, tovar mahsuloti hajmini ko'paytirishning 60215 ming so'mi ( $+23860 \times 2523,7$ ) yoki 58,7 foizi ekstensiv omil evaziga hosil bo'ldi.

Ikkinchi omilning ta'sirini hisoblash uchun fonddan olingan samaradagi mutlaq farqni joriy yildagi asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatiga ko'paytiriladi. Bizning misolimizda fonddan olingan samara o'tgan yilga nisbatan 111 so'm 50 tiyinga oshdi. Demak, mahsulot hajmini ko'paytirishning 42351 ming so'mi ( $111,5 \times 379830$ ) yoki 41,3 foizi intensiv omil hisobiga hosil qilingan. Shunday qilib, ikki omil ta'sirining o'zgarishi taxminan, tovar mahsuloti iShlab chiqarishdagi umumiy farqni beradi, ya'ni  $(60215 + 42351) = +102566$  ming so'm. Raqamlarni butunlash hisobiga 26 ming so'mga farq hosil bo'ldi ( $102566 - 102540 = 26$  ming so'm).

### **16.5. Ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan vaqt va quvvat bo'yicha foydalanishni tahlil qilish**

Fonddan olinadigan samara asbob-uskunalarning ish bilan band qilishga ko'p jihatdan bog'liq. Ish bilan yuqori darajada ekstensiv band qilish smena, ish kuni, hafta, oy va hokazo mobaynida asbob-uskunalaridan vaqt jihatdan imkonli boricha maksimal foydalanishni taqozo qiladi.

Asbob-uskunalaridan ekstensiv (vaqt) bo'yicha foydalanish darajasini ularning smenalik (almashish) koeffisienti orqali aniqlanadi. U har bir dastgohning, kun, oy, kvartal (yil choragi) va yil davomida o'rta hisobda qancha smena ishlanganligini ko'ratadi. Smenalilik koeffisienti barcha smenalarda ishlagan dastgoh-smena (mashina-smenalar) sonini o'rnatilgan uskunalar soniga taqsimlash orqali aniqlanadi. Masalan, sexda 92 ta dastgoh o'rnatilgan, ulardan mazkur davrda, bir smenada 68 ta, ikkinchi smenada 40 ta, uchinchi smenada 36 ta dastgoh, ishlagan. Hammasi bo'lib barcha uchta smenada 144 mashina - smena ( $68+40+36=144$ ) ishlagan. Demak, mazkur davrda uskunalarning smenalilik koeffisienti 1,56 ( $144:92$ ) ni tashkil etdi.

Har bir korxona uchun normativ smenalik koeffisienti aniq belgilanib, u uskunalarini to'la, maksimal darajada ish bilan band qilishni qo'zda tutadi. Tahlil qilish jarayonida amaldagi smenalilik koeffisienti normativ doirasidagi smenalilik koeffisienti bilan taqqoslanib, uskunalarini ish bilan band qilishni oshirishdagi rezervlar aniqlanadi. Amalda ko'pgina korxonalarda smenalilik koeffisienti normativdagidan ancha pastdir, ayniqsa, mashinasozlikda 1,4ni tashkil etadi. Shu munosabat bilan

iqtisodiyotni jadallashtirish sharoitida mehnat kollektivlari oldiga uskunalarini ish bilan maksimal band qilish, ular ishining smenaliligin keskin oshirish vazifasi qo'yilgan. Smenalik koeffisientni oshirishga ish joylarini attestasiyalash, ortiqcha uskunalarini sotish, ko'p dastgohda ishslashni rivojlantirish, ishchilarga biriktirilgan xizmat ko'rsatish doiralarini kengaytirish, uchinchi smenada ishlovchilar uchun moddiy rag'batlantirishni va imtiyozlarni qo'llash yordam beradi.

Asbob-uskunalardan jadal foydalanish koeffisienti vaqt birligida amalda erishilgan uskuna unumdorligining ushbu uskuna xili uchun belgilangan unumdorlikning texnik normasiga nisbati bilan aniqlanadi.

Asbob-uskunalardan foydalanishning integral koeffisienti ekstensiv va intensiv foydalanish koeffisientlarini ko'paytmasidan iborat, ya'ni uskunalardan ish vaqt va quvvati bo'yicha foydalaniShdir.

Dastgohlarning yillik unumdorlik darajasining o'zgarishiga ikki omil ta'sir ko'rsatadi.

1) Dastgohlar yoki dastgoh-soatlar miqdorining o'zgarishi.

2) Bir dastgoh yoki bir dastgoh-soatga to'g'ri keluvchi unumdorlik darjasasi.

Ushbu omillarning ta'siri mutlaq farq usuli orqali amalga oshiriladi, ya'ni miqdor o'zgarishda bo'lgan farqni sifat ko'rsatkichining reja darajasiga ko'paytiriladi, sifat o'zgarishda bo'lgan farqni esa miqdor ko'rsatkichining amaldagi darajasiga ko'paytiriladi.

Ushbu omillarning ta'sirini aniqlash uchun quyidagi jadvalni havola qilamiz (16.7-jadval).

### **16.7-jadval** **Dastgohlardan samarali foydalanishning ish vaqt va quvvati** **bo'yicha tahlil qilish**

Ko'rsatkichlar	Biznes reja bo'yicha	Haqiqatda	Mutlaq farqi (+,-)
1. Tovar mahsuloti (ming so'm hisobida)	1930	2085	+155
2. Ishlangan dastgoh-soatlar (ming)	223,7	200,3	-23,4
3.Bir dastgoh-soatga to'g'ri keluvchi unumdorlik (so'm, tiyin hisobida) (1 qator : 2qator)	8,63	10,41	+1,78

Jadvalda ko'rinishicha, hisobot davrida tovar mahsulotning ishlab chiqarish hajmi haqiqatda Biznes-rejaga nisbatan 155 ming so'mga oshdi. Bunga ikki omil ta'sir ko'rsatdi.

1.Ishlangan dastgoh-soatlar sonining o'zgarishi (miqdor ko'rsatkich):

$-23,4 \times 8,63 = -201,9$  ming so'm.

2.Bir dastgoh-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (sifat ko'rsatkich) :

$+1,78 \times 200,3 = +356,5$  ming so'm.

Demak, ikki omil ta'sirining o'zgarishi taxminan tovar mahsuloti ishlab chiqarishdagi umumiy farqga teng, ya'ni :  $(-201,9) + (+356,5) = +154,6$  ming so'm. Shunday qilib, dastgohlarning bekor turib qolishini bartaraf qilish natijasida mahsulot ishlab chiqarishni oshirish rezervi 201,9 ming so'm ekan.

### **Qisqa xulosalar**

Ushbu bobni o'rghanish natijasida talabalar asosiy vositalarni mohiyati, vazifalari va tahlil qilish manbalari, sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining tarkibi va harakatini, ularni texnik holatini, asosiy vositalardan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish usullarini bilishlari kerak.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Asosiy vositalarni tahlil qiliqhning mazmuni, maqsadi va vazifalari va axborot manbalari.

2. Asosiy vositalarni tarkibi, tuziliqhi va o'sish sur'atini tahlil qilish.

3. Asosiy fondlarning texnik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish.

4. Asosiy fondlarning eskirish darajasini tahlil qilish.

5. Asosiy fondlarning yangilash darajasini tahlil qilish.

6. Asosiy fondlarni chiqib ketish darajasini tahlil qilish.

7. Asosiy fondlarning yaroqlilik darajasini tahlil qilish.

8. Asbob-uskunalarning xizmat qilish davrini tahlil qilish.

9. Asosiy fondlardan samarali foydalanishni tahlil qilish.

10. Asosiy fondlardan olingan samaraning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish.

11. Asbob-uskunalardan samarali foydalaniShni tahlil qilish.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Гинзбург А.И. Экономический анализ. Учебник. –Спб.: Питер. 2009.

2. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебное пособие. -М.: Инфра-М. 2009.

3.Пардаев М.К., Шоалимов А.Х. Бошқарув таҳлили. Ўқув қўлланма. –Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2005.

4. Ергешев Е.Е. Иқтисодий ва молиявий таҳлил. Дарслик. -Т.: Молия, 2005.

5.Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. -T.: Mehnat, 2004.

6.www.cer.uz- (Центр экономического исследования).

7.www.pravo.eastink.uz- (Сборник экономических законодательств).

## **XVII BOB. PUL OQIMLARINING TAHLILI**

- 17.1.Pul mablag'lari harakatini tahlil qilishning maqsadi, vazifalari va axborot manbalari.
- 17.2.Pul mablag'lari harakatini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
- 17.3.Asosiy va investisiya faoliyatidagi pul oqimlarining tahlili.
- 17.4. Moliyaviy faoliyatdagi va soliq to'lashdagi pul mablag'lari harakatining tahlili.
- 17.5. Valyuta mablag'lari harakatining tahlili.

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar**

Pul oqimi; pul mablag'lari kirimi; pul mablag'lari kirimi; pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotdan foydalanish yo'llari; joriy, investisiya va moliyaviy faoliyatdagi pul oqimlarining kirimi va chiqimi; pul oqimini tahlil etishning to'g'ri va egri usuli.

#### **17.1.Pul mablag'lari harakatini tahlil qilishning maqsadi, vazifalari va axborot manbalari**

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni ketayotgan bir paytda har bir korxonaning mustaqilligini ta'minlashi bilan birga, uning mas'uliyati ham oshadi. Bunday sharoitda har bir korxona o'zining mablag'iga, o'zining boshqaruv usuliga, mulkiga ega bo'lishi kerak. Hozirda mulkiy birlik va munosabatlarning shunday tizimini shakllantirish lozimki, bu harakat avvalo faoliyat yakunida yuqori unum va natijaviylikni, butlik va manfaat uyg'unligini, eng muhimi bozor to'kin-sochinligi va jamiyatimiz farovonligini ta'minasin.

Turli mulk shaklidagi korxonalar faoliyatiga to'liq erkinlik berilishi kerak. Yangicha ish yuritish avval uchramagan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, tashqi va ichki bozordan tajribali mijoz va hamroh tanlash bilan birga ularning moliyaviy imkoniyatlarini o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Korxonalarning o'z tasarrufidagi barcha resurslar - moliyaviy, moddiy, mehnat va pul resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to'g'ri boshqarishni ta'minlashi zarur bo'ladi. Ko'pgina korxona va tashkilotlar iqtisodiy mustaqillik hamda ichki va tashqi bozorda bitimlar tuzish huquqini qo'lga kiritganlaridan so'ng, xo'jalik yuritishning yangi sharoitlariga bosqichma-bosqich tayyor bo'lib bordi.

Bozor iqtisodiyoti sohasida boshqaruv sub'yektlariga faqat axborotga ega bo'lishniig o'zi kifoya qilmaydi. Bu axborot bilan ishslash, to'g'ri

xulosalar chiqarish va ulardan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish zarur buladi,

Korxonalarining xo'jalik faoliyatini boshqarishda foydalaniladigan manbalar qatoriga pul mablag'larining xarakati to'g'risidagi axborotlar ham kiradi. Xo'jalik faoliyatini samarali boshqarishda pul mablag'lari oqimi to'g'risilagi axborotlar muhim rol o'ynaydi. Pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlar barcha darajadagi biznesmenlar tomonidan xalqaro amaliyotda keng qo'llanilmoqda, u korxonalar ma'muriyatiga ham, tashqi foydalanuvchilarga ham zarurdir. Korxona menejerlari mazkur ma'lumotlardan foydalanib, korxona likvidlilagini o'rganishda, dividendlarni belgilashda, ish haqi ta'minoti va byudjet bilan o'z vaqtida xisob-kitob qilinishi imkoniyatidan foydalanishlari mumkin.

Iqtisodchi olma G.V.Saviskayaning<sup>27</sup> fikriga ko'ra: «Pul mablag'lari hisob-kitobi — moliyaviy tahlilning eng muhim qurolidir. Yillik moliyaviy bashorat shaklida ko'rsatilishicha bunday bashorat kompaniya uchun oyma-oy kutilayotgan pul mablag'lari kirimini va oyma-oy majburiyatlar qoplanishining to'lovini amalga oshirilishini ko'rsatib beradi. Pul mablag'lari hisob-kitobi kreditorlarga firmaning kreditga bo'lgan tig'iz talabini baholash uchun va operasion sikl davomida qisqa muddatli ssudalarni qoplash uchun etarli darajadagi pul mablag'larini ishlab topishga qodirligini aniqlash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari pul mablag'larining hisob-kitobi kreditorlarga kompaniyaning uzoq muddatli yoki qisqa muddatli kreditlarga ehtiyoji mavjudligini aniqlashga yordam beradi. Korxonaning pul mablag'lari harakatining hisob-kitobi ayniqsa, qarzdorlarning mavsumiy tijorat sikli davomidagi moliyaviy ehtiyojlarini aniklash uchun qulaydir».

Bozor uchun ishlab chiqarish bor joyda pul mablag'lari o'ta muhim iqqisodiy vosita bo'ladi. Pul mablag'lari ishlab chiqarishning takrorlanishiga xizmat qiladi, iqqisodiy o'sishga ko'maklashadi. Pul shaklidagi mablag'lar bozor orqali resursga aylanadi, resurslar ishtirokida tovarlar yaratiladi, tovarlar sotilib yana pul olinadi. Shunday harakatning qaytarilib turishi iqtisoliy jarayon yuz bergenini bildiradi. Har bir xo'jalik yurituvchi sub'yekt o'zining iqtisodiy jarayonini muntazam ravishda davom ettirishi uchun ma'lum miqdorda pul mablag'lari bo'lishini taqozo etadi.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalariga qo'shilgan holda barchasining fikrlarini umumlashtirib, A.V.Vahabov va

<sup>27</sup>Savskaya G.V . «Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya». -M.: Infra-M, 2009. 109 b.

A.T.Ibragimovlar<sup>28</sup> pul mablag'lari atamasiga quyidagicha umumiy ta'rif beradilar: «Pul mablag'lari — majburiyatlarni zudlik bilan to'lash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan turdag'i mablag'larni o'z ichiga oladi. Pul mablag'lariga moliyaviy muassasalardagi joriy hisobvaraklardagi qoldiqlar, naqd kupyurlar, tangalar, valyutalar, kichik kassaning naqd pullari va moliyaviy muassasalar tomonidan muddatli depozitlar va muomaladan chiqarish uchun qabul qilingan, korxona kassasidagi konkret o'tkazib beriladigan pul hujjatlaridir. Bu o'tkaziladigan pul hujjatlariga oddiy cheklar, kassa orderlari, mijozlar cheklari, pul o'tkazmalari va boshqa hisob-kitob vositalari kiradi». Balansning «Pul mablag'lari» moddasidagi qoldiq pul hisobvaraqlariga kiradigan barcha turdag'i mablag'larni aks ettiradi.

Pul ekvivalentlari — bu pul mablag'lariga o'xshaydigan, lekin boshqacha tasniflanadigan aktivlardir. Ular xazina veksellari, tijorat qog'ozlari va depozit sertifikatlardan iborat. Kechikishlar va jarima sanksiyalari pul ekvivalentlarining pul mablag'lariga almashtirilishiga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun, ekvivalentlar kassa hisobvarag'idan olinadi. Ko'pincha pul ekvivalentlarini hisob-kitob vositasiga aylantirishga ehtiyoj yo'q. Ekvivalentlar odatda qisqa muddatli investisiya hisobvarag'iga olib boriladi.

Pul mablag'laridan samarali foydalanishni tashkil etish, ko'p jihatdan korxonalarda pul mablag'larining harakatini optimal boshqarishni tashkil etish va ular ustidan nazoratni yaxshilashga bog'liq. Pul mablag'lari nazoratini tashkil etishning asosiy elementlaridan biri, esa korxonaning hisob-kitob schyotidir. Ya'ni hisob-kitob schyotidan samarali foydalanishni maksimal darajada ta'minlash, barcha kirib kelayotgan pul mablag'larini albatga bank orqali hisobga olish, barcha turdag'i to'lovlarini banklar chiqargan cheklar yoki shunga o'xshash yozma topshiriqnomalar va ularning maxsus pul mablag'lari fondi orqali amalga oshirish lozim. Agarda ko'rsatilgan tartib qat'iy amal qiladigan bo'lsa, u holda pul mablag'larining hisobi ikki tomonlama bo'ladi: birinchisi — korxonaning o'zida, ikkinchisi — bankda.

Korxonalarining pul oqimini tahlil qilishda asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- pul mablag'larining harakatiga to'g'ri, aniq va xolisona baho berish;

<sup>28</sup> Vahabov A.V., Ibrohimov A.T. «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». –T: Sharq. 2005. 308 б.

- operasion faoliyatdagi pul mablag'larining harakatiga baho berish;
- korxonaning joriy, investisiya va moliyaviy faoliyatlari bo'yicha pul mablag'larining sof kirimi va chiqimini aniqlash hamda baho berish;
- pul mablag'lari kirimi bo'yicha manbalarning , chiqimi bo'yicha xarakatlarining tarkibini chuqur o'rganish;
- pul mablag'lari miqdorining optimal variantini aniqlash;
- korxonaning valyuta mablag'lari harakatini o'rganish va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;
- korxonaning sof pul oqimlarida ijobiy salbdoni ko'paytirish imkoniyatlarini aniqlash va hoqazo.

Moliyaviy axborot bilan ishlashning eng muhim jihatlaridan biri uni tahlil qilishdir. Tahlil qilishda xo'jalik faoliyatini o'rganishda hamda xulosalar chiqarishda asos bo'ladigan bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Iqtisodchi olimlar M.Q.Pardaev va B.I.Isroilovlar o'zlarining asarlarida<sup>29</sup>: «Korxona moliyaviy ahvolini tahlil qilish bilan shug'ullanayotgan har bir xodim moliyaviy hisobot shakllarini, shu jumladan, "Pul oqimi to'g'risidagi hisobot» shaklini erkin o'qiy olishi, uning moddalarini tushunishi, shuningdek xulosalar chiqarish va tavsiyalar berishni bilishlari kerak» deb fikr bildiradilar.

Moliyaviy hisobot moddalaridan foydalanib, korxona to'g'risida katta hajmda ma'lumot olish, uning moliyaviy ahvolini xizmat va bozor faolligini tahlil qilish mumkin.

«Pul oqimlari to'g'risida hisobot»da korxona moliyaviy resurslaridagi barcha o'zgarishlar pul mablag'lari nuqtai-nazaridan aks ettiriladi:

- xo'jalik faoliyatida olingan pullar harakati;
- olingan hamda to'langan foizlar va dividendlar;
- to'langan soliqlar;
- olingan va quyilgan investisiyalar;
- aksiyalar va zayomlar, shuningdek ijara majburiyatlari bo'yicha tushumlar va to'lovlar.

Kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida sodir bo'lgan pul mablag'laridagi barcha o'zgarishlar shunday tartibda aks ettiriladiki, u pul

---

<sup>29</sup> Pardaev M.Q., Isroilov B.I. "Iqtisodiy tahlil". -T.: "Mehnat". 2004. 362 б.

mablag'lari qoldig'i bilan ularga ekvivalent bo'lganlar o'rtasida, ya'ni qisqa muddatli yuqori likvid investisiyalar, erkin ayirboshlanadigan pul mablag'lari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.

4-ton shaklga «Valyuta mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumotnoma» ilova qilinib, unda davr boshi va oxiriga bo'lgan qoldiqlar, valyuta mablag'lari tushumi va xarajati to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Korxonaning moliyaviy ahvoli ko'p jihatdan real pul aylanmasiga bog'liq. Korxonannng hisob-kitob va o'zga hisob raqamlari orqali o'tadigan pul mablag'larining kelib tushishi va ularning sarflanishiga pul mablag'lari oqimi deyiladi.

Korxona ishining samaradorligiga, barqaror moliyaviy holatga korxonaning hisob-kitob va o'zga hisob raqamlariga pul mablag'lari o'z vaqgida va to'la hajmda kelib tushishi va to'lanishi natijasida erishish mumkin.

Pul mablag'lari oqimini tahlil qilish uchun 4-shakl «Pul mablag'lari tug'risidagi hisobot» moliyaviy hisoboti, shuningdek, 1-sh shaklidagi «Korxona (tashkilot) moliyaviy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida» gi statistika hisoboti asosiy ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot — moliyaviy hisobot hujjati bo'lib, unda joriy xo'jalik faoliyati jarayonida pul mablag'lari kelib tushishi, sarflanishi va ularning yil boshi va oxiridagi qoldig'i, shuningdek, investisiya va moliyaviy faoliyatga yo'naltirilgan pul mablag'lari aks ettiriladi.

Pul mablag'lari oqimiga so'm va valyutadagi pul mablag'lari kiritiladi. Shu tufayli 4-shakl «Pul mablag'lari to'g'risidagi hisobot» moliya hisobotida maxsus «Valyuta mablag'larining xarakati to'g'risidagi ma'lumotnoma» bo'lib, unda davr boshi va oxiridagi qoldig'i va ularning kelib tushish va sarflanish summasi ko'rsatiladi.

## **17.2.Pul mablag'lari harakatini ifodalovchi ko'rsatkichlar**

Korxonalarni moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri bo'lib, pul mablag'larini harakati hisoblanadi. Korxona ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirishi uchun etarli pul mablag'lariga ega bo'lishi kerak. Ularni minimal pul zahiralariga ega bo'lmasligi, moliyaviy faoliyatini yomonlashuviga olib keladi.

Pul mablag'larini haddan tashqari ortiqcha bo'lishi ham pul mablag'larini qadrsizlanishiga, inflyasiya darajasining yuqori bo'lishidan,

pul mablag'laridan foydalanib, qo'shimcha daromadlar olish manbalarini yo'qligidan dalolat beradi.

Moliyaviy ahvol ko'p jihatdan korxonaning real pul aylanmasiga bog'liq. Korxonani ish samaradorligi, yaxshi moliyaviy ahvoli pul mablag'lari o'z vaqtida to'liq hajmda tushishi va to'lanishining natijasi bo'lishi mumkin.

Pul mablag'lari oqimini o'rganishda chog'ida foydalaniladigan asosiy atamalar quyidagilar:

**Pul mablag'lari** — bu kassadagi nakd pul va talab bo'yicha beriladigan depozitlar, shuningdek, hisob-kitob, valyuta va o'zga bank hisob raqamlaridagi mablag'lari.

**Pul ekvivalentlari** — bu pul mablag'lariغا erkin almashtiriladigan qisqa muddatli likvidlanadigan, qiymati o'zgarishi xatariga kamroq moyil bo'lgan investisiyalar.

**Pul oqimlari** — pul va pul mablag'larining hamda so'm va o'zga ekvivalentlarning kirimi (kelib tushishi) va chiqimi (sarflanishi).

**Operasiya faoliyati** — bu investisiya va moliyaviy faoliyatni istisno qilganda, korxonaning daromad keltiradigan asosiy va boshqa faoliyati.

**Investisiya faoliyati** — pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investisiyalarni sotib olish va sotish.

**Moliyaviy faoliyat** - xo'jalik yurituvchi sub'yeiktning faoliyati bo'lib, u natijada o'z sarmoyasi va qarz olingan mablag'lari hajmi va tarkibining o'zgarishiga olib keladi.

Iqtisodchi olim M.Q.Pardaevning<sup>30</sup> o'quv qo'llanmasida «Iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalaridan biri - tahlil qilinayotgan ob'yeqt yoki birorta iqtisodiy toifani xolisona baholash uchun uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, ularni nazariy va metodologik jihatdan har tomonlama asoslashdan iborat» deb aytilgan. Ko'rsatkichlar haqida to'g'ri xulosa chiqarish uchun, avvalo, ularni ilmiy jihatdan tasniflash kerak.

Pul mablag'larining oqimini quyidagi asosiy ko'rsatkichlar ta'riflaydi:

- 1.Pul mablag'larining kelib tushishi va sarflanishi summasi.
- 2.Kelib tushgan va sarflangan pul mablag'larining tuzilmasi.
3. Kelib tushgan va sarflangan pul mablag'larining o'zaro salbdosi.
- 4.Kelib tushgan va sarflangan pul mablag'lari nisbatining koeffisienti( pul mablag'lari oqimi koeffisienti).

---

<sup>30</sup> Pardaev M.Q., Isroilov B.I. "Iqtisodiy tahlil". -T.: "Mehnat". 2004. 113 6.

Kelib tushgan va sarflangan pul mablag’larining summasi moliyaviy hisobot shakli bo’lmish 4-shakl “Pul oqimlari to’g’risidagi xisobot” bo’yicha to’rt guruhga guruhlashtiriladi.

Pul mablag’lari kelib tushushi va chiqimining har bir turini ko’rib chiqamiz.

**Pul mablag’lari kelib tushushi (kirimi).** Xaridorlardan olingan pullar (kirim), xisobot davrida korxonaning bank schyotlariga, yoki veksel’ ko’rinishida yuklab jo’natilgan mahsulot ,bajarilgan ishlar va ko’rsatilgan xizmatlar uchun kelib tushgan mablag’lar summasini ko’rsatadi.Ushbu summani 4-shakl “Pul oqimlari to’g’risidagi xisobot” moliyaviy xisobotidan (quyida 4-sh) va 1- shakli statistika hisobotidan olish mumkin. Boshqa pul tushumlari va royligidan, turli ko’rinishdagi mukofotlar, komission yig’imlardan olingan pul mablag’lari va ularning ekvivalentlari summasini ko’rsatadi.

Pul oqimlari to’g’risidagi hisobot aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv rahbariyati va tashqi foydalanuvchi investorlar , kreditorlar , korxona menejerlari uchun zarurdir. Boshqaruv rahbariyati uchun bu hisobot korxonaning likvidligi, dividendlar miqdorini aniqlash, boshqa yo’nalishlarga qo’shimcha investisiyalarni joylashtirish uchun manba hisoblanadi.

Pul oqimi to’g’risidagi hisobot zarur bo’lgan hollarda korxonaga yuqori daromad keltiradigan loyihalarni loyihalashtirish uchun zarur manbadir.

Korxonaning boshqaruv rahbariyati uchun bu hisobot korxonaning qisqa muddatli kreditorlik qarzlarini uzishga mavjud mablag’larning etarli yoki etishmasligi, hissadorlarga to’lanadigan dividendlar miqdorini ko’paytirish yoki kamaytirish hamda korxonaning investisiya va moliya masalalari bo’yicha siyosat kabi masalalarni hal etish zarurdir.

Pul oqimlari to’g’risidagi manbalar asosida investorlar kompaniyasining faoliyatini o’rganadi va ularning faoliyatiga baho beradi . Jumladan , korxona raxbariyati pul mablag’lari harakatini boshqara olish , korxona schyotidan kreditor qarzlarni uzish hamda hissadorlarga dividend to’lash , qo’shimcha moliyalashtirish maqsadlari uchun etarli miqdorda pul mablag’larini jamlash imkoniyatlarini aniqlanadi. Bu hisobot shakli orqali sof foyda bilan pul mablag’lari harakati o’rtasidagi bog’liqlik va tafovutlari aniqlanishi mumkin. Pul oqimlari to’g’risidagi hisobot korxonaning investisiya va moliviy faoliyati natijalarini o’zida aks ettiradi.

Korxonalarda pul mablag'larining harakati bir necha jarayonlar bo'yicha sodir bo'ladi. Bugungi kunda korxonalarda pul oqimi asosan to'rtta jarayon bo'yicha sodir bo'ladi. Bularga :

- operasion faoliyatida pul mablag'larining sof kirimi yoki chiqimi;
- investisiya faoliyatidagi sof pul oqimlarining kirimi yoki chiqimi;
- moliyaviy faoliyatdagi pud mablag'larining sof kirimi yoki chiqimi;
- soliqqa tortish (to'langan soliqlar).

### **17.3. Asosiy va investisiya faoliyatidagi pul oqimlarining tahlili**

Korxonalarda pul mablag'lari harakatini tahlilida avvalo ularni tushumi va kamayishi summasi hamda tuzilishini turlari bo'yicha aniqlash lozim. Tahlil uchun quyidagi jadvalni keltiramiz (17.1-jadval).

**17.1- jadval**  
**Pul mablag'lari oqimini baholash hisob-kitobi**

№	Ko'rsatichlar	Pul oqimi			
		Kirim		CHiqim	
		Summasi m.s.	Salmog'i %	Summasi m.s.	Salmog'i %
1.	Asosiy faoliyatdan	795019	98.69	-	-
2.	Investisiya faoliyatidan	-	-	213370	46.65
3.	Moliyaviy faoliyatdan	10541	1.31	-	-
4.	To'langan soliqlar	-	-	243994	53.35
5.	Jami pul mablag'larining harakati:	805560	100	457364	100

17.1-jadval ma'lumotlari asosida tahlil qilayotgan korxonaning pul mablag'lari harakatiga baho berishimiz mumkin bo'ladi. Ma'lumotlardan ko'rindaniki, joriy davrda korxonada jami pul mablag'larining kirimi 805560 ming so'mni tashkil etib, shundan 98,69 % i xo'jalik (operasion) faoliyatidagi pul mablag'larining kirimiga to'g'ri kelmoqda. Qolgan 1,31 % pul mablag'larining kirimi moliyaviy faoliyati hisobiga to'g'ri kelgan. Korxonaning jami pul mablag'lari chiqimi esa 457364 ming so'mni tashkil qilib, shundan, 213370 ming so'mi yoki 46,65 %i investisiya faoliyatidan bo'lgan pul mablag'larining chiqimiga, 243994 ming so'mi yoki 53,35 %i esa to'langan soliqlar hissasiga to'g'ri kelmokda. Bunday natijalarni umuman olganda korxona uchun ijobjiy baholasak ham bo'ladi. SHuni

xulosa qilib aytish mumkinki, korxonada pul mablag'larining harakati faqatgina asosiy xo'jalik faoliyatida bo'lган.

Korxonalarни asosiy faoliyatdan olingan pul mablag'lari harkatini tahlil qilish orqali ularni faoliyatining samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqish lozim.

Asosiy (operasion) faoliyat — xo'jalik jarayonlarini korxonaning pul mablag'lariga, foyda miqdoriga ta'sirini ifodalaydi. Bu bo'limga quyidagilar kiradi: jo'natilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun kelib tushgan pul mablag'lari; mol etkazib beruvchi va pudratchilarga to'langan pul mablag'lari; xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari; operasion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlar.

Korxonalarda pul mablag'larining harakati asosan korxona xo'jalik faoliyatida sodir bo'ladi. Xo'jalik faoliyatidan pul mablag'larining harakatini tahlil qilib chiqishimiz uchun quyidagi jadvalni tuzamiz, (17.2-jadval).

### **17.2- jadval** **Xo'jalik faoliyatidagi pul mablag'lari harakatinnng tahlili**

Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Pul mablag'lari kirimi		Pul mablag'lari CHiqimi	
		Summa, ming sum	Jamiga nisbatan salmog'i, %	Summa, Ming so'm	Jamiga iisbatan salmog'i, %
1	2	3	4	5	6
1.Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari	010	1273588	66.67	-	-
2.Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol etkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari	020	-	-	271348	24.33
3. Xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari	030	-	-	616535	55.28
4.Operasion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlar	040	636669	33.33	227355	20.39
Jami:	-	1910257	100	1115238	100
Operasion faoliyatning sof pul kirimi yoki chiqimi	050	795019	41.62	-	-

17.2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, korxonada xo'jalik (operasion) faoliyatidan pul mablag'larining sof kirimi 795019 ming so'mni tashkil qilgan. Korxonada jami kirim 1910257 ming so'mni tashkil qilib, uning 66,67 foizi mahsulotlarni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari hisobiga, qolgan 33,33 foizi esa operasion faoliyatning boshqa turli tushumlari hisobiga to'g'ri kelgan. Korxonaning xo'jalik faoliyatidagi jami sarflari esa 1115238 ming so'mni tashkil qilib, uning 24,33 foizi mol etkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari, 55,28 foizi xodimlarga to'langan pul mablag'lari hisobiga, qolgan 20,39 foizi operasion faoliyatning boshqa pulli to'lovlar uchun sarf qilingan. Korxonada pul mablag'larining xo'jalik (operasion) faoliyatidagi sof kirim natijasi 795019 ming so'mni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich umumiy tushumning 41,62 foizini tashkil qilgan. Bunday natijalarni savdo korxonasi uchun ijobjiy deb, baholash mumkin.

**Investisiya faoliyati** – savdo korxonasining investisiya faoliyatida nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish, uzoq muddatli moddiy aktivlar, ya'ni ko'chmas mulk bo'lmish bino, jihozlar va boshqa asosiy vositalarni sotib olish uchun etkazib beruvchilarga to'langan pullar va unga tenglashtirilgan mablag'lar chiqim ustunida aks ettiriladi.

Kirim ustunida esa uzoq muddatli aktivlarni sotishdan tushgan tushum hisoblanadi. Korxonalar xarid qilingan uzoq va qisqa muddatli qo'yilmalar moddasini chiqim ustunida vositalarga komission to'lovlar va boshqa birjada to'langan foizlarni hisobga olmagan holda qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun to'langan, pul mablag'larini ko'rsatadilar. Kirim ustunida o'zlik bo'lмаган qimmatli qog'ozlarni shu bilan birga bank va boshqa yuridik shaxslarning qisqa muddatli va uzoq muddatli ssuda va qarzlarini sotishdan kelgan tushum ko'rsatiladi.

Odatda korxonalar o'z faoliyati bilan bir qatorda investisiya va moliyaviy faoliyat bilan ham shug'ullanadilar. Ushbu holatni biz quyidagi jadval ma'lumotlari asosida tahlil qilib chiqamiz. (17.3-jadval).

17.3-jadval ma'lumotlari asosida korxonani investisiya faoliyatidan ko'rilgan pul mablag'larining harakatiga baho berishimiz mumkin bo'ladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasidagi pul mablag'larining harakatidagi o'ziga xos jihatlari shundaki, pul mablag'larining asosiy qismi, ya'ni, odatda 90—95 % i xo'jalik (operasion) jarayonlarga to'g'ri keladi. Shu jihatdan, ham mazkur jadval ma'lumotlaridan ham ko'rinish turibdiki, korxonaning mazkur faoliyat turlari bo'yicha pul mablag'lari jami chiqimi 213370 ming so'mni tashkil qilgan. Investisiya faoliyatidan sof pul oqimi 213370 ming so'mni tashkil qilib, ushbu faoliyat natijasida asosan pul

### 17.3-jadval

#### **Investisiya faoliyatidagi pul mablag'lari harakatining tahlili**

Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Pul mablag'lari kirimni		Pul mablag'lari chiqimi	
		Summa, ming sum	Jamiga nisbatan salmog'i, %	Summa, ming so'm	Jamiga iisbatan salmog'i, %
1	2	3	4	5	6
Asosiy vositalarni sotib olish va sotish	060	-	-	213370	100
Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish	070	-	-	-	-
Uzoq va qisqa muddatli investisiyalarni sotib olish va sotish	080	-	-	-	-
Investision faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	090	-	-	-	-
Jami:	-	-	-	213370	100
Investisiya faoliyatning sof pul kirimi yoki chiqimi	100	-	-	213370	100

mablag'larining chiqimi bo'lgan. Bunday natijani ijobiy hol deb, baholab bo'lmaydi.

#### **17.4. Moliyaviy faoliyatdagi va soliq to'lashdagi pul mablag'lari harakatining tahlili**

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyati yana ham kengayib bormoqda. Sub'yektlar davr taraqqiyoti bilan shahdam qadam tashlash maqsadida o'z faoliyatining turlarini ko'paytiradi va rivojlantiradi. Ushbu o'ziga xos turlari hozirgi davrda keng va tezkor rivojlanib borayotgan moliyaviy faoliyatdir.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatida moliyaviy faoliyatdan olingan foyda va zaralarning salmog'i ortib bormoqda. Zero, moliyaviy faoliyatdan yuzaga keladigan xarajatlar ulushining ortishi korxonalarini inqirozga olib kelishi mumkin. Shu boisdan, global moliyaviy inqirozning oqibatlarini iqtisodiyotimizning rivojlanishi hamda samaradorligi holatlariga ta'sirini kamaytirish kerak.

**Moliyaviy faoliyat** — bo'limida aksiya chiqarishdan kelib tushgan tushum, uzoq va qisqa muddatli qarzlarni kelib tushishi va chiqimlar aks

etadi. Bulardan tashqari korxona pul ishtirokisiz investisiya va moliyaviy faoliyat bo'yicha chiqimlarni amalga oshirishi mumkin. Masalan, asosiy vositalarni uzoq muddatli kredit xisobiga sotib olish, kreditor qarzlarni aksiyani chiqarish va kreditlarga qo'shimcha aksiyani berish orqali bo'lishi mumkin.

Korxona moliyaviy holatining sog'lomligi — bu pul mablag'larining kirimi korxonaning' majburiyatlarini qoplay olishidir. Minimal miqdordagi pul mablag'larining etishmasligi moliyaviy holat tangligiga sabab bo'ladi. Ortiqcha mablag'larga ega bo'lish inflyasiya iatijasida pulni qadrsizlanishiga, hamla ortiqcha mablag'larni samarali foydalanishga yo'naltirmaslik natijasida qo'shimcha daromad ololmasligi mumkin. Shu bois pul mablag'larini rasional boshqarishni doimo nazorat va tahlil qilish lozim. Endi korxona moliyaviy faoliyatidagi pul mablag'lari oqimini tahlil qilish uchun quyidagi 17.4-jadvalni tuzamiz.

#### 17.4-jadval

#### **Moliyaviy faoliyatidagi pul mablag'lari harakatining tahlili**

Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Pul mablag'lari kirimi		Pul mablag'lari chiqimi	
		Summa, ming sum	Jamiga nisbatan salmog'i, %	Summa, Ming so'm	Jamiga iisbatan salmog'i, %
1	2	3	4	5	6
Olingan va to'langan foizlar	110	-	-	-	-
Olingan va to'langan dividendlar	120	-	-	-	-
Aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan olingan pul tushumlari	130	-	-	-	-
Xususiy aksiyalarni sotib olganda va ularni sotganda pul to'lovlari va tushumlari	140	-	-	-	-
Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	150	10412	98.78	-	-
Uzoq muddatli ijara (lizing) bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	160	-	-	-	-
Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	170	129	1.2	-	-
Jami	-	10541	100	-	-
Jami: moliyaviy faoliyatning sof pul kirimi / chiqimi (satr 110+/- 120+130+140+/-150+/-160+/- 170)	180	10541	100	-	-

17.4-jadval ma'lumotlaridan ko'riniib turibdiki, korxonada moliyaviy faoliyati bo'yicha pul mablag'lari jami kirimi 10541 ming so'mni tashkil qilgan.

Korxonada uzoq muddatli kredit va qarzlar bo'yicha pul tushumlari kirimi 10412 ming so'mni tashkil qilib, jami moliyaviy faoliyatdan sof pul oqimlaridagi salmog'i 98,78 foizni tashkil qildi. Moliyaviy faoliyatdan boshqa pul to'lovlari hajmi esa 129 ming so'mdan iborat bo'lib, uning salmog'i 1.2 foiz bo'ldi.

Demak, korxonada moliyaviy faoliyat natijasida asosan pul mablag'larining kirimi bo'lган. Bunday natijani ijobiy baholash mumkin.

Endi esa korxonani soliq to'lashlardagi pul mablag'lari harakatini tahlil qilish uchun quyidagi 17.5-jadvalni keltiramiz.

### **17.5-jadval Soliq to'lashlardagi pul mablag'lari harakatining tahlili**

Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Pul mablag'lari kirimi		Pul mablag'lari chiqimi	
		Summa, ming sum	Jamiga nisbatan salmog'i, %	Summa, ming so'm	Jamiga iisbatan salmog'i, %
1	2	3	4	5	6
To'langan daromad (foyda) solig'i	190	-	-	3639	1.49
To'langan boshqa soliqlar	200	-	-	240355	98.51
Jami to'langan soliqlar (satr. 190+200)	210	-	-	243994	100

17.5-jadval ma'lumotlaridan ko'riniib turibdiki, korxonada jami to'langan soliqlar 243994 ming so'mni tashkil qilgan. Hisobot davrida to'langan daromad solig'i 3639 ming so'mni tashkil qilib, jami to'langan soliqlar tarkibida uning salmog'i 1.49 foizni tashkil qilgan. To'langan boshqa soliqlarning hajmi 240355 ming so'mni , salmog'i esa 98.51 foizdan iborat bo'lган.

Korxonalarda pul mablag'lari oboroti davomiyligini oylar bo'yicha o'zgarishini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin, (17.6-jadval).

## 17.6- jadval

### Pul mablag'larining oylar buyicha harakatining tahlili

Oylar	Pul mablag'larining qoldig'i (ming so'm)	Oborot summasi, (ming so'm)	Aylanish davri, kunda 1 - 30/2
Yanvar	12734	140448	2,72
Fevral	11466	159250	2,16
Mart	12766	187739	2,04
Aprel	12780	180000	2,13
May	9975	142500	2,10

17.6-jadvaldan ko'rinishicha korxonada pul mablag'lari oboroti davomiyligi o'rtacha 2,04 dan 2,72 kungacha tashkil etgan. Buning mazmuni pulni korxona schyotiga kelib tushishidan to chiqnb ketishiga qadar 2 kundan ortiqroq kun ketgan.

Tahlil davomida pul mablag'lari kirimi va chiqimini tarkibi atroflicha o'rganilmog'i lozim.

Pul oqimlari to'g'risidagi xisobot ma'lumotlarini tahlil etish uchun joriy faoliyat, soliqlanish, investisiya, moliyaviy faoliyatlari bo'yicha mablag'larning kirim qismi, chiqimi bilan taqqoslanib, sof kirimni (yoki chiqimi) aniqlanadi. Tahlil uchun korxona amaliy ma'lumotlari asosida quyidagi 17.7-jadvalni tuzamiz.

17.7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, korxonada asosiy faoliyatdan pul mablag'lari kirimni 795019 ming so'm, moliyaviy faoliyatdan esa 10541 ming so'mni tashkil qilgan. Pul chiqimi investisiya faoliyatidan 213370 ming so'm bo'lsa, soliqqa tortish 243994 ming so'mdan iborat bo'ldi. Jami moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul kirimni 348196 ming so'mni tashkil qildi.

Korxonaning pul oqimlarini tahlil qilish natijasida pul mablag'larining taqchillik sabablari to'g'risidagi dastlabki xulosalarni qilish mumkin bo'ladi.

Bunday sabablarga quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- xo'jalik sub'yektlarining mol-mulk va mahsulot sotish rentabelligining pastligi;
- soliqlar va dividend to'lovlarining yuqori ekanligi;
- korxonalarda qoplash manbalaridan yuqori bo'lgan kapital xarajatlarining katta miqdorda amalga oshirilishi;

## 17.7-jadval

### **Moliyaviy-xo'jalik faoliyatini sof pul kirimini hisoblash**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Pul mablag'lari kirimi, ming so'm	Pul mablag'lari chiqimi, ming so'm	Farqi (+.-)
Asosiy faoliyat	050	795019	-	-
Investisiya faoliyati	100	-	213370	
Moliyaviy faoliyat	180	10541	-	-
Soliqqa tortish	210	-	243994	-
Jami moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul kirimi /chiqimi (satr. 050+/-100+/-180-210)	-	348196	-	-

- me'yordan ortiqcha bo'lgan zahira va xarajatlarni tashkil etishga pul mablag'larining yo'naltirilganligi;
- korxonalarda aylanma mablag'lar aylanishining pastligi, ya'ni aylanma mablag'larning aylanishi sekinligi hisobiga korxona oborotiga pul mablag'larining qaytishi sekinligi natijasida oborotga qo'shimcha pul mablag'larini jalg etilganligi;
- balans passivida qarz majburiyatlari ulushining ortishi hisobiga qarz va kreditlarni qoplashga hamda foiz to'lovlariga yuqori miqdorda to'lanmalar qilinganligi.

Bugungi kunda xo'jalik sub'yektlariiing umumiy pul oqimiga asosan mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan tushum dinamikasi, mol-mulkning iqqisodiy rentabelligi va qarz mablag'lari bo'yicha to'langan foizlar summalarini ta'sir etmoqda.

Ma'lumki, pul oqimlarining dinamikasiga baho berishda har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari va ularning iqqisodiy rivojlanishiga qarab baho beriladi. Hozirda iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda pul oqimlarining dinamikasini o'rganish va ularga baho berishga katta ahamiyat qaratib kelinmoqda.

## **17.5. Valyuta mablag'lari harakatining tahlili**

Korxonalarining moliyaviy-xo'jalik ahvoli bevosita uning valyuta mablag'larining tarkibiy tuzilishiga va samaradorligiga bog'liq. SHu boisdan, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida korxona valyuta mablag'lari harakatining tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, korxonalarda «Pul oqimlari to'g'risidagi» hisobot shakli bilan birga ushbu shaklga ilova qilinib, «Valyuta mablag'lari harakati to'g'risidagi ma'lumotnoma» ham beriladi. Ushbu ma'lumotda asosan korxonaning valyuta mablag'larining harakati aks ettiriladi. YA'ni, korxonada mavjud bo'lgan valyuta mablag'larining yil boshiga qoldig'i; jami valyuta tushumlari; shulardan, sotishdan tushgan valyuta tushumi, konvertasiya hisobiga tushgan tushum, valyuta hisobida olingan kreditlar va boshqa manbalar hisobiga kelib tushgan tushumlar; jami sarflangan valyuta mablag'lari; shulardan, ishlab chiqarish sarflariga qo'shiladigan xarajatlar, ishlab chiqarishni rivojlantirish xarajatlari, mol etkazib beruvchilarga to'langan valyuta to'lovlari, valyuta hisobiga olingan kredit uchun to'lovlar va ularning foizlari hamda boshqa maqsadlar uchun to'langan valyuta mablag'lari bo'lishi mumkin va nihoyat hisobot davri oxiridagi valyuta qoldig'i aks ettiriladi.

Tahlil qilinayotgan korxonada hisobot yilda chet el valyutasidagi pul mablag'lari harakati mavjud emas. Shu bois korxonalarda valyuta mablag'larining oqimi va ularning tuzilmaviy ko'rinishini quyidagi 17.8-jadvalda shartli olingan raqamlar asosida ko'rib chiqishimiz mumkin.

Mazkur ko'rsatkichlarga asoslanib, kelib tushgan va sarflangan mablag'lar nisbati sifatida aniqlanadigan pul va valyuta mablag'lari oqimining koeffisientini hisoblab topish shart. Ushbu koeffisient birdan katta bo'lsa, bu hisobot davrida kelib tushgan pul mablag'lari ularning sarfidan ortiqchaliligidan dalolat berib, bu hol bank hisobraqamlaridagi va kassadagi pul mablag'i qoldig'i ko'payishida o'z aksini topgan.

Pul mablag'lari oqimi koeffisientining birdan pastligi pul mablag'lari sarfi kelib tushishiga nisbatan ko'proq bo'lganligidan, hisobot davri oxirida pul va valyuta mablag'lari qoldig'i kamayganligidan dalolat beradi.

Mazkur koeffisient korxona hisobot davri boshida muayyan pul qoldiq summasiga ega bo'lganida birdan past bo'lishi mumkin.

Pul mablag'lari oqimi o'zgarishining moyilligini, ularning korxona moliyaviy ahvoliga ta'sirini aniqlash, pul mablag'lari oqimini prognozlash uchun pul mablag'lari oqimining so'nggi bir necha yil ichidagi summasi, tuzilmasi va koeffisientining o'zgarishini tahlil qilish lozim bo'ladi.

## 17.8- jadval

### Valyuta mablag'lari oqimi va ularning tuzilmasi

Ko'rsatkichlar	Pul mablag'lari tushumi		Pul mablag'lari chiqimi	
	Summa, ming so'm	Salmog'i, %	Summa, ming so'm	Salmog'i, %
Valyuta mablag'lari oqimi				
Hisobot davri boshidagi qoldiq	309			
Kelib tushdi	3725	100,0		
SHu jumladan:				
A) sotishdan olingan foyda	3725	100,0		
B) konvertasiyalangan				
V) olingan kredit				
G) boshqa manbalar				
Sarflandi:			3894	100,0
Shu jumladan:				
A) ishlab chiqarish (muomala) xarajatlariga kiritilgan sarf xarajatlar				
B) ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarf-xarajatlar			1562	40,11
V) mahsulot etkazib beruvchilarga to'lovlar			1445	37,11
G) kredit bo'yicha to'lovlar, shu jumladan foizlar				
D) boshqa maqsadlar uchun			887	22,78
Valyuta mablag'lari tushumi (+). chiqimi(-)ning chiqimdan ko'pligi	-169			
Hisobot lavri oxirida-qoldiq	140			
Valyuta mablag'lari oqimi koeffisienti	0,96			
Davr boshidagi pul va valyuta mablag'lari qoldig'i summasi	351			
Pul va valyuta mablag'lari tushumi	28177			
Pul va valyuta mablag'lari chiqimi			28224	
Hisobot davri oxiridagi pul va valyuta mablag'lari qoldig'i summasi			304	
Pul va valyuta mablag'lari oqimi koeffisienti	0,99			

Pul mablag'larining manbalari va foydalanish yo'nalishlarini baholash, ham shu asosda ular bo'yicha xulosa qilish va tavsiyalar berish maqsadida tahlil qiluvchi quyidagi savollarga javob topishi kerak:

- korxona bundan keyin ham asosiy vositalarni hisobdan chiqarishni korxonaning o'zida to'plangan pul mablag'lari hisobiga moliyalashtira oladimi?

- ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi korxonalar sotib olish qay yo'sinda moliya bilan ta'minlangan?

- tashqi manbalardan moliyaviy ta'minlanishiga bog'liqlik qay darajada?

- dividend siyosati yuritish, ya'ni aksiyalar, qimmatli qog'ozlar va qarz berishga pul joylash hisobiga daromad olish qay darajada?

Bir necha yillik pul oqimlarining tahlili ishlab chiqarishni kengaytirishga pul mablag'larini jalb qilish istiqbolini va bo'lg'usi kutilmagan noxush holatlarning oldini olish imkoniyatlarini, ya'ni rahbariyatga korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash bo'yicha uslubiyat va taktikani belgilab olish imkonini beradi.

### **Qisqa xulosalar**

Ushbu bobni o'rganish natijasida talabalar pul mablag'lari harakatini tahlil etishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari, xo'jalik sub'yeqtlarining asosiy faoliyatidagi pul oqimlarining tahlili, investisiya, moliyaviy xizmat ko'rsatish va soliq to'lashlardagi pul oqimining tahlili, moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'lari harakatining tahlili, valyuta mablag'lari harakatining tahlili, hozirgi qiymatga keltirilgan, kelajakda kutilayotgan sof pul oqimlari usuli va uning tahlilini o'rganadilar.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

- 1.Pul oqimi deganda nima tushuniladi?
- 2.Pul mablag'larini tahlil qilishning ahamiyati nimalardan iborat?
- 3.Pul mablag'lari harakatini o'rganishda tahlilning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- 4.Xo'jalik faoliyatidan bo'lgan pul oqimlari qanday tahlil qilinadi?
- 5.Investisiya faoliyatidan pul mablag'lari oqimi qanday tahlil etiladi?
- 6.Moliyaviy faoliyatdan bo'lgan pul mablag'lari oqimi qanday tahlil etiladi?
- 7.Valyuta mablag'lari qanday tahlil etiladi va ularni tahlil etishdan maqsad nima?
- 8.Soliq to'lovlar qanday tahlil qilinadi?

9.Pul mablag'lari harakatini qanday bashoratlash mumkin?

### **Asosiy adabiyotlar**

1.Ионова А.Ф. Селезнева Н.Н. Финансовый анализ. Учебник. – М.: Юнити, 2009.

2.Шеремет А.Д.,Негашев Е.В. Методика финансового анализа . Учебное пособие. - М.: ИНФРА, 2007.

3.Ваҳабов А.В., Иброҳимов А.Т. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Дарслик. -Т.: Шарқ, 2005.

4.Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. -Т.: Mehnat, 2004.

5.www.iask.org.uk- (International Accounting Standards Committee).

6.www.aicpa.org- (American Institute of Certified Public Accountants).

.

## **XVIII BOB. XUSUSIY KAPITAL TAHLILI**

18.1.Xo'jalnk yurituvchi sub'yektlarining xususiy kapitalini tahlil qilishning ahamiyatn, tahlil vazifalarn va axborot manbalari.

18.2. Xususiy kapital tarkibi, o'zgarishi va dinamikasining tahlili.

18.3. Xususiy kapitalni ko'paytirish omillarinn aniqlash.

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar**

Xususiy kapital to'g'risida tushuncha va uni tahlil etish maqsadi; xususiy kapitalning tarkibi, tuzilishi va yil boshiga nisbatan o'zgarish sabablari; ustav fondi; rezerv kapitali; qo'shilgan kapital; taqsimlanmagan foyda (zarar); joriy likvidlik koeffisienti; istiqbolli likvidlik koeffisienti; bankrotlik alomatlari va ularni tahlil etish uslublari; kreditga layoqatlilikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni tahlil etish uslubi; qaramsizlik koeffisienti; qarz va o'z mablag'larining nisbati.

### **18.1. Xo'jalnk yurituvchi sub'yektlarining xususiy kapitalini tahlil qilishning ahamiyatn, tahlil vazifalarn va axborot manbalari**

Erkin iqtisodiy munosabatlar sharoitida xususiy kapital korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Negaki, uning holatiga qarab jami mablag'lar tarkibidan kelib chiqqan holda korxonaning iqtisodiy qaramligi yoki mustaqilligiga baho beriladi. Bu biznesni boshqarish, faoliyatni kengaytirish va sheriklik faoliyatini yo'lga qo'yishda o'ta muhim masala hisoblanadi.

Xususiy kapital korxonaning o'z mablag'lari manbaining asosini tashkil etuvchi ko'rsatkich hisoblanib, uning tarkibiga korxona ustav kapitali, zahira kapitali, qo'shilgan kapital hamda taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) kiradi.

Xo'jalik sub'yektlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash manbai bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- o'z mablag'lar manbai;
- qarz mablag'lari.

Korxona, tashkilot yoki firma ochilish lavrida o'z mablag'larini belgilab olishi lozim. Bu ish amalga oshirilgach esa mablag'larni qaysi manbaa hisobiga qoplash kerakligi ko'rib o'tiladi. Agarda korxonaning o'z mablag'lari etarli bo'lsa o'z mablag'lar manbai hisobiga, aks holda esa, qarz mablag'lari hisobiga qoplaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxona o'z moliyaviy extiyojlarini o'zi mustaqil qondirishi mumkin. Resurslarni ta'minlash manbai bo'lib, uning foydasi, qimmatbaho qog'ozlarini sotishdan kelgan tushum, aksionerlar, yuridik va jismoniy shaxslarning pay va boshqa to'lovlari hamda qonundan tashqari bo'limgan holda kirim qilingan mablag'lar kiradi. Bunday asosda kiritilgan mablag'lar korxona va tashkilotlar uchun xususiy kapital deb qaraladi.

Xususiy kapital hisobi bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u korxonaning o'z qudratini qay darajada ekanligini bildiradi. Bunlay taraflarni e'tiborga olgan holda «Buxgalteriya hisobi to'g'risila»gi Qonunda ham xususiy kapital hisobiga katta e'tibor berilgan. Moliyaviy hisobotlar tarkibida 5-shakl «Xususiy kapital to'g'risila hisobot» deb nomlanib, bu shakl har yili boshqa hisobotlarga qo'shilgan holda yuqori organlarga topshirilishi lozim.

Xususiy kapital tahlilining vazifalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- xususiy kapitallardan samarali foydalanganlikka baho berish;
- xususiy kapitalda mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash;
- uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va hokazolar kiradi.

Xususiy kapital tahlilini olib borishda axborot manbai bo'lib, «Buxgalteriya balansi»ning passiv 1-bo'limi va «Xususiy kapital to'g'risida»gi hisobot shakllari kiradi. Bu hujjat shakllaridan foydalangan holda, tahlil ishlari olib boriladi.

## **18.2. Xususiy kapital tarkibi, o'zgarishi va dinamikasining tahlili**

Xususiy kapital hisobi o'z ichiga bir qancha ko'rsatkichlarni olib, ular quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- ustav kapitali;
- qo'shilgan kapital;
- rezerv kapitali;
- taqsimlanmagan foyda;
- xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.

Korxonaning ustav kapitali o'z mablag'lar manbaining asosini tashkil etadi. Ustav kapitali ta'sischilar tomonidan qo'yilgan pay to'lovlari, aksiyalarining nominal qiymatini o'zida saqlaydi. Uning hisobi esa hukumat qarorlari va ta'sischilarning yig'inida qabul qilingan qarorlar asosida yuritilib boriladi.

Davlat tashkilotlarida ustav kapitali davlat byudjeti tomonidan ajratilgan mulkni ko'rsatadi. Mulkning kelishi vaqtiga esa bu summa ustav kapitalida ko'rsatiladi.

Korxonalar amalda qo'llanilayotgan qonunlarga ko'ra har yili erishgan foydasidan rezervlar tashkil etishlari mumkin. Unga har yili ustavda ko'rsatilgan tartibda mablag' chegirilib boriladi.

Tashkil etilgan fond esa quyidagi maqsadlar uchun sarflanadi:

- 1.Ko'rilgan zararlarni qoplash uchun.
- 2.Korxona hisobot yilida foyda olmagan bo'lsa imtiyozli aksiyalar uchun dividend berish.
- 3.Boshqa to'lovlar uchun amalga oshirish uchun.

Taqsimlanmagan foya — bu korxonaning hisobida turgan sof foydasini ko'rsatadi. U ham xususiy kapital tarkibiga kiruvchi eng asosiy ko'rsatkichlardan sanaladi. Lekin faoliyat yurituvchi korxonalar har safar ham foya bilan chiqmasligi mumkin. Bu holda uning zarari xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar deb yuritiladi. Mazkur ikkala qiymat ham 8710 — «Hisobot davridagi taqsimlanmagan foya (qoplanmagan zarar)» hamda 8720 — «Jamg'arilgan foya (qoplanmagan zarar)» schetlarida yuritilib, ularning farqi ishoralari orqali aniqlanib olinadi.

Moliyaviy tahlilni olib borishda koeffisientlar usuli eng ilg'or metodlardan hisoblanib, bizning o'rganayotgan mavzuimizni ham ularsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida turli hil moliyaviy koeffisientlar o'rganiladi va ularni shartli ravishda to'rtta katta guruhlarga ajratiladi:

- 1.Rentabellik koeffisientlari.
- 2.Likvidlik koeffisientlari.
- 3.To'lov qobiliyati koeffisientlari.
- 4.Bozor indikatorlari.

Bu ko'rsatkichlar ham o'z tarkibiga bir qancha koeffisientlarni oladi:

Demak, birinchi ko'rsatkich tarkibiga:

- xususiy kapital rentabelligi;
- korxonaning jami investisiyalar rentabelligi;
- leveridj;
- Sotishrentabelligi.

Likvidlilik koeffisientlariga:

- tez likvidlanadigan koeffisientlar;
- debetorlik qarzlarining aylanish koeffisienti;
- ishlab chiqarish zaxiralalarining aylanishi koeffisienti;
- qiyin likvidlanish koeffisienti.

To'lov qobiliyatini ifodaloqchi koeffisientlarga quyidagilar kiradi:

- qarz va xususiy kapital nisbati koeffisienti;
- xususiy kapitalning jami mulkda tutgan ulushi koeffisienti;
- qarz mablag'larining jami aktivlarda tutgan ulushi koeffisienti.

Bozor indikatorlariga esa bozor qiymati va buxgalteriya hisobida aks etgan baho (nominal qiymat, tannarx) orasidagi farq summalar o'rjaniladi.

Bu koeffisientlar ichida bizning mavzuga taalluqli bo'lgan koeffisientlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagicha aniqlanadi:

**Xususiy kapital rentabelligi.** Bu rentabellik turi har bir so'mlik xususiy kapitalimiz hisobiga to'g'ri kelgan sof foyda qiymati o'rjaniladi. Buning uchun: Sof foyda / Xususiy kapitalning yillik o'rtacha qiymati tengligidan foydalaniladi.

**Jami investisiyalar rentabelligi.** Bu ko'rsatkichni aniqlashimiz uchun, (Sof foyda = (Kreditlar uchun foiz • foyda solig'ining korrektirovka qilingan stavkasi) + Rezervlar uchun ajratma) / Jami aktivyaarning o'rtacha qiymati kabi hisoblash ishlarini bajarishimiz lozim.

Bu erda rezervlar uchun ajratma, kredit uchun soliqlar va foyda solig'ining korrektirovkasi sof foyda hisobidan bo'lganligi uchun bu qiymatlarning yig'indisi xisobot yilining yakuniy moliyaviy natijasi sifatida keladi.

**Leveraj.** Bu xususiy kapitalning o'sgan qismini ko'rsatib, u quyidagicha aniqlanadi, ya'ni xususiy kapital rentabelligi koeffisienti bilan jami investisiyalar orasidagi farq koeffisienti olinadi. Kelib chiqqan natija qanchalik yuqori bo'lsa, korxona xususiy kapitalining shunchalik o'sganligini bildiradi.

Bir aksiya uchun daromadni hisobot yilda olingan foydani chiqarilgan aksiyalar soniga bo'lish bilan aniqlanadi.

Qarz va xususiy kapital o'rtasidagi nisbat koeffisienti.

Bunda uzoq va qisqa muddatli qarz mablag'larini o'z mablag'lari manbaiga bo'lib topamiz. Bunday nisbatlar har bir davr uchun aniqlanadi.

Agarda hisobot yili boshidagi aniqlangan koeffisient yil oxiriga nisbatan katta bo'lsa  $A_1 > A_2$  u holda korxonaning to'lov qobiliyati oshgan bo'ladi. Aks holda esa korxonaning to'lov qobiliyati pasaygan bo'ladi.

Xususiy kapitalning jami aktivlarda tutgan ulushi koeffisienti

### Xususiy kapital qiymatini

#### Jami mablag'lar

formulasi orqali topiladi. Bu koeffisient qanchalik birga yaqinlashib borsa, korxonaning mustaqilligi shunchalik oshib boradi. Bizning respublikamizda

faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar bu koeffisientning kamida 50% ga ega bo'lishlari lozim.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot shakliga asoslanib, yil boshiga nisbatan yil oxirida qolgan kapitalimizning o'zgarishini taxlil qilamiz. Buning uchun quyidagi shaklda analistik jadvalni tuzamiz.

### **18.1- jadval** **Xususiy kapitali va dinamikasining tahlili**

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga qoldnq	O'zgarishi		Yil oxiriga qoldnq
		ko'payishi	kamayishi	
1	2	3	4	5
1. Ustav kapitali	28280	—	—	28280
2.Qo'shilgan	116902	—	-	116902
3.Rezerv kapitali	278317	263511	-	541828
4.Taqimlanmagan foyda	37000	5400	—	42400
5.Xususiy kapital bilan qoplanmagan	—	—	—	—
JAMI:	460499	268911	—	729410

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, biz gahlil qilayotgan korxonada xususiy kapitali yil boshiga nisbatan, yil oxirida 268911 ming so'mga oshgan. Bu natija korxona uchun ijobjiy deb qaralishi lozim. Chunki bu miqdor yil boshiga nisbatan salkam 60 % ga yaqin oshgan.

Bunday o'zgarishning hosil bo'lishida hisobot yilida taqsimlanmagan foydaning 5400 ming so'mga va rezerv kapitalining 263511 ming so'mga oshuvi katta ta'sir etgan.

Xususiy kapitalning qolgan turlari buyicha yil davomidagi harakati kuzatilmagan.

Ijobjiy natija deb qaralishining yana bir tarafi shundaki, xususiy kapitalning asosini qo'shilgan va rezerv kapitali tashkil qilganidir. Bu esa kelgusida korxonaning xususiy kapitali yanada ko'payib borishidan dalolat beradi.

Shunday ekan, yuqorida jadval ma'lumotlariga asoslangan holda bu muammoni hal etish yo'llarini topishimiz kerak. Ko'rinish turibdiki, xususiy kapital qiymatini ko'paytirishning eng asosiy omili bo'lib korxonaning hisobot yilida olgan sof foydasi hisoblanadi. Faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotlar shu omil hisobiga o'z jamg'armalarini oshirishi

eng optimal variant deb qaraladi. Sababi, bu omilning o'zgarishi faqatgina korxonaning o'ziga bog'liq bo'lib, uning har tomonlama to'liq imkoniyatlarini ishga solib faoliyatini boshlashni taqozo etadi. Bundan tashqari boshqa ko'rsatkichlarning o'zgarishi ham ushbu omil bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur vazifalarni hal etishda talabalar «Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizomni chuqur bilishlari lozim. Unda foydani shakllantirish muammolarini chuqur o'rganishlari lozim.

### **18.3. Xususiy kapitalni ko'paytirish omillarinn aniqlash**

Xususiy kapital tahlili uning tarkibidan joy olgan ko'rsatkichlar hisobiga o'zgarib boradi. Har bir tarkibning o'zgarishi ham o'z mazmuniga ko'ra ma'lum ko'rsatkichlarning o'zgarishi orqali amalga oshadi.

#### **1.Ustav kapitali.**

Bu schyot xususiy (hissador) kapitalining qiymati, qimmatbaho qog'ozlarning emissiyasi va joriy yil foydasi va zarari hisobiga o'zgarishi mumkin.

**2.Qo'shilgan kapital.** Bu schyot quyidagi hollarda o'zgarishi mumkin:

- xususiy (hissador) kapitali qiymatining o'zgarishi;
- muomalaga qo'shimcha aksiyalarning chiqarilishida;
- asosiy vositalarni qayta baholanishida;
- foya va zararlarning hisobiga.

**3.Rezerv kapitali** ham yuqorida keltirilgan o'zgarish sabablari hisobiga amalga oshadi. Faqatgina bu o'zgarishlar tarkibiga foyda hisobidan rezervlarga ajratilgan summalar kiradi.

**4.Taqsimlanmagan foya**. Bu ko'rsatkich korxonaning hisobot yilda olgan sof foydasi, hissador kapitalining ko'payishi yoki kamayishi, qimmatbaho qog'ozlar emissiyasi, rezerv uchun ajratmalar hisobiga o'zgarishi mumkin.

#### **5.Xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.**

- hisobot davrida olingen zarar;
- qimmatbaho qog'ozlar emissiyasi;
- hissador kapitalining ko'p yoki kam bo'lishi kabi ko'rsatkichlar hisobiga o'zgarishi mumkin.

Bu o'zgarishlar 5-shaklda ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

## **Qisqa xulosalar**

Ushbu bobda, xususiy kapitalni tahlil qilishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari, xususiy kapital tarkibi, o'zgarishi va dinamikasining tahlili, xususiy kapitalni ko'paytirish omillarini aniqlash kabi masalalar o'r ganilgan.

Ushbu mavzularni o'r ganish jarayonida xususiy kapitalni mohiyati, tahlil qilishning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari, xususiy kapitalni buxgalteriya balansida aks etishi uni korxonalar moliyaviy holatiga ta'sirini aniq misollar yordamida tahlili ko'rib chiqilgan.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Xususiy kapital deganda nimani tushunasiz?
2. Xususiy kapital nima uchun tahlil etiladi?
3. Xo'jalik sub'yetlarining xususiy kapitalini tahlil qilishdan maqsad va tahlil vazifalari nimalardan iborat?
4. Xususiy kapital tarkibiga nimalar kiradi?
5. Xususiy kapital qanday tahlil etiladi?
6. Xususiy kapitalni ko'paytirish yo'llarini ko'rsatib bering.

## **Asosiy adabiyotlar**

- 1.Ионова А.Ф. Селезнева Н.Н. Финансовый анализ. Учебник. – М.: Юнити, 2009.
- 2.Шеремет А.Д.,Негашев Е.В. Методика финансового анализа . Учебное пособие. - М.: ИНФРА, 2007.
- 3.Ваҳабов А.В., Иброҳимов А.Т. Молиявий ва бошқарув таҳлили. Дарслик. -Т.: Шарқ, 2005.
- 4.[www.iask.org.uk](http://www.iask.org.uk)- (International Accounting Standards Committee).
- 5.[www.aicpa.org](http://www.aicpa.org)- (American Institute of Certified Public Accountants).

## TEST SAVOLLARI

### **1. Analiz va sintez katyegoriyasiga ta'rif bering.**

A.Analiz – bir bytyn yaxlit prydmetni alohida bo'laklarga bo'lib o'rganish.

B.Iqtisodiy jarayonlarni harakatda va o'zgarishda deb qarash.

V.Sintez – o'rganilayotgan ob'yekt to'g'risida yaxlit xulosaga kelish uchun umumlashtirish.

G.To'g'ri javob: A, V.

### **2. Moliyaviy va boshqaruv tahlili fani qaysi fanlar bilan chambarchas bog'liq?**

A.Makro va mikroiqtisodiyot.

B.Makro va mikrostatistika.

V.Buxgalteriya hisobi va audit.

G.Iqtisodiy nazariya.

### **3. Moliyaviy va boshqaruv tahlili fanining predmeti nimaga asoslanadi?**

A.Xo'jalik mablag'i va uning manbalari.

B.Korxonaning xo'jalik faoliyatiga.

V.Buxgalteriya xujjatlariga.

G.Ma'lumotlar va normativlarga.

### **4. Moliyaviy va boshqaruv tahlili fanining pirovard maqsadi nima?**

A.Mahsulot tannarxini hisoblash.

B.Mehnat unumdorligini aniqlash.

V.Xo'jalik rezervini topish va ulardan to'la-to'kis foydalanish.

G.Asosiy vositalardan samarali foydalanish.

D.Foya olish.

### **5. Joriy tahlil deb nimani tushunasiz?**

A.Oy, kavrtal va yil yakuni bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.

B.Kunlik, smenalik va o'n kunlik bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.

V.Yig'ma hisobotlar bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.

G.Korxonalararo taqqoslama tahlilni.

### **6. Tezkor tahlil deb nimani tushunasiz?**

A.Xalq xo'jaligi bo'yicha o'tkaziladigan tahlil.

B.Xalq xo'jaligini tarmoqlari bo'yicha o'tkaziladigan tahlil.

V. Kunlik, smenalik va o'n kunlik ish yakuni bo'yicha o'tkaziladigan tahlil.

G.Yillik ish yakuni bo'yicha o'tkaziladigan tahlil.

**7.Istiqlolli tahlil deb nimani tushunasiz?**

A.Yillik ish yakuni bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.

B.3 yillik, 5 yillik va 10 yillik ish faoliyati bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.

V.Oylik, kvartallik va yillik ish yakuni bo'yicha o'tkaziladigan tahlilni.

G.Yillik ish yakuni bo'yicha o'tkaziladigan tahlil.

**8.Moliyaviy va boshqaruv tahlili metodlarini asosi nima?**

A.Xujjatlashtirish.

B.Balanslashtirish.

V.Dialektik usul.

G.Taqqoslash usuli.

**9. Moliyaviy va boshqaruv tahlil fanining usuliga ta'rif bering.**

A.Xo'jalik jarayonlarini o'rganish, korxona faoliyati natijalariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.

B.Xo'jalik jarayonlarini o'rganishda dialektik yondoshish, erishilgan natijalarga ta'sir etuvchi omillarni o'lchash va umumlashtirish.

V.Xo'jalik jarayonlariga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni o'rganishda ilmiy yondoshish.

G.Korxona faoliyati rejalarini o'rganish, baho berish, xo'jalik faoliyati natijalariga ta'sir etuvchi omillarni bir-biriga bog'liq ravishda o'rganish, o'lchash va umumlashtirish.

10.Moliyaviy va boshqaruv tahlilning axborot manbalariga nimalar kiradi?

A.Hisobga oluvchi schyotlar.

B.Mahsulotlar tannarxi.

V.Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari, tezkor hisob va hisobot, statistik hisob va hisobot.

G.Korxona mablag'lari.

**11. Asosiy fondlardan foydalanishning samaradorlik darajasi qanday aniqlanadi?**

A.Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati tovar mahsuloti hajmiga bo'linadi.

B. Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati foyda miqdoriga bo'linadi.

V.Tovar mahsuloti hajmi asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'linadi.

G.Tovar mahsuloti hajmi 100 ga ko'paytirilib, asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati hajmiga bo'linadi.

## **12.Tovar mahsuloti rejası bajarilishi qanday aniqlanadi?**

A.Hisobot davridagi tovar mahsuloti hajmi o'tgan yilgi tovar aylanish hajmiga bo'linadi.

B.Hisobot davridagi tovar mahsuloti hajmi 100 ga ko'paytirilib, rejadagi tovar mahsuloti hajmiga bo'linadi.

V.Rejadagi tovar mahsuloti hajmi 100 ga ko'paytirilib, hisobot davridagi tovar mahsuloti hajmiga bo'linadi.

G.Rejadagi tovar mahsuloti hajmi hisobot davridagi tovar mahsuloti hajmiga bo'linadi.

## **13.Moliyaviy tahilga ta'rif bering.**

A.Korxona xo'jalik faoliyatini o'rganishga qaratilgan iqtisodiyotning mikroiqtisod jarajasini o'rganishga qaratilgan tahlildir.

B.Xo'jalik yorituvchi sub'yekt faoliyatini makon va zamon nuqtai nazaridan barcha tuzilmalari bilan birga batafsil tahlil qilishdir.

V.Xo'jalik yorituvchi sub'yekt moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o'rganishga qaratilgan tahlildir.

G.Xo'jalik faoliyatida natija va omillar o'rtasidagi bog'liqlik funksional bog'liq bo'lman sharoitda, ularning bog'liqligini o'rganishga qaratilgan tahlildir.

## **14.Boshqaruva tahliliga ta'rif bering.**

A.Korxona rahbariyati, egasi va mutaxassislari tomoindan ichki imkoniyatlarni ishga solish va samaradorlikni oshirish maqsadida qilinadigan tahlildir.

B.Xo'jalik faoliyatida natija va omillar o'rtasidagi bog'liqlik funksional bog'liq bo'lman sharoitda, ularning bog'liqligini o'rganishga qaratilgan tahlildir.

V.Xo'jalik yorituvchi sub'ekt faoliyatini makon va zamon nuqtai nazaridan barcha tuzilmalari bilan birga batafsil tahlil qilishdir.

G.Xo'jalik faoliyati natijasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash usullarini majmuasini o'zida aks ettiradigan tahlildir.

## **15.Omilli tahlilga ta'rif bering.**

A.Xo'jalik yorituvchi sub'yekt istiqbolini, biznes-rejasini, invistisiya loyihamalarini asoslash uchun hali sodir bo'lman, ya'ni bo'lishi kutilayotgan iqtisodiy jarayonlarni o'rgatadigan tahlildir.

B.Xo'jalik faoliyati natijasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash usullarini majmuasini o'zida aks ettiradigan tahlildir.

V.Xo'jalik yurituvchi sub'yekt faoliyatini makon va zamon nuqtai nazaridan barcha tuzilmalari bilan birga batafsil tahlil qilishdir.

G.Xo'jalik yurituvchi sub'yekt moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o'rghanishga qaratilgan tahlildir.

### **16.Sotishdan olingan sof tushum qanday aniqlanadi?**

A.Mahsulot sotishdan tushgan yalpi tushumdan ishlab chiqarish tannarxi ayrıladı.

B.Mahsulot sotishdan tushgan yalpi tushumdan qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i ayrıladı.

V.Mahsulot sotishdan tushgan yalpi tushumga qo'shilgan qiymat solig'i qo'shib, ishlab chiqarish tannarxi ayrıladı.

G.Mahsulot sotishdan tushgan yalpi tushumga qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i qo'shiladi.

### **17.Sof foyda qanday aniqlanadi?**

A.Soliq to'lagunga qadar umumiyligi moliyaviy natijadan boshqa soliq va ajratmalar ayrıladı.

B. Soliq to'lagunga qadar umumiyligi moliyaviy natijaga boshqa soliq va ajratmalar qo'shiladi.

V. Soliq to'lagunga qadar umumiyligi moliyaviy natijadan daromad solig'i ayrıladı.

G. Soliq to'lagunga qadar umumiyligi moliyaviy natijaga boshqa soliq va ajratmalar ko'paytiriladi.

### **18.Yalpi foyda qanday aniqlanadi?**

A.Sotishdan olingan sof tushumga ishlab chiqarish tannarxi qo'shiladi.

B.Sotishdan olingan sof tushum 100 ga ko'paytirilib, ishlab chiqarish tannarxiga bo'linadi.

V.Sotishdan olingan sof tushumdan ishlab chiqarish tannarxi ayrıladı.

G. Sotishdan olingan sof tushum 100 ga bo'linib, ishlab chiqarish tannarxiga ko'paytiriladi.

### **19.Mehnat unumdarligiga ta'rif bering.**

A.Vaqt birligi (soat,oy,yil) ichida ishchilar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki bir mahsulot birligini ishlab chiqarishga ketgan vaqt birligi.

B.Ish vaqtidan samarali foydalanish.

V.Mehnatni ilmiy tarzda tashkil etishni yaxshilash.

G.Ilg'or ishlab chiqarish tajribalaridan foydalanish.

### **20.Mehnat unumdarligini darjasasi qanday aniqlanadi?**

- A.Tovar mahsuloti hajmini ishlovchilarning soniga nisbati.
- B.Ishlovchilarning sonini tovar mahsuloti hajmiga nisbati.
- V.Tovar mahsuloti hajmini sotilgan sotilgan mahsulot hajmiga nisbati.

G.Sotilgan mahsulotning yil boshiga qoldig'idan tovar mahsuloti ayrıldı.

**21.Mahsulot sifati deganda nima tushuniladi?**

- A.Mahsulot sarhiliga qarab.
- B.Mahsulotning barcha mo'ljallangan maqsadlarda foydalanishga yaroqli xususiyatlarining majmuasi.
- V.Yaroqsiz mahsulot darajasi.
- G.Mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda erishiladigan yutuqlarga mos va istiqbolli mahsulotlar.

**22. Ustav kapitali qaysi moddalar hisobiga xosil bo'ladi?**

- A. Ta'sischilarning pul qo'yishi.
- B Korxonaning xo'jalik faoliyatidan kelgan foydasi.
- V. Ta'sischilarning maqsadli badali.
- G.Ta'sischilarning pul qo'yishi, foyda va maqsadli badali.

**23 .Rezerv kapitali qaysi moddalar hisobiga xosil bo'ladi?**

- A. Foyda.
- B. Ta'sischilarning pul qo'yishi.
- V. Pay puli.
- G.) Foyda va soliqlar bo'yicha imtiyozlar.

**24.Quyida berilgan ko'rsatkichlardan qaysilari korxonaning moliyaviy barqarorlik darajasini ifodalaydi?**

- A. Debitorlik qarzlarini aylanishi.
- B. Qarzga olingan va o'z mablag'lari nisbati.
- V. Joriy aktivlarni aylanishi.
- G. Operasion davr.

**25. Buxgalteriya balansi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:**

- A. Aktivlar va majburiyatlar.
- B. Uzoq muddatli aktivlar va o'z kapitali.
- V. Joriy aktivlar va majburiyatlar.
- G.Aktivlar, uz kapitali va aarz kapitali.

**26.Korxonaning moliyaviy holati nimaga bog'liq?**

- A.Korxonaning asosiy faoliyati natijalariga.
- B. Korxonaning ja'mi faoliyati natijalariga.
- V. Korxonaning ishlab chiqarish faoliyati natijalariga.
- G. Korxonaning moliyaviy faoliyati natijalariga.

**27.Balansning aktiv qismi quyidagi tahliliy guruhlardan iborat:**

- A.Uzoq muddatli va joriy aktivlar.
- B.Uzoq mudatli aktivlar va hisobdag'i mablag'lar.
- V.Materiallar va zaxiralar, pul mablag'lari va hisobdag'i mablag'lar.
- G.Asosiy vositalar va oborotdan tashqari aktivlar.

**28. Balansning passiv qismi quyidagi tahliliy guruhlardan iborat:**

- A.Uzoq muddatli va qisqa muddatli aktivlar.
- B.Qisqa muddatli aktivlar va kreditorlik qarzlari.
- V.O'z va qarz mablag'lari.
- G. Qarz mablag'lari va taqsimlanmagan foyda.

**29.Tovar mahsuloti hajmining o'sishiga ta'sir qiluvchi omillar iqtisodiy belgilariga ko'ra necha guruhg'a umumlashtiriladi?**

- A.Mehnat omillari.
- B.Mehnat vositasi omillari.
- V.Mehnat buyumlar omillari.
- G.To'g'ri javob: A,B,V.

**30.Fond sig'imi ko'rsatkichini aniqlang.**

- A.Tovar mahsuloti hajmini ishlangan dastgoh-soatlarga nisbati.
- B.Sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining o'rtacha yillik qiymatini tovar mahsulot hajmiga nisbati.
- V.Ishlangan dastgoh-soatlar hajmini tovar mahsuloti hajmiga nisbati.
- G.Tovar mahsuloti hajmini ishlangan dastgoh-soatlar hajmiga nisbati.

**31.Material samarasi ko'rsatkichini aniqlang.**

- A.Moddiy xarajatlar summasini tovar mahsuloti hajmiga nisbati.
- B.Ishlab chiqarish zahiralari summasini tovar mahsuloti hajmiga nisbati.
- V.Tovar mahsuloti hajmini moddiy xarajatlar summasiga nisbati.
- G.Tovar mahsuloti hajmini ishlab chiqarish tannarxiga nisbati.

**32.Material sig'imi ko'rsatkichini aniqlang.**

- A.Tovar mahsuloti hajmini moddiy xarajatlar summasiga nisbati.
- B.Ishlab chiqarish tannarxini tovar mahsuloti hajmiga nisbati.
- V.Moddiy xarajatlar summasini tovar mahsuloti hajmiga nisbati.
- G.Ishlab chiqarish zahiralari summasini tovar mahsuloti hajmiga nisbati.

**32.Kompleks tahlil deb qanday talilga aytildi?**

- A. Hamma ob'yektni o'rganish shart bo'lмаган hollarda, ularning ayrimlari tanlab tahlil qilinadi.

B.Bitta ob'yeektni faoliyatini bir qancha hisobot davrida, barcha bo'linmalari bilan batafsil o'rganish.

V.Tarmoqlararo umumiy tahlil.

G.Alovida tarmoqlar tahlili.

**34.Funksional qiymat tahlilini qo'llashdan maqsad nima?**

A.Xo'jalik faoliyati natijasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisoblash usullari majmuasini o'zida aks ettiradi.

B.Xo'jalik yurituvchi sub'yekt faoliyatini makon v zamaon nuqtai nazardan batafsil tahlil qilish.

V.FQTni qo'llash natijasida korxonaning xarajatlarini kamaytirish evaziga uning faoliyatida yuqori samaradorlik va sifat ko'rsatkichiga erishiladi.

G. Tarmoqlararo umumiy tahlil o'tkaziladi.

**35. Asosiy fondlarning eskirish koeffisienti qanday aniqlanadi?**

A.Asosiy vositalarni eskirish summasi : asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati.

B. Asosiy vositalarning eskirish summasi : asosiy vositalarning qoldiq qiymati.

V. Asosiy vositalarning eskirish summasi : asosiy vositalarning tiklash qiymati.

G. Asosiy vositalarni qoldik qiymati : asosiy vositalarni tiklash qiymati

**36. Agar tovar mahsuloti hajmining qiymati 100 ming. so'mni tashkil etsa, mahsulotni ishlab chiqarish tannarxi 80 ming. so'm bo'lsa, u holda tovar mahsulotining har so'miga qilingan xarajatni aniqlang.**

A. 50 tiyin.

B.60 tiyin

V.80 tiyin.

G.40 tiyin.

**37.Sof mahsulot hajmi qanday aniqlanadi?**

A.Tovar mahsuloti hajmidan moddiy xarajatlar va amortizasiya summasi chegiriladi.

B.Tovar mahsuloti hajmidan mehnat xarajatlari chegiriladi.

V.Tovar mahsuloti hajmidan mehnat xarajatlari va amortizasiya summasi chegiriladi.

G. Tovar mahsuloti hajmidan moddiy va mehnat xarajatlari chegiriladi.

**38. Asosiy fondlarning texnik holatini tahlil qilishda o'rganiladigan ko'rsatkichlarni ko'rsating.**

- A. Yaroqlilik, eskirish darjasи.
- B. Yangilanish, eskiirsh va yaroqlilik.
- V. Yangilanish va eskirish.
- G. Yaroqlilik va yangilanish.

**39. Korxonaning moliyaviy holati to'g'risidagi axborotlarning hisobga olinmaydigan manbalariga quyidagilarning materiallari kiritiladi:**

- A. Idora ichidagi va idora tashqarisidagi taftish.
- B. Tashqi va ichki audit va soliq idoralarining tekshiruvlari.
- V. Laboratoriya va tibbiy – sanitariya nazorati.
- G. Idora ichidagi va idora tashqarisidagi taftish, tashqi va ichki audit

**40. Korxonaning moliyaviy holati to'grisidagi ma'lumotlardan foydalanish xuquqi quyidagilarga bo'linadi:**

- A. Ochiq ma'lumotlar.
- B. Yopiq ma'lumotlar.
- V. Ochiq va yopiq ma'lumotlar.
- G. Tijorat ma'lumotlari.

**41. Kichik korxonalar yillik moliyaviy hisobotning qaysi shakllarini tegishli tashkilotlarga taqdim etadilar?**

A. 1-sonli shakl «Buxgalteriya balansi», 2-sonli shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot», 5-sonli shakl «Xususiy kapital to'grisidagi hisobot».

B. 1-sonli shakl, 2-sonli shakl.  
V. 1-sonli shakl, 2-sonli shakl va 6-sonli shakl «Debitorlik va kreditorlik qarzları xaqida ma'lumotnoması» 2a-sonli shakl.

G. 1-sonli shakl, 2-sonli shakl va 3-sonli shakl «Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot».

**42. Yuridik shaxs maqomiga ega byudjet tashkilotlari yillik moliyaviy hisobotning qaysi shakllarini tegishli idoralarga taqdim etadilar?**

- A. 1-sonli shakl «Buxgalteriya balansi».
- B. 2-sonli shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot».
- V. 1-sonli shakl, 2-sonli shakl.
- G. 1,2,3-sonli shakllar.

**43. Bino, inshoatlar, mashina va uskunalar – Bu**

- A. Joriy aktivlar.
- B. Ko'chmas mulk.

V. Oson sotiladigan aktivlar.

G. Uzoq muddatli aktivlar.

**44. Korxonaning o'z aylanma mablag'lari teng:**

A. Korxonaning o'z mablag'lari manbalari oluv uzoq muddatli aktivlar.

B. O'z mablag'lari manbalari qo'shuv uzoq muddatli passivlar oluv uzoq muddatli aktivlar.

V. Joriy aktivlar oluv qisqa muddatli majburiyatlar.

G. O'z mablag'lari oluv uzoq muddatli aktivlar.

**45. Korxonaning aylanma mablag'lari nima hisobiga ko'payadi?**

A. Korxona o'z fondlarining uo'sishi.

B. Kredit va qarzlarning usishi.

V. Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar.

G. Korxonaning o'z fondlarini, kredit va qarzlarni o'sishi.

**46. Oson naqd mablag'larga aylanadigan aktivlar – Bu...**

A. Aksioner kapitali.

B. Aylanma kapital.

V. Tez sotiladigan aktivlar.

G. Qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar.

**47. Agar korxonaning ko'chmas mulki 1000 ming so'm, uzoq muddatli majburiyatlari 200 ming so'm, joriy aktivlari 500 ming so'm bo'lsa, u holda o'z aylanma kapital necha so'mni tashkil etadi?**

A. 100 ming so'm.

B. 500 ming so'm .

V. 600 ming so'm.

G. 1000 ming so'm.

**48. Ishlab chiqarish zaxiralari kaysilarni bir qismi?**

A. Joriy aktivlarni.

B. Uzoqmuddatli majburiyatlarni.

V. Oson sotiladigan aktivlarni.

G. Qisqa muddatli majburiyatlarni.

**49. Moliyaviy mustaqillik koeffisienti qanday aniqlanadi?**

A. O'z kapitali : jami aktivlar.

B. Ustav kapitali : qisqa muddatli majburiyatlar.

V. O'z kapitali : joriy aktivlar.

G. O'z aylanma mablag'lari : aktivlar qiymati.

**50. Moliyaviy qaramlik koeffisienti qanday aniqlanadi?**

A. Ustav kapitali : majburiyatlar.

B. Jami aktivlar : o'z kapitali.

V. O'z aylanma mablag'lari : qarz mablag'lari.

G. O'z kapitali : majburiyatlar.

**51. Moliyaviy barqarorlik koeffisienti qanday aniqlanadi?**

A. O'z kapitali : qarz kapitali.

B. Aktivlar qiymati : majburiyatlar.

V. Aktivlar kiymati : kiska muddatli majburiyatlar.

G. O'z aylanma mablag'lari : uzoq muddatli majburiyatlar.

**52. Eng oson pul bo'ladigan (likvidlanadigan) aktivlar – Bu...**

A. Pul mablag'lari.

B. Pul mablag'lari va sof debitorlik qarzlari.

V. Debitorlik qarzlari.

G. Pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar.

**53. Tez sotiladigan aktivlar – Bu...**

A. Qimmatli qog'ozlar.

B. Qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar.

V. Sof debitorlik qarzlari.

G. Tayyor mahsulot.

**54. Sekin sotiladigan aktivlar – Bu...**

A. Uzoq muddatli investisiyalar.

B. Asosiy vositalarni qoldiq qiymati va muddati o'tgan debitorlik qarzlari.

V. Ishlab chiqarish zaxiralari.

G. Uzoq muddatli investisiyalar, tovar-moddiy zaxiralar va kelgusi davr xarajatlari.

**55. Tez muddatda to'lanadigan majburiyatlar-Bu...**

A.Kreditorlik qarzlari.

B.Mol yetkazib beruvchilar, pudratchilarga va mehnatga xaq to'lash bo'yicha qarzlar.

V.Qisqa muddatli bank kreditlar va qarzlar.

G.Olingan bo'naklar, byudjetga to'lovlar va sug'urtalar bo'yicha qarzlar.

**56 Qisqa muddatli passivlar-Bu...**

A.Joriy kreditorlik qarzlari va qiska muddatli bank kreditlari.

B. Qisqa muddatli kreditlar va qarz mablag'lari ayiruv muddatida to'lanmaganlari va olingan bo'naklar.

V.Qisqa muddatli bank kreditlari va olingan bo'naklar.

G.Kreditorlik qarzlari qisqa muddatli kreditlar va qarzlar.

**57. Uzoq muddatli passivlar-Bu...**

A.Uzoq muddatli bank kreditlari.

B.Ustav kapitali, qo'shilgan kapital va rezerv kapitali.

V.Uzoq muddatli bank kreditlari va uzoq muddatli qarzlar.

G.O'z mablag'lari manbalari.

### **58. Doimiy passivlar-Bu...**

A. Balans passiv qismi I bo'limi «O'z mablag'lari manbalari» xamma moddalari.

B.Ustav kapitali va taqsimlanmagan foyda.

V.Ustav kapitali, maqsadli tushumlar, kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar.

G.Uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlar.

### **59. Mutlaq likvidlilik koeffisienti teng:**

\_\_\_\_\_?\_\_\_\_\_  
qisqa muddatli majburiyatlar

A. Joriy aktivlar.

B.Uzoq muddatli majburiyatlar.

V.Oson sotiladigan aktivlar.

G.Pul mablag'lari va qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar.

### **60. Joriy likvidlilik koeffisienti teng:**

\_\_\_\_\_?\_\_\_\_\_  
qisqa muddatli majburiyatlar

A. Joriy aktivlar.

B.Uzoq muddatli majburiyatlar.

V.Oson sotiladigan aktivlar.

G.Sekin sotiladigan aktivlar.

### **61. Muddatli likvidlilik koeffisienti teng:**

\_\_\_\_\_?\_\_\_\_\_  
Qisqa muddatli majburiyatlar

A. Qiyin sotiladigan aktivlar.

B.Eng oson likvidlanadigan aktivlar.

V.Pul mablag'lari, sof debitorlik qarzlari va qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar.

G.Uzoq muddatli majburiyatlar.

**62.Hisobot yili korxonaning joriy likvidligi oshgani xolda muddatli likvidligi kamaygan. Quyida berilganlarga ko'ra ushbu vaziyatni baholang?**

A. Mol yetkazib beruvchilarga qarzlarni ko'payishi.

B.Tovar-moddiy zaxiralarni ko'payishi.

V.Debitorlik qarzlarini kamayishi.

G.Qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarni sotish.

**63. Korxona to'lov qobiliyatiga ega bo'ladi, agar joriy aktivlar:**

A.O' tgan yildagidan ko'p bo'lsa.

B.Ko'chmas mulkga nisbatan ko'p bo'lsa.

V.Q isqa muddatli majburiyatlarni qoplash.

G.Katta hajmdagi mahsulot zaxiralaridan iborat bo'lsa.

**64. Quyidagilardan qaysilari korxonaning ishchanlik faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi?**

A. Qarz kapitalini o'z kapitaliga nisbati.

B.Debitor qarzlarini aylanish kuni.

V.Jami aktivlarni rentabelligi.

G. Mutlok likvidlilik koeffisienti.

**65.Debitorlik qarzlarining aylanish koeffisienti qanday aniqlanadi?**

A. Sof tushum : sof debitorlik qarzlarining o'rtacha qoldig'i.

B.Yalpi tushum : debitorlik qarzlarining o'rtacha qoldig'i.

V.Debitorlik qarzlarining o'rtacha qoldig'i x 360 : maxsulotni sotishdan tushgan sof tushum.

G. Sof debitorlik qarzlarining o'rtacha qoldig'i : sof tushum.

**66. Kreditorlik qarzlarining aylanish koeffisienti qanday aniqlanadi?**

A. Kreditorlik qarzlarining o'rtacha qoldig'i x360:sof tushum.

B.Sotilgan mahsulotlarning tannarxi : kreditorlik qarzlarining o'rtacha qoldig'i.

V.Kreditorlik qarzlarining o'rtacha qoldig'i: sotilgan mahsulotlarning tannarxi.

G.Mahsulotni sotishdan tushgan sof tushum : kreditorlik qarzlarining o'rtacha qoldig'i.

**67. Operasion davrning davomiyligi qanday aniqlanadi?**

A.Jami aktivlarning aylanish kuni qo'shuv tovar- moddiy zaxiralar.

B.Debitorlik qarzlarining aylanish kuni.

V.Kreditorlik qarzlarining aylanish kuni qo'shuv moddiy aylanma mablag'larning aylanish kuni.

G.Tovar – moddiy zaxiralarning aylanish kuni qo'shuv debitorlik qarzlarining aylanish kuni.

**68. Moliyaviy davrning davomiyligi qanday aniqlanadi?**

A. Operasion davrning davomiyligi ayiruv kreditorlik qarzlarining aylanish kuni.

B.Kreditorlik qarzlarining aylanish kuni qo'shuv debtorlik qarzlarining aylanish kuni.

V.Jami aktivlarning aylanish kuni ayiruv kreditorlik qarzlari.

G.Permanent kapitalning aylanish kuni qo'shuv qarz kapitalining aylanish kuni.

### **69. Ming so'mlik sanoat ishlab chiqarish fondlaridan (SICHF) olinadigan fond qaytimi qanday aniqlanadi?**

A.Tovar mahsuloti hajmi : sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlarining (SICHF) o'rtacha yillik qiymati

B. SICHFlarining o'rtacha yillik qiymati : tovar mahsuloti hajmi.

V.Sof foyda : SICHFning o'rtacha yillik qiymati.

G.Tovar mahsuloti hajmi : ishlangan dastgox- soatlarning soni.

### **70. Tovar mahsulotini ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga qanday mehnat vositalari omillari ta'sir ko'rsatadi?**

A. SICHFlarining o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi va ming so'mlik SICHFlaridan olinadigan samarani o'zgarishi.

B.Mashina va uskunalar ulushining o'zgarishi va fond sig'imining o'zgarishi.

V.Ming so'mlik mashina va uskunalardan olinadigan samarani o'zgarishi va ming so'mlik SICHFlaridan olinadigan samarani o'zgarishi.

G.SICHFlarining o'rtacha yillik qiymati va asosiy fondlarning faol qismining ulushi.

### **71.Tuzilish vaqtiga ko'ra buxgalteriya balansi bo'lishi mumkin:**

A. Joriy.

B.Kirish va joriy.

V.Joriy, bo'lish va birlashtirish.

G.Kirish, joriy, tugatish, bo'lish va birlashtirish.

### **72. Uzoq muddatli aktivlar - Bu...**

A. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati va uzoq muddatli investisiyalar.

B.Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati, uzoq muddatli investisiyalar va kapital qo'yilmalari.

V.Asosiy vositalari va nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati, uzoq muddatli investisiyalar va o'rnatilgan asbob-uskunalar.

G.Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar, uzoq muddatli investisiyalar va o'rnatilgan asbob-uskunalar, kapital qo'yilmalar, uzoq muddatli debtorlik qarzlari va uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar.

### **73. Joriy aktivlar-Bu...**

A.Tovar-moddiy zaxiralar.

B.Ishlab chiqarish zaxiralari va pul mablag'lari.

V.Tovar-moddiy zaxiralar, debitorlar, pul mablag'lari, kelgusi davr xarajatlari, kechiktirilgan xarajatlar, qisqa muddatli investisiyalar.

G.Ishlab chiqarish zaxiralari va tayyor mahsulot.

#### **74. Majburiyatlar-Bu...**

A.Joriy majburiyatlar.

B.Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlari.

V.Kreditorlik qarzlari, uzoq muddatli bank kreditlari va qarzlar.

G.Uzoq muddatli majburiyatlar va joriy majburiyatlar.

#### **75. Ishchi kapitali-Bu...**

A.O'z aylanma mablag'lari ayiruv muddati o'tgan debitorlik qarzlari.

B.O'z aylanma mablag'lari ayiruv debitorlik qarzlari.

V.O'z mablag'lari ayiruv majburiyatlar.

G.O'z mablag'lari ayiruv joriy majburiyatlar.

#### **76. Qo'shilgan kapitali-Bu...**

A Aksiyaning bozor bahosi.

B.Aksiyaning nominal qiymati.

V.Aksiyaning balans qiymati.

G.Kurs farqi so'mmasi qo'shuv emission daromad.

#### **77. Rezerv kapitali qaysi moddalar hisobiga hosil bo'ladi?**

A.Foyda.

B.T a'sischilarning pul qo'yishi.

V.Pay puli.

G.Foyda va soliqlar bo'yicha imtiyozlar

#### **78. Pul mablag'larining harakati nechta oqimdan iborat?**

A.2.

B.3.

V.4.

G.5.

#### **79.Tovar-moddiy zaxiralarining aylanish kuni qanday aniqlanadi?**

A. Sof tushum : tovar-moddiy zaxiralarining o'rtacha qoldig'i.

B.Sof tushum : ishlab chiqarish zaxiralari.

V.Sotilgan maxsulotlarning tannarxi : tayyor maxsulot.

G.Tovar-moddiy zaxiralarining o'rtacha qoldig'i x 360) : (sotilgan mahsulotlarning tannarxi

#### **80.Tovar-moddiy zaxiralarining band bo'lish koeffisienti qanday aniqlanadi?**

A. Tovar-moddiy zaxiralarining o'rtacha qoldig'i : sof tushum.

B.Tovar-moddiy zaxiralarning o'rtacha qoldig'i : sotilgan mahsulotlarning tannarxi.

V. Sof tushum : ishlab chiqarish zaxiralari.

G.Sotilgan mahsulotlarning tannarxi : tayyor mahsulot.

**81.Debitorlik qarzlarini o'rtacha uzish muddati qanday aniqlanadi?**

A. Sof tushum : debitorlik qarzlarining o'rtacha qoldig'i.

B.Sotilgan mahsulot tannarxi : debitorlik qarzlarining o'rtacha qoldig'i.

V.Sotishdan tushgan yalpi tushum : sof debitorlik qarzları.

G.(sof debitorlik qarzlarining o'rtacha qoldig'i x 360) : (sof tushum).

**82. Kreditorlik qarzlarining aylanish kuni qanday aniqlanadi?**

A. (kreditorlik qarzlarining o'rtacha qoldig'i x 360) : (sotilgan mahsulot tannarxi).

B.Sof tushum : kreditorlik qarzlarining o'rtacha qoldig'i.

V.Sotilgan mahsulotlarning tannarxi : kreditorlik qarzlarining o'rtacha qoldig'i.

G.(kreditorlik qarzlarining o'rtacha qoldig'i x 360) : (sof tushum).

**83. Asosiy vositalarni yangilash koeffisienti aniqlanadi?**

A.Yangi kelgan asosiy vositalar so'mmasini ularni yil oxiriga bo'lган boshlang'ich qiymatiga nisbati.

B.Yangi kelgan asosiy vositalar so'mmasini ularni yil oxiriga bo'lган qoldiq qiymatiga nisbati.

V.Yangi kelgan asosiy vositalar so'mmasini ularni tiklash qiymatiga nisbati.

G.Yangi kelgan asosiy vositalar so'mmasini ular yil boshiga bo'lган xaqiqiy qiymatiga nisbati.

**84. Asosiy vositalarning chiqib ketish koeffisienti aniqlanadi:**

A.Ciqib ketgan asosiy vositalar summasini ularning yil boshiga bo'lган qoldiq qiymatiga nisbati.

B.Ciqib ketgan asosiy vositalar so'mmasini ularni yil oxiriga bo'lган boshlang'ich 'qiymatiga nisbati.

V.Ciqib ketgan asosiy vositalar so'mmasini ularni yil oxiriga bo'lган qoldiq qiymatiga nisbati.

G.Chikib ketgan asosiy vositalar so'mmasini ularni yil boshiga bo'lган boshlang'ich qiymatiga nisbati.

**85. Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffisienti aniqlanadi:**

A.Asosiy vositalarning qoldiq qiymatini ularni boshlang'ich qiymatiga nisbati.

B.Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini ularni qoldiq qiymatiga nisbati.

V.Asosiy vositalarning eskirish so'mmasini ularni boshlang'ich qiymatiga nisbati.

G.Asosiy vositalarning eskirish so'mmasini ularni qoldiq qiymatiga nisbati.

**86. Fond samarasini o'zgarishiga qaysi omillar ta'sir etadi?**

A.Fond sig'imi va asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati.

B.Fond bilan qurollanish va asosiy fondlarning faol qismini ulushi.

V.Asbob-uskunalarni smenalik ishslash koeffisienti va ming so'mlik mashina va uskunalardan olinadigan samara.

G.Asosiy fondlarning faol qismini ulushi va ming so'mlik mashina va uskunalardan olinadigan samara.

**87. Qisqa muddatli passivlar-Bu...**

A.Joriy kreditorlik qarzlari va qisqa muddatli bank kreditlari.

B.Qisqa muddatli kreditlar va qarz mablag'lari ayiruv muddatida to'lanmaganlari va olingan bo'naklar.

V.Q isqa muddatli bank kreditlari va olingan bo'naklar.

G.Kreditorlik qarzlari qisqa muddatli kreditlar va qarzlar.

**88. Uzoq muddatli passivlar-Bu...**

A.Uzoq muddatli bank kreditlari.

B.Ustav kapitali, qo'shilgan kapital va rezerv kapitali.

V.Uzoq muddatli bank kreditlari va uzoq muddatli qarzlar.

G.O'z mablag'lari manbalari.

**89.Jami aktivlarning rentabellik darajasi qanday aniqlanadi?**

A.Sof foyda hajmi x 100 : jami aktivlarning o'rtacha yillik qiymati.

B.Sof tushum : jami aktivlarning o'rtacha yillik qiymati x 100.

V.Yalpi foyda - jami aktivlarning o'rtacha yillik qiymati x 100..

G.Yalpi tushum x 100 - jami aktivlarning o'rtacha yillik qiymati.

**90. Agar korxonaning ko'chmas mulki 1000 ming so'm, uzoq muddatli majburiyatlari 200 ming so'm, joriy aktivlari 500 ming so'm bo'lsa, u xolda o'z aylanma kapital necha so'mni tashkil etadi?**

A.100 ming so'm.

B.500 ming so'm.

V. 600 ming so'm.

G.1000 ming so'm.

**91.Korxonaning moliyaviy holati tog'risidagi axborotlarning hisobga olinmaydigan manbalariga quyidagilarning materiallari kiritiladi:**

- A. Idora ichidagi va idora tashqarisidagi taftish.
- B.T ashqi va ichki audit va soliq idoralarining tekshiruvlari.
- V.Idora ichidagi va idora tashqarisidagi taftish, tashqi va ichki audit va soliq idoralarining tekshiruvlari, laboratoriya va tibbiy-sanitariya nazorati hamda mexnat jamoasi kengashlari, yig'ilishlari.

G.Mehnat jamoasi kengashlari, yig'ilishlari.

### **92.Xususiy kapitalning rentabellik darajasi qanday aniqlanadi?**

- A. Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati : sof foyda.
- B.Sof foyda x 100 : xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati.
- V.Yalpi foyda - xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati.
- G.Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati : yalpi foyda.

### **93 Korxonaning o'z aylanma mablag'lari teng:**

- A) Korxonaning o'z mablag'lari manbalari ayiruv uzoq muddatli aktivlar.

B O'z mablag'lari manbalari qo'shuv uzoq muddatli passivlar ayiruv uzoq muddatli aktivlar.

V. Joriy aktivlar ayiruv qisqa muddatli majburiyatlar.

G.O'z mablag'lari ayiruv uzoq muddatli aktivlar.

### **94.Moliyaviy tahlil qilishda qanday usullardan foydalaniladi?**

- A.Baholash, kalkulyasiya qilish, ikki yoqlama yozuv.
- B.Taqqoslash, gruppalash, o'rtacha va nisbiy darajadagi ko'rsatkichlarni aniqlash, balansli bog'lanish, zanjirli bog'lanish, analitik jadvallar tuzish.

V.Inventarizasiya.

G.Ma'lumotlarni umumlashtirish.

### **95.Xususiy kapital qatoriga kiruvchi mablag'larni aniqlang.**

A.Ustav kapitali, taqsimlanmagan foyda.

B.Taqsimlanmagan foyda.

V.Rezerv kapitali, qo'shilgan kapital.

G.Ustav kapital, rezerv kapital, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda, maqsadli tushumlar va moliyalashtirishlar, kelgusi davr to'lovlar rezervi.

### **96.Moliyaviy tahlil uchun olingan ma'lumotlar qanday tekshiriladi?**

A.Ko'rsatkichlarni tanlab.

B.Mazmuniga ko'ra, taxlil to'g'rilinga qarab.

V.Bir qismi bo'yicha.

G.Barcha ko'rsatkichlar bo'yicha.

**97. Moliyaviy tahlil natijalaridan kimlar xabardor bo'lishi kerak?**

- A.Faqat korxona rahbari.
- B.Faqat korxona mutaxassislari.
- V.To'g'ri javob: A,B,G.
- G.Faqat hisobchi xodimlar.

**98. O'z mablag'larining xarakatchanligi koeffisienti qanday aniqlanadi?**

- A. O'z mablag'lari + uzoq muddatli passivlar – uzoq muddatli aktivlar : o'z mablag'lari.
- B.O'z kapitali + uzoq muddatli bank kreditlari – uzoq muddatli aktivlar.
- V.O'z aylanma mablag'lari – uzoq muddatli aktivlar.
- G.O'z kapitali + uzoq muddatli qarzlar : o'z mablag'lari.

**99.Qisqa muddatli majburiyatlarni o'z aylanma mablag'lar bilan qoplash koeffisienti qanday aniqlanadi?**

- A.O'z mablag'lari : qisqa muddatli majburiyatlar.
- B.O'z aylanma mablag'lar : majburiyatlar.
- V.O'z aylanma mablag'lar : qisqa muddatli majburiyatlar.
- G.O'z mablag'lari : kreditorlik qarzları.

**100. Agar material zaxiralari yil boshiga 60 ming so'm, yil oxiriga 100 ming so'm, mahsulotni sotishdan tushgan yalpi tushum 800 ming so'm, qo'shilgan qiymat solig'i-20% bo'lsa, u holda material zaxiralarining aylanish koeffisienti necha martani tashkil etadi?**

- A. 6 marta.
- B. 7 marta.
- V. 5,3 marta.
- G. 8 marta.

## IZOHLI LUG'AT

**Analiz** - yunoncha «analysie» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «bir butunni bo'laklarga bo'lib o'rganish» degan ma'noni anglatadi yoki biror jarayonni o'rganishda umumiylidkan xususiylik sari tadqiq qilish tushuniladi.

**Arifmetik tekshiruv** - balans va aylanma qaydnoma (vedomostlar), Bosh daftardagi summalarini solishtirish, balans guruxlari va bo'limlari bo'yicha summalarini aktiv va passiv yakunlari tengligini xisoblash yo'li bilan amalga oshiriladi.

**Aktivlarni likvidligi** - balans likvidligini aksi bo'lib, vaqt bo'yicha aktivlarni pul mablag'lariga aylanishi tushuniladi.

**Asosiy vositalar** - deb, korxonada ko'p yil foydalaniladigan mehnat qurollari: ya'ni binolar, inshootlar, mashinalar va asbob-uskunalar.

**Asosiy vositalar bilan ta'minlanish** - korxonaning biznes-rejasiga yoki o'tgan yillarga nisbatan asosiy fondlar bilan qurollanish darajasi.

**Aktiv (faol) asosiy fondlar** - kuch beradigan mashinalar va asbob-uskunalar, ish mashinalari, o'tkazgich jihozlar, o'lchash va tartibga solish asboblari.

**Asosiy fondlarning eskirish koeffisienti** - asosiy fondlarning eskirish so'mmasini (balans aktivining 1-bo'limi) ularning boshlang'ich qiymatiga (balans aktivining 1-bo'limi) bo'linadi.

**Asosiy fondlarni yangilash koeffisienti** - yangi kelgan asosiy fondlar so'mmasini asosiy fondlarning yil oxiriga bo'lgan qiymatiga bo'lish kerak.

**Asosiy fondlarni chiqib ketish koeffisienti** - chiqib ketgan asosiy fondlar so'mmasini ularning yil oxiriga bo'lgan qiymatiga bo'lish kerak.

**Asosiy fondlarni ishga yaroqlilik koeffisienti** - birdan eskirish koeffisienti ayrıldi.

**Asosiy (operasion) faoliyat bo'yicha pul oqimlari** - — xo'jalik jarayonlarini korxonaning pul mablag'lariga, foya miqdoriga ta'sirini ifodalaydi.

**Aylanma mablag'lar**- aylanma fondlar, muomala fondlari va boshqa harakatdagi aktivlarda turgan pul mablag'lari.

**Boshqaruv tamoyillari** - iqtisodiyotning barcha sohalarini boshqarish tizimining tuzilishi va amal qilinishini belgilab beruvchi asosiy qoida.

**Boshqaruv tizimi** - boshqarishning maqsadlari, tarkibi, shakli va usullari majmuasi. U dinamik bo'lib, ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlar o'zgarishi bilan uning unsurlarini aniq mazmuni ham o'zgaradi.

**Boshqaruv tahlili** - korxona ma'muriyati, mulk egasi va mutaxassislari tomonidan ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash va ularni ishga solish hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan tahlildir.

**Balansni likvidligi** - balansdagi likvid bo'lgan mablag'larning majburiyatlarni qoplash darajasi tushuniladi.

**Brak mahsulot** - tasdiqlangan andoza va texnika shartlarga mos kelmaydigan mahsulot.

**“Balans”** - lotincha bis – ikki marta, band – tarozi pallasi so'zlaridan tarkib topib, tom ma'noda ikki palla degan ma'noni anglatadi va tenglik tushunchasi sifatida ishlatiladi.

**Bir so'mlik tovar mahsulotiga ketgan xarajat** - ishlab chiqarish tannarxini tovar mahsuloti hajmiga nisbati tariqasida aniqlanadi.

**Deduksiya** - tadqiqot yoki biror ob'ektni (hodisani, jarayonni) o'rghanishda umumiyligidan xususiylik sari o'tilishi tushuniladi.

**Debitor qarzlari** - aynan tahlil qilinayotgan korxona aylanma mablag'larining bir qismi boshqa korxonalar aylanmasida qatnashishi tushuniladi.

**Debitorlik majburiyalarining aylanuvchanligi** - qarz majburiyatlarining undirib olish muddati va ularning aylanish koeffisenti..

**Debitorlik majburiyatarining aylanuvchanligini** - sotishdan olingan sof tushumni debitorlik majburiyatarining mavjud summasiga bo'lish asosida aniqlanadi.

**Debitorlik qarzlarining aylanish kuni** - debitorlik majburiyatarining mavjud summasini tahlil etish davrining kelendar y kuniga ko'paytirish va sotishdan olingan sof tushum summasiga bo'lish asosida aniqlanadi.

**Jami aktivlarni rentabelligi (mulk rentabelligi)** - korxonaning asosiy va aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi darajasini ko'rsatadi. U sof foydani jami aktivlarni o'rtacha qiymatiga nisbati tariqasida aniqlanadi.

**Joriy likvidlik koeffisienti** - u aylanma aktivlarga qo''yilgan moliyaviy resurslarning necha so'mi joriy majburiyatar bir o''miga tog'ri kelishini ifodalaydi. U joriy aktivlarni joriy majburiyatlarga nisbati tariqasida aniqlanadi.

**Zanjirli almashtirish usuli** - natija o'zgarishiga uchta va undan ko'p omillar ta'sir ko'rsatsa, ular o'rtasidagi bog'liqlik funksional bo'lganda qo'llaniladigan usul.

**Induksiya** - tadqiqotni yoki biror ob'ektni (hodisani, jarayonni) xususiylikdan umumiylig sari o'tilishi tushuniladi.

**Ichki xo'jalik rezervlar(imkoniyatlari)** - xo'jalik yuritish samaradorligini oshirish imkoniyatini aniqlashda ijobjiy ta'sir etuvchi omillar harakatini kuchaytirish va ularning salbiy ta'sirini tugatish tushuniladi.

**Iqtisodiy tahlilning maxsus usullari** - taqqoslash, guruhlashtirish, mutlaq va nisbiy miqdorlar, indeks, dinamika, bartaraf etish, zanjirli bog'lanish, etakchi bo'g'inni ajratib qo'yish, koeffisientlar, foizlar, o'rtacha miqdorlar, qayta hisoblash, ko'rsatkichlarning bajarilish foizi va oo'ish sur'atidagi farq, mutlaq farq kabilar.

**Iqtisodiy-matematik usullar** - integral, korrelyasiya, regressiya, omillar tizimini determinlashgan modellarda aks ettirish, nazariy o'yin kabilar.

**Istiqbol tahlili** - korxonaning kelgusi faoliyatini oldindan o'rganish sodir bo'ladigan jarayonlarni oldindan belgilash maqsadida amalga oshiriladigan tahlil.

**Investisiya faoliyati** – nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish, uzoq muddatli moddiy aktivlar sotib olish uchun etkazib beruvchilarga to'langan pullar va unga tenglashtirilgan mablag'lar chiqim ustunida aks ettiriladi.

**Ijtimoiy mehnat unumdorligi** - moddiy ishlab chiqarishda band bo'lган har bir ishlovchi hisobiga hosil qilingan milliy daromad miqdori bilan o'lchanadi

**Individual mehnat unumdorligi** – individual (yakka tartibda ishlovchining (lokal) uchastka, sexdagi, korxona, tarmoqdagi) ishlovchining ishlab chiqargan mahsuloti.

**Kompleks tahlil** - korxona faoliyatini makon va zamon nuqtai nazaridan barcha tuzilmalari bilan birga batafsil tahlil qilishdir.

**Kreditor qarzlari** - o'zga korxonalarining aylanma mablag'larining bir qismi aynan tahlil qilinayotgan korxona aylanmasida qatnashishi tushuniladi.

**Kreditor majburiyatlarining aylanuvchanligini** - sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxini kreditorlik majburiyatlarining mavjud summasiga bo'lish asosida aniqlanadi.

**Kreditorlik qarzlarining aylanish kuni** – kreditorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrining kelendarъ kuniga ko’paytirish va sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi summasiga bo’lish asosida aniqlanadi.

**Leveraj** - xususiy kapitalning o’sgan qismi bo’lib, ko’rsatib xususiy kapital rentabelligi koeffisienti bilan jami investisiyalar orasidagi farq koeffisienti olinadi.

**Metod(usul)** - yunon tilidan olingan bo’lib, tabiat hamda jamiyatda sodir bo’layotgan hodisa va jarayonlarni o’rganish va bilish usulidir. Muayyan fanning predmetini o’rganish usuli.

**Metodologiya(uslubiyat)** - muayyan fanning predmetini o’rgatish usuli, unda qo’llaniladigan yondashuvlar, usullar majmuasi.

**Moliyaviy tahlil** - xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o’rganishga qaratilgan tahlildir

**Materiallar samarasi** - moddiy xarajatlarning bir so’mi hisobiga qancha mahsulot ishlab chiqarilganligini ko’rsatadi.

**Material sig’imi** - bir so’m tovar mahsuloti ishlab chiqarish uchun qancha (necha tiyin) moddiy xarajatlar to’g’ri kelishini ko’rsatadi.

**Moliyaviy natija** - korxona faoliyatining foyda summasi va rentabellik darajasida ifodalanaigan yakunidir.

**Muddatli likvidlik koeffisienti** - u pul mablag’lari, sof debitorlik qarzlari summasini joriy majburiyatlarga bo’lish orqali aniqlanadi.

**Mutlaq likvidlik koeffisienti** - u pul mablag’larining joriy majburiyatlariga nisbati sifatida aniqlanadi.

**Moliyaviy mustaqillik koeffisienti** - u korxonaning o’z mablag’larining xo’jalik mablag’lari umumiy summasiga nisbati tariqasida aniqlanadi.

**Mehnat omillari** - korxonaning ishchi kuchi bilan ta’minlanishi, ish vaqtidan foydalanish va mehnat unumдорligi darajasini ifodalovchi ko’rsatkichlar.

**Mehnat vositalari omillari** - korxonaning asosiy vositalar bilan ta’minlanganligi, tarkibi, texnik holati va ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko’rsatkichlar.

**Mehnat predmetlari omillari** - korxonaning xom ashyo va asosiy materiallar bilan ta’minlanganligini hamda ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko’rsatkichlar.

Mahsulotni bir tekisda ishlab chiqarish - **mahsulotni tuzilgan jadval asosida, mahsulotning oldindan aniqlangan assortimenti va sifatiga muvofiq etkazib berish va sotishni o’z vaqtida ta’minlanishi.**

**Mahsulot etkazib berish shartnomasi** – korxonalar o’rtasida tuziladigan bitimdir.

**Mahsulot sifati** - uning barcha mo’ljallangan maqsadda foydalanishga yaroqli xususiyatlarining majmuasi.

**Mehnat unumdorligi** - moddiy ishlab chiqarishda vaqt birligi davomida hosil qilingan mahsulot miqdori bilan o’lchanadi

**Moddiy resurslar** - ishlab chiqarishning muayyan siklida foydalanishda bo’lgan va shu siklda ishlab chiqarilgan mahsulot (ish va xizmatlar) tannarxiga o’z qiymatini to’liq o’tkazib boruvchi buyumlar.

**Mahsulot tannarxi** - maxsulotni ishlab chiqarish, sotish va korxona moliyaviy faoliyati bo’qyicha barcha xarajatlarning pul orqali ifodalanishi.

**Moliyaviy faoliyat** — bo’limida aksiya chiqarishdan kelib tushgan tushum, uzoq va qisqa muddatli qarzlarni kelib tushishi va chiqimlar aks etadi.

**Moddiy tekshiruvlar** - moddiy boyliklar, pul mablag’lari xaqiqiy qoldig’ini buxgalteriya xisobi ma’lumotlari bilan qiyoslash orqali amalga oshiriladi.

**Omilli tahlil** - natija ko’rsatkichining o’zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ta’sir doirasini hisoblash usullari majmuasini o’zida ifoda ettirgan tahlildir.

**Omillar** - u yoki bu iqtisodiy ko’rsatkichga ijobiy hamda salbiy ta’sir ko’rsatuvchi faol harakat qiluvchi kuchlar tushuniladi.

**Operasion foyda(asosiy faoliyati foydasi)** - yalpi foydadan davr xarajatlari va boshqa operasion xarajatlar chegirilishi va asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar qo’shilishi natijasida hosil bo’lgan foyda.

**Pul oqimlari** – pul va pul mablag’larining hamda so’m va o’zga ekvivalentlarining kirimi va chiqimi.

**Pul ekvivalentlari** —erkin almashtiriladigan qisqa muddatli likvidlanadigan, qiymati o’zgarishi xatariga kamroq moyil bo’lgan investisiyalar.

**Pul mablag’lari** —kassadagi nakd pul va talab bo’yicha beriladigan depozitlar, shuningdek, hisob-kitob. valyuta va o’zga bank hisob raqamlaridagi mablag’lar.

**Passiv (nofaol) asosiy vositalar** - binolar, inshootlar va transport vositalari.

**Retrospektiv(joriy) tahlil** - hisobot davri tugashi bilan buxgalteriya, statistik va tezkor hisobotlar hamda hisobdan tashqari axborot manbalariga asosan o’tkaziladigan tahlil.

**Rentabellik** - jami ijtimoiy ishlab chiqarish va har bir korhonaning iqtisodiy hamda moliyaviy samaradorligini ifodolovchi ko'rsatkich.

**Raqobat** – lotincha so'zdan olingan bulib, maqsadga erishish uchun kurash, korxonalar o'rtasidagi sof kurashni bildiradi.

**Sintez** - yunoncha «synthisie» so'zidan olinib, umumlashtirish degan ma'noni bildiradi yoki biror ob'ektni (hodisani, jarayonni) o'rganishda xususiylikdan umumiylilik sari tadqiq tushuniladi.

**Sabab** - keng ko'lAMDAGI kompleks omillar tizimiga nisbatan qo'llanilib, kompleksni tashkil etuvchilar esa omillar deyiladi.

**Sotilgan mahsulot** - tovarlar iste'molchilarga jo'natilib uning haqi mol yuboruvchilarning bankdagi hisob - kitob raqamiga o'tkazilishi tushuniladi.

**Sof mahsulot** - tovar mahsulot bilan uni ishlab chiqarishga qilingan moddiy sarflar va asosiy vositalar va nomoddiy faollarning amortizasiyasi summasi o'rtasidagi farq.

**Soliq to'lagunga qadar foyda** - umumxo'jalik faoliyatidan kelgan foydaga favquloddagi foydani qo'shilishi va favquloddagi zararni chegirish orqali hosil bo'lgan foyda.

**Sof foyda** - soliq to'lagunga qadar foydadan daromad (foyda) solig'i va foydadan boshqa soliqlar va yig'implarni chegirilishi orqali aniqlangan foyda.

**Taqqoslanadigan mahsulot** - shu yil va undan oldingi yillarda seriyali va ommaviy tartibda ishlab chiqarilgan mahsulotning barcha turlari.

**Taqqoslanmaydigan mahsulot** - joriy yilda ishlab chiqarilgan mahsulotdir.

**Texnik-iqtisodiy tahlil** - kompleks iqtisodiy tahlil va muhandislik tahlilining birikishi asosida hosil bo'lgan tahlil.

**Tovar mahsuloti** - barcha ishlab chiqarish bosqichlarini o'tgan, to'la butlangan, texnika nazorati bo'limidan o'tgan va omborga topshirilgan mahsulot.

**Taqsimlanmagan foyda** — korxonaning hisobida turgan sof foydasi.

**To'lov qobiliyati** - xo'jalikning muddati kelgan to'lov majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan mablag'larning etarli yoki kamchiliginini aniqlash.

**Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda(hisobot foydasi)** - operasion foydaga moliyaviy faoliyatning daromadlarini qo'shilishi va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar chegirilishi orqali hosil bo'lgan foyda.

**Ustav kapitali** - o'z mablag'lar manbaining asosini tashkil etadi.

**Fikrlar hujumi usuli** - biror bir muhim masalani, muammoni hal etish uchun tashkil qilingan bir qancha mutaxassislar va olimlardan iborat ijodiy guruhning g'oyalari majmuasidir.

**Funksional qiymat tahlili (F.Q.T)** - har bir bajariladigan funksiyani (asosiy, yordamchi va keraksiz) qiymat jihatdan baholab, mahsulotning (ish, xizmat) samaradorligini va sifatini oshirgan holda keraksiz (disfunksiya) funksiyalarini bartaraf etish evaziga ichki xo'jalik rezervlarini axtarib topish va korxona aylanmasiga (oborotiga) solishga qaratilgan tahlildir.

**Fond samarasi (qaytimi)** - asosiy ishlab chiqarish vositalarining bir so'miga ishlab chiqariladigan mahsulot miqdoridir.

**Fond sig'imi** - bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish vositalarning qiymati.

**Hajm ko'rsatkichlari** - yalpi, tovar, sotilgan, sof va me'yoriy sof mahsulotlar.

**Shartli sof mahsulot** – bu sof mahsulot bilan asosiy fondlarning amortizasiyasi yig'indisidir.

**Yalpi ijtimoiy mahsulot** - moddiy ishlab chiqarish barcha tarmoqlarining iqtisodiy rivojlanishini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar.

**Yalpi mahsulot** - tarkibiga tovar mahsuloti qo'shuv tugallanmagan ishlab chiqarishning qoldig'i qo'shuv korhonaning o'zida tayyorlangan yarim - fabrikatlar va asbob - uskunalar kiradi.

**Yalpi foyda** - mahsulotni sotishdan tushgan daromadni tavsiflaydi va sof tushum va sotilgan mahsulot tannarxi o'rtaсидаги farq sifatida aniqlanadi.

**Qayta hisoblash usuli** - natija o'zgarishiga bitta yoki ikkita omil ta'sir ko'rsatganda qo'llaniladigan usul.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YNATI**

### **I.O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010.

2. Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни. 1996 йил 30 август. Ўзбекистоннинг янги Қонунлари. №14. –Т.: Адолат, 1996.

3. Ўзбекистон Республикасининг “Корхоналар тўғрисида”ги Қонуни. 1991 йил 15 феврал.

4. Ўзбекистон Республикасининг “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорлар ҳуқуқларини ҳимоялаш тўғрисида”ги Қонуни. Ўзбекистоннинг янги Қонунлари. №14. –Т.: Адолат, 1996.

5.“Монополияга қарши ишларни тартибга солиш ва рақобатни ривожлантириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” : Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 26 февралдаги ПФ-4191-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами – 9 сон – 2010- 9 март.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Иқтисодиётнинг реал сектори корхоналарини қўллаб-қувватлаш, уларни барқарор ишлашини таъминлаш ва экспорт салоҳиятини ошириш чора-тадбирлари дастури тўғрисида. 2008 йил 28 ноябрь, ПФ-4058-сон.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармойиши. Иқтисодий начор корхоналарни тижорат банкларига сотиш тартибини тасдиқлаш тўғрисида. 2008 йил 19 ноябрь, Ф-4010-сон.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. Ишлаб чиқариш ва ижтимоий инфратузилмани янада ривожлантириш юзасидан қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 2009 йил 20 январь, ПҚ-1041-сон.

9. Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик субъектларини текширишлар сони қисқартирилганлиги ҳамда текширишлар тизими такомиллаштирилганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айrim қонун ҳужжатларига ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Қонуни. 2006 йил 23 март. // “Халқ сўзи”. 2006 йил 24 март, №57, 1 б.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хорижий сармоя иштирокидаги корхоналар томонидан тайёр маҳсулотларни ишлаб

чиқаришни кўпайтиришни рағбатлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2003 йил 20 июн ПФ-3267-сон Фармони.

11.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Бозор ислоҳотларини чуқурлаштириш ва иқтисодиётни янада эркинлаштириш соҳасидаги устувор йўналишлар амалга оширилишини жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2005 йил 14 июнданги ПФ-3618-сон Фармони.

12.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ”Паст рентабелли, заарар кўриб ишлаётган, иқтисодий ночор давлат корхоналарини ва объектларини хусусийлаштиришни жадаллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори, 2003 йил август. 368-сон.

## **II. President asarlari**

13.Каримов.И.А. «Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қиласди». Президент Ислом Каримовнинг 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш якунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишлиланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маъruzasi. 21.01.2011.

14.Каримов.И.А. «Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси». Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Конунчиллик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъruzasi. 12.11.2010.

15.Каримов И.А. «Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш –тараққиётимизнинг муҳим омилидир». Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 18-йиллигига бағишлиланган тантанали маросимдаги маъruzasi. 07.12.2010.

16.Каримов И.А. «Жаҳон молиявий-иктисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари». Т.: Ўзбекистон, 2009 .

17.Ислом Каримов. «Демократик хуқуқий давлат, эркин иқтисодиёт талабларини тўлиқ жорий этиш, фуқаролик жамияти асосларини қуриш – фаровон ҳаётимиз гаровидир».–Т.:“Ўзбекистон”. НМИУ, 2007.

### **III.Sohaga oid me'yoriy hujjatlar**

18.Маҳсулот (ишлар, хизматлар)ни ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисидаги Низом. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори. 5.02.1999 №54 сон. Бухгалтерлар ва аудиторлар Асоссациясининг нашриёт маркази. Т.,2001 .

19.Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 2002 йил 27-декабрдаги "Молиявий ҳисобот шакллари ва уларни тўлдириш бўйича қоидаларни тасдиқлаш тўғрисида"ги 14-сон буйруғи (ЎзР АВ томонидан 24.01.2003 йилда 1209-сон билан рўйхатдан ўтказилган).

### **IV.Asosiy adabiyotlar**

20.Shoalimov A.X. Tojiboyeva Sh.A. «Iqtisodiy tahlil nazariyasি». – Т.: TDIU, 2010.

21.Васильева Л.С., Петровская М.В. «Финансовый анализ». –М.: Кнорус. 2010.

22.Маркарьян Э.А. «Финансовый анализ». –М.: Кнорус. 2010.

23.Донцова А.В.Никифорова Н.А. «Анализ финансовой отчетности». М: Дело и Сервис 2009.

24.Ионова А.Ф., Селезнева Н.Н. «Финансовый анализ». М. : ЮНИТИ. 2009.

25.Войтовский Н.В. «Комплексный экономический анализ предприятия». –Спб.: Питер, 2009 .

26.Савицкая Г.В. «Анализ хозяйственной деятельности предприятия». -М.: Инфра-М. 2009.

27.Савицкая Г.В. «Методика комплексного анализа хозяйственной деятельности». –М.: Инфра, 2009.

28.Басовский Л.Е. «Экономический анализ». –М.: Риор. 2009.

29.Гинзбург А.И. «Экономический анализ». –Спб.: Питер, 2009.

30.Шеремет А.Д. Р.С.Сайфуллин. «Методика финансового анализа» – М.: ИНФРА-М. 2007.

31.Пардаев М.Қ., Шоалимов А.Х. «Бошқарув таҳлили». –Т.: «Иқтисодиёт ва хукуқ дунёси», 2005.

32.Ваҳобов А.В. ва бошқалар. «Молиявий ва бошқарув таҳлили». -Т.: Шарқ, 2005.

33.Ергешев Е.Е. «Иқтисодий ва молиявий таҳлил». –Т.: Молия, 2005.

34.Shoalimov A.X. Tojiboyeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasি. –Т.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi, 2005.

35. Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. –Т.: Mehnat, 2004.
- 36.Ақрамов Э.А. «Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили». – Т.: Молия. 2003.

### **V.Qo'shimcha adabiyotlar**

37.Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг “Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир” ҳамда “Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир” номли маъruzalарини ўрганиш бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент: Иқтисодиёт. - 2010.

38.Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг 2010 йил 12 ноябрдаги қўшма мажлисидаги “Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” мавзусидаги маъruzасини ўрганиш бўйича ўқув-услубий мажмуа, Т.: “Иқтисодиёт” 2010.

39.Камышанов П.И., Камышанов А.П. «Бухгалтерская финансовая отчётность: составление и анализ». – 5-е издание. – М.: Омега-Л. 2010.

40. Бердюкова Т.Б. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия. –М.: Инфра-М., 2010 .

41.Камышанов П.И., Камышанов А.П. «Бухгалтерская финансовая отчётность: составление и анализ». – 5-е издание. – М.: Омега-Л. 2010.

42.Розанова Н.М, Зороастрова И.В. «Экономический анализ фирмы и рынка». – М.: ЮНИТИ-ДАНА. 2009.

43.Барлиенко В.И. «Анализ хозяйственной деятельности». –М.: Омега-Л. 2009.

44.ЧуевИ.Н., ЧуевЛ.Н. «Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности». –М.: Инфра .2008.

45.Просветов Г.И. «Анализ хозяйственной деятельности предприятия: Задачи и решения». – М.: РДЛ. 2008.

46.Савицкая Г.В. «Анализ эффективности и рисков предпринимательской деятельности». М: ИНФРА. 2008.

47.Артёменко В.Г., Останов В.В. «Анализ финансовой отчетности». –Мю: Омега –Л. 2007.

48.Титов В.И. «Анализ и диагностика финансово хозяйственной

деятельности предприятия». –М.: “Издательский дом Дашков И К”. 2007.

49.Ибрагимов А.Т., Раҳимов М.Ю. «Бошқарув таҳлили». -Т.: Молия, 2004.

#### **VI.Davriy nashrlar, statistic to'plamlar va hisobotlar**

50. Солиқ ва божхона хабарлари. – Т., Молиявий-иқтисодий газета.

51. Иқтисодчи. – Т., Тошкент Давлат иқтисодиёт университети газетаси.

52.Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – Т., Илмий-амалий иқтисодий журнал.

53. Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг 2010 йилдаги асосий кўрсаткичлари. –Т, 2011.

54.Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг 2009 йилдаги асосий кўрсаткичлари. –Т, 2010.

#### **VIII. Internet saytlari**

55.www.pravo.eastink.uz- (Сборник экономических законодательств).

56.www.iiia.org.uk- (The Institute of Internal Auditors-United Kingdom).

57.www.gov.uz- (Новости правительства Узбекистана).

58.www.fr.ru – (Финансовая академия при правительстве Российской Федерации).

59.www.uz- (Национальная Информационная агентство).

60.www.cer.uz- (Центр экономического исследования).

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>5</b>
<b>I BOB. MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILINING PREDMETI, VAZIFALARI VA TAMOYILLARI.....</b>	<b>8</b>
1.1. Iqtisodiy tahlil – dialektikaning muhim xususiyati.....	8
1.2. Moliyaviy va boshqaruv tahlili- boshqaruv tizimining maxsus funksiyasi.....	10
1.3. Moliyaviy va boshqaruv tahlilning predmeti va vazifalari.....	11
1.4. Moliyaviy va boshqaruv tahlilning mazmuni.....	14
1.5. Moliyaviy va boshqaruv tahlilning asosiy tamoyillari (prinsiplari).....	16
1.6. Iqtisodiy tahlilning rezervlarni aniqlashdagi ahamiyati.....	16
Qisqa xulosalar.....	17
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	17
Asosiy adabiyotlar.....	18
<b>II BOB. MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILINING UCLUBI VA MAXSUS USULLARI.....</b>	<b>19</b>
2.1. Moliyaviy va boshqaruv tahlilining uslubi .. ....	19
2.2. Moliyaviy va boshqaruv tahlili uslubining o'ziga xos xususiyatlari.....	21
2.3. Moliyaviy va boshqaruv tahlilining maxsus usullari.....	22
Qisqa xulosalar.....	27
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	27
Asosiy adabiyotlar.....	28
<b>III BOB. MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILINING IQTISODIY – MATEMATIK USULLARI.....</b>	<b>29</b>
3.1. Iqtisodiy-matematik usullarni tahlilda qo`llashning zaruruyati..	29
3.2. Iqtisodiy ko`rsatkichlarning o`zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda integral usulini qo`llash.....	30
3.3. Korrelyatsiya va regressiya usullarining mohiyati va ularni iqtisodiy tahlilda qo`llanilishi.....	31
3.4. Omillar tizimini determinallashgan modellarda aks ettirish.....	32
Qisqa xulosalar.....	35
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	35
Asosiy adabiyotlar.....	36
<b>IV BOB. IQTISODIYOT SUB'YEKTLARIDA TAHLIL ISHLARINI TASHKIL QILISH VA MANBALAR BILAN TA'MINLASH.....</b>	<b>37</b>

4.1.Iqtisodiy tahlilini tashkil etish.....	37
4.2.Iqtisodiy tahlilini ma'lumotlar bilan ta'minlashi.....	39
4.3.Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ma'lumot manbalarining to'g'riligini tekshirish usullari.....	39
4.4.Tahliliy hosoblar va tahlil natijalarini rasmiylashtirish.....	40
4.5.Korxonalarning faoliyatini tahlil qilishda qatnashadigan sub'yektlar.....	41
Qisqa xulosalar.....	42
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	42
Asosiy adabiyotlar.....	43
<b>V BOB. IQTISODIY TAHLILNING TURLARI VA ULARNI ISHLAB CHIQARISHNI BOSHQARISHDA TUTGAN O'RNI.....</b>	<b>44</b>
5.1.Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish turlarini turkumlash va ularnu boshqaruv funksiyalari.....	44
5.2.Xo`jalik faoliyatining joriy (retrospektiv) tahlili.....	46
5.3.Tezkor tahlil.....	47
5.4.Istiqlol tahlili.....	49
5.5.Moliya-iqtisodiy tahlil.....	49
5.6.Texnik-iqtisodiy tahlil.....	51
5.7.Taqqoslama (korxonalararo) tahlil.....	51
5.8.Funktsional - qiymat tahlili.....	52
Qisqa xulosalar.....	54
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	54
Asosiy adabiyotlar.....	54
<b>VI BOB. IQTISODIYOT SUBEKTALARINING MARKETING FAOLIYATINI TAHLILI.....</b>	<b>56</b>
6.1.Iqtisodiyot sub'yektlari mahsuloti hamda xizmatiga bo'lgan talab va taklifni o'rganishning ahamiyati va tahlilning vazifalari.....	56
6.2.Talab va taklifni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.....	58
6.3.Korxona mahsuloti va xizmatiga bo'lgan talab darajasini aniqlovchi omillar tahlili.....	59
6.4.Raqqobat darajasi ko'rsatkichlari va ularni aniqlovchi omillar tahlili.....	61
Qisqa xulosalar.....	64
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	64
Asosiy adabiyotlar.....	64
<b>VII BOB. IQTISODIYOT SUB'YEKTLARINING MAHSULOT (ISH, XIZMATLAR) ISHLAB CHIQARISH HAJMINI TAHLILI.....</b>	<b>65</b>

7.1.Mahsulotni ishlab chiqarish hajmini tahlil qilishning mazmuni, vazifalari va manbalari .....	65
7.2.Mahsulot ishlab chiqarish hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.....	66
7.3.Mahsulotni bir maromda (ritmda) ishlab chiqarishni tahlil qilish.....	69
7.4.Bruk natijasidagi yo'qotishlarni tahlili .....	71
7.5.Assortiment bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish biznes-rejasining bajarilishini tahlil qilish.....	72
7.6.Ishlab chiqarish dasturining bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillarni turkumlash.....	75
Qisqa xulosalar.....	76
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	76
Asosiy adabiyotlar.....	77
<b>VIII BOB. MAHSULOT (ISH, XIZMATLAR)NI SOTISH HAJMI VA ULARNING O'ZGARISHIGA TA'SIR ƏTUVCHI OMILLAR TAHLILI.....</b>	<b>78</b>
8.1.Mahsulot sotish hajmlarini tahlil qilishning mazmuni, vazifalari va manbalari.....	78
8.2.Tuzilgan shartnoma majburiyati asosida mahsulotni etkazib berish bo'yicha sotish rejasining bajarilishini tahlil qilish.....	79
8.3. Mahsulotni sotish bo'yicha biznes-rejaning bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish.....	81
8.4. Ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini tahlil qilish.....	84
Qisqa xulosalar.....	88
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	88
Asosiy adabiyotlar.....	88
<b>IX BOB. MEHNAT RESURSLARI BILAN TA'MINLANGANLIK, MEHNAT UNUMDORLIGI VA ULARNING MAHSULOT HAJMIGA TA'SIRINI TAHLILI.....</b>	<b>90</b>
9.1.Iqtisodiyot sub'yektlarining mehnat omillarini tahlil qilishning mohiyati, vazifalari va axborot manbalari.....	90
9.2.Korxonalarni ishchi kuchi bilan ta'minlanganligini tahlil qilish.....	92
9.3. Mehnat unumdorligi darajasini tahlil qilish.....	94
9.4. Ishchilarni ish vaqtidan foydalanishni tahlil qilish.....	100
9.5.Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiluvchi mehnat omillarini tahlil qilish.....	101

9.6.Mehnatga haq to'lash fondidan foydalanishni tahlil qilish.....	104
Qisqa xulosalar.....	107
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	107
Asosiy adabiyotlar.....	107
<b>X BOB. IQTISODIYOT SUB'YEKTLARINI MODDIY (MATERIAL) RESURSLAR BILAN TA'MINLANISHINI TAHLLILI.....</b>	<b>109</b>
10.1.Korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlanganligini tahlil etishning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari.....	109
10.2.Material sarfini kamaytirishning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.....	113
10.3.Korxonani moddiy-texnikaviy ta'minot bo'yicha biznes-rejansini bajarilishini tahlili.....	114
10.4.Korxonani material resurslar bilan ta'minlanganligini tahlil qilish.....	115
10.5. Ishlab chiqarishda materiallardan samarali foydalanishni tahlil qilish.....	117
Qisqa xulosalar.....	120
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	121
Asosiy adabiyotlar.....	121
<b>XI BOB. MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI TAHLLILI.....</b>	<b>122</b>
11.1. Mahsulot tannarxini pasaytirishning ahamiyati, uning mohiyati, tahlil vazifalari.....	122
11.2. Tovar mahsuloti uchun ketgan xarajatlarni tahlili.....	125
11.3.Xarajatlarning iqtisodiy elementi va kalkulyasiya moddalari bo'yicha tahlili.....	127
11.4.Mahsulot turlari bo'yicha tannarx va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili.....	130
Qisqa xulosalar.....	132
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	132
Asosiy adabiyotlar.....	133
<b>XII BOB. BALANS KO'RSATKICHLARI VA MOLIYAVIY HOLATINI TAHLLILI.....</b>	<b>134</b>
12.1. Korxonalar moliyaviy holati tahlilining mazmuni, vazifalari va axborot manbalari.....	134
12.2.Buxgalteriya balansi va uni tahlilda qo'llanilishi.....	137

12.3.Korxona mulkining tarkibi va tashkil tonish manbalarini tahlili.....	139
12.4.Korxona balansi likvidligi va to'lov qobiliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlili.....	144
12.5.Korxona kanitalini tarkibini tahlili.....	150
12.6.Korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlili.....	151
12.7.Korxonaning aylanma mablag'larining aylanishini tahlili.....	157
Qisqa xulosalar.....	165
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	165
Asosiy adabiyotlar.....	166
<b>XIII BOB. MOLIYAVIY NATIJALAR TO'G'RISIDAGI HISOBOT TAHLILI.....</b>	<b>167</b>
13.1.Moliyaviy natijalarni tahlil qilishning mazmuni, maqsadi, vazifalari va axborot manbalari.....	167
13.2. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo'llari.....	170
13.3.Korxonalarning yalpi foydasi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi .....	174
13.4.Asosiy ishlab chiqarish faoliyati omillarini tahlil qilidshdan olingan foyda (zarar) tahlili.....	176
13.5.Umumxo'jalik faoliyati va soliq to'lagunga qadar foyda (zarar) ning tahlili.....	180
13.6.Sof foyda va uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlili.....	186
Qisqa xulosalar.....	189
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	189
Asosiy adabiyotlar.....	190
<b>XIV BOB. RENTABELLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLILI.....</b>	<b>193</b>
14.1. Rentabellik ko'rsatkichlarni tahlil qilishning mazmuni, maqsadi va vazifalari.....	193
14.2.Rentabellik ko'rsatkichlari tizimi va ularni aniqlash usullari.....	195
14.3.Rentabellikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarning tahlili.....	198
Qisqa xulosalar.....	204
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	204
Asosiy adabiyotlar.....	205

<b>XV BOB. DEBITORLIK VA KREDITORLIK</b>	
<b>QARZLARINING TAHLLI.....</b>	<b>206</b>
15.1.Iqtisodiyot sub'yeqtlarini debtorlik va kreditorlik qarzlarini tahlil qilishning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari.....	206
15.2.Debitorlik va kreditorlik qarzlarini umumiylashtirish hajmini tahlili.....	209
15.3.Debitorlik qarzlarini tahlili. Debitorlik qarzlarini aylanuvchanligini tahlili.....	211
15.4.Kreditorlik qarzlarini tahlil qilish. Kreditorlik qarzlarini aylanuvchanligini tahlili.....	216
15.5. Bozor faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlarining tahlili.....	221
Qisqa xulosalar.....	225
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	225
Asosiy adabiyotlar.....	226
<b>XVI BOB. IQTISODIYOT SUB'YEKTLARINING ASOSIY VOSITA (FOND)LAR BILAN TA'MINLANGANLIGI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING TAHLLI .....</b>	<b>227</b>
16.1.Iqtisodiyot sub'ektlarini asosiy vositalar bilan ta'minlanganligini o'rganishning ahamiyati, mazmuni va vazifalari.....	227
16.2.Asosiy fondlarning tarkibi, tuzilishi va harakatinu tahlili.....	229
16.3. Asosiy fondlarning texnik holati va harakat ko'rsatkichlarinin tahlili.....	232
16.4.Asosiy fondlardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining tahlili.....	236
16.5. Ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan vaqt va quvvat bo'yicha foydalanishni tahlil qilish.....	239
Qisqa xulosalar.....	241
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	241
Asosiy adabiyotlar.....	241
<b>XVII BOB. PUL OQIMLARINING TAHLLI.....</b>	<b>243</b>
17.1.Pul mablag'lari harakatini tahlil qilishning maqsadi, vazifalari va axborot manbalari.....	243
17.2.Pul mablag'lari harakatini ifodalovchi ko'rsatkichlar.....	247
17.3.Asosiy va investisiya faoliyatidagi pul oqimlarining tahlili.....	250

17.4. Moliyaviy faoliyatdagi va soliq to'lashdagi pul mablag'lari harakatining tahlili.....	254
17.5. Valyuta mablag'lari harakatining tahlili.....	258
Qisqa xulosalar.....	260
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	261
Asosiy adabiyotlar.....	261
<b>XVIII BOB. XUSUSIY KAPITAL TAHLILI.....</b>	<b>262</b>
18.1. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarining xususiy kanitalini tahlil qilishning ahamiyatn, tahlil vazifalarn va axborot manbalari.....	262
18.2. Xususiy kapital tarkibi, o'zgarishi va dinamikasining tahlili.....	263
18.3. Xususiy kapitalni ko'paytirish omillarini aniqlash.....	263
Qisqa xulosalar.....	268
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	268
Asosiy adabiyotlar.....	268
<b>TEST SAVOLLARI.....</b>	<b>269</b>
<b>IZOHLI LUG'AT.....</b>	<b>267</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YNATI.....</b>	<b>294</b>
<b>MUNDARIJA.....</b>	<b>299</b>